493
O-17

M. ASQAROVA, R. YUNUSOV,
M. YO'LDOSHEV, D. MUHAMEDOVA

O'ZBEK TILI PRAKTIKUMI

"IQTISOD-MOLIYA"

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev,
D. Muhamedova

O‘ZBEK TILI PRAKTIKUMI

4401 C.
2
20
3

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2006

U U ZALI
Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti
AXBOROT-RESURS MARKAZI
Inv. № Y-1585/8

81.2Узб
O-99

«O‘zbek tili praktikumi» o‘quv qo‘llanmasi o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Qo‘llanma «O‘zbek tili praktikumi» kursining fonetika, leksikologiya, frazeologiya, morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya va sintaksis bo‘limlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, shu yo‘nalish dasturiga mos ravishda yozilgan.

Har bir bo‘lim tahlilida nazariy ma’lumotlar mumkin qadar kam va ixcham bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin berilgan.

Qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining 2004- yil, 28- oktabrdagi 3- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Taqrizchilar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi **H.Jamolxonov**
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti o‘zbek tili kafedrasining mudiri, dotsent **H.Muhiddinova**

M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev. D. Muhamedova
O‘zbek tili praktikumi: O‘quv qo‘llanma/M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev. D. Muhamedova; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti. - T.: «IQTISOD–MOLIYA», 2006 y. 304 bet.

ББК 81.2Узб7

ISBN 978-9943-13-002-9

© «IQTISOD–MOLIYA», 2006

FONETIKA

Tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganadigan bo'limi ***fonetika*** deyiladi. Fonetika (grekcha *phone* «tovush» demakdir) nutq tovushlarining paydo bo'lishini, ularning turlarini, tasnifini, nutq jarayonidagi turli o'zgarishlarni sistemali ravishda o'rganadi. Nutqiy jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lgan bo'g'in, urg'u, ohang kabi hodisalarni, shuningdek, adabiy tilning talaffuz me'yorlarini o'rganish ham fonetikaning vazifasiga kiradi.

Fonetikada nutq tovushlarining asosiy uch jihati o'rganiladi:

1. Akustik jihati.
2. Fiziologik-artikulyation jihati.
3. Nutq tovushlarining so'zni shakllantiruvchilik va ma'no ajratuvchilik jihati.

Fonetikaning akustik jihati

Bunda nutq tovushlari tebranma harakat natijasida hosil bo'ladigan tovush to'lqinlari asosida o'rganiladi. Akustik jihatdan tovush bir jismning boshqa jismga urilishi, siqilishi natijasida tebranishi va havo to'lqinining yuzaga kelishi hamda uning quloqqa eshitilishidir. Akustik jihat nutq tovushlarining tabiiy tovushlar bilan o'xshash tomonlari hisoblanadi.

Eshitilishi, ya'ni, akustik tomoniga ko'ra tovushning bir qancha belgilari farqlanadi:

1. Tovush kuchi.
2. Tovush balandligi.
3. Tovush tembri.
4. Tovush cho'ziqligi.

Tovush kuchi yoki **intensivligi** tebranishning shiddatiga bog'liq bo'ladi. Tovush to'lqinining balandlik va kenglik ko'lami, ya'ni amplitudasi asosida tovush kuchi (intensivligi) belgilanadi. Tovush kuchi (intensivligi) detsibel bilan o'lchanadi. Detsibel miqdori oshib borgan sari tovush kuchi ortib boradi. Tovush kuchi 130 detsibeldan oshib ketsa quloqqa kuchli zarb bilan uriladi va og'riq beradi.

Nutqda tovushning kuchi urg'u bilan bog'liq bo'ladi. Chunki urg'uni yuzaga keltirishda o'pkadan havo kuchli zarb bilan keladi. Shunga ko'ra urg'u tushgan tovush kuchli, urg'u tushmagan tovush esa kuchsiz tovush hisoblanadi.

Tovushning balandligi deb tovushning tebranish miqdoriga bog'liq

belgisiga aytiladi. Bir xil vaqt birligida un paychalarining tebranish miqdori qanchalik ko‘p bo‘lsa, tovush shunchalik baland bo‘ladi, aksincha, tebranish miqdori qanchalik oz bo‘lsa tovush shunchalik past bo‘ladi. Tovush balandligining o‘lchov birligi gers (Gs) deb ataladi.

Fizik akustikada eng baland tovushlar ultratovush, eng past tovushlar esa infratovush deb yuritiladi.

Tovush tembri deb tovushning asosiy ton hamda yordamchi ton – obertonlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan o‘ziga xos ohangdorligi yoki bo‘yoqdorligiga aytiladi. Nutq tovushlarining tembri, asosan, unli tovushlarga xos sifatiy belgidir. Asosiy ton tovush paychalarining tebranishidan yuzaga kelsa, obertonlarning yuzaga kelishida og‘iz bo‘shlig‘i, burun bo‘shlig‘i asosiy rezonatorlik vazifasini bajaradi. Ular yordamida aks sadolanish, ohangdorlik yuzaga keladi. Unli tovushlar bir-biridan tembriga ko‘ra farqlanadi.

Tovush cho‘ziqligi deb tovush tebranishining davomiyligi asosida yuzaga keladigan miqdoriy belgiga aytiladi. Tovush cho‘ziqligi ikkiga bo‘linadi:

1. Ma’no ajratish uchun xizmat qiladigan cho‘ziqlik;
2. Ma’no ajratish uchun xizmat qilmaydigan cho‘ziqlik;

O‘zbek tilida deyarli ma’no ajratish uchun xizmat qiladigan cho‘ziqlik yo‘q. Bu boshqa turkiy tillarda uchraydi. Masalan, turkman tilida tovushning cho‘ziqligi ma’noni farqlashga xizmat qiladi: *a:t (nom, ism)* va *at (yilqi), a:ch (qorni och)* va *ach (eshikni och), ba:r (menda bor)* va *bar (ishga bor)* kabi.

Ma’noni ajratish uchun hizmat qilmaydigan cho‘ziqlik o‘zbek tilida uchraydi. Masalan, *imon-iymon, imom-iymom, Navoi-Navoiy* kabi. Bunda ***i*** tovushini cho‘ziq talaffuz qilish natijasida ***y*** undoshi orttiriladi.

Ba’zan nutqda turli uslubiy maqsadlarga ko‘ra unlilar, shuningdek ayrim o‘rinlarda sonor tovushlar cho‘zib talaffuz qilinadi. Masalan, 1. ... Nazir ota, oyoqning chigilini bi-ir yozmaysizmi? (M. Muhammaddo‘st) **2.** Bu uzu-un ham baland imoratni uzoqdan ko‘rganimdayoq ich-etimdan xo‘rlikmi, nimadir bosib kelaveradi, kelaveradi. 3. *bo:rey ishingni qil; ji:m, jim bo‘l; nim:a, bormaysanmi?* kabi.

1- mashq. Berilgan so‘zlarning urg‘ularini belgilab chiqing. Shu asosda o‘qing va tovushlarning baland-pastligi, kuchi, cho‘ziqligi kabi akustik belgilarini aniqlang va izohlang.

Avval, adabiy, badiiy, adash, azamat, biron, biyron, birlik, biqin, boqiy, burg‘u, buyuk, ventilyator, veterinariya, zirak, ziyrak, dini, diniy, she’ri, she’riy, piyoz, piyoda, tana, ta’na, davo, da’vo.

Fonetikaning fiziologik-artikulyatsion jihati

Nutq tovushlari insonga xos tovushlar bo'lib, insonning nutqiy a'zolarida yuzaga keladi. U o'zining fiziologik-artikulyatsion asoslariga ega.

Nutq a'zolari bir qancha apparatlarga birlashadi:

1. ***Nafas apparati.*** Bunga o'pka, bir juft bronxlar, traxeya, diafragma kiradi. O'pka nutq tovushlarining talaffuzida zarur bo'lgan havo oqimining manbayidir.

2. ***Bo'g'iz bo'shlig'i.*** Bunga halqasimon, piramidasimon, qalqon-simon tog'aylar va un paychalari kiradi. Bo'g'iz un (ovoz) manbayidir.

3. **Og'iz bo'shlig'i**. Bunga til, tanglay, kichik til, lab, tishlar kiradi. Og'iz bo'shlig'i shovqin manbayidir.

4. **Burun bo'shlig'i** qo'shimcha ton manbayidir. Nutq tovushlarining yuzaga kelishida rezonatorlik vazifasini bajaradi.

Nutq tovushlarining fiziologik (talaffuz) jihati nutq a'zolarining faoliyati bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Nutq tovushlarining hosil bo'lishi paytidagi nutq a'zolarining harakati va holati **artikulyatsiya** deyiladi. Shu jihatdan nutq tovushlarining yuzaga kelishidagi 2 muhim hodisa farqlanadi: artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli.

Nutq tovushlarining hosil bo'lishida qatnashgan nutq organining o'pkadan kelayotgan havo oqimi kelib urilgan, to'siq yuzaga kelgan qismi ***artikulyatsiya o'rni*** sanaladi. Masalan, ***b, p, m, v*** *(qovun)* undoshlari hosil bo'lishida ikki lab faol qatnashganligi uchun artikulyatsiya o'rniga ko'ra lab-lab undoshlari; ***f, v*** *(zavod)* undoshlarining hosil bo'lishida esa to'siq pastki lab bilan yuqori tishlar orasida bo'lganligi uchun shu tovushlar lab-tish undoshlari deb yuritiladi.

Nutq tovushining hosil bo'lishida o'pkadan kelayotgan havoning qay darajada o'tishi ***artikulyatsiya usuli*** deyiladi. Masalan, ***b, p*** undoshlari ikki lab orasidagi to'siqdan zarb bilan portlab chiqqanligi uchun portlovchi; ***s, z*** undoshlari lab bilan tish orasidagi to'siqdan sirg'alib chiqqanligi uchun sirg'aluvchi undoshlar hisoblanadi.

Nutq tovushlarining so'zni shakllantiruvchilik va ma'no ajratuvchilik jihati

Bunda nutq tovushlari tildagi vazifasiga ko'ra o'rganiladi va ijtimoiy hodisa sifatida qiymatga ega bo'ladi. Fonetikaning bu asosiy tomoni tilshunoslikda **fonologiya** deb yuritiladi.

Tovush va fonema. Bu ikki hodisa tilshunoslikda o'zaro farqlanadi. ***Tovush*** deb nutq a'zolarining artikulyatsiyasi bilan hosil bo'luvchi eng kichik nutq birligiga aytiladi. ***Fonema*** deb so'z va uning ma'noli qismlarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajaradigan eng kichik til birligiga aytiladi. Fonema bir qancha tovushlarning birligidan yuzaga keladi. Masalan, *bilak, bilan, ziyrak, qishloq* so'zlarining birinchi bo'g'inidagi ***i*** eshitilishiga ko'ra turlicha bo'lsa ham bitta fonema sanaladi. Bu so'zlarning shakllanishida i fonema sifatida ahamiyatlidir. Shu jihatdan qaralganda, **bosh** so'zining tarkibida 3 ta fonema mavjud, ya'ni ***b, o, sh*** fonemalari. Ular shu so'zni moddiy jihatdan shakllantirgan; *besh* so'zini esa moddiy jihatdan ***b, e, sh*** fonemalari shakllantirgan. Moddiy jihatdan fonemalar tizimining o'zgarishi yangi ma'noli so'zni yuzaga keltirgan. Fonemalar tizimi o'zgarib borgan sari ma'no o'zgarib boradi. Ma'noni farqlashda fonema asos bo'lib qoladi. Ma'noni ajratishda fonemalarning muayyan tartibi ham muhim sanaladi. Masalan, ***k, e, ch*** fonemalarining *kech, chek* kabi tartibi 2 ta boshqa-boshqa ma'nolarni bildiradi; *echk, kche* kabi tartibi esa ma'no bildirmaydi, shunga ko'ra tilda qo'llanmaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida fonemalar 31 ta. Ular akustik, fiziologik-artikulyatsion hamda tildagi vazifasiga ko'ra dastlab 2 turga bo'linadi:

1. Unli fonemalar.
2. Undosh fonemalar.

Unli va undosh fonemalar o'zaro quyidagicha farqlanadi;

1. Akustik jihatdan unlilar faqat ovozdangina iborat bo'ladi, undoshlar esa shovqindan yoki shovqin bilan ovozning qo'shilishidan iborat bo'ladi.

2. Fiziologik-artikulyatsion jihatdan unlilarni hosil qilishda o'pkadan kelayotgan havo oqimi nutq organlarida to'siqqa uchramay chiqadi, un (ovoz), tovush paychalarining tebranishidan hosil bo'ladi. Undoshlarni hosil qilishda esa havo oqimi og'iz bo'shlig'ida turli to'siqqa uchrab, shu to'siqdan portlab yoki sirg'alib chiqadi. Undoshlarni hosil qilishda un paychalari tebranishi ham tebranmasligi ham mumkin.

3. Vazifasiga ko'ra ham unli va undosh fonemalar o'zaro farqlanadi:

1. Unlilar bo'g'in hosil qiluvchi asosiy tovush hisoblanadi. Undoshlar o'zicha bo'g'in hosil qila olmaydi. Og'zaki nutqda bo'g'in hosil qila oluvchi ba'zi sonorlar bundan mustasno.

2. Unlilarning yolg'iz o'zi so'z bo'lib kela oladi: u olmosh turkumiga oid so'z; **a**? so'roq yuklamasi kabi. Undoshlar esa bunday hususiyatga ega emas.

3. Unlilarning og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramay chiqishi, uni istagancha cho'ziq talaffuz qilish imkonini beradi. Natijada, u uslubiy

maqsadlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bunday imkoniyat undoshlarda yo'q.

2- mashq. Matndan foydalanib tovush va fonemalarning farqini tushuntiring. Ularning yozilishiga e'tibor bering.

Navoiy o'rnidan turdi. Yuragida shodlik dengizi chayqalardi: - ona tilining g'alabasi uning g'alabasi, uning suygan xalqining, tarixining g'alabasi edi. Shoir shamni o'chirdi. xassani qo'lga olib, yotoq uyga kirmoq uchun uvushgan oyoqlari bilan asta-asta yurib, tashqari chiqdi. Salqin toza havo yuzlariga yoqimli urdi. Cheksizlikda muazzam ohang bilan oqqan yulduzlarning nafasi, bog'chadagi daraxtlarning shitirlashi, yarim kechada ip yigirgan jafokash kampir charxining «g'u-g'uvi», uzoqda karvon tevalari qo'ng'irog'ining vazmin ohangi – barchasi shoirning ko'ngliga bir xilda yaqin, tanish, ma'nodor tuyular, barchasini u chuqur sevar edi... (Oybek,).

3- mashq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang va ma'noni farqlash uchun xizmat qilgan fonemalarni aniqlang.

Tulki falsafasi

-Ustoz, - dedi bir kun tulki **tulkiga**,
Nechun biz nishonmiz doim **kulkiga**?
O'rmonda bo'ri ham, hatto janob **sher**,
Bir-birin turtishib: Tulkisan-a, **der**!
Boshqalar ustidan kulmaslar **nechun**,
Bu hol qorong'udir biz yoshlar **uchun**.
-Uka, - dedi shunda tulkiga **tulki**,
Bunday hodisaning sababi **shulki**,
Kasbini eplolmay qolsa **aksari**,
Tulkilik qiladi hayvonlar **bari**.
Ko'pincha ilojsiz qolgan fursatda
Tulkilik qiladi sher ham, albatta!
Lekin bizning ishni eplolmas **ular**,
Shu sabab o'rmonda masxara **bo'lar**.
Sen-chi, bunday holdan aslo **o'kinma**,
Boshqalar singari chetga **bekinma**.
Tulkisan, bunday chog' tulkilik **qilgin**,
Tulki deb kulsalar, qo'shilib **kulgin**...

(A.Oripov)

4- mashq. Bitta fonemasiga ko'ra farq qiladigan so'zlar qatorini aniqlang va qatorni o'zingiz ham davom ettiring.

Ko'z, pona, fin, tong, to'ra, tolmoq, botmoq, ber, bayt, bo'z, sotmoq, xona, tin, bong, solmoq, so'ra, so'z, ko'ra, to'lmoq, jo'ra, shira, sora, so'na, totmoq, to'z, ter, qo'ra, din, to'n, qir, sir, siz, kun, poda, shona, qiz, xoda, ko'l, chiz, bo'y, tez, cho'z, tur, sher, bormoq, sochmoq, qotmoq, chin, dong, sin, tonmoq, so'ri, xo'ra, qin, xola, g'o'ra, qayt, shoda, qara, ko'r, tiz, to'r, tor, shar, qolmoq, payt.

Unli fonemalar tasnifi

Hozirgi o'zbek adabiy tilida unli fonemalar 6 ta. Ular quyidagilar: i, e, a, o, u, o'.

Unli fonemalar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Tilning oldinga va orqaga tomon harakati, ya'ni tilning gorizontal harakatiga ko'ra. Bunga ko'ra unlilar 2 ga bo'linadi:

1) til oldi unlilari: ***i, e, a;***

2) til orqa unlilari: ***u, o', o.***

Til oldi unlilari old qator unlilar deb ham yuritiladi. Ularni hosil qilishda til tishlarga tiraladi. Til orqa unlilari orqa qator unlilar deb ham yuritiladi. Ularni hosil qilishda til bir oz orqaga tortiladi.

2. Tilning yuqoriga, tanglay tomon ko'tarilish darajasi, ya'ni tilning vertikal harakatiga ko'ra. Bunga ko'ra unlilar 3 ga bo'linadi:

1) yuqori (tor) unlilar: ***i, u;***

2) o'rta (o'rta keng) unlilar: ***e, o';***

3) quyi (keng) unlilar: ***a, o.***

Yuqori (tor) unlilarni hosil qilishda til yuqoriga ko'tariladi, havo yo'li esa ancha torayadi; o'rta (o'rta keng) unlilarni hosil qilishda til bilan tanglay oralig'i o'rtacha bo'ladi; quyi (keng) unlilarni hosil qilishda esa til bilan tanglay oralig'i ancha keng bo'ladi.

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra. Bunga ko'ra unlilar 2 ga bo'linadi:

1) lablangan unlilar: ***u, o', o;***

2) lablanmagan unlilar: ***i, e, a.***

Lablangan unlilarni aytilishida lablar doira shakliga kirib, bir oz oldinga cho'ziladi. Lablanmagan unlilarning aytilishida lablar oldinga cho'zilmaydi.

Unli fonemalar tasnifi jadvali

Tilning vertikal harakatiga ko‘ra	Tilning gorizontal harakati va lablarning ishtirokiga ko‘ra	
	Old qator Lablanmagan	Orqa qator lablangan
Yuqori (tor) unlilar	i	u
O‘rta(o‘rta keng) unlilar	e	o‘
Quyi (keng) unlilar	a	o

Unli fonemalar tavsifi

***I* unlisi** – til oldi, lablanmagan, tor unli. So‘zning tarkibida o‘rniga qarab old qator hamda orqa qator variantlarda kela oladi.

I fonemasi asosan old qator unli bo‘lib, ingichka talaffuz qilinadi: *ilm, ish, idish, dil, tish, kitob, bino* kabi. Chuqur til orqa ***q, g‘, x*** undoshlari bilan kelganda orqa qator unli bo‘lib yo‘g‘on talaffuz qilinadi: *qishloq, qizil, qirg‘oq, g‘isht, xizmat, xirmon* kabi.

***U* unlisi** – til orqa, lablangan, tor unli. Til oldi va sayoz til orqa undoshlari bilan kelganda old qator unli, chuqur til orqa undoshlari bilan kelganda esa orqa qator unli sifatida talaffuz qilinadi: *dugona, dumaloq, tut, tushlik, kul, kun, tugun; quloq, qurol, xum, xurmo, g‘ubor, g‘ujum* kabi.

***E* fonemasi** – til oldi, lablanmagan, o‘rta keng unli. So‘z boshida va ochiq bo‘g‘inlarda kelsa, ochiqroq talaffuz qilinadi: egat, ekin, elak, erak, bepoyon, meros, metin, me’mor kabi. Bir bo‘g‘in tarkibidagi ikki undosh orasida kelganda bir oz yopiqroq talaffuz qilinadi: *men, sen, zehn, kelmoq, sevmoq, sezgi, tergov, termilmoq* kabi. Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarda keng talaffuz qilinadi: *poema, aeroport, general, ekskursiya, etud* kabi.

***O* unlisi** – til orqa, lablangan, o‘rta keng unli. Asosan, so‘zning birinchi bo‘g‘inida keladi: *bo‘yin, bo‘ron, go‘zal, go‘sht, do‘lana, to‘xtapoya, yo‘rgak, ko‘mir, xo‘roz* kabi. O‘rniga qarab qattiq yoki yumshoq talaffuz qilinadi: *g, k, y, ch* undoshlaridan keyin kelsa old qator unli sifatida yumshoq talaffuz qilinadi: *go‘dak, go‘yoki, ko‘mak, ko‘rik, yo‘lka, yo‘rgak, cho‘ziq, cho‘mich kabi; chuqur til orqa g‘, q, x*

undoshlaridan oldin yoki keyin kelganda orqa qator unli sifatida qattiq talaffuz qilinadi: *g'o'zapoya, g'o'ra, qo'zichoq, qo'qongul, qo'g'irchoq, xo'ra, xo'rsinmoq* kabi.

So'zning ochiq bo'g'inida kelganda ***o'*** unlisi kengroq, yopiq bo'g'inida kelganda esa torroq talaffuz qilinadi.

Qiyoslang: *ko'za, ro'za, so'roq, yo'lak; ko'klam, ko'pchilik, so'rg'ich, to'kmoq, xo'rlik* kabi.

***A* unlisi** – til oldi, lablanmagan, keng unli. Chuqur til orqa *g', q, x* undoshlari bilan kelganda orqa qator, yo'g'on unli sifatida: g'ayrat, g'altak, qadr, chaqaloq, vaqt, baquvvat, paxta, xalq, xayol, xamir kabi; sayoz til orqa undoshlari bilan kelganda *sayoz til orqa unli sifatida talaffuz qilinadi: kabob, kaklik, gavhar, gazeta, dangal, zanglamoq, jaranglamoq* kabi. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda ham orqa qator unli sifatida talaffuz qilinadi: *akademiya, apelsin, arxeolog, papka* kabi.

***O* unlisi** – til orqa, lablangan, keng unli: *ona, bahor, bobo, bola, ovoz, asbob* kabi; *k, g, y, h* undoshlari bilan kelganda old qator unli sifatida ingichka talaffuz qilinadi: *koptok, kon, gohida, guvoh, yoz (yoz), yomg'ir, hovli, hozir* kabi; chuqur til orqa *q, g', x* undoshlari bilan kelganda esa orqa qator unli sifatida yo'g'on talaffuz qilinadi: *qog'oz, qoqilmoq, g'or, g'oyib, xola, xomush* kabi.

5- mashq. So'zlar tarkibidagi unli fonemalarni unlilarning tasnifi asosidagi quyida berilgan sxemaga joylang.

Xalqqa ayting: men aslo o'lganim yo'q,
Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q:
Men elimning yuragida yashayman.
Erk deganning tilagida yashayman!

(H. Olimjon)

Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra			Lablarning ishtirokiga ko'ra	
Old qator	Orqa qator	Yuqori (tor)	O'rta (o'rta keng)	qo'yi (keng)	Lab-langan	Lab-lanmagan

6- mashq. Nuqtalar o'rniga unli fonemalarni qo'yib so'zlar hosil qiling va ma'nolarini izohlang.

B...l, b...z, b...r, b...t, b...y, d...l, d...r, d...b, d...n, d...ng, j...l, j...r, j...m, j...z, z...l, z...ch, y...l, y...q, t...l, t...r, t...z, f...l, f...n, x...l, x...n, ch...l, ch...p, ch...k, ch...y, l...y, m...y, p...y, s...y, t...y, h...y, q...r, q...p, g'...r, h...r.

7- mashq. Quyida berilgan juftliklardagi ***a*** fonemasining talaffuziga e'tibor bering va so'zlarning ma'nolarini izohlang.

Alam-a'lam, ayon-a'yon, davo-da'vo, nasha-nash'a, sanat-san'at, surat-sur'at, tana-ta'na, tarif-ta'rif, taqib,-ta'qib, sher-she'r, sava-sa'va, qala-qal'a.

8- mashq. Matndagi unli fonemalarni tavsiflab bering.
Namuna: a-til oldi, lablanmagan, keng unli.

Rost gapga o'rgansang, yolg'on topilmas,
qiyinga ko'niksang, oson topilmas.
Zahmatkash va haqgo'y bo'lolsang, seni
Yomon degani bir yomon topilmas.
(Ramz Bobojon)

Undosh fonemalar tasnifi

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh fonemalar 25 ta. Ular quyidagilar: *b, v, g, d, z, j, dj, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ts, ch, sh, q, g', h, ng.* Rus tilidan o'zlashgan vulkanizatsiya, glitserin, dislokatsiya, konstitutsiya kabi so'zlar tarkibida kelgan ts undoshi ham o'zbek tilining undoshlari sirasiga kiritib kelinmoqda.

Undosh fonemalar quyidagicha tasnif qilinadi:
1. Artikulatsiya (hosil bo'lish) o'rniga ko'ra.
2. Artikulatsiya (hosil bo'lish) usuliga ko'ra.
3. Un paychalarining ishtirokiga ko'ra.
4. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.

Artikulatsiya o'rniga ko'ra undosh fonemalar quyidagi turlarga bo'linadi:
1. ***Lab undoshlari***:
1) lab-lab undoshlari: ***b, p, m, v[0];***

2) lab-tish undoshlari: ***f, v***

2. *Til undoshlari:*

1) til oldi undoshlari: ***d, t, z, s, sh, j, dj, ch, n, l, r, ts***.

2) til o'rta undoshi: ***y***;

3) til orqa undoshlari: a) sayoz til orqa undoshlari: ***g, k, ng;*** b) chuqur til orqa undoshlari: ***q, g', x***

3. *Bo'g'iz undoshi: h.*

Artikulatsiya usuliga ko'ra undosh fonemalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Portlovchi undoshlar: ***b, g, d, k, p, t.***
2. Qorishiq portlovchilar: ***ch, dj, ts.***
3. Sirg'aluvchi undoshlar: ***v, j, z, y, l, s, f, x, sh, g', h.***
4. Portlovchi-sirg'aluvchilar (burun tovushlari): ***m, n, ng.***
5. Titroq tovush: ***r.***

Un paychalarining ishtirokiga ko'ra undoshlar 2 xil: jarangli undoshlar va jarangsiz undoshlar. O'zbek tilida jarangli undoshlarning ko'pi jarangsiz juftlariga ega.

Jarangli undoshlar	b	v	g	d	j	dj	z	y	l	m	n	ng	r	g'	-	-
Jarangsiz undoshlar	p	f	k	t	sh	ch	s	-	-	-	-	-	-	x	ts	q

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh fonemalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sonorlar: ***n, m, ng, l, r, y.***
2. Shovqinlilar: b, ***v, g, d, j, dj, z, k, p, s, t, f, x, ts, ch, sh, q, g', h.***

9- mashq. She'riy parchada qatnashgan undosh fonemalarni paydo bo'lish o'rniga ko'ra tasnif qilib sxemada ifodalang.

Mehnat bilan zar bo'ldi tuprog'im mening,
Bo'lmas xazon bu yashnagan bog'im mening.
Ketdi dildan eski qayg'u dog'im mening,
Past bo'lmagay baxtim, buyuk tog'im mening.

Ozod elim, ozod vatan, dorilomon,
Bo'ldi ajab saodatli yangi zamon.
O'z erkida ishlaydi hur xalqim omon,
G'ayrat bilan bog'landi belbog'im mening.

(Habibiy)

Lab undoshlari	Lab-lab	
	Lab-tish	
Til undoshlari	Til oldi	
	Til o‘rta	
	Sayoz til orqa	
	Chuqur til orqa	
Bo‘g‘iz undoshi		

10- mashq. She’rda qatnashgan undosh fonemalarni paydo bo‘lish usuliga ko‘ra tasnif qilib sxemada ifodalang.

Har yurakning bir bahori bor,
Har bir qalbga ishq bo‘lar mehmon.
Har yurakda gullar muhabbat,
Bo‘ston etar uni begumon.

Lekin Layli boshiga kelgan,
Qora kunlar bizga yot bugun;
Bizga yotdir Shirin baxtini,
Poymol etgan u qop-qora tun.

(H. Olimjon)

Portlovchi	
Qorishiq portlovchi	
Sirg‘aluvchi	
Burun tovushlar	
Titroq tovush	

11- mashq. She’rda qatnashgan undosh fonemalarni un paychalarining ishtirokiga ko‘ra tasnif qilib sxemada ifodalang.

Ko‘kda yulduz uchsa nogahon
Bitdi derlar qaysi bir taqdir.
Bunday g‘amni ko‘tarmak oson,
Bu ehtimol bizlar haqdadir.

Ba’zi tunlar ko‘kka tikib ko‘z
Eslab deyman onamni shu on:

Ona ketsa, yulduz-ku, yulduz,
Qulab tushsa arziydi osmon.
(A. Oripov)

Jarangli	
Jarangsiz	

12- mashq. She'rda qatnashgan undosh fonemalarni ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra tasnif qilib sxemada ifodalang.

Cho'qqiga intilsang, tarmashgil toqqa,
Toshning tig'lariga bardosh ber oldin.
Ko'kkamas, oyog'ing turgan tuproqqa
Nazar sol va so'ngra tashlagil odim.

Cho'qqi juda baland, sanoqli yo'l bor:
Olis, mashaqqatli, tik, o'nqir-cho'nqir.
O'zni sinab ko'rib takror va takror,
Komil ishonch bilan cho'qqi sari yur.
(Ramz Bobojon)

Sonorlar	
Shovqinlilar	

13- mashq. Matnni o'qing. Unli va undosh fonemalarni fonetik tahlil qiling.

Chorshanba kuni ertalab Turg'un ikkovimiz maslahatlashib, men onasi oldiga kiraman.

- O'rtog'im bozorga borsin men bilan, xola! Ruxsat bering, bozor-o'char qilamiz. Turg'un epchil, birpasda xaridor topadi, jiyaklarni darrov sotib qaytamiz, - deb yalinaman.

- Doim meni aldab-suldab boshlab ketasan. Bugun bolalarga qarasin, kirlarim bor edi, suv tashisin, o'tin yorsin, - deydi onasi to'ng'illab.

- Hash-pash deguncha yetib kelamiz, - deyman Turg'unga ko'zimni qisib.

Men oyim tikkan jiyaklarni ko'tarib Eski Jo'vadagi bozor rastalarida kezib yuribman. Ayyor va shum Turg'un ham yonimda. (Oybek)

14- mashq. Tarkibi unli va faqat jarangli undoshlardangina hosil bo'lgan so'zlarni ajratib yozing.

Maydon, dor, gul, arzon, ariza, armiya, bayram, barometr, volida, vodiy, yengil, yetmish, jigarband, jiringlamoq, ig'vogar, yilqichilik, maktab, sabab, tovush, karnaygul, majnuntol, maymunjon, g'arbiy.

Undosh tovushlar klassifikatsiyasi

Artikulatsiya o'rniga ko'ra		Lab undoshlari				Til undoshlari								Bo'g'iz undoshi
		Lab-lab		Lab-tish		Til oldi		Til o'rta		Sayoz til orqa		Chuqur til orqa		
Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra	Un paychalari ishtirokiga ko'ra / Artikulatsiya usuliga ko'ra	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangsiz
Shovqinli undoshlar	Portlovchilar	b	p			d	t			g	k		q	
	Qorishiq portlovchilar					j	ts,ch							
	Sirg'aluvchilar	v[0]		v	f	z,j	sh,s					q	x	h
Sonorlilar	Portlovchi-sirg'aluvchilar (burun tovushlari).	m				n				ng				
	Sirg'aluvchilar					l		y						
	Titroq tovush					r								

So'z tarkibidagi tovush o'zgarishlari

So'z tarkibidagi turli o'zgarishlar, asosan, tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ro'y beradi. Shuningdek, tovushlar so'zning bosh qismida

yoki oxirida, urg'uli bo'g'inida yoki urg'usiz bo'g'inida kelishiga ko'ra ham turli o'zgarishlarga uchraydi. Bunday o'zgarishlar kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlari deyiladi. Tovush o'zgarishlarining quyidagi turlari mavjud:

1. ***Assimilatsiya*** so'z tarkibida yonma-yon kelgan tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida o'zaro moslashuvidir. Assimilatsiyaning 2 turi mavjud: 1) ***progressiv assimilatsiya***. Bunda so'z tarkibidagi oldingi tovush keyingi t o ˇ *oldan> ottan, ketdi> kетti, yurak+ga>yurakka, qishloq+ga>qishloqqa* kabi; 2) r***egressiv assimilatsiya***. Bunda so'z tarkibida keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslab oladi: *birla> billa, tuzsiz> tussiz, atlas> allas* kabi. Assimilatsiyaning yana to'liq va to'liqsiz turlari mavjud. To'liq assimilatsiyada tovushlar bir-biriga aynan o'xshash bo'lib qoladi: *terakga> terakka, tuzsin> tussin* kabi. To'liqsiz assimilatsiyada tovushlar bir-biriga qisman moslashadi: *oqshom> oxshom, shanba> shamba* kabi.

2. ***Dissimilatsiya*** so'z tarkibida kelgan o'xshash yoki qisman o'xshash tovushlarning noo'xshash bo'lib qolishidir. Dissimilatsiyaning ham 2 turi mavjud: 1) ***progressiv dissimilatsiya***. Bunda ikkita o'xshash tovushning keyingisi noo'xshash bo'lib qoladi: *birorta> bironta, zarar> zaral* kabi; 2) r***egressiv dissimilatsiya***. Bunda ikkita o'xshash tovushning oldingisi noo'xshash bo'lib qoladi: *uchta> ushta, maqtanmoq> maxtanmoq* kabi.

3. ***Metateza*** so'z tarkibida kelgan ikki undoshning o'rin almashuvidir: ahvol> avhol, tuproq> turpoq, hiringlamoq> hingirlamoq kabi.

4. ***Tovush almashishi.*** So'zga qo'shimcha qo'shilishi bilan uning tarkibida kelgan unli tovushning ham undosh tovushning ham almashishi uchraydi:

1) unlilarning almashishi: ***o-a:*** son-sana, ong-angla, ot-atamoq; ***a-o***: *tara-taroq, sayla-saylov, qayna-qaynoq;* ***i-u:*** *quri-quruq, sovi-sovuq, o'qi-o'quv;*

2) undoshlarning almashishi: ***q-g':*** o'roq-o'rog'i, qishloq-qishlog'i, bo'taloq-bo'talog'i; ***k-g***: yurak-yuragi, ellik-elliginchi, bilak-bilagim; ***g-k:*** *barg-barkka, tug-tukkan, eg-ekkan;* ***g'-q***: *bog'-boqqa, tog'-toqqa, yig'-yiqqan* kabi.

5. ***Tovush tushishi.*** So'zga turli qo'shimchalar qo'shilishi natijasida uning tarkibidagi biror unli yoki undosh tovushning tushib qolishi bilan bog'liq o'zgarish sodir bo'ladi:

1) unlilarning tushishi: ***i*** tushadi: *og'iz-og'zi, bag'ir-bag'ri;* ***a*** *tushadi: zahar-zahri, shahar-shahri;* ***u*** tushadi: *burun-burni;*

2) undoshlarning tushishi: ***n*** tushadi: *men-mening, sen-sening;* ***r*** tushadi: *qars-qurs — qasir-qusir;* ***t*** *tushadi: past-pasay, sust-susay.*

6. ***Tovush orttirilishi.*** Bu hodisa asosan o'zlashma so'zlarning talaffuzida uchraydi: *rus-o'ris, shkaf-ishkof, stakan-istakon, traktor-tiraktor, otpusk-otpuska, kiosk-kioska* kabi.

15- mashq. Quyida berilgan so'zlarning shakllanishida qanday tovush o'zgarishlari sodir bo'lganligini aniqlang.

Ayrim, bo'yni, buyrug'i, kuragi, ata, bilagi, o'g'li, sarg'aymoq, qaynoq, o'rnatmoq, chanqoqni, susaymoq, chanqog'i, o'yna, sening, mening, yamoq, yig'loq, maqtov, etigi, saylov, qishloq, uchala, ikkala, shahri, bo'yoq, yiqqan, o'quv, yasha, yashna, o'lchov, pasaymoq, boqqa, tekkan, sochig'i, sovuq.

16- mashq. Quyidagi so'zlarning talaffuzida qanday tovush o'zgarishlari sodir bo'lganligini aniqlang. So'zlarning yozilishi va talaffuzini qiyoslang.

Uchta>ushta, uch so'm>usso'm, besh so'm>besso'm, yuzsiz> yussiz, quchdi> qushdi, etdi>etti, ishsiz>issiz, oshni>oshshi, ishni>ishshi, yuzni>yuzzi, qorni>qorri, o'tda>o'tta, past>pas, go'sht>go'sh, xursand>xursan, Samarqand>Samarqan, dard>dart, baland>balant, band>bant, bo'lsa>bo'sa, kelsa>kesa, bo'lgan>bo'gan, kelgan>kegan, qolgan>qogan, maqtov>maxtov, taqsimot>taxsimot, maqsad>maxsad, shanba>shamba, shaftoli>shaptoli, maqbara>maxbara, taqsir>taxsir, tanbur>tambur, sunbul>sumbul, tuproq>turpoq.

17- mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni fonetik tahlil qiling.

1. Mana endi Komil katta yo'lda. Inobatning saman yo'rg'asini yeldirib **borarkan**, Barnoning qarashi **yuragini** bir g'amgin hislarga to'ldirar, bir xayolida alamli o'ylar qo'zg'ardi. (O. Yoqubov), 2. – **Qoldiradiganim sizgayam, bolalargayam** yetib-ortadi, xonim. (M.Muhammad Do'st), 3. Ertadan **qishloqdagi** qimirlagan jon borki dalaga chiqishi kerak ekan. Siz **bilan mening o'rnimgayam** Kenja chiqib turmasa bo'lmas... (H. Nazir), 4. Yig'i tamom bo'lgandan keyin, bir-birlarini **anglashib** surishtira boshladilar. (T. Fulom), 5. – O'zingizni tanitsangiz ehtimol **biron qarindoshingiz** chiqib qolar edi. (A. Qahhor), 6. Fozil **tashqi eshikka** ham qulf solmay Hojiya **xolanikiga** jo'nadi. (V.G'ofurov).

Bo'g'in va uning turlari

Nutq jarayonida bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig'indisi bo'g'in deyiladi. Bo'g'in hosil bo'lishida unli tovushning ahamiyati katta. So'zning tarkibida nechta unli bo'lsa u shuncha bo'g'inga ajraladi. Unli tovushsiz bo'g'in tuzilmaydi. Bitta unli tovush ham bo'g'in hosil

AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI
inv. № U-1585/8

qila oladi. Masalan, *o-na, bo-la-lar-ning, ki-to-bi-miz* kabi. Bo‘g‘inning quyidagi turlari mavjud:

1) Ochiq bo‘g‘in. Unli tovush bilan tugagan bo‘g‘inga ochiq bo‘g‘in deyiladi: *ta-la-ba, o-ta* – barcha bo‘g‘inlari ochiq bo‘g‘in; *ki-tob, mak-tab-ga* – birinchi va oxirgi bo‘g‘in ochiq bo‘g‘in.

2) Yopiq bo‘g‘in. Undosh tovush bilan tugagan bo‘g‘inga yopiq bo‘g‘in deyiladi: *meh-nat-kash-la-ri-miz* – birinchi, ikkinchi, uchinchi va oltinchi bo‘g‘inlar yopiq bo‘g‘in.

3) Berkitilgan bo‘g‘in. Undosh tovush bilan boshlangan bo‘g‘inga berkitilgan bo‘g‘in deyiladi: *ba-hor-gi, mo‘-ji-za*;

4) Berkitilmagan bo‘g‘in. Unli tovush bilan boshlangan bo‘g‘inga berkitilmagan bo‘g‘in deyiladi: *ol-xo‘-ri, uch-ra-shuv, o‘y-ma-kor-lik* so‘zlaridagi birinchi bo‘g‘inlar.

Bo‘g‘inning ahamiyati:

1) Bolalarni o‘qishga o‘rgatish bo‘g‘in asosida amalga oshiriladi.

2) Yozuvda bir satrga sig‘may qolgan so‘zning qismi ikkinchi satrga bo‘g‘in asosida ko‘chiriladi.

3) She’riyatda bo‘g‘inga amal qilinadi. She’riy misralarning bo‘g‘inlar soni teng bo‘ladi.

18- mashq. Matnni o‘qing. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating va turlarini ayting.

Navoiyning butun oila, qarindosh-urug‘lari Boyqaro tarafida bo‘lganligi ma’lum. Navoiy Xurosonda ilm-fan, san’at va adabiyot rivojini ta’minlamoq, osoyishta hayot barpo etmoq uchun adolatli va kuchli hukmron bo‘lishi kerak deb hisoblardi. U Husayn Boyqaroni ana shunday hukmron bo‘ladi, deb ishonar edi. Husaynning shoirlik iste’dodi, ular o‘rtasidagi bolalik yillaridan boshlangan do‘stlik bu ishonchni yanada mustahkamlar edi. Shuning uchun Navoiy o‘z siyosiy faoliyatining boshidanoq, Husayn Boyqaro tarafida bo‘ldi va bu mavqeda hayotining oxirgi daqiqasigacha qoldi.

(Aziz Qayumov).

19- mashq. Bo‘g‘inlarning tovush tarkibiga e’tibor bering.

Topshiriq: 1) Bir bo‘g‘inli so‘zlarga misollar to‘plang.

2) Bir unli va ikki undoshdan iborat bo‘g‘inli so‘zlarga misollar to‘plang.

3) Bir unli va uch undoshdan iborat bo‘g‘inli so‘zlarga misollar to‘plang.

4) Bir unli va to'rt undoshdan iborat bo'g'inli so'zlarga misollar to'plang.

20- mashq. Yopiq bo'g'inlaridan biri unli va faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so'zlarni alohida ajratib yozing.

Balandparvoz, mehnat, botir, maktab, temir, g'alla, toshloq, kitob, po'lat, balki, paxta, allakim, anglamoq, alanglamoq, dilxiroj, yonbag'ir, zamonaviy, kartoshkagul, olqish, payvand, shijoatkoroña, o'zbilarmon, qalampirmunchoq.

Urg'u

So'z tarkibidagi biror bo'g'inning yoki gap tarkibidagi biror so'zning boshqalariga nisbatan kuchli, zarb bilan talaffuz qilinishiga urg'u deyiladi. Tushish o'rniga ko'ra urg'u 2 turga bo'linadi: 1) so'z urg'usi; 2) mantiqiy urg'u.

So'z urg'usi

So'z bo'g'inlaridan biriga tushib, uning talaffuzini va ma'nosini shakllantiradigan urg'u so'z urg'usi deyiladi. O'zbek tilida urg'u ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'inidagi unli tovushga tushadi: **bola, maktab, chiroyli, katta, talaba** kabi. So'z qo'shimchalar hisobiga kengayib borgan sari urg'u ham oxirgi bo'g'inga ko'cha boradi: bola-bolalar, bolalarning kabi.

Quyidagi holatlarda urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmaydi:

1. *Hamma, barcha, qancha, qanday, allakim, allanima, allaqachon, kimdir, qachondir, har kim, har qachon, har qaysi, hech nima, hech qanday, hech qaysi* kabi olmoshlarda.

2. *Doim, aslo, hamisha, hozir, astoydil, zo'rg'a, ancha, yangi* kabi ravishlarda.

3. *Albatta, darhaqiqat, afsuski, zero* kabi modal so'zlarda.

4. *Ammo, lekin, balki, hatto, garchi, toki* kabi yordamchi so'zlarda.

5. *Mashina, traktor, leksiya, radio* kabi rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir qancha qo'shimchalar ham urg'u olmaydi. Ular quyidagilar:

1) -man, -san, -miz, -siz birinchi gruppa tuslovchi qo'shimchalari: *ishlayman, ishlaysan, yozarman, yozarsan, talabamiz, talabasiz* kabi;

2) -ta, -tacha dona va chama son yasovchi qo'shimchalari: *o'nta, o'nlacha, beshta, beshtacha* kabi;

3) –cha, -dek, -day ravish yasovchi qo'shimchalari: *yigitcha, mardcha, mardlarcha, qahramonlarcha, oydek, o'qdek, gulday, suvday* kabi;

4) –ma fe'lning bo'lishsiz shaklini yasovchi qo'shimchasi: *borma, ketma, yugurma, gapirma* kabi;

5) –u (yu), -ku, -mi, -chi, -oq (-yoq), -da, -gina, -kina, qina kabi affiks yuklamalari: *men-da, keldi-da, keldi-yu, shaharda-ku, ayt-chi? men-mi?* kabi.

So'z urg'usining ahamiyati:

1) nutqda so'zlarning talaffuz me'yorini belgilab beradi;

2) shaklan teng kelib qolgan so'zlarni talaffuziga ko'ra bir- biridan farqlashga yordam beradi: yangi (sifat) – yangi (ravish) kabi;

3) teng kelib qolgan so'z shakllarini bir-biridan farqlashga yordam beradi: talabamiz (-miz shaxs-son qo'shimchasi) – Biz talabamiz kabi. Talabamiz (-miz egalik qo'shimchasi) – Bizning talabamiz kabi.

Mantiqiy urg'u. Gap tarkibidagi biror bo'lakni boshqalariga ko'ra kuchliroq, zarb bilan aytish orqali ajratib ko'rsatishga mantiqiy (logik) urg'u deyiladi. Mantiqiy urg'u gapning mazmunini belgilab beradi. Masalan: 1) **Biz** b*ugun muzeyga boramiz*. (Bizning borishimiz haqida gap ketyapti).

2) *Biz* ***bugun*** *muzeyga boramiz*. (Boshqa kuni emas, bugun borishimiz haqida gap ketyapti).

3) *Biz bugun* ***muzeyga*** *boramiz*. (Boshqa joyga emas, muzeyga borishimiz haqida gap ketyapti).

4) *Biz bugun muzeyga* ***boramiz***. (Albatta borishimiz haqida gap ketyapti).

Mantiqiy urg'u intonatsiya hodisasi bilan uzviy bog'liqdir.

Intonatsiya

Tovush va bo'g'in nutqning moddiy tomonini tashkil etsa, intonatsiya va urg'u nutqning mazmun tomoniga daxldordir. Tovush va bo'g'in nutqning doimiy birliklari sanaladi. Shunga ko'ra ular segment birliklar hisoblanadi.

Nutqning sintaktik ma'nolarni va ta'sirchanlikni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomoni; ovozning baland pastligi;ohang intonatsiya deb yuritiladi. Intonatsiya nutq qismlarining talaffuz me'yorlarini belgilab beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Intonatsiya nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq intensivligi, nutq tempi, nutq tembri, mantiqiy urg'u, fraza urg'usi kabi birliklardan tarkib topgandir. Bu birliklarni nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular

nutqqa yaxlit holatda aloqador, bog'liq bo'lgan hodisalardir. Nutqning o'zgarishi bilan ular ham o'zgarib turadi. Shunga ko'ra ular supersegment birliklar hisoblanadi. Intonatsiya gapning ifoda maqsadiga va ta'sirchanligiga ko'ra turlarini farqlashga yordam beradi. Shunga ko'ra gapning barcha turlari: darak gap, so'roq gap, undov gap, buyruq gap, undalmali gap, vokativ gap, uyushiq bo'lakli gaplarning har biri o'ziga xos ohang, intonatsiya bilan talaffuz qilinadi. Shu asosda intonatsiyaning ko'rinishlari, turlari yuzaga keladi.

21- mashq. A. Oripovning «Munojat»ni tinglab... she'rini o'qing. Intonatsiya orqali shoirning ichki kechinmalarini ifodalang. So'zlarning urg'usini aniqlab, belgilab chiqing.

Qani, ayt maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang,
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.
Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,
Qaylardan tug'ilmish bu ohu faryod.
Kim u yig'layotgan? Navoiymikin
Va yo may kuychisi Hayyommikin, dod!
Yetar, ey cholg'uvchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjar.
Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir!
Agar shu munojot rost bo'lsa agar,
Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shu eshitganim bo'lmasa ro'yo,
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!..
Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,
Asrlar g'amini so'ylar munojot.
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

(A.Oripov).

22- mashq. Berilgan so'zlarni urg'usiga ko'ra 3 guruhga ajratib yozing:
1) Urg'usi birinchi bo'g'inga tushgan so'zlarni.
2) Urg'usi ikkinchi bo'g'inga tushgan so'zlarni.
3) Urg'usi uchinchi bo'g'inga tushgan so'zlarni

Radio, kofe, traktor, albatta, afsuski, samimiy, adolat, dabdaba, muqaddas, fonetika, kelajak, tushuncha, ammo, lekin, hatto, garchi, hamma, barcha, jami, kimdir, men-da, ishda-ku, sen-mi?, biz-chi?, zero, doim, aslo, hamisha, aksincha, aktor, akustika, alloma, bo'sag'a, vafodor, izchil, kafedra, kafolat, sintagma, sintez.

23- mashq. Keltirilgan so'zlarning talaffuziga e'tibor bering. Urg'uning o'zgarishi bilan ma'noda farqlanadigan so'zlarni ajratib yozing va shular asosida gaplar tuzing.

Tortma, akademik, o'quvchimiz, tok, etik, ko'zlar, changi, tort, ishchi, bolada, qo'lla, ahil, xiyla, armiya, belcha, beshala, bog'lar, ishlar, qishloqcha, botir, burun, o'ylar, yechiq, butoq, gala, qizcha, so'zlar, bolagina, qizgina, texnik, olma, bolasiz, gulsiz, atlas, kesma, tugma, matematik.

Yozuv haqida ma'lumot

Yozuv ko'z bilan ko'rib o'qiladigan va kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan optik-grafik belgilar tizimidir. Nutqning yozma shakli yozuv orqali ifodalanadi. Yozuvning imkoniyatlari juda keng. Yozuv grafika, orfografiya, punktuatsiya kabi komponentlardan tarkib topgandir. Grafika yozuvning yetakchi komponenti sanaladi.

Yozuv harflar, tinish belgilari, raqamlar kabi optik-grafik belgilar yordamida ish ko'radi. Harflar yordamida nutqning tovush tomoni aks etadi. Optik-grafik belgi sifatida tinish belgilari nutqning tovush tomonini ifodalamaydi, balki nutqning ritmik-intonatsion tomonini, ohang bilan bog'liq tomonini ifodalaydi. Raqamlar esa bevosita tushunchaning nomi bo'lgan so'zlarning yozuvdagi optik-grafik belgisidir.

Fonema va harf

Harf yozma nutqda fonemani ifodalaydigan eng kichik optik-grafik belgidir. Harflar har bir tilning fonemalar tizimini aks ettirish uchun belgilab (kodlashtirib) qo'yiladi.

Harflarning muayyan tartibda joylashuvi alifbo deyiladi.

Kirill yozuviga asoslangan amaldagi o'zbek alifbosida fonemalarning ifodalanishi

Amalda qo'llanib kelinayotgan o'zbek alifbosi 1940- yilda rus grafikasi asosida qabul qilingan bo'lib, unda 35 ta grafik belgi bor. Shundan 33 tasi

harf, ikkitasi (ъ, ь) belgi sanaladi. Har bir harfning katta va kichik hamda bosma va yozma shakllari mavjud.

O'zbek kirill alfavitidagi harf va belgilar hamda ularning nomlari quydagicha:

Harflar	Ularning nomlari	Harflar	Ularning nomlari
А а	А	С с	эс
Б б	бе	Т т	те
В в	ве	У у	у
Г г	ге	Ф ф	эф
Д д	де	Х х	ха
Е е	е	Ц ц	це
Ё ё	ё	Ч ч	че
Ж ж	же	Ш ш	ша
З з	зе	Ъ	Айириш белгиси
И и	и	Ь	Юмшатиш белгиси.
Й й	иэ	Э э	э
К к	ка	Ю ю	ю
Л л	эл	Я я	я
М м	эм	Ў ў	ў
Н н	эн	Қ қ	қе
О о	о	Ғ ғ	ғе
П п	пе	Ҳ ҳ	ҳе
Р р	эр		

Amaldagi alifboning o'zbek tilining fonemalar tizimi bilan mutanosibligi quyidagicha: hozirgi o'zbek adabiy tilidagi jami 31 ta fonema alifboda 33 ta harf orqali ifodalanadi. Shundan 6 ta unli fonema yozuvda 10 ta harf: ***а, о, и, э, у, ў, е, ё, ю, я*** yordamida; 25 ta undosh fonema 23 ta harf: ***б, в, г, д, ж, з, й, к, л, м, н, п, р, с, т, ф, х, ц ч, ш, қ, ғ, ҳ,*** yordamida ifodalanadi.

Amaldagi o'zbek yozuvining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1. Alifbomizda o'zicha tovushni ifodalamaydigan grafik belgilar mavjud. Bularga ***ъ, ь*** belgilari kiradi.

2. Alifboning asosiy qismini bir fonema ifodalaydigan harflar tashkil etadi: ***а, б, в, г, д, з, и, й, к, л, м, н, о, п, р, с, т, у, ф, х, ч, ш, э, ў, қ, ғ, ҳ.***

3. Bir vaqtning o'zida ikkita fonemani ifodalay oladigan harflar: ***е, ё, ю, я.***

4. Ikkita fonemani bildiradigan harf: ***ж-*** a) *Jo'ra jang, jiddiy, javob* (*Жўра, жанг, жиддий, жавоб*) kabi so'zlarda til oldi qorishiq ***dj*** fonemasini; b) *gijda, ajdar, jurnal, jargon (гижда, аждар, журнал, жаргон)* kabi so'zlarda til oldi sirg'aluvchi ***j*** fonemasini ifodalaydi.

5. Amaldagi alifboda ham harfiy birikma (***и*** va ***г***) ***нг*** yordamida ifodalanadigan til oldi burun tovushiga maxsus harf berilmagan: тонг - *tong, менг - teng, ўқинг - o'qing, ўзинг - o'zing* kabi.

24- mashq. Berilgan matnni o'qing va so'zlardagi harflar qanday tovushlarni ifodalashini tushuntiring.

Jelabuxi qishlog'i uchun bo'lgan jangda dushman besh marta qarshi ataka qilib, nihoyat hiylagina katta bir guruhi qurshovda qoladigan bo'ldi. Yosh ofitser Sobkoning pulemyotchilari dushmanni o'rmon tomoniga ketgali qo'ymasligi kerak edi. Besh marta qarshi ataka qilib, hech ish chiqara olmagandan keyin quturgan, endi qurshovda qolib jon talvasasiga tushgan dushman o'rmonga kirib ketish uchun qanday urinishini, buning natijasida qanday dahshatlar ro'y berishi mumkin ekanligini Sobko yaxshi bilar, tasavvur qilar edi. Oltita «Yunkers» shu daxshat boshlangandan xabar berib, tepalikka behisob mayda bomba yog'dirib o'tdi. Nemislarning mo'ljaliga ko'ra, bu tepalikda bomba tushmagan biron qarich ham yer qolmasligi kerak edi. Haqiqatan ham, jangchilardan bir necha kishi nobud, ancha kishi yarador bo'ldi. Bu jang qancha vaqt davom etganligi Ahmadjonning esida yo'q, faqat shuni biladiki, nemislar bu tepalikni haddan tashqari qattiq o'qqa tutdi. O'ng tomondagi pulemyot to'satdan jim bo'lib qoldi. (A.Qahhor)

O'zbek yozuvi tarixi

Tarixiy obidalar va yodgorliklarga ko'ra o'zbek xalqi tarixda o'rxun-enasoy, so'g'd, xorazm, uyg'ur kabi yozuv turlaridan foydalanganligi ma'lum. Jumladan, Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul-haqoyiq», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarlari uyg'ur yozuvida bitilgan.

O'rta Osiyoda VIII – IX asrlarga kelib arab yozuvi tarqala boshlagan. XI asrda yaratilgan eng qadimgi yodgorliklar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari ham arab yozuvida yozilgan. Qariyb 1200 yil qo'llanib kelingan arab yozuvida o'zbek xalqining Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-

Xorazmiy, Ulug'bek, Forobiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat, Cho'lpon, Fitrat kabi minglab allomalari o'z asarlarini yaratganlar.

Arab yozuvi 1929- yilgacha qo'llanib kelingan. 1929 – 1940- yillar ichida lotin yozuvi asosidagi o'zbek yozuviga o'tilgan. 1940- yildan boshlab esa rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi joriy etilgan. Hozirda shu yozuvdan foydalanib kelinmoqda.

1993- yil 2- sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan quyidagi 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o'zbek alifbosi joriy etildi: ***a, b, c, d, e, f, g, h, i, j, k, l, m, n, o, p, q, r, s, t, u, v, x, y, z, c, g, j, n, o, s, (')*** tutuq belgisi (apostrof).

1995- yil, 6- mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunga o'zgartirishlar kiritdi. Unda shunday deyiladi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasining 1993- yil 2 sentabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993- yil, 9-son, 331 modda) quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1. 1- moddadagi «31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan» so'zlari «26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan» so'zlari bilan almashtirilsin.

2. Cc, Jj harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarilsin.

3. Öö harfi O' o' shaklida, Ğğ harfi G'g' shaklida, Şş harfi Sh sh shaklida, Çç harfi Ch ch shaklida, Ññ harfi Ng ng shaklida, Q harf belgisi q shaklida ifodalansin.

4. Aa, Ii, Gg, G'g' Qq, O'o', Zz harflari va Ch ch harflari birikmasining yozma shakli tegishlicha: *Aa, Ii, Gg, G'g', Qq, O'o', Zz, Ch ch* tarzida ifodalansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti: I. Karimov

Toshkent shahri 1995- yil 6- may.

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK ALIFBOSI

LOTIN HARFLARI			KIRILL HARF-LARI	LOTIN HARFLARI			KIRILL HARF-LARI
Bosma	Yozma	Nomi		Bosma	Yozma	Nomi	
A a		a	А а	Q q		qe	Қ қ
B b		be	Б б	R r		er	Р р
D d		de	Д д	S s		es	С с
E e		e	Э э	T t		te	Т т
F f		ef	Ф ф	U u		u	У у
G g		ge	Г г	V v		ve	В в
H h		he	Ҳ ҳ	X x		te	Х х
I i		i	И и	Y y		ye	Й й
J j		je	Ж ж	Z z		ze	З з
K k		ke	К к	O‘ o‘		o‘	Ў ў
L l		el	Л л	G‘ g‘		g‘e	Ғ ғ
M m		em	М м	Sh sh		she	Ш ш
N n		en	Н н	Ch ch		che	Ч ч
O o		o	О о	Ng ng		nge	НГ нг
P p		pe	П п				

25- mashq. Matnlarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Harflarning qanday tovushlarni ifodalashiga va yozilishiga e’tibor bering.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi,
Abdulla Oripov so‘zi

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqorat:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!

Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqorat:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

ISTIQLOL

Na molim bor, na joyim bor,
O‘zim kimman unutgandim!
Tilim gung-u dilim gung-u,
Alamni ichga yutgandim.

Tutab milt etmadi yillar,
Xazondek yurtda istiqbol.
Nechun erkin nafas olmoq,
Agar yo‘q bo‘lsa Istiqlol?

Dilim bandi, tilim bandi,
Umr bandilikda o‘tkazdim.
Tilim, hayqir, dilim, hayqir:
Xudoyim erkka yetkazdi!

Ovozing boricha hayqirgil,
Tirilganingni bilsinlar!
Bugun mag‘rib-u mashriqda
Temur zotin eshitsinlar!

Bugun yurtimda Istiqlol!
Abad yurtimda Istiqlol!

(Shukrullo)

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida fonemalarning ifodalanishi

Unli fonemalarning ifodalanishi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida unli fonemalar 6 ta, ularga alifboda 6 ta harf berilgan. Ular quyidagilar: ***Ii, Uu, Ee, O'o', Aa, Oo.***

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga bir vaqtning o'zida ikkitadan fonemani ifodalay oladigan amaldagi ***e, ё, ю, я*** harflarining o'rnini bosadigan yangi harflar kiritilmagan. Endilikda ularning tarkibidagi har bir fonema alohida-alohida harflar yordamida quyidagicha ifodalanadi:

Kirillcha	Lotincha
е -	ye - yer, yelkam, yetakchi kabi.
ё -	yo - yordam, yorqin, yosh kabi.
ю -	yu - yulduz, yumshamoq, yurmoq kabi.
я -	ya - yaxmalak, yaxshi, yashin kabi.

Undosh fonemalarning ifodalanishi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh fonemalar 25 ta. Ularga alifboda 20 ta harf va 3 ta harfiy birikma, jami 23 ta grafema berilgan. Yangi alifboda 2 ta harf, ya'ni ***s*** va ***j*** harflarining har biri bittadan emas, ikkitadan fonemani ifodalaydi. Ya'ni: ***s*** harfi: 1) *sovuq, sovg'a, soya* kabi so'zlardagi til oldi sirg'aluvchi ***s*** fonemasini; 2) *sirk, sement, silindr* kabi rus tilidan o'zlashgan so'zlardagi til oldi qorishiq ***ts*** fonemasini.

J harfi: 1) *jamg'arma, janub, javob* kabi so'zlardagi til oldi, qorishiq ***dj*** fonemasini; 2) *ajdar, gijda, jurnal* kabi so'zlardagi til oldi sirg'aluvchi ***j*** fonemasini.

Yangi alifboning o'ziga xos yana bir xususiyati shuki, alifbo sirasiga 3 ta harfiy birikma maxsus grafema sifatida kiritilgan. Demak, yangi alifbo faqat harflardangina emas, balki harfiy birikmalardan ham tarkib topgan.

Bular: 1) til oldi sirg'aluvchi ***sh*** fonemasini ifodalovchi ***sh*** harfiy birikmasi: *Alisher, shahar, shoh* kabi;

2) til oldi qorishiq ***ch*** fonemasini ifodalovchi ***ch*** harfiy birikmasi: *barcha, chashma, chek* kabi;

3) sayoz til orqa, sonor ***ng*** fonemasini ifodalovchi ***ng*** harfiy birikmasi: *jangovar, ko'ngil, singil* kabi.

Rus tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlar tarkibida keluvchi til oldi, qorishiq ***ts*** fonemasi ***ts*** harfiy birikmasi bilan ham beriladi: konstitutsiya, litsey,

militsiya kabi. Lekin u yangi alifbo sirasida maxsus grafema sifatida berilmagan.

16- mashq. Matnni o'qing. Unli va undosh tovushlarni ifodalovchi harflarning yozilishiga e'tibor bering.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991- yil 18- noyabr kuni tasdiqlangan. Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqdagi moviy rang - tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va ohihayot ramzidir. Timsollar tilida bu yaxshilikni, donishmandlikni, baxtlikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflik va hayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir.

3. Yashil rang - tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar - vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat timsolidir.

5. Hayqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq.

6. Yulduzlar barcha xalqlar uchun ruhoniy, ilohiy timsol sanalgan O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning 12 yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimiy tabakkurida «Nujum ilmi» taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog'imizdagi o`n ikki yulduz tasviri o`zbek xalqi madaniyatini qadimiyligi, uning komillikka, o`z tuprog`ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

17- mashq. Berilgan so'zlarni yangi lotincha alifbo asosida qayta yozib chiqing, amaldagi **e, ё, ю, я** harflarining yangi alifboga ko'ra yozilishiga e'tibor bering.

Адабиёт, алюминий, антенна, археолог, ашёвий, аҳён-аҳён, бедапоя, бежирим, белбоғ, биология, бояги, брокер, бунёд, буфет, бухгалтерия, буюк, буюм, бюджет, бюро, бюрократ, бюст, валюта, дастёр, деҳқон, диёр, дунё, елвизак, ер, ёнғоқ, ефрейтор, ёднома, ёзувчи, ёшлик, ёқут, жонкуяр, заём, зарчечак, зиёда, идеолог, иллюзия, инвестиция, интернат, интонация, июль, камёб, келажак, коллеж, комбинация, конвейер, кредит, куёв, курьер, кўпаювчи, мезон, мумиё, назария, ноёб, нортуя, октябрь, пейжер, пенсионер, перпендикуляр, премьера, приёмник, разъезд, режиссёр, сайёра, салют, сарёғ, сармоядор, сентябрь, суюкли, суянч, тайёр, уюшиқ, уят, хиёбон, шеър, шеърият, шлюз, шляпа, электр, ювош, юз, ютуқ, ягона, қиём, қуюшқон, қуюқ, ҳаёт.

28- mashq. Keltirilgan so‘zlarni lotin yozuvi asosida qayta yozib chiqing, **ц** harfining yozilishiga e’tibor bering.

Авиация, акциз, акционер, антициклон, ассимиляция, ацетон, вакцина, вулканизация, гербицит, горчица, дедукция, дезинфекция, деклорация, делигация, дециметр, диссертация, диссимиляция, инвестиция, индексациялаш, инсценировка, интонация, ирригация, киносценарий, конституция, контрибуция, концентрация, концерн, концерт, кооперация, коррупция, лицей, лицензия, милиционер, милиция, мотоцикл, облигация, операция, пеницилин, пинцет, публицист, пунктуация, радиация, редукция, санкция, социология, сценарий, фармацевтика, федерация, цемент, цех, циклон, цирк, шприц, эволюцион, эксплуатация, эмиграция, энциклопедия.

29- mashq. Lotin alifbosi asosida harflar sirasini yoddan aytib bering. Alifbodagi harflar tartibini raqamlar yordamida ifodalang. Quyidagi misollar tarkibidagi so‘zlarning keltirib chiqargan raqamlar qatorini yozib chiqing.

Namuna: *Vatanimiz 21,1,19,1,13,8,12,8,24.*

Dunyoda har ishning bordir o‘z gali,
Olis xotiralar hamroh ishimga.
Shoirlik yodimdan chiqqan mahali
Cho‘ponlik yillarim tushar esimga. (A. Oripov)

ORFOGRAFIYA

Adabiy nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lib, ular ma'lum qonun-qoidalar asosida rivojlanadi. Nutqning og'zaki shaklida talaffuz me'yorlariga (orfoepiyaga) amal qilinsa, yozma shaklda esa imloviy me'yorlarga (orfografiyaga) amal qilinadi.

Orfografiya grekcha **orphos** va **grapo** so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, «to'g'ri yozaman» degan ma'noni bildiradi.

Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga tegishli bo'lib, so'zlarni to'g'ri yozish, so'zlarning o'zak va negizlarini, qo'shimchalarini, qo'shma so'zlarning qo'shilib yoki ajratib yozilishini, qisqartma so'zlarning yozilishini, bosh harflarning yozilishini, bo'g'in ko'chirilishini adabiy talaffuz me'yoriga moslab, qoidalashtirib beradigan fandir. Adabiy tilning yozma shaklini ma'lum qonun qoidalar asosida turg'un holatda ushlab turadigan orfografiyaning quyidagi prinsiplari mavjud: fonetik prinsip, fonematik prinsip, morfologik prinsip, tarixiy an'anaviy prinsip, etimologik yoki grafik prinsip.

Fonetik prinsip. Bu prinsipga ko'ra so'z yoki uning tarkibiy qismlari qanday talaffuz qilinsa, shunday yoziladi: *1) ko'k+ga>ko'kka, tok+ga>tokka, qishloq+ga>qishloqqa kabi; 2) og'iz+im>og'zim, o'g'il+im>o'g'lim, burun+i>burni kabi; 3) yosh+a>yasha, son+a>sana, ang+la>angla kabi; 4)so'ra+q>so'roq, qishla+v>qishlov, sayla+v>saylov kabi; 5) ikki+ov>ikkov, yetti+ov>yettov kabi; 6) qot+iq>qattiq, achchi+iq>achchiq, isi+iq>issiq kabi; 7) ulug'+ay>ulg'ay, sariq+a>sarg'ay kabi.*

Fonematik prinsip. Bu prinsipga ko'ra harflar so'z tarkibidagi tovushlar talaffuziga emas, balki fonemalarga moslab yoziladi, ya'ni yozuvda so'z tarkibidagi fonemaning talaffuzi emas, asli hisobga olinadi: *obod>obot, mazkur>maskur, fan>pan, fasl>pasl, fabrika>pabrika, harf>harp* kabi.

Morfologik prinsip. Bu prinsipga ko'ra so'z va uning qismlari qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar asliga ko'ra yoziladi: *ayt+di>aytti, ket+di>ketti, borib+di>boripti, chop+di>chopti, ish+ga>ishka, ket+gan>ketkan, ket+guncha>ketkuncha, zavod+dan>zavottan, ko'p+dan>ko'ptan* kabi.

Tarixiy-an'anaviy prinsip. Bu prinsipga ko'ra so'z va uning qismlari tarixda qanday yozib kelingan bo'lsa, hozir ham shunday yoziladi. Bu ularning tarixiy an'anaviy prinsipda yozilishidan ko'proq uslubiy

maqsadlarda foydalaniladi: *kelgin||kelgil, kelar||kelur, kelarmi||kelarmu, u||ul, bilan||ila* kabi.

Etimologik yoki grafik prinsip. Bu prinsipga ko'ra o'zlashma so'zlar qaysi xalqning tilidan yoki grafiksidan olingan bo'lsa, o'sha qadimgi etimologik yoki grafik holatni saqlagan holda yoziladi: *ma'no, she'r, a'lo, muammo, mojaro, fabrika, aeroport, stansiya, telegramma, fotoelement* kabi.

30- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan. so'zlarning orfografiyaning qaysi prinsipiga ko'ra yozilganligini tushuntirib bering.

- Janob ustod, - **murojaat etdi** Behzod. Sherning **bo'ynidan** zanjirlar uzildimi?

Navoiy "yalt" etib qaradi. Keyin kulimsirab dedi: - Haydar **aytdimi** sizga? U yigitning **ko'ngli** g'oyat beg'ubordir.

- Haydar **ishontirdiki**, - dedi Behzod, - u yolg'iz menga so'zlangan. Men u rasmni **ko'rmoqqa mushtoqmen**. Qachon **ko'rsatursiz**?

- Meniki bamisoli bolalarning chizmakashligidek bir narsa... — dedi Navoiy qo'lini silkib.

- Zanjirband sher o'z asoratchilariga qarshi yana ham **qo'rqinchliroq bo'lur**, - dedi sekingina Behzod, - Sherning **bo'yni** zanjirga **itoat** qilsa ham, **yuragi** aslo **bo'ysunmas**, afsuski, bu oddiy haqiqatni idrok etmaydilar... (Oybek).

31- mashq. Etimologik yoki grafik prinsip asosida yoziladigan so'zlarga misollar keltiring va izohlang.

Unli fonemalarni ifodalovchi harflar imlosi

Aa harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) old qator keng unlini ifodalash uchun: *aka, ona, fan, mana, qalam, paxta* kabi; b) ba'zi so'zlarning tarkibida **o** ga moyilroq talaffuz qilinadi, lekin **a** yoziladi: *bahor>bohor, zamon>zomon, savol>sovol, gavda>govda, navqiron>novqiron, mart>mort, zal>zol* kabi; d) ba'zi so'zlarning tarkibida **i** ga moyilroq talaffuz qilinadi, lekin **a** yoziladi: *muomala>muomila, muhokama>muhokima, munosabat>munosibat* kabi.

Oo harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) orqa qator keng unlini ifodalash uchun: *oila, ona, ota, non, bahor, ma'no, oftob* kabi; b) o'zlashma

so'zlarda: **o'** ga yaqinroq: *boks>bo'ks, tonna>to'nna, poyezd>po'yezd, opera>o'pera* kabi; **a** ga yaqinroq: *agronom>agranom, gorizont>garizont, doklad>daklat*; **i** ga yaqinroq: *traktor>traktir, direktor>direktir, rektor>rektir* kabi talaffuz qilinsa-da o harfi yoziladi.

I i harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) qisqa va old qator unlini ifodalash uchun: *bilim, bilan, bir, biron, til* kabi; b) urg'uli bo'g'inlardagi cho'ziq **i** unlisini ifodalash uchun: *lirika, Navoiy, tarixiy* kabi; d) q, x, g' tovushlari bilan yonma-yon kelganda qisqa va qattiqroq aytiladigan **i** unlisini ifodalash uchun: qizil, qishloq, g'isht, xirmon kabi; e) rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda ы fonemasini ifodalash uchun: *vistavka, pishka, vishka* kabi.

U u harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) bir va ikki bo'g'inli so'zlardagi qisqa **u** unlisini ifodalash uchun: *kun, tun, qurt; ulug', urug', uzum* kabi; b) urg'uli bo'g'indagi cho'ziq **u** unlisini ifodalash uchun: *arxitektura, struktura* kabi; d) tarkibida **o, a, u** unlilaridan biri bo'lgan bo'g'indan so'ng v bilan boshlanadigan yopiq bo'g'inda keluvchi **u** fonemasini ifodalash uchun: *qovun, sovun, ovul, sovuq, qirg'ovul, tovush, tarvuz, tasavvur, quvur* kabi; e) birinchi bo'g'inda, u (yu) kelgan so'zlarning ikkinchi bo'g'inida, aytilishiga muvofiq, u (yu) yoziladi: *turmush, ulush, butun, buyuk, buyum, yulduz, tugun, gumbur-gumbur* kabi; f) so'zlarning ikkinchi ochiq bo'g'inida q yoki g' fonemalaridan keyin ham **u** yoziladi: *urug', tuyg'u, urg'u* kabi.

O o' harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: bir bo'g'inli so'zlarda, ko'p bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inidagi **o'** ni ifodalash uchun: *o't, qo'l, o'rin, ko'mir, to'qi* kabi

Ee harfi faqat old qator o'rta-keng **e** fonemasini ifodalash uchun yoziladi. **Qiyoslang:** *egat-egat, ekin-ekin, ekspertiza-ekspertiza, lekin-lekin, mehnatsevar-mehnatsevar, yelka-yelka, etmish-yetmish, e'lon-e'lon, she'r-she'r* kabi.

Kirill yozuvi asosidagi imloga ko'ra Ээ, Ее, Ёё, Юю, Яя harflarining yozilishi. ***Ээ*** harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) so'zlarning bosh qismidagi **e** fonemasini ifodalash uchun: *экин, элак, эртак, экан, этак, эрта* kabi; b) so'zlarning o'rtasida o'zicha alohida bo'g'in hosil qilgan **e** fonemasini ifodalash uchun: *поэзия, поэма* kabi; d) so'z ichidagi bo'g'in boshida kelgan **э** fonemasini ifodalash uchun: *дуэт, дуэль* kabi.

Ее harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) so'z yoki bo'g'in boshida qo'llangan, shuningdek, o'zi alohida bo'g'in hosil qiluvchi **ye** fonemalar birikmasini ifodalash uchun: ер*>йэр, ем>йэм, етмиш>йэтмиш,*

разъезд>разйэзд, елим>йэлим kabi; b) so'zlarning tarkibida undoshdan so'ng yoki ikki undosh orasida keluvchi **е** fonemasini ifodalash uchun: *кел>кэл, кет>кэт, тер>тэр, меҳмон>мэҳмон, телефон>тэлэфон* kabi.

Ёё harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) so'z yoki bo'g'in boshida qo'llangan, shuningdek o'zicha bo'g'in hosil qilgan **йо** fonemalar birikmasini ifodalash uchun: *ёш>йош, ёқ>йоқ, ёрдам>йордам, аёл>айол, пиёз>пийоз, майёр>маййор* kabi; b) rus tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlarda **о** tarzida aytiladigan fonemani ifodalash uchun: *самолёт>самольот, счёт>счьот, режиссёр>режиссьор, актёр>актьор* kabi.

Lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalariga ko'ra rus tilidan o'zlashgan bunday so'zlar **о** harfi orqali yoziladi. **Qiyoslang:** *режиссёр-rejissor, суфлёр –suflor* kabi.

Юю harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) so'z yoki bo'g'in boshida qo'llangan, shuningdek o'zicha bo'g'in hosil qiladigan **yu** fonemalar birikmasini ifodalash uchun: *юз>йуз, юк>йук, юрт>йурт, юлдуз>йулдуз, юшма>уйушма, июль>ийуль, юрак>йурак* kabi; b) rus tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlarda **u** tarzida aytiladigan fonemani ifodalash uchun: *бюджет>бьуджет, брошюра>брошьура, сюжет>сужет kabi.*

lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalariga ko'ra bunday so'zlar **u** harfi orqali yoziladi. qiyoslang: бюджет – *budjet, брошюра - broshura, дюжина-dujina, дюйм - duym; сюжет - sujet, шлюз - shluz, этюд– etud* kabi.

Яя harfi quyidagi o'rinlarda yoziladi: a) So'z yoki bo'g'in boshida qo'llangan, shuningdek, o'zicha bo'g'in hosil qiladigan **ya** fonemalar birikmasini ifodalash uchun: *япроқ>йапроқ, яхши>йахши, жияк>жийак, суяк>суйак, яшил>йашил, ноябрь>нойабрь* kabi; b) rus tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlarda bo'g'in o'rtasida kelib **а** tarzida aytiladigan fonemani ifodalash uchun: *октябрь>октьабр, сентябрь>сентьабр, отряд>отрьад* kabi.

Lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalariga ko'ra bunday so'zlar **а** harfi orqali yoziladi. qiyoslang: октябрь - *oktabr, сентябрь - sentabr, отряд - otrad, шляпа – shlapa* kabi.

32- mashq. Berilgan so'zlardagi nuqtalar o'rniga **i** yoki **u** unlilarining mosini qo'yib ko'chiring.

1. Bir oqshom, **kut...lmagan** vaqtda, ko'chamizda tuyalarning baqirishi, havoni yangratgan **qandayd...r** notanish ovozlar eshitildi. (Oybek). 2. –

Ko'r...b tur...bmiz, birimiz ikki bo'layotgani yo'q. Yer bo'lgani bilan xudo barakani ko'tarsa qiyin, hali ham o'sha **"bult...rgi** Eshmatmiz". (A. Qahhor,). 3. Naima to'g'risidan tashvish yo'q; husn, odob, **yum...sh**, hammasidan **ko'ng...l** to'q; ... (A. Qodiriy,). 4) Xo'sh, kulollikning itlari nimani qizg'anadi? Men **qur...q,** bo'sh xumni, oshsiz sopol tovoqni yoki suv tegmagan **quv...rni** yeb qo'yamanmi? (G'.G'ulom),

Arg'...mchoq, atirsov...n, ajabtov...r, bahuz...r, bemavr...d, bo'l...m, bo'y...n, juld...r, juj...n, zul...k, kuch...k, ko'm...sh, kum...sh, mur...d, muxb...r, muh...m, mud...r, muh...t, muh...m, nuf...z, nuq...l, put...r, puch...q, suz...k, suk...t, sunb...la, sup...rgi, surg...n, sur...shtirmoq, sur...nkali, surg'...ch, suqs...ir, sug'...rta, tug...n, tuzl...q, to'z...k, tuz...m, tuz...sh, to'yn...k, tumsh...q, tun...ka, turk...m, turm...sh, tur...sh, turg'...n, tut...n, tut...q, tutq...n, tux...m, tush...ng, tush...ncha, xur...j, chumch...q, chuch...k, qo'y...n, ho'k...z.

33- mashq. Nuqtalar o'rniga **a** yoki **o** harflaridan mosini qo'yib ko'chiring va so'zlarning to'g'ri yozilishini bilib oling.

Agr...texnika, adv...kat, ajabt...vur, and...va, ant...logiya, ...postrof, ...riq, aer...drom, aer...port, t...mosh..., bak...vul, bar...var, b...horikor, bed...vo, bekinm...choq, be...dab, be...dob, bep...yon, bef...ros...t, bex...votir, bi...logiya, b...rjom, bor...na, b...shoq, b...shqacha, g...vda, g...vjum, g...vhar, g...rmon, d...vomat, d...vron, dipl...omat, d...von, d...mino, do'l...na, j...vlon, j...vob, j...von, j...mol, jang...v...r, jan...za, j...hon, z...vq, z...mon...viy, zir...v...r, zo'r...von, ide...logiya, ijob...t, k...vsar, k...vush, k...vsharlamoq, k...lbasa, k...lleksiya, k...l..r.it, k...mbinat, k...ntakt, k...ntora, k...nfet, k...ridor, k...nspekt, m...ntyor, lab...rant, m...n...log, m...rf...logiya, p...pka, r...vn...q, p...rtret, f...netika.

34- mashq. Berilgan so'zlarni lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida ko'chirib yozing. **E, ё, ю, я** harflarining yangi alifboda yozilishiga e'tibor bering.

Абонент, авлиё, агглютинация, амалиёт, археолог, ашёвий, аямоқ, баён, баҳоят, беайб, беэга, безътибор, бояги, бриллиант, брокер, бюджет, бюро, бюст, гиёҳ, губерня, девон, дунё, дюжина, дюйм, жюри, елвизак, елка, етти, ёдгорлик, ёруғсевар, эҳи, эиёда, иллюзия, костюм, ноябрь, октябрь, сентябрь, шлюз, шляпа, этюд, сюжет, режиссёр, суфлёр.

Undosh fonemalarni ifodalovchi ba'zi harflarning imlosi

1. Bb harfining imlosi: a) ba'zi so'zlarning oxirida jarangsiz **p** tarzida aytilsa ham **b** yoziladi: *maktab>maktap, javob>javop, kitob>kitop, yozib>yozip, olib>olip* kabi; b) ba'zi so'zlarning boshida m tarzida aytilsa ham b yoziladi: *bunday>munday, bo'yin>mo'yin, burun>murun, buyum>muyum* kabi.

2. Jj harfining imlosi: a) qorishiq portlovchi **dj** undoshini ifodalash uchun yoziladi: *javob>djavob, jadval>djadval, jazo>djazo, jamoa>djamoa, janub>djanub* kabi; b) sirg'aluvchi **j** undoshini ifodalash uchun yoziladi: *ajdar, gijda, mujda, jurnal, jyuri, projektor* kabi;

3. Nn harfining imlosi: a) so'z o'rtasida **b, p, m** lab undoshlari bilan yonma-yon kelganda **m** tarzida aytilsa ham, har vaqt **n** shaklida yoziladi: *shanba>shamba, sunbul>sumbul, manba>mamba, yonbosh>yombosh, aylanma>aylamma* kabi; b) so'z o'rtasida **k, g, q, g'** undoshlari bilan yonma-yon kelganda, **ng** tarzida aytilsa ham **n** yoziladi: *ko'lanka>ko'langka, alanga>alangga, chanqamoq>changqamoq, qo'ng'iroq>qo'ngg'iroq* kabi.

4. Xx va **Hh** harflarining imlosi: a) **x** harfi qattiq talaffuz etiladigan chuqur til orqa undoshi o'rnida yoziladi: *xabar, xayol, xaloskor, xiyobon, paxta* kabi; b) **h** harfi yumshoq talaffuz etiladigan bo'g'iz undoshi o'rnida yoziladi: *havo, hayot, bahor, tahlil, sohibkor* kabi.

35- mashq. Nuqtalar o'rniga **б** yoki **п**, **д** yoki **т** harflaridan mosini qo'yib ko'chiring va so'zlarni lotin yozuvi asosidagi alifboda yozib chiqing.

Азо..., ай..., ара..., ғаза..., танқи..., аса..., хари..., ба...кирдор, нажо..., балан..., кано..., сабзаво..., рубо..., заво..., взво..., саво..., ғоли..., авло..., суҳба..., се..., велосипе..., водоро..., войдо..., ибра..., бо..., атайла..., кабо..., асбо..., арбо..., мада..., арз-до..., шарба..., водопрово..., ғурба..., зумра..., мақса...

36- mashq. Nuqtalar o'rniga **п** yoki **ф** harflaridan mosini qo'yib o'qing va so'zlarni lotin yozuvi asosidagi alifboda yozing.

Ара...а, атро..., а...анди, ...абрика, ...азилат, ...азо, а...зал, а...тека, ...айз, ...акультет, ...азанда, ...амилия, ...айдо, ба...уржа, ...ан, ...анер, бата...сил, ...аймона, тул...ор, ка...т, ...алак, ...аол, ...араз, ...алахса, бева...о, ...анжара, ...аровон, ...арзанд, ...ано, ...арқ, ...ашист, ...ельетон, ...ермер, бо...ламоқ, вази...а, ...ирибгар,

...ойда, ...ормула, ...ардоз, ...аризод, ...отиҳа, ...атефон, ...атнис, ...инҳона, ...отогроф, ...олиз, ...утбол.

37- mashq. Nuqtalar o'rniga **x** yoki **ҳ** harflarining mosini qo'yib matnni lotin yozuvi asosidagi imloda ko'chiring. Undoshlarning yozilishiga e'tibor bering.

Мен мирзо Анвар ...икоясини отам мар...умдан эшитган эдим. Мирзо Анвар Қўқондан қочиб келиб, уч-тўрт йил чамаси Тошкентнинг маш...ур Эскижўва ма...алласида турган. У вақтларда бизнинг ...овлимиз шу Эскижўвада бўлиб, Мирзо Анвар отамга кўшни эмиш.

«Қўқондан бир мирзо кўчиб келиб, фалончининг ...овлисини ижарага олган эмиш», деган гап чиқиб қолди, - деб ...икоя қилар эди чол. – Мен мирзо ...абарини эшитсам ҳам, бир ...афтача ўзини кўролмадим. Рўза кунларининг бирида биз масжиддан шом намозини ўқиб чиқар эдик, сўфи: «...аммангизни ...удоёр...оннинг мирзоси ифторга таклиф қилган», деди. Биз йигирма чоғлиқ киши янги кўшнининг уйига бордик. Бир уй ва бир айвонга я...ши палослар солинган, кўрпачалар ёзилган, ўртада анвойи ...астур...онлар. Биз уйга кириб ўлтургандан кейин эшик ёнида ...ушурат бир йигит кўринди. Бизга тавозеланиб ...уш омади айтди. Мирзо Анвар, дегани шу эмиш. Биз ифторга қарадик, мирзодан ...ват кўрдик. (А. Қодирий).

38- mashq. «O'zbek tilining lotin alifbosi asosidagi imlo lug'ati»dan ma'nosi **s** va **h** hamda **p** va **f** bilan farqlanadigan so'zlarga misollar tanlab daftaringizga yozing, ularning yozilishini bilib oling.

So'z qismlarining imlosi

So'zning o'zak qismiga turli so'z yasovchi yoki shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan ularda turlicha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Talaffuzdagi bunday o'zgarishlar imloda ham o'z aksini topadi. Masalan: *son+a>sana, ong+la>angla, yosh+a>yasha, ot+a>ata, tara+q>taroq, so'ra+q> so'roq, chanqa+q>chanqoq, bo'ya+q>bo'yoq* kabi.

So'z qismlarining imlosi haqida fikr yuritilganda amaldagi imlo qoidalari bilan yangi lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalari o'rtasida bir oz farq borligini hisobga olish zarur.

Amaldagi imloga ko‘ra taqlidiy so‘zlardan fe’l yasovchi *-илла* qo‘shimchasi asliga ko‘ra yoziladi: *шарилламоқ шақилламоқ, қарсилламоқ, шовилламоқ, гувилламоқ, ғувилламоқ, гурилламоқ, варилламоқ, чийилламоқ* kabi.

Lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalariga ko‘ra esa taqlidiy so‘zlardan fe’l yasovchi ***–illa*** qo‘shimchasi tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo‘lgan so‘zlarga qo‘shilganda asliga ko‘ra emas, aytilishiga ko‘ra **–ulla** shaklida yozilishi belgilab qo‘yildi. **Qiyoslang:** *зувилламоқ – zuvullamoq, шовилламоқ - shovullamoq, гувилламоқ - guvullamoq, ғурилламоқ - g‘urullamoq* kabi.

Qolgan holatlarda esa lotin yozuvi asosidagi imloda ham asliga ko‘ra - **illa** shaklida yoziladi: *shaqillamoq, sharillamoq, qirsillamoq, chiyillamoq, g‘izillamoq* kabi.

Lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalariga ko‘ra esa tarkibi **g** va **g‘** undoshlari bilan tugagan so‘zlarga **g** tovushi bilan boshlanadigan ***-ga, -gacha, -guncha, -gani, gudek, -gan, -gin, -gina*** qo‘shimchalari qo‘shilganda aytilishiga mos holda emas asliga ko‘ra yozilishi belgilab qo‘yildi.

Ammo **g** bilan tugagan ba’zi o‘zlashma so‘zlarda o‘zgarish bo‘lmaydi, **g** bilan yoziladi: *pedagog+ga>pedagogga, xirurg+ga> xirurgga, Lyuksemburg+ga> Lyuksemburgga* kabi.

Qiyoslang:

Kirill yozuvi asosida		Lotin yozuvi asosida	
asli	yozilishi	asli	yozilishi
Барг+га	Баркка	B arg+ga	Bargga
Тег+ган	Теккан	Teg+gan	Teggan
Эг+гани	Эккани	Eg+gani	Eggani
Туг+гунча	Туккунча	Tug+guncha	Tuggguncha
Тоғ+га	Токка	Tog‘+ga	Tog‘ga
Боғ+га	Боққа	Bog‘+ga	Bog‘ga
Чўғ+га	Чўққа	Cho‘g‘+ga	Cho‘g‘ga
Ёғ+гунча	Ёққунча	Yoq’+guncha	Yog‘guncha
Соғ+гани	Соққани	Sog‘+gani	Sog‘gani

Tarkibi ***k*** yoki ***q*** undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda ***k*** tovushi ***g*** kabi, ***q*** tovushi ***g‘*** kabi aytiladi va shunday yoziladi: ***chelak+im>chelagim, istak+im>istagim; qishloq+im> qishlog‘im, o‘rtoq+im>o‘rtog‘im*** kabi.

Ammo **k** yoki **q** undoshi bilan tugagan ba'zi bir bo'g'inli hamda ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda ham yuqoridagi kabi o'zgarish bo'lmaydi: *tok+i>toki, chek+im>chekim, o'q+im>o'qim, nok+i>noki, sirk+i>sirki, ittifoq+i>ittifoqi, tasdiq+i>tasdiqi* kabi.

Men, sen olmoshlariga ***–ning, -ni, -niki*** qo'shimchalari qo'shilganda bir n undoshi aytilmaydi va shunday yoziladi: *men+ning>mening, sen+ning>sening, men+ni>meni, sen+niki>seniki* kabi.

U, bu, shu olmoshlariga ***–da, -dan, -day, -ga, -cha*** qo'shimchalari qo'shilganda talaffuzda bir n tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *u+da>unda, bu+dan>bundan, shu+day>shunday, u+ga>unga, bu+cha>buncha, shu+cha>shuncha* kabi.

Fe'lning orttirma nisbat qo'shimchasi ***–dir*** quyidagicha yoziladi: **a)** jarangsiz undosh tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda ***–tir,*** shaklida yoziladi: *bo'shat+dir>bo'shattir, ek+dir>ektirmoq, cho'k+dir>cho'ktirmoq, bo'rt+dir>bo'rttirmoq, uq+dir>uqtirmoq* kabi; **b)** jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda **–dir** shaklida yoziladi: *yoz+dir>yozdirmoq, bil+dir>bildirmoq, ol+dir>oldirmoq, sur+dir>surdirmoq* kabi. Ammo **kel** so'zi bundan mustasno: kel+dir>keltirmoq; **v)** jarangli undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda **–tir** shaklida yoziladi: *kiyin+dir>kiyintirmoq, cho'mil+dir>cho'miltirmoq, sevin+dir>sevintirmoq, uzay+dir>uzaytirmoq* kabi.

39-mashq. Berilgan so'zlarning o'zak va qo'shimchalariga e'tibor bering, so'z qismlarining o'zgarish sabablarini tahlil qiling.

Anglamoq, og'zim, o'g'li, taroq, sanoq, burni, saylovchi, qurshov, tashuvchi, o'rnida, o'rnatmoq, sayroqi, ulg'aymoq, bag'ishlovchi, bo'yoqchi, ishlovchi, sarg'aymoq, qayroqi, o'quvchi, tergovchi, ikkovlon, sanamoq, atamoq.

40-mashq. 1-topshiriq. Berilgan so'zlarga g tovushi bilan boshlanadigan **ga, gan, gach, -gancha, guncha, -gani** qo'shimchalaridan mosini qo'shib chiqing. So'z qismlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga e'tibor bering.

2-topshiriq. Yuqoridagi topshiriqni kirill yozuvi asosida ham bajaring. Imlodagi farqlarni izohlang.

Avlod, adabiyot, ayt, barg, bog', chiq, boq, birik, ko'ylak, oshiq, terak, tug, teg, eshit, sog', tog', qishloq, yaproq, pedagog, miting, ayiq, arxeolog, belbog', bodring, bong, botqoq, bug', tig', vag'-vug', yog', dialog, kiprik, ek, tik, tuk.

41- mashq. Quyidagi berilgan buyruq fe'l shakllariga orttirma nisbat yasovchi ***–dir, -tir*** qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring va so'zlarni kirill yozuvi asosidagi alifboda qayta yozing.

Adash, aralash, baqir, bez, ber, berkit, bil, bor, buk, bur, bo'l, gapir, yoz, yop, kel, ich, kuchay, ko'r, to'l, tut, top, tort, chaqir, chiz, chert, shodlan.

42- mashq. Taqlidiy so'zlardan ***–illa*** qo'shimchasi yordamida fe'l yasang. Yasalgan fe'llarni kirill yozuvi asosidagi alifboda qayta yozib chiqing. Ularning imlodagi farqlarini tahlil qilib bering.

Qo'shma so'zlarning imlosi

I. *Quyidagi tarkibdagi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:*

1. Tarkibida *xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxt, kam, umum, aro, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlardan biri qatnashgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *ishxona, qabulxona, ma'lumotnoma, tabriknoma, sholipoya, g'o'zapoya, ommabop, xushxabar, hamdo'st, hamsuhbat, orombaxsh, kamgap, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, izzattalab* kabi.

2. Ikkinchi qismi ***–ar*** (inkor shakli **-mas**) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *otboqar, o'rinbosar, molboqar, beshiktervatar, tezoqar, ertapishar, tinchliksevar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

3. O'xshash, qiyoslash asosida yuzaga keluvchi qo'shma otlar va qo'shma sifatlar: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, bodomqovoq, devchechak* kabi.

4. Narsani biror belgisi asosida bildiruvchi qo'shma otlar: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

5. Narsani joyga nisbatan bildiruvchi qo'shma otlar: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

6. Biror maqsad, ish uchun mo'ljallangan narsani bildiruvchi qo'shma otlar: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, ko'zoynak* kabi.

7. Qaratqich x qaralmish tipidagi birikmaning so'zga aylanishi bilan Yuzaga keluvchi qo'shma otlar: *mingboshi, shaftoliqoqi, olmaqoqi, qovunqoqi* kabi.

8. Ikkinchi qismi turdosh otlardan yoki **obod** so'zi bo'lgan joy nomlari: *Sirdaryo, Kattaqurg'on, To'rtko'l, Yakkabog', Yangiobod, Xalqobod, Fayziobod* kabi.

Ammo ikkinchi qismi atoqli otlardan bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Yuqori Chirchiq, Qo'yi Chirchiq, Ko'hna Urganch* kabi.

9. Rus tilidan aynan o'zlashgan yoki kalka usulida hosil qilingan qo'shma so'zlar: *kinoteatr, fotoapparat, elektroapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, suvosti, bayramoldi* kabi.

10. Qisqartma otlar qo'shib yoziladi: O'zMU (O'zbekiston Milliy Universiteti), O'zXDP (O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi) kabi.

II. Chiziqcha bilan yozish.

1. Juft va takror so'zlar chiziqcha bilan yoziladi: *mehr-oqibat, katta-kichik, el-yurt, asta-sekin, bordi-keldi, don-dun, mayda-chuyda, taq-tuq, qop-qop, baland-baland, chopa-chopa, yura-yura ayrim-ayrim, borib-borib* kabi.

Kirill yozuvi asosidagi imloga ko'ra agarda juft so'z qismlari ***–у (ю)*** bog'lovchisi yordamida bog'lansa chiziqcha qo'shilmaydi: *катта-кичик = каттаю кичик, эл-юрт = элу юрт, ор-номус = ору номус, тун-кун = туну кун, кеча-кундуз = кечаю кундуз* kabi.

Lotin yozuvi asosidagi imloda esa bu qoidaga o'zgartirish kiritilgan, ya'ni juft so'z qismlari orasida ***–u (-yu)*** bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi, deb belgilab qo'yilgan.

Qiyoslang:

Каттаю кичик - katta-yu kichik
Туну кун - tun-u kun
Элу юрт - el-u yurt kabi.

2. Amaldagi imloga ko'ra **йилдан – йилга, кўпдан – кўп, кундан - кунга** kabi birikmalar juft so'zlar doirasida qaralgan, shunga ko'ra chiziqcha bilan yozish qoidalashtirilgan.

Lotin yozuvi asosidagi imloga ko'ra birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan **kundan kunga**, **yildan yilga** kabilar, shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi **ko'pdan ko'p**, **ochdan och** kabi birikishlarning chiziqchasiz yozilishi belgilab qo'yilgan.

Qiyoslang:

Йилдан-йилга - yildan yilga
Кундан-кунга - kundan kunga
Наридан-бери - naridan beri
Тўғридан-тўғри - to'g'ridan to'g'ri
Кўпдан-кўп - ko'pdan ko'p

Текиндан-текин - tekindan tekin
Янгидан-янги - yangidan yangi
Очиқдан-очиқ - ochiqdan ochiq

3. Amaldagi imlo qoidalariga ko'ra yil va oylarni (chislolarni) ko'rsatuvchi arabcha raqamdan so'ng chiziqcha qo'yilmaydi: 2003 йил, 1 сентябрь kabi.

Lotin yozuvi asosidagi imloga ko'ra bunday o'rinlarda chiziqcha qo'yib yozish belgilab qo'yilgan.

Qiyoslang:

2003 йилнинг 9 сентябри – 2003 –yilning 9 –sentabri kabi.

4. Kuchaytirilgan belgi shakllari chiziqcha bilan yoziladi: *qop-qora, yam-yashil, yap-yapaloq, ko'm-ko'k, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, yop-yorug'* kabi.

5. Rus tilidan aynan o'zlashgan yoki kalka usulida o'zlashgan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *injener–konstruktor, gramm-molekula, kilovatt-soat, changlagich-purkagich, vitse-prezident* kabi.

III. Ajratib yozish.

1. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *imzo chekmoq, ta'sir etmoq, vafo qilmoq, sotib olmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq* kabi.

2. Belgining ortiq yoki kamligini bildiruvchi ***och, to'q, tim, nim, liq, jiqqa, lang*** kabi so'zlar bilan kelgan sifat turkumiga oid so'zlar ajratib yoziladi: *och qizil, to'q qizil, tim qora, nim pushti, liq to'la, jiqqa ho'l, lang ochiq* kabi.

3. ***Har, hech, hamma, ba'zi, g'ayri, bir, qay, u, bu, shu, o'sha*** so'zlari yonida kelgan so'zdan ajratib yoziladi: *har zamon, hech kim, hamma vaqt, ba'zi bir, g'ayri tabiiy, bir qancha, bir yo'la, bir oz, qay kuni, u yerga, bu yoqdan, shu yerdan, o'sha yoqqa* kabi.

Lekin ***birpas, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon (beri)*** so'zlari qo'shib yoziladi.

Lotin yozuvi asosidagi imloga ko'ra ***biroz*** so'zining ham qo'shib yozilishi belgilab qo'yilgan.

Qay so'zi yer, yoq, yon so'zlari bilan kelganda bir **y** tushib qolishi natijasida bu so'zlar qo'shib yoziladi:

Qiyoslang: qay yerda – qayerda, qay yoqqa – qayoqqa, qay yondan – qayondan kabi.

Qaybir, qayvaqt so'zlari ham qo'shib yoziladi.

4. Murakkab sonlarning qismlari ajratib yoziladi: *yigirma besh, bir yuz ellik ikki* kabi.

5. Kirillcha yozuv asosidagi imlo qoidalariga ko'ra ***муз ёрар, иш ёқмас, қўл ёзма, шер юрак*** so'zlari ajratib yoziladi deb belgilab qo'yilgan. Lekin amaldagi lug'atlarda turlicha yozib kelingan. Lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalariga ko'ra bu so'zlarning qo'shib yozilishi qat'iy belgilab qo'yildi: ***muzyorar, sheryurak, devyurak, ishyoqmas, qo'lyozma*** kabi.

6. Tojikcha izofali birikmalar ajratib yoziladi: *tarjimayi hol, nuqtayi nazar, oynayi jahon, dardi bedavo* kabi. Shuningdek, yangi imlo qoidalarida izofa undosh bilan tugagan so'zlarga *i* shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga *yi* shaklida qo'shilishi belgilab qo'yildi.

Qiyoslang: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol, oynayi jahon, piri badavlat kabi.

43- mashq. Gaplarni o'qing, qo'shma so'zlarni aniqlang. Qaysi so'z turkumiga oidligini belgilab daftaringizga yozib oling.

1. -Qo'ying, kampir, o'zim olib kelaman, - deganimga ham quloq solmasdan, kampir chiqib ketdi. Oradan o'n minutlar o'tganda Yodgorni qo'lidan yetaklab kirib keldi. (G'.G'ulom). 2. Saidiy bir kuni ishdan ancha erta – qorong'u tushar-tushmas qaytib keldi. (A.Qahhor). 3. – Haligi, ha, shuncha savolni zamlab tashladingki, qaysi biriga qanday javob berishni bilmay qoldim. To'xta-to'xta, birov kelyaptimi, - dedi u tashqariga quloq solib. (M. Ismoiliy). 4. Bu orada kechki ovqat o'tdi. Ikki marta hamshira kelib ketdi. (V.G'ofurov). 5. Yusufjonning o'zi Bo'tako'zdan ketsa ham, soyasi ketgani yo'q edi. (I. Rahim). 6. ..., men ikkiyuzlamachilik qilolmayman!.. (M. Muhammad do'st). 7. Shu chog' «Volga» rulidagi ko'zlari chaqchaygan, xushmo'ylov, yag'rindor kishining oyisiga «tez bo'ling»deb imlaganini sezdi. Sottixon shashtidan tushib, qaynatasiga: - Mayli, hozir sizlar ko'rib kelinglar. Men ertaga boraman, - dedi. (H.Nazir) 8. – Mehmondo'stligingiz uchun ... Rahmat. (O. Yoqubov).

44- mashq. Joy nomlarini bildiruvchi qo'shma otlarga 10 ta misol toping. Ularning imlosini tahlil qilib bering.

45- mashq. Quyida berilgan juft so'zlarning qismlarini **–u (yu)** bog'lovchisi yordamida bog'lab daftaringizga ko'chiring va ularni amaldagi yozuv asosidagi imlosi bilan qiyoslang.

Arz-dod, aft-angor, aql-zakovat, katta-kichik, maza-bemaza, baxt-saodat, bahs-munozara, bosh-oyoq, bog'-rog', davr-davron, ko'cha-

ko‘y, yor-birodar, yosh-qari, ona-bola, orzu-istak, jon-jahd, ilm-fan, kasb-hunar, xalta-xulta, chora-tadbir, kibr-havo, mehr-oqibat, mol-dunyo, yakka-yolg‘iz, nari-beri, tun-kun, ust-bosh, yaxshi-yomon, qadr-qiymat, husn-jamol.

Bo‘g‘in ko‘chirilishi

Orfografiya qoidalariga ko‘ra bir qatorga sig‘may qolgan so‘zning qismi ikkinchi qatorga quyidagicha ko‘chiriladi:

1. So‘z qismlarga bo‘g‘inidan ajratib ko‘chiriladi: *tala-ba, ta-laba, mak-tab, ko‘-ngil* kabi.

2. Faqat bir unlidan iborat bo‘lgan bo‘g‘in oldingi satrda qoldirilmaydi. Shuningdek, keyingi satrga ham bir unlidan iborat bo‘lgan bo‘g‘in ko‘chirilmaydi: *o-naning emas, ona-ning, jamo-a emas, ja-moa, mudofa-a emas, mudo-faa* kabi.

3. Bir tovushni ifodalaydigan harfiy birikmalar ajratilmay ko‘chiriladi. Misollarni har ikki yozuv asosida **qiyoslang**: *Кў-нгил, тонг-ги, си-нгил; поме-шчик, ме-шчан; ma-shaqqat, ke-chuv, kech-qurun, tong-gi, so‘ng-ra, pome-shik, me-shchan* kabi.

4. Kirill yozuvidagi imloga ko‘ra ayirish, yumshatish belgilari oldingi bo‘g‘in bilan qatorda qoldiriladi. Misollarni har ikki yozuv asosida **qiyoslang**: *суръ-ам — sur’-at, суль-фат - sul-fat, разъ-езд - raz-yezd, маъ-руза - ma’ruza* kabi.

5. Bosh harflardan tuzilgan qisqartma otlar, ko‘p xonali raqamlar ikkinchi qatorga bo‘lib ko‘chirilmaydi: *O‘zMU, BMT, AKT, 155, 2003, XXIX* kabi.

6. Ism va familiyalarning harfiy qisqartmalari ajratib ko‘chirilmaydi: *I. O. Sultonov, A. B. Ahmedov kabi.*

46- mashq. Quyidagi berilgan so‘zlarni har ikki yozuv asosida bo‘g‘inlarga ajrating va ularni birinchi satrdan ikkinchi satrga ko‘chirish yo‘llarini tushuntiring.

Авлиё- avliyo, адлия- adliya, аёз- ayoz, акция- aksiya, аланга- alanga, альбом- albom, ана- ana, ангишвона- angishvona, аппарат- apparat, аранг- arang, ария- ariya, армия- armiya, арпапоя- arpapoya, археология- archeologiya, елим- yelim, елка- yelka, емиш- yemish, енгил- yengil, етук- yetuk, ечим- yechim, ёзув- yozuv, ёмон- yomon, ёноқ- yonoq, ёруғ- yorug‘, ёғоч- yog‘och, дарё- daryo, даъво- da’vo, дунё- dunyo, зиё- ziyo, истеъдод- iste’dod, матбаа-

matbaa, юган- yugan, югуриш- yugurish, юза- yuza, юмалоқ- yumaloq, юнг- yung, юрак- yurak, ютуқ- yutuq, ягона- yagona, ядро- yadro, яёв- yayov, якандоз- yakandoz, яланг- yalang, ямоқ- yamoq, янгидан- yangidan, яъни- ya'ni, яшик- yashik.

Bosh harflar imlosi

Orfografiya qoidalariga ko'ra bosh harflar quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Abzats, gap, she'rning har bir misrasi bosh harf bilan boshlanadi.

2. Atoqli otlar bosh harf bilan boshlanadi: *Alisher Navoiy, G'afur G'ulom, Toshkent, O'zbekiston* kabi.

3. Planeta va yulduzlarning nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Ye*r, Quyosh, Oy, Mars, Hulkar* kabi. Ammo *Yer, Quyosh, Oy* so'zlari planeta ma'nosidan boshqa ma'nolarda kelganda kichik harf bilan boshlanadi. *Qiyoslang: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi; Hamma bir yerga to'planib, kelasi oyning rejasini tuzib oldik.*

4. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning, xalqaro tashkilotlarning nomlaridagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi. *O'zbekiston Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi* kabi.

5. Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarning nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Madaniyat vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Til va adabiyot instituti* kabi.

6. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq- ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harflar bilan boshlanadi: *«Saodat» dramasi, «Navruz» xayriya jamg'armasi, «Toshkent» mehmonxonsi, «Qutlug' qon» romani, «Paxtakor» stadioni, «Dilorom» operasi* kabi.

7. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh har bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramozon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

8. Davlatning oliy darajali mukofotlari nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *«O'zbekiston Qahramoni» (unvon), «Oltin Yulduz» (medal).*

Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: «Sog'lom avlod uchun» (orden),

«O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi» (faxriy unvon), «Matbaa aloqachisi» (nishon) kabi.

Orfoepiya

Orfoepiya adabiy tilning talaffuz me’yorlarini belgilab beradigan fan bo‘lib, grekcha orfos – «to‘g‘ri», epos – «nutq» degan ma’nolarni anglatadi.

Adabiy talaffuz me’yorlari ikkita muhim omil asosida yuzaga keladi. Birinchisi orfografiya, ikkinchisi og‘zaki nutqning turli ko‘rinishlari hamda turli xil sheva talaffuzlaridir. Adabiy talaffuzning shakllanishida asosiy omil orfografiya sanaladi. Lekin ko‘pgina o‘rinlarda talaffuz orfografiya bilan mos kelmaydi.

Qiyoslang:

Yozilishi	*talaffuz*
Kitob	kitop
Oftob	oftop
Maktab	maktap
Izsiz	issiz
Uchta	ushta
Uch so‘m	usso‘m
Besh so‘m	besso‘m
Xursand	**xursan**
Samarqand	Samarqan
Bo‘lsa	bo‘sa
Kelsa	kesa

Keltirilgan so‘zlarning talaffuzi adabiy talaffuz me’yoridan chekinish hisoblanadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, orfoepik me’yorlar xalq jonli tili faktlari asosida ham yaratiladi.

Orfoepiyaning qonun-qoidalari asosida milliy tilning yagona talaffuz mezoni yuzaga keladi, nutq madaniyati shakllanadi. Bu mezon adabiy til doirasida unli va undosh tovushlarning talaffuzi, so‘z va so‘z qismlarining talaffuzi, shuningdek, so‘z birikmalarining talaffuzini belgilash asosida amalga oshiriladi.

Unli tovushlar orfoepiyasi

I* unlisi:** 1) yopiq bo'g'inda, xususan, jarangsiz tovushlar orasida, shuningdek, *t,s,r,l,z,n* tovushlari oldida kuchsizlanib, qisqa talaffuz qilinadi.: *qish, tish, qir, qil, qin, bil, sir* kabi; 2) chuqur til orqa *q,g',x* undoshlari bilan kelganda qisqa, qattiq talaffuz qilinadi: *qirq, g'isht, qir, xil* kabi; 3) sayoz til orqa *k,g* hamda bo'g'iz undoshi bilan kelganda esa qisqa, yumshoq talaffuz qilinadi: *kindik, gijda gij-gij, hil-hil, hikmat, his* kabi; 4) ba'zi o'zlashgan arab-forscha so'zlarda, shuningdek, rus tilidan o'zlashgan so'zlarning urg'uli bo'g'inlarida *i* unlisi cho'ziqroq talaffuz qilinadi: *muhim, muhit, din, tanqid, targ'ib, lirika, tir* kabi; 5) ikki undosh orasida kelganda ***i unlisi ba'zi egalik qo'shimchalarining qo'shilishi natijasida talaffuzda tushib qoladi: *og'iz-og'zi, ko'ngil-ko'ngli, qorin-qorni* kabi; 6) ***i*** unlisi bilan tugagan so'zlarga ***v*** qo'shilganda ***i*** tovushi ***u*** tarzida talaffuz qilinadi: *tashi-tashuv, qashi-qashuv* kabi.

***U* unlisi:** 1) jarangsiz undoshlar orasida juda tor va bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi: *tuxum, pushti, pushaymon, puchuq* kabi; 2) so'zning ochiq bo'g'inlarida kengroq, *o'* va *u* oralig'idagi tovush singari biroz ochiqroq talaffuz qilinadi: *butun, tutun, buzuq, quduq* kabi; 3) *k,g,y* undoshlaridan keyin ingichka, old qator unli tarzida, *q,g'.x* undoshlaridan keyin esa yo'g'on, orqa qator unli tarzida talaffuz qilinadi.

Qiyoslang: *kul, qo'l, kunduz, qunduz, turg'un, norg'ul* kabi.

***O'* unlisi:** 1) sayoz til orqa *k,g,* bo'g'iz undoshi *h* hamda *y,ch,j* undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq talaffuz qilinadi: *ko'ngil, ko'klam, go'sht, ko'l, go'sha, yo'lak, yo'rgak, ho'kiz, cho'kma, jo'ja* kabi; 2) chuqur til orqa *q,g',x* undoshlari bilan yonma-yon kelganda qattiq talaffuz qilinadi: *qo'l, qo'llanma, g'o'ra, qo'shma, g'o'r, xo'r, qo'r* kabi; 3) quyidagi o'zlashma so'zlarda cho'ziqroq talaffuz qilinadi: *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar, mo'jaz* kabi.

E unlisi: 1) so'z yoki bo'g'in boshida kengroq, so'z o'rtasida, undosh tovushlar orasida torroq talaffuz qilinadi: *el, er, ellik, ehtimol, kel, kech, men, sen* kabi; 2) oldingi undosh bilan ochiq bo'g'in hosil qilganda kengroq talaffuz qilinadi: *kecha, tesha, bedana, semiz, terim* kabi.

A unlisi: 1) sayoz til orqa *k,g* undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq talaffuz qilinadi: *kaklik, kalava, kam, gaz, gal, gap* kabi; 2) chuqur til orqa *q,g',x* undoshlari bilan yonma-yon kelganda qattiq talaffuz qilinadi: *qavat, qavs, qaymoq, qanot, g'ayrat, g'alaba, g'amxo'r, xabar, xalq, xarita* kabi.

O unlisi: 1) sayoz til orqa *k,g* undoshlari bilan yonma-yon kelganda

yumshoq; chuqur til orqa *q,g',x* undoshlari bilan yonma-yon kelganda qattiq talaffuz qilinadi.

Qiyoslang: *komil, sokin, begona, ogoh, kotib, qosh, naqqosh, g'oya, g'oz, g'or, xolis, xom, xona, xola* kabi.

47 -mashq. Matnni o'qing. Unlilarning talaffuziga e'tibor bering. Ularning tor-keng, cho'ziq-qisqa, qattiq-yumshoq talaffuz qilinish sabablarini izohlang.

Kun botay deb qolgan, «Qorovultepa»ning ko'lankasi pastdagi soyni tamom egallagan, faqat olisdagi kapalar, o'ng qo'ldagi hali o'roq tegmagan qizg'ish bug'doy dengizi ipakday mayin tovlanib yotipdi...

Qo'chqor ko'rinmaydi, Mashrab esa Akmaldan biroz nariroqda, qizlarga yordamlashish uchun bo'lsa kerak, ancha joyni egallab, qo'li qo'liga tegmay o'ryapti.

Yigitlar, Komilning iltimosi bilan o'roqqa o'tgan kunlari Mashrab ancha zahmat chekkan edi. Ilgari o'roq o'rib ko'rmagan odam, sira qo'li kelishmas, bug'doyni yaxshi qamrayolmas, bug'doyga qo'shilib yantoq va to'ng'iztaroq ilinar, qo'li bir lahzada qop-qora qon bo'lardi. Mana endi Qo'chqor bilan Akmaldan qolishmaydigan, hatto qizlarning o'rtasiga tushib yordamlashadigan bo'lib qoldi.

Akmal bir jilmayib, yana o'roqqa kirishdi. O'zi qayrab o'tkirlab olgan o'roq uning qo'lida xuddi sartaroshning ustarasiday o'ynaydi. U g'ir-g'ir shabadaga ko'ksini tutib, doim anqib turadigan issiq non hidini to'yib-to'yib hidlarkan, butun vujudi yayrab ketadi, go'yo og'ir qo'l mehnati emas, kishiga ilhom baxsh etadigan bir ish qilayotganday zavq oladi. (O.Yoqubov)

Ayrim undosh tovushlar orfoepiyasi

Undosh tovushlarning talaffuzdagi o'zgarishlari, asosan, yonidagi tovushlarga bog'liq bo'ladi. Tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida kombinator variantlar yuzaga keladi. Shuningdek, pozitsion o'zgarishlar natijasida ham tovushlarning talaffuzidagi o'zgarishlar yuz beradi. Jumladan: 1) jarangli *b,d* undoshlari so'z oxirida jarangsiz *p,t* tarzida talaffuz etiladi: *kitob-kitop, javob-javop, maktab-maktap, olib-olip, obod-obot, ozod-ozot, avlod-avlot* kabi; 2) *b,d* undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon kelganda *p,t* tarzida talaffuz qilinadi: *ibtidoiy-iptidoiy, ketdi-ketti, aytdi-aytti* kabi; 3) so'z oxirida yoki o'rtasida unli tovushdan

keyin kelgan *v* undoshi *f* yoki *p* tarzida talaffuz etiladi: *aktiv-aktif yoki aktip*, Avtor-aptir yoki aftir, avtomobil-aftamabil yoki aptamabil, Sobirov-Sobiruf yoki Sobirup kabi; 4) *j,z* undoshlari *sh,s* tarzida talaffuz etiladi: *ijtimoiy-ishtimoiy, mazkur-maskur* kabi; 5) jarangsiz *f* undoshi *p* tarzida talaffuz etiladi. Ma'lumki, turkiy tillarda *f* undoshi bo'lmagan. Shu sababli arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlar tarkibida kelgan *f* undoshi *p* tarzida talaffuz etiladi: *Fan-pan, faqat-paqat, fosh-posh, kulfat-kulpat, Orif-Orip, faner-paner, ferma-perma, fabrika-pabrika* kabi; 6) *z* undoshi bilan tugagan so'zlarga *s* yoki *ch* bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qo'shilganda, *z* tovushi *s* yoki *ch* tarzida talaffuz etiladi: *yozsa-yossa, kezsa-kessa, qizcha-qichcha, izchil-ichchil, bo'zchi-bo'chchi* kabi; 7) *ch* undoshi *sh* tarzida talaffuz etiladi: *uchta-ushta, pochta-poshta, ko'chdi-ko'shdi, qochdi-qoshti* kabi; 8) so'z oxirida kelgan *k* va *q* undoshlari *g* va *g'* kabi talaffuz etiladi: *kurak-kurag, chelak-chalag, kerak-kerag, yutuq-yutug', chiroq-chirog', pichoq-pichog'* kabi.

48-mashq. Quyida berilgan so'zlarning tarkibidagi ayrim undoshlarning talaffuziga e'tibor bering. Ularning talaffuzidagi o'ziga xos jihatlarini izohlang.

Ong, ongli, singdirmoq, sindirmoq, ko'ngil, singan, tingan, ulug', talabchan, madadkor, majlis, mijoz, ajdar, dirijor, jurnal, dublaj, tejamkor, farg'onalik, parkentlik, tuf, tup, sopol, falak, palak, fakt, pakt, to'fon, to'pon, ham, xam, hil, xil, hol, xol, tub, tuf, tup, faqir, paqir, sifat, falsafa, faol, vafo, xirgoyi, hanuz, harbiy, hodisa.

49-mashq. «O'zbek tilining imlo lug'ati»dan foydalanib, ma'nolari f va p hamda h va x tovushlariga ko'ra farqlanadigan so'zlarga misollar to'plang va ular ishtirokida garlar tuzing.

Ayrim qo'shimchalar talaffuzi

Qo'shimchalarning talaffuzi asosan yozma shakliga mos bo'ladi. Sheva xususiyati bilan bog'liq bo'lgan ayrim talaffuzlar orfoepik me'yor sanalmaydi. Jumladan, ko'plik qo'shimchasi ***–lar*** ning ***–la, -na*** shakllari adabiy talaffuz me'yori bo'la olmaydi.

Qiyoslang: *bolalar-bolala, oyimlar-oyimla, shaharlar-shaharla, kelinglar-kelingla.*

Egalik qo'shimchalarining adabiy talaffuz me'yori yozilishi bilan mos

keladi. Shunga ko'ra ***–um, ung*** shakllari adabiy talaffuz me'yori sanalmaydi. **Qiyoslang:** *ko'zim-ko'zum, ko'zing-ko'zung.*

Qaratqich kelishigining qo'shimchasi ***–ning*** ***–ni*** shaklida talaffuz qilinganda ham adabiy talaffuz me'yori buzilgan sanaladi. **Qiyoslang:** *Ahmadjonning dadasi-Ahmadjonni dadasi, o'zbekning paxtasi-o'zbekni paxtasi*

Jo'nalish va o'rin-payt kelishigi qo'shimchalarining almashlab qo'llanishi ham adabiy talaffuz me'yorining buzilishi hisoblanadi. Masalan: - *Nonushtani qayerga qilamiz? –Choyxonaga qilamiz.*

Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi ***–ga*** *k,g* tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda ***–ka*** kabi; *q,g'* tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda ***–qa*** kabi talaffuz qilinadi. Bunday talaffuz adabiy talaffuz me'yoriga zid kelmaydi: *bilak+ga>bilakka, tilak+ga>tilakka, barg+ga>barkka; qishloq+ga>qishloqqa, o'roq+ga>o'roqqa, tog'+ga>toqqa, bog'+ga>boqqa* kabi.

50-mashq. Nuqtalar o'rniga jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari affikslaridan mosini qo'yib, gaplarni o'qing.

1. Men... Saodat... chin muhabbat boshlandi. (G'.G'ulom) 2. Universitet... ko'p ishlar Saidiy... ma'qul bo'lmadi. (A.Qahhor) 3. Bir qancha kun... so'ng Balx... xabar keldi. (Oybek) 4. Kunduzgi og'ir mehnat... va jazirama issiq... so'ng mayin dasht oqshomi tog' havosi ham hushyoqim tuyuladi. (O.Yoqubov) 5. –Chiqqasi kelgan mol... egasi sabab bo'ladi, deyishadi,- dedi tetiklashib Mirobid. (V.G'ofurov) 6. Tashqari... ot taqasining hovli toshlari... urilib qarsillagani eshitildi. (P. Qodirov)

51-mashq. Nuqtalar o'rniga qaratqich yoki tushum kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni o'qing.

1. Bobir mirzo... opasi Xonzoda begim mulla Fazliddin...ko'pdan beri beri hayratga solib keladi. (P.Qodirov) 2. Munisxon... to'yi shu yil... kuzida bo'ladigan edi. (A.Qahhor) 3. Chopiq... tugatib, boy... bog'iga keldi. Yo'lchi... kelgani... bilib, Hakimboyvachcha... to'qqiz-o'n yashar o'g'li Rafiqjon non olib chiqdi. (Oybek) 4. Muqimiy... Shahrixonga nima uchun kelgani... eshitgan ziyolilardan va oddiy mehnatkashlardan bir to'pi ertasiga zargar hoji... uyiga keldi. (R.Abdulla) 5. Inobat Ertoyev... ismi... eshitganida badaniga izg'irin tekkanday seskanib ketdi. (O.Yoqubov) 6. U... nazarida Muhabbat o'g'li... ko'tarib kelayotgandek bo'laverardi. (V.G'ofurov)

Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning talaffuzi

Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning talaffuzi ham o'ziga xos bo'ladi. O'zlashgan ayrim so'zlarning talaffuzidagi o'ziga xoslikni quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

1. Arab tilidan o'zlashgan *Ra'no, ma'no, da'vo, e'lon, ba'zan, ma'muriyat, ma'mur* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi unli cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Bu arab tiliga xos xususiyat hisoblanadi. Bunday cho'ziqlikning yo'qolishi ayrim holatlarda boshqa so'zning talaffuzini yuzaga chiqaradi.

Qiyoslang: *da'vo-davo, ta'na-tana* kabi.

2. Rus tili orqali o'zlashgan ayrim so'zlarning tarkibidagi lab-tish *v* undoshi jarangsiz *f* tarzida talaffuz qilinadi: *aktiv-aktif, passiv- passif, ustav-ustaf, avtomat-aftomat, avtomobil- aftomobil* kabi.

3. Urg'u talaffuz me'yorini belgilab beruvchi asosiy hodisadir. Shuning uchun o'zlashgan so'zlarning urg'ulanishiga alohida e'tibor berish kerak. Ba'zi holatlarda rus tilidan o'zlashgan ayrim so'zlardagi urg'uning o'zgarib qolishi talaffuz me'yoriga ham ta'sir etadi.

Qiyoslang: *rezinka-rezinka, rediska-rediska* kabi.

52-mashq. Quyida o'zlashgan so'zlarni orfoepik qoidalarga rioya qilgan holda talaffuz qiling. So'zlarning urg'ulanishiga e'tibor bering.

Abonement, aviatsiya, akkreditatsiya, aktor, aksiz, aksioner, aksiya, aeroport, apparat, zaryad, doktor, tonna, konstitutsiya, demokratiya, professor, laboratoriya, rektor, traktor, televizor, lift, sirk, vistavka, prezidium, muzika, reduksiya, budjet, dirijor, suflor, etud, bulleten, salut, sujet, arxitektor.

LEKSIKOLOGIYA

Lug'at tarkibi til birliklari sanalgan so'zlar (leksemalar) va iboralar (frazemalar)dan iboratdir. So'z lug'aviy boylik sifatida ***leksik birlik*** deb, ibora esa ***frazeologik birlik*** deb ataladi. Bular birgalikda ***lug'aviy birlikni*** tashkil etadi.

Leksika deb tildagi barcha so'zlar majmuyiga aytiladi. **Leksikologiya** (yunoncha lexikos «so'zga doir», logos «ta'limot») tilning lug'at tarkibi, leksikasi va uning taraqqiyoti haqidagi ta'limot demakdir.

Leksika tildagi barcha so'zlarning oddiy yig'indisidangina iborat emas,

balki ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysunadigan izchil va murakkab sistemadir.

Leksikaning taraqqiyoti har bir xalqning turmush sharoiti, o'sish va yuksalishi bilan bog'liq. Xususan, o'zbek tilining lug'at tarkibi, leksikasi ham o'zbek xalqining butun taraqqiyot yo'lini o'zida aks ettiradi. Jamiyat rivojidagi barcha o'zgarishlar tilning taraqqiyotiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Taraqqiyot natijalari, eng avvalo, tilning lug'at tarkibida, leksikasida o'z ifodasini topadi.

So'z va uning asosiy mohiyati

So'z murakkab xususiyatga ega bo'lgan til birligidir. So'zning asosiy mohiyatini, ya'ni uning ma'nosini va boshqa so'zlardan farqlanib turadigan belgilarini aniqlash muhim hisoblanadi. So'zning ikki tomoni bor: 1. Moddiy tomoni. 2. Ma'nosi.

So'zning tovushlardan tarkib topishi uning ***moddiy tomoni*** hisoblanadi. Har qanday so'z o'z tovush qobig'iga ega.

So'zning tovush qobig'idan keyingi ikkinchi muhim belgisi uning biror ***ma'noga ega bo'lishidir***. Lekin barcha so'zlarning ma'nolari bir xil emas. Ular so'zlarning turkumlanishiga bog'lab belgilanadi. Shunga ko'ra so'zlar quyidagicha turlarga bo'linadi.

1. ***Nomlovchi so'zlar.*** Bu turga ot (ba'zi atoqli otlardan tashqari), fe'l, sifat, ravish, son turkumidagi so'zlar kiradi. Bunday so'zlar narsani (*kitob, bino, daraxt*), belgini (oq, qizil, yaxshi), harakatni (*yurmoq, o'qimoq, haydamoq),* ularning turli belgilarini (*sekin, erta, kech*), son, miqdor nomini (*bir, besh, yuz*) bildiradi.

2. ***Ifodalovchi so'zlar.*** Bunday so'zlar nomlash ma'nosini bildirmaydi. Bu turga undov, modal so'z va yuklama kiradi: *Eh, oh, voy; albatta, shubhasiz; diqqat, nahotki, hatto* kabi.

3. ***Ko'rsatuvchi so'zlar.*** Ular so'zlar orasidagi grammatik munosabatlarni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bu turga bog'lovchilar (va, ham, hamda), ko'makchilar (bilan, uchun kabi) kiradi.

4. ***Olmoshlovchi so'zlar***. Olmosh mustaqil so'zlar turkumiga kiritiladi, ammo o'zicha lug'aviy ma'noni bildirmaydi. Bunday ma'noni kontekstda, nutqda oladi. Shuning uchun ham ular ***olmoshlovchi so'zlar*** deb ataladi. Masalan: *men, sen, u, kim, nima* kabi.

5. ***Atovchi so'zlar***. Atoqli otlarning ma'lum turlari leksik ma'no anglatmaydi. Shu jihatiga ko'ra bunday so'zlar turdosh otlardan,

shuningdek, nomlovchi boshqa turkum so'zlardan keskin farq qiladi. Tushunchani ifodalamaydigan, leksik ma'no anglatmaydigan bunday atoqli otlar ***atovchi so'zlar*** deb yuritiladi. Masalan, *muhabbat* nomlovchi so'z sifatida ma'lum bir his-tuyg'u haqidagi tushunchani anglatadi. *Muhabbat* ism bo'lib kelganda esa faqat ataydi, leksik ma'no anglatmaydi, asosiy tushunchani ifodalamay qo'yadi. Shuning uchun ham shartli ravishda istalgan qizning ismini *Muhabbat* deb atash mumkin.

Ko'rinadiki, tilning lug'at tarkibidagi barcha so'zlar ma'no jihatidan bir xil emas. Bulardan faqat nomlovchi so'zlargina predmet, voqea-hodisalar, harakat, holatlar va ularga oid bo'lgan belgi-xususiyatlar haqidagi tushunchalarni bildiradi. Shuning uchun ular leksik ma'noli so'zlar hisoblanadi. Ifodalovchi, ko'rsatuvchi, olmoshlovchi, atovchi so'zlar esa bunday xususiyatga ega emas va ular leksik ma'no bildirmaydi. Shunga ko'ra leksikologiyani o'rganish obyektiga kirmaydi. Leksikologiyada faqat nomlovchi so'zlar o'rganiladi.

Leksikologiya so'zning quyidagi xususiyatlari haqida ma'lumot beradi:

1. So'zning ma'nosi (semantikasi) bilan bog'liq jihatlari.
2. So'zning (leksemaning) til birligi sifatida ifoda va mazmun planiga egaligi.
3. So'zning (leksemaning) semantik tarkibi.
4. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlari.
5. So'zning leksik birlik sifatida o'z yoki o'zlashgan ekanligi.
6. So'zning qo'llanish darajasi, umumiy yoki chegaralanganligi.
7. So'zning zamonaviyligi, tarixiyligi.
8. So'zning emotsional-ekspressiv va uslubiy bo'yoqdorligi.

53- mashq. O'qing. Berilgan matndagi so'zlarni quyidagicha guruhlarga ajratib ko'chiring

1. Nomlovchi so'zlar:
2. Ifodalovchi so'zlar:
3. Ko'rsatuvchi so'zlar:
4. Olmoshlovchi so'zlar:
5. Atovchi so'zlar.

Quyosh bulutlardan allaqachon chiqib olgan. Tom bo'g'otlaridan, tarnovlardan chak-chak suv tomadi. Tomlar tutashib ketgan, hammasi bo'g'ot. Onda-sonda tunuka tom ko'rinadi, bu, albatta, boyning ichkari-tashqari hovlisi, deyavering.

Bizning uyda Isadan boshqa qor kuraydigan odam yo'q. Bobom hassada, keksa, men bo'lsam kichkina. Maktabdan qaytgandan so'ng Isa tomga chiqadi, erigan qorni zo'rg'a-zo'rg'a hovliga tashlaydi. Har tashlaganda bir «uh!» deb qo'yadi. Men bir belni surgab, narvonga chiqaman. Oppoq qor bosgan tog'lar yaqin ko'rinadi.

- E-e! Qo'y! Belni tashla! - qichqiradi tomdan Isa.

- Qo'shnilardan so'rasam bittasiyam kuragini bermaydi, hammasi, o'zimizga kerak, deydi, - deyman noxush tovush bilan, belni yerga otaman-da, burnimdan kelgan suvni yenglarim bilan artaman.

- Tush pastga, falokat yomon bo'ladi-ya, tush, tom juda sirg'anchiq! —deydi Isa tomdan turib.

Narvondan asta istamasdangina tushaman-da, ko'chada biroz aylangandan keyin Toji buvimnikiga chiqaman. (Oybek)

54-mashq. Matndan leksik ma'no ifodalamaydigan so'zlarni aniqlang va ularning nima sababdan leksik ma'no ifodalay olmasligini tushuntiring.

Lekin Bobur so'nggi yillarda ko'p kasal bo'lib, juda ozib ketgan, jussasi xiyla kichrayib qolgan edi. Xondamir uning o'zini qanchalik oldirib qo'yganini Sekri tog'iga sayrga chiqqanlarida oftob yorug'ida juda aniq ko'rdi. Bobur Sekri tog'ining mo'jazligi va tekis joyga tushganligi O'shdagi Buratog'ni eslatishi haqida gapirar, tog' etagidagi ko'l ichiga qurilayotgan toshsupani qo'li bilan ko'rsatar, pastda qulf urib o'sgan yam-yashil bog' va daraxtlar orasidan ko'rinib turgan yangi imoratlar qanday barpo bo'lganini hikoya qilardi.

Xondamir esa uning suyagi bo'rtib qolgan ozg'in yuziga, ko'z atroflari va peshonasidagi qavat-qavat ajinlariga, uyqusizlikdan ichiga botib ketgan qovoqlariga qarab, ich-ichidan unga kuyunar edi.

Tog'dan ko'l tomonga tushib boryotganlarida Bobur Xondamirning bu kuyunishini sezganday bo'lib:

- Mening taqdirim g'alati, mavlono, - dedi. —Atrofimni obod qilganim sari o'zim so'lib bormoqdamen.

- Unchalik emassiz... har qalay, o'zingizga ham ko'proq g'amxo'rlik qilishingiz zarurmikin?

- Zarurlikka zarur. Lekin mamlakat qanchalik ulkan bo'lsa, uni idora etish shunchalik qiyinlashar ekan. Men zo'r bir davlat tuzish maqsadini zimmamga olganimda buning qanchalik mushkul ekanini tasavvur qilmagan ekanmen. (P. Qodirov)

So'zning semantik tarkibi

So'z bir qancha tarkiblarga – fonetik, semantik, morfemik, so'z yasalish, morfologik tarkiblarga bo'lib o'rganiladi.

So'zning semantik tarkibi lug'aviy birlikning mazmun planiga kiradi. Lug'aviy birlik sifatida so'zning semantik tarkibi ikki hodisadan – leksik ma'no va qo'shimcha ma'no qirralaridan (ottenkalaridan) tarkib topadi. So'zning semantik tarkibi bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi sohaga ***semasiologiya*** deyiladi.

Leksik ma'no

Lug'aviy birlikning mazmun planida, semantik tarkibida asosiy hodisa lug'aviy ma'no bo'lib, u so'zga nisbatan ***leksik ma'no*** deb yuritiladi.

So'zning borliqdagi narsa, belgi harakat kabilar haqidagi ma'lumoti (tasavvuri), lug'aviy mundarijasiga ***leksik ma'no*** deyiladi. Masalan, *yoz, bahor, qish, kuz* kabi so'zlar fasl turlarini; *oq, qora, qizil* kabi so'zlar rang turlarini; *o'qi, yur, chal* kabi so'zlar ma'lum tipdagi harakat turlarini; *besh, o'n, yigirma, yuz* kabi so'zlar ma'lum miqdor nomlarini bildiradi.

Leksik ma'no va tushuncha

So'z o'zining leksik ma'nosi bilan borliqdagi narsa, harakat, belgi kabilarning aynan o'zini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Shunga ko'ra leksik ma'no deb, odatda, tushuncha ta'kidlanadi. ***Tushuncha*** bu borliqdagi narsa-hodisalarning kishi ongidagi umumlashgan in'ikosidir. Tushuncha bir turdagi narsa-hodisalarga xos umumiy belgilarni birlashtiradi. Masalan, *meva, odam* haqidagi tushuncha ularning ayni bir turini emas, balki meva va odamlarga xos umumiy belgilarini birlashtiradi.

So'z tushuncha ifodalar ekan, ya'ni so'zning ma'nosi tushuncha bilan bog'lanar ekan, leksik ma'no va tushuncha so'zning semantik tarkibidagi asosiy hodisalar hisoblanadi. Ular o'zaro uzviy bog'liq. Ammo ular teng hodisalar emas. Leksik ma'no tilga xos hodisa, tushuncha esa tafakkurga xos hodisadir.

Tushuncha ifodalash faqat nomlovchi so'zlarga xos xususiyat. Bunday so'zlarni nominativ ma'noga ega bo'lgan so'zlar deb yuritiladi. Shu jihatdan qaraganda, nominativ ma'noga ega bo'lmagan mustaqil so'zlar (Olmosh turkumiga oid so'zlar), shuningdek, mustaqil bo'lmagan so'zlar (Masalan, yordamchi so'zlar, undovlar) tushuncha ifodalamaydi.

Leksik ma'no bilan tushuncha bog'langan bo'ladi, lekin ular bir-birini tamomila qoplay olmaydi. Leksik ma'noda narsa, belgi yoki harakatning ayrim tomoni aks etmasligi va aksincha, ularning ayrim tomonlari alohida (ta'kidli tarzda) ifodalanishi mumkin. Masalan, *lavozim, mansab* so'zlari ma'lum mas'ul vazifa ma'nosiga ega. *Mansab* so'zi shu ma'noni bildirishdan tashqari, salbiy qirraga ham ega. Ko'rinadiki, *mansab* so'zining ma'nosida tushunchaning ana shu qirrasi ham aks etgan. *Miriqmoq* fe'li umuman qoniqish, to'yishnigina emas, balki rohatlanib tuyishni bildiradi.

Leksik ma'nodagi tushunchadan farqli bo'lgan yuqoridagi so'zlardagi kabi belgi-xususiyatlar **ma'no ottenkalari (qirralari)** deb yuritiladi.

Leksik ma'no bilan tushuncha munosabati haqida fikr yuritilganda, ***termin*** so'zlarning o'ziga xos jihatlarni ta'kidlash lozim. Terminlarda leksik ma'no va tushuncha orasida tenglik bo'ladi. Terminlar o'z ma'nosining aniq belgilab qo'yilganligi bilan boshqa so'zlardan farq qiladi.

Termin har vaqt ayni tushunchani anglatadi. Masalan, ximiyadagi **suv** termini faqat H_2O tushunchasi bilan belgilab qo'yilgan.

So'zning emotsional-ekspressiv va uslubiy bo'yog'i

So'zning semantik tarkibini leksik ma'nodan tashqari yana quyidagi qo'shimcha ottenkalar (qirralar) tashkil etadi:

1. So'zning emotsional-ekspressiv bo'yog'i.
2. So'zning uslubiy bo'yog'i.

Emotsional-ekspressiv bo'yoq so'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzi, kishining turli hissiy munosabatlarini, uning his- tuyg'ularini, kayfiyatini ifodalovchi belgilaridir. Kishilarning voqelikka bo'lgan hissiy munosabatlari, his-tuyg'ulari ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Masalan: *bet, aft, bashara, turq* so'zlari salbiy, *chehra, oraz, ruhsor* so'zlari ijobiy hissiy munosabatni ifodalaydi.

Uslubiy (stilistik) bo'yoq so'zning nutq ko'rinishlaridan (uslublardan) biriga mansubligini ko'rsatuvchi belgi-xususiyatdir. Masalan: *armug'on, giryon, gulro', dilafro'z, jo'shmoq, mardonavor, mahvash, netay, paymona* kabi so'zlar badiiy uslubga xos bo'yoqdor so'zlar sanaladi. *Ketvorgan, paqqos tushirmoq, qitday, turq, boyaqish* kabi so'zlar esa oddiy-so'zlashuv uslubiga xosdir.

Tilda emotsional-ekspressiv va uslubiy bo'yoq quyidagi usullarda ifodalanadi:

1. Leksik usulda
2. So'zning metaforik qo'llash usulida
3. Affiksatsiya usulida
4. Kontekstual usulda
5. Fonetik usulda

1. Leksik usulga ko'ra bo'yoqdorlik so'z negizining o'zi bilan ifodalanadi, ya'ni bo'yoqdorlik so'zning o'zida bo'ladi. Buni leksik ifodalanish deyiladi. Masalan, *azamat, dilbar, dildora, lobar, xushsurat, fusunkor, pariro'y, oyparcha, nuroniy, hassos; nomard, makkor, kazzob, benomus, xoin, ig'vogar, iflos* kabi.

2. So'zni metaforik qo'llash usuli yordamida keng ma'nodagi predmet yoki harakat nomlari insonga nisbatan, uning tabiati va harakat belgilarini xarakterlashga mo'ljallab ishlatiladi. Bunday o'xshatishda so'zlovchining biror shaxsga yoki harakatga nisbatan yorqin hissiy munosabati ifodalanadi. Masalan, *bulbul, lochin, qo'chqor, ohu* ijobiy hissiy munosabat ifodalaydi. *To'ng'iz, eshak, akillamoq, sang'imoq* salbiy hissiy munosbat ifodalaydi.

3. Affiksatsiya usulida bo'yoqdorlik ma'lum qo'shimcha morfema yordamida ifodalanadi. Buni morfologik ifodalanish deyiladi. Masalan, *qizgina, qizcha, kelinchak, otajon* kabi. Bu usulga ko'ra so'zga ***-cha, -xon, -jon, -gina, -kay, -loq, -chak, -voy (-boy), -oy, -bonu*** kabi morfemalar qo'shilib ijobiy emotsional ekspressiv bo'yoqdorlik ifodalanadi..

4. Kontekstual usuliga ko'ra so'zni o'z o'rnida emas, boshqa o'rinda qo'llash asosida bo'yoqdorlik hosil qilinadi. Buni kontekstual ifodalanish deyiladi. Kontekstual usulga ko'ra, asosan, kinoya ma'nosi ifodalanadi.

Masalan: 1. -Ha, *polvon,* vazifani bajarmabdilar-ku! 2.-*Qoyilman, yolg'onni ham do'ndirding.* Bu gaplardagi *polvon, qoyilman* so'zlari o'z o'rnida emas, kinoya maqsadida, teskari ma'noda qo'llangan.

5. Fonetik usulga ko'ra so'z tarkibidagi biror tovush orttirilishi orqali yoki urg'uning o'rnini o'zgartirish orqali bo'yoqdorlik hosil qilinadi. Bu ko'proq og'zaki nutqqa xos. Masalan, *Avvalo, yo'l* ***haqqini*** *to'lang. Dushman* ***yashshamagur,*** *ketdi.*

55- mashq. A.Oripovning «Muallimlarga» she'ridaberilgan so'zlarning ifodalagan tushunchalari asosida quyidagicha guruhlarga ajratib daftaringizga ko'chiring.

I. Narsa yoki hodisa tushunchalarini ifodalovchi so'zlar.
II. Belgi tushunchalarini ifodalovchi so'zlar.
III. Harakat yoki holat tushunchalarini ifodalovchi so'zlar.

MUALLIMLARGA.

Nechog‘ baxtiyorman, ta’zimda shu tob
Sizning sha’ningizga bitmoqdaman bayt.
Ne odam bo‘lardim, qo‘limda kitob
Biror harf tanimay tursaydim loqayd.
Siz-ku«Alifbo»dan «Qomus»gacha to
Bari –barisini tanitgan ustoz.
Ilk bor Siz ko‘rsatgan duraxshon Zuhro
Bukun she’rim ichra tashbihdir mumtoz.
Siz mo‘jaz yurakda yoqolgan yog‘du
Oqibat quyoshdek socha olur nur.
Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu:
Sizdan boshlanadi asli Tafakkur.
Olamda ko‘p erur muborak onlar,
Tabarruk zotlar ham garchand ko‘p erur.
Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,
Munis muallimlar, Sizga tashakkur.

(A.Oripov)

56- mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning tilda ifodalagan asosiy tushunchadan tashqari yana qanday qo‘shimcha qirralarga ega ekanligini aniqlang.

1. Biz uyalibgina non tishlaymiz, shirinliklardan uncha-muncha **totinamiz**. (Oybek). 2. Ariq bo‘yidagi pashshaxonada ko‘rpaga o‘rangan ikki odam **gumbazday do‘ppayib** yotipti.(O.Yoqubov) 3.Buyuklar **haqqiga** qasamyod gap bu: Sizdan boshlanadi asli Tafakkur.(A.Oripov) 4.Bilaman, beklar dashtda **izg‘ib** yurgan shayboniyzodalarga qarshi urushmoq qasdidalar. (P.Qodirov). 5. **Volidamiz** bedom-darak ketgan ikki o‘g‘lining dard-firoqida **kuyib, yonib** qoliptilar. (A.Qahhor) 6. **O‘g‘lonim**, kelin kelguncha uyingdagilar uchun bola eding, uncha-munchaga sendan gina qilmasdilar. (T.Sodiqova) 7. **Kelin oyim**, esingizda bo‘lsinki, **jigarlar** o‘zlari hech qachon bir-birlaridan **sovumaydi,** ularni oraga kirgan begonalar ajratadi. (T.Sodiqova) 8. Men juda **ajoyib iste’dod sohiblarini** topib oldim, ularning she’rlari sizga yana uzoq umr **baxsh etadi,** endi siz ham yangi oftob, yangi oy to‘g‘risida she’r yozishingiz kerak! (S.Abdulla) 9. –Nima qilib bu yerda turibsan, **chirog‘im**, yaxshilikka bo‘lsin edi, - dedi chol. (G‘.G‘ulom).

Leksik ma'no va leksik qo'llash

Ma'lumki, leksik ma'no ham xuddi so'z kabi til birligi sanaladi. Lekin so'zning ma'nosi har gal kontekstda, nutqda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra so'zlar kontekstda ikki xil ma'noni ifodalaydi:

1. Uzual ma'noni ifodalaydi.
2. Okkazional ma'noni ifodalaydi.

Uzual ma'no so'zning semantik tarkibida bor bo'lgan ma'nosidir. U har gal nutqda yaratilmaydi. Til birligi sifatida, ma'lum kontekstda, boshqa leksik birliklar qurshovida namoyon bo'ladi. Buni **chiqmoq** fe'li misolida ko'rishimiz mumkin: 1. ... so'fi mezonaga *chiqib* azon aytdi. (A.Qodiriy) 2. Uning bosimi ikki yuzga *chiqdi*. 3. Shu vaqtda ichkaridan Oybodoq *chiqib,* Otabek yoniga keldi. (A.Qodiriy). 4. Chigit unib chiqdi. 5. Quyosh *chiqdi*. 6. Uzumning suvi *chiqdi*. 7. Yiqilib qo'li *chiqdi*. 8. Kitob nashrdan *chiqdi*.

Okkazional ma'no faqat kontekstual holatga ko'ra ayrim so'zlarda o'z ifodasini topadi. Buni A.Qahhorning «Qo'shchinor chirog'lari» asaridan olingan parchadan ko'rishimiz mumkin: *«Jo'juq» o'z ustozidan asosiy gapni yashirar yupqa labidan arimaydigan tabassum, dumi xurjunda gaplari bilan go'yo: «Bilib nima qilasan? Sen qurgan yelkan allaqachonlar g'arq bo'lgan. Bizning qayiqda mohir eshkakchi bo'lmagan odam ortiqcha yuk. Bundan tashqari sen pistoni chaqilgan odamsan, bizning qo'limizda uzun kosov bo'lib xizmat qilishdan boshqa ishga yaramaysan» demoqchi bo'lar edi..*

So'zga biror ma'noni sun'iy ravishda tirkab qo'yilishi nutqiy hodisa sanaladi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda bunday ma'noni «okkazional ma'no», «nutqiy ma'no», «kontekstual ma'no», «individual ma'no» kabi nomlab kelinadi. So'zning bunday ma'no bilan qo'llanishi esa «**leksik qo'llash**» deb ham yuritiladi.

57- ***mashq.*** Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning shu gap tarkibida ifodalangan ma'nolarini aniqlang. Leksik qo'llash hodisasini tushuntiring.

1. -Siz yaxshi emas deysiz, janob hoji aka. Ammo ko'pchilik menga rahmat **yog'diryapti.** – Siz shoir bo'ladigan bo'lsangiz, oddiy avomning rahmatiga **uchmang**, bir kun pand yeb qolasiz! (S.Abdulla) 2. Ota-ona bola boqib emas, kelin ko'rib, qiz chiqargach ko'proq aziyat chekadilar. Ularning **kun botarida** duosini olib qoling, kelin oyim! (T.Sodiqova). 3. Kelin kelgach, bir **bulbuling** ikkita bo'lganday, ikki oy, ikki quyosh uyingga baravar tushganday bo'ladi (T.Sodiqova) 4. Birpasdan keyin

Farmonqul, uning ketidan xotin-qizini yetaklab kirdi. U mendan qochmadi. Hammamiz o'tiribmiz, qani endi birontamizdan sado chiqsa! Hayriyat, haligi qiz bor ekan - gapga **kavshar** bo'ldi... (A..Qahhor) 5. Bola **g'izillab** ichkaridan kattakon nog'orani olib chiqadi (Oybek) 6.—So'ksa so'kaversin, men eshitmagandan keyin og'ziga kelganini **o'tlasin** (G'.G'ulom) 7. Shaharning tor ko'chalarida yangragan qo'ng'iroq ovozi devorlarga urilib, **maydalanar, yerga to'kilar edi** (G'.G'ulom) 8. Oldingi kelishida, u, **qovog'i qora bulut**, hech kim bilan gaplashmagan, ... edi (O.Yoqubov)

Bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik

Til birliklarining bir ma'noni anglatishiga ***monosemiya***, ko'p ma'noni anglatishiga ***polisemiya*** deb aytiladi.

Polisemiya lug'aviy birliklarga ham, grammatik birliklarga ham xos hodisadir.

Grammatik polisemiyada grammatik birliklarning ko'p ma'noliligi o'rganiladi. Masalan, qo'shimchalarning ko'p ma'noliligi: *ishla, o'yla, so'zla, arrala* kabi.

Lug'aviy polisemiyada lug'aviy birliklarning, ya'ni leksik birliklarning va frazeologik birliklarning ko'p ma'noliligi o'rganiladi.

Leksik birliklarni so'zlar, frazeologik birliklarni iboralar tashkil etadi.

So'zning, leksemaning bir ma'noliligi va ko'p ma'noliligi leksikologiyada o'rganiladi.

So'z yangi yaratilgan, yangi o'zlashtirilgan davrida bir ma'noli bo'ladi. Taraqqiyot natijasida, keyinchalik, u ko'p ma'noli so'zga aylanishi mumkin. Shuningdek, terminlar ham bir ma'noli bo'ladi. Masalan, **fonema, morfema, sintaksis (tilshunoslikka oid), broker, menejer, menejment** (iqtisodga doir), **agregat, traktor, kultivatsiya** (qishloq xo'jaligiga oid).

So'zning birdan ortiq leksik ma'noga ega bo'lishi **leksik** polisemiya deyiladi. Masalan, Buloqning ko'zi ochildi. Uning ko'zi yaxshi ko'ra boshladi. Misollarda **ko'z** so'zi ikki xil ma'nosida kelgan.

Leksik polisemiyaning asosiy xususiyati shuki, so'z qanchalik ko'p ma'noli bo'lmasin, leksik ma'nolar orasida ma'lum munosabat, bog'lanish bo'ladi. Buni **joy** so'zining leksik ma'nolari misolida ko'rishimiz mumkin: **Joy1.** Aravalar ***joyidan*** qo'zg'alishdi (S.Ahmad). — «Shaxs yoki narsa-predmet ishg'ol qilgan, egallagan, band qilgan yuza, sath, makon» ma'nosida. **Joy2.** Nizomjon qurilish bo'layotgan ***joyda*** mashina gurillaganini eshitgan edi. (S.Ahmad) — «Voqea yoki hodisa sodir bo'ladigan, ish-harakat bajariladigan yuza, sath, punkt» ma'nosida. **Joy3**. Yunusobod

degan ***joydan*** kelayapman. (Oybek) –«Qandaydir ism bilan ataladigan geografik maydon, yuza, sath, territoriya» ma'nosida. **Joy4**. Boylar, boyvachchalar anoyi emas, unga o'z mehmonxonalaridan ***joy*** berib. (Oybek) – «Yashash uchun mo'ljallangan yuza, makon» ma'nosida. **Joy5**. Cho'lda yigirma sotih ***joyga*** o'zim uchun sholi ekdim. (S.Ahmad) – «Ekin ekiladigan sath, yuza, makon» ma'nosida. **Joy6**. Kifoyatxon ***joy*** soldi va boshini ro'yjaga burkab yotdi. (A.Qahhor) – «Yotish uchun mo'ljallab biror sathga, yuzaga to'shalgan ko'rpa, yostiq va shu kabilarning yig'indisi» ma'nosida.

Bu misollar asosida **joy** so'zining 6 ta leksik ma'nosi o'zaro yuza, sath, makon ma'no komponentlarda bir-biri bilan bog'liq ekanligini sezish qiyin emas.

58-mashq. Berilgan bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlarni ikki guruhga ajratib ko'chiring. Ko'p ma'noli so'zlarning har bir ma'nosi asosida gap tuzing.

Akustik, baland, birja, vazifa, janr, dala, zo'r, aksiya, asal, bet, bag'ir, algebra, gap, davlat, ibora, vatan, gazeta, diftong, jilov, issiq, kalit, sintaksis, nutq, mukofot, ichmoq, antonim, vergul.

59- mashq. Matndagi ko'p ma'noli so'zlarni ajrating va ularning qaysi ma'nolarda kelganligini aniqlang.

Qorong'u tushdi. Uzoqda qop-qorayib yarim osmonni to'sib turgan adirning ustida, ufqda o'tli iz qoldirib yulduzlar uchadi. To adirning etagiga yetguncha Turg'unoyning kovushi ishdan chiqdi, adirga mahsichan chiqishga to'g'ri keldi. Yo'l adirning eng yotiq yeridan tushgan bo'lsa ham Turg'unoy tizzasini ushlab zo'rga qadam bosardi. Maston uning qo'lidagi tugunchani oldi-da, Turg'unoyni oldinga o'tkazdi, chunki uning har qadamda yiqilishiga, yiqilganda to adirning etagigacha yumalab ketishiga ko'zi yetar edi. Turg'unoy oxiri bosgan oyog'ini ko'tara olmay to'xtab, Mastonning yelkasiga qo'lini qo'ydi va piq-piq yig'ladi. (A.Qahhor)

Leksik ma'no taraqqiyoti

Leksik polisemiya so'zning semantik tarkibiga xos xususiyatdir. U tilning taraqqiyoti natijasida kelib chiqadigan hodisa sanaladi. Shunga ko'ra uning keltirib chiqaradigan sabab va asoslarini o'rganish va ularga tayangan holda so'zning ma'no taraqqiyotini belgilash muhimdir.

So‘zda yangi leksik ma’nolarning hosil bo‘lishiga olib keluvchi usullar quyidagilar: 1) metafora usuli: 2) funksiyadoshlik usuli; 3) metonimiya usuli; 4) sinekdoxa usuli.

1. Bir narsa, belgi, harakatning nomi boshqasiga o‘zaro o‘xshashlik asosida ko‘chirilsa, ***metafora usulida ko‘chirilish*** deyiladi. Masalan: U do‘stining **biqiniga** turtdi. Ularning idorasi shaharning **biqiniga** joylashgan.

Metafora usulida nom ko‘chish faqat shakliy o‘xshashlik asosida emas, balki belgi o‘xshashligi asosida ham, harakat o‘xshashligi asosida ham sodir bo‘ladi.

Qiyoslang:

Bosh — odamning boshi; ko‘chaning boshi

Tish — odamning tishi; arraning tishi

Shirin — shirin olma; shirin suhbat

Chiroyli — chiroyli bino; chiroyli muomala

Qurimoq — ko‘l quridi; ko‘ylak quridi; daraxt quridi; iz quridi

Erimoq — muz eridi; ona eridi (shashtidan tushdi)

2. Biror narsaning nomi boshqasiga ular bajargan vazifasidagi o‘xshashlik asosida ko‘chirilishiga ***funksiyadoshlik usulida ko‘chirilish*** deyiladi. Masalan:

Qanot — qushning qanoti; samolyotning qanoti

Oyoq — odamning oyog‘i; stolning oyog‘i

3. Bir narsa, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'xshashlik asosida emas, balki o'zaro bog'liqlik, aloqadorlik asosida ko'chirilishiga ***metonimiya usulida ko'chirilish*** deyiladi.

Masalan: *Butun qishloq uni olqishladi.* Bu gapdagi **qishloq** so'zi «joy», «manzil» ma'nosida emas, balki shu manzilda yashovchi odamlar ma'nosida (ko'chma ma'noda) qo'llangan. Ma'no qishloq bilan unda yashovchilar o'rtasidagi bogliqlik, munosabat asosida kelib chiqqan.

O'zaro aloqadorlik asosida belgining nomini predmetga: *ko'k* (belgi) – *ko'k* (osmon), *yupqa* (belgi) – *yupqa* (taom) kabi; harakatning nomini narsaga: *atala* (harakat) – *atala* (taom), *ko'ch* (harakat) – *ko'ch* (narsa) kabi ko'chirishlar ham metonimiya usulida ma'no ko'chirishga kiritiladi.

Navoiyni zavq bilan o'qib chiqdim gapida Navoiy atoqli oti shoirning asarlari ma'nosini ham bildiradi. Bunday ma'no nutqdagina sodir bo'ladi. Navoiy atoqli oti nutqdan tashqarida «asar» ma'nosini bildirmaydi. Atoqli otlarni nutqdagina shunday ma'nolarda qo'llash ***kontekstual metonimiya*** deb ham yuritiladi.

4. Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko'chirilishiga ***sinekdoxa usulida ko'chirilish*** deyiladi.

Masalan: *Tirnoqqa zor bo'ldi.* Bu gapda **tirnoq** so'zi (qismning nomi) «farzand» ma'nosida (butunning nomi) kelgan. *Besh qo'l barobar emas.* Bu gapda **qo'l** (butunning nomi) beshta barmoq (qismning nomi) ma'nosida kelgan.

Leksik ma'no turlari

Leksik ma'no turlicha nuqtayi nazardan yondashilish asosida: bosh ma'no va hosila ma'no; to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no; nominativ (nomlovchi) ma'no va figural (majoziy) ma'no kabi turlarga bo'linadi.

Bosh ma'no va hosila ma'no. So'zning semantik tarkibidagi leksik ma'nolarning yuzaga chiqishi uchun asos bo'lgan ma'noga ***bosh ma'no*** deyiladi. Bosh ma'no asosida yuzaga kelgan leksik ma'noga ***hosila*** yoki ***yasama ma'no*** deb ataladi.

Qiyoslang:

So'zning bosh ma'nosi.	**So'zning hosila ma'nosi.**
Odamning *qulog'i.*	Qozonning *qulog'i.*
Odamning *labi.*	Daryoning *labi.*
Toza ko'ylak.	*Toza* murch.

To'g'ri ma'no va ko'chma ma'no. So'zning bosh ma'nosi ***to'g'ri ma'no***, hosila ma'nosi esa ***ko'chma ma'no*** deb ham ataladi.

Qiyoslang:

So‘zning to‘g‘ri ma’nosi.	**So‘zning ko‘chma ma’nosi.**
Odamning tishi.	*Arraning tishi.*
Paxta (o‘simlik)	*Paxta (Yumshoq) olma.*
O‘chirmoq (olovni).	*O‘chirmoq (yozuvni).*

Nominativ (nomlovchi) ma’no va figural (majoziy) ma’no. Nominativ ma’no tushuncha bilan bevosita bog‘lanuvchi narsa, belgi yoki harakatning nomi bo‘lib xizmat qiluvchi leksik ma’nodir. Masalan, olmaning **guli**, bolaning **tili**. Bu misollarda **gul** va **til** so‘zlari bevosita tushuncha bilan bog‘liqdir. Figural ma’no esa narsa, belgi yoki harakat bilan bevosita bog‘lanmaydi. Masalan, yigitning **guli**, dehqonchilikning tili. Bu misollarda **gul** va **til** so‘zlari bevosita tushunchalarning nomini bildirmaydi. Ular majoziy ma’noda qo‘llangan.

Nominativ ma’no bevosita voqelikni nomlaydi. Shunga ko‘ra so‘zning semantik tarkibida bir nechta nominativ ma’no bo‘lishi mumkin. Hosila ma’no ham tushuncha bilan bog‘lansa nominativ ma’no bo‘ladi.

Qiyoslang:

Nominativ ma’no.

Ko‘z — odamning ko‘zi; taxtaning ko‘zi; buloqning ko‘zi; uzukning ko‘zi

Figural ma’no

Ko‘z — ismning ko‘zi; dehqonchilikning ko‘zi

Achchiq garmdori	–	achchiq gap
Yonmoq (olov yondi)	–	yonmoq (alamdan yondi)
Qizarmoq (qizil rangga kirmoq)	–	qizarmoq («uyalmoq»)

60– mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’no turlarini va ma’no ko‘chish usullarini aniqlang.

1. Terak uchida osilib turgan uch kunlik oy nafis **tilla** kamonday yaltillaydi. (O.Yoqubov) 2. Faqat ingichka, uzun zanjirli, kichkina, lekin g‘oyat chiroyli, mo‘jaz, qopqog‘ida brilliantlar **yongan oltin** soatni olib tomosha qildi. (Oybek) 3. – Har narsaga ro‘zg‘or **achchiq** bo‘la bersa ... qiyinroq bo‘lar, - dedi Turobjon. (A.Qahhor) 4. ... aqlli Yo‘lchi bu hodisaning tabiiy ekaniga **chuqur** ishondi. (Oybek) 5. – Yaxshi, yaxshi, barakalla, juda ham **quruq** kelmagandursan, biror ishing bordur, xo‘sh, nimaga kelding? (G‘.G‘ulom) 6. Rahmatilla Obidiy **tagi** qo‘qonlik bo‘lib, ...

gazetxon boyvachchalardan biri edi. (A.Qahhor) 7. Jamila **og'ir** o'yga tolgan kishiday indamas edi (M.Ismoiliy). 8. Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltillar edi. **Samovarlar yotgan**. Qaytib uyga kirdi. (A.Qahhor) 9. **Samovar**, choynaklarni artib, kurakcha bilan kullarini olib chelakka soldim... (G'.G'ulom) 10. Mana shunday vaqtlarda **til qotib** og'izda aylanmay qoladi, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi. (A.Qahhor) 11. Shuning uchun yo'lning uchdan birini o'tmasdanoq boyagi xurramlikdan **asar** ham qolmadi (O.Yoqubov) 12. Xotin indamay **dasturxonni** yig'ishtirib oldi, ... (A.Qahhor) 13. Kaftda siqila-siqila qattiqlashgan, tuxumday qor **«yovga»** tegmay, adashib, Yo'lchining boshini yalab, do'ppisini qiyshaytirib o'tadi. (Oybek) 14. Ovqat pishdi. Turobjon ikki **kosa** ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi. (A.Qahhor)

61- mashq. O'rin, o'rta, ora, atala, a'zo, bol, gap, gul, tuz, kasal, kuch, ko'z so'zlarining ma'nolari asosida gaplar tuzing.

Namuna:

1. Nuri ***o'rnidan*** qo'zg'almasdan, sovuqqina so'rashdi. (Oybek) 2. Asosiy ishlar ... Avliyoquduq tepaligi ***o'rnida*** borardi. (J.Abdullaxonov) 3. U kelganda Qurbon ota ***o'rnida*** yonboshlab yotar ... edi. (A.Qahhor) 4. Payvandchilik yomonmi? ... Yetib olib, ***o'rningni*** egallamasammi, dedim. (J.Abdullaxonov) 5. Zebixonga ota ***o'rnida*** bo'lib qoldim. (S.Ahmad)

SINONIMIYA

Til birliklarining birlashtiruvchi ma'nosi asosida guruhlanishiga ***sinonimiya*** deyiladi. Sinonimiya so'zi yunoncha bo'lib, synonimon – «birgalikda ismlash» demakdir.

Sinonimiya til birliklarining o'zaro ma'no umumiyligiga ko'ra yuzaga keladi. Sinonimiyada ikki va undan ortiq til birliklarining o'zaro ma'no munosabati mavjuddir. Lug'aviy birliklar ham, grammatik birliklar ham sinonimik aloqaga kirisha oladi.

1. Lug'aviy sinonimiya. Bunda leksik hamda frazeologik birliklarning o'zaro 3 xil sinonimik munosabatlari nazarda tutiladi.

1. Leksik sinonimiya. Bunda so'zlarning o'zaro sinonimik aloqasi kuzatiladi. Masalan: inoq, ahil, qadrdon, totuv, ittifoq, qalin, apoq-chapoq.

2. Frazeologik sinonimiya. Bunda iboralarning o'zaro sinonimik aloqasi kuzatiladi. Masalan: bahri ochildi, dimog'i chog' bo'ldi, kayfi chog' bo'ldi.

3. Leksik – frazeologik sinonimiya. Bunda so'z bilan iboraning o'zaro sinonimik aloqasi kuzatiladi. Masalan: yuragi yorildi, o'takasi yorildi – qo'rqdi.

II. Grammatik sinonimiya. Bunda o'zaro sinonimik munosabatga grammatik birliklar (qo'shimchalar, so'z birikmalari, gaplar) kirishadi. Grammatik sinonimiya 2 xil bo'ladi: 1) ***morfologik sinonimiya*** – o'zaro sinonimik munosabatga morfologik birliklar kirishadi. Masalan, qo'shimchalar sinonimiyasi: ***ser***soqol – soqol***dor***, kelyapman – kela***yotir***man – kel***moqda***man; 2) ***sintaktik sinonimiya*** – o'zaro sinonimik munosabatga sintaktik birliklar kirishadi: *ukamga oldim – ukam uchun oldim, telefonda gaplashdim – telefon orqali gaplashdim.*

So'zlar sinonimiyasi

Talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil bo'lgan so'zlarga **sinonimlar** deyiladi. Sinonimlar bir so'z turkumi doirasida bo'ladi. Masalan: ***sezgir, ziyrak, tuyg'un, hushyor, sergak, tiyrak*** – sifat; ***qobiliyat, layoqat, iste'dod, talant, salohiyat, uquv*** – ot; ***qaynamoq, jo'shmoq, yonmoq*** – fe'l.

Bir umumiy (birlashtiruvchi) ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhiga ***sinonimik qator*** deyiladi. Masalan: nur, shu'la, yog'du, ziyo; ayb, nuqson, nuqs, qusur, illat. Bu sinonimik qatorlarda *nur* va *ayb* so'zlari ***dominanta*** sanaladi.

Sinonimik qatordagi so'zlar bir-birlaridan qaysidir belgi-xususiyatlariga ko'ra farqlanib turadi. Sinonimlarning ayni ma'noni anglatishi, ma'no umumiyligiga ega bo'lishi deyilganda, ma'noda tenglik tushunilmaydi. Aslida so'zlar ma'nolariga ko'ra har jihatdan teng kelmaydi. Shuning uchun ham so'zlar alohida-alohida leksik birliklar sifatida yashash imkoniyatiga egadirlar.

Sinonim so'zlar ayni bir birlashtiruvchi ma'noga ega bo'lishi bilan birga quyidagi jihatlariga ko'ra farqlanib turadi: 1) ma'no qirrasiga ko'ra. 2) uslubiy jihatiga ko'ra, 3) nutqiy xoslanishiga ko'ra. Shunga ko'ra sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Ideografik sinonimlar. Bu turdagi sinonimlar o'zaro ma'no qirrasiga ko'ra farqlanadi. Masalan, *aniq, ravshan, yorqin* so'zlari bir sinonimik qatorga birlashsa ham, ma'no qirralariga ko'ra farqlanadi. Aniq fikr, ravshan fikr, yorqin fikr. Bu misollarda belgi darajasi aniqqa nisbatan ravshanda, ravshanga nisbatan yorqinda kuchlidir.

2. Uslubiy sinonimlar. Bu turdagi sinonimlar o'zaro uslubiy baho

bo'yoqdorligi jihatidan farqlanadi. Masalan, *gavdali, jussali, barvasta, norg'ul, qomatdor, barzangi.* Bo'yoqdorlik darajasi gavdalida neytral, jussali, barvasta, norg'ul, qomatdorda ijobiy bo'yoqqa ega, barzangida salbiy bo'yoqqa ega.

3. Nutqiy sinonimlar. Bu turdagi sinonimlar o'zaro nutqiy xoslanish belgisiga ko'ra farqlanadi. Masalan, *nur – umumnutqqa xos, yog'du – badiiy nutqqa xos so'z; yana – umumnutqqa xos, tag'in – so'zlashuv nutqiga xos.*

4. Kontekstual sinonimlar. Sinonimiya til birliklari orasidagi munosabat asosida tug'iladi. Leksik qo'llash asosida sinonimiya hosil bo'lmaydi. Chunki leksik qo'llash leksik ma'no deb qaralmaydi. Leksik ma'no bilan leksik qo'llash orasidagi sinonimik munosabat kontekstual sinonimlar deb nomlanadi. Masalan, *adib, yozuvchi, avtor* sinonimik qatori ma'lum kontekstda Oybek atoqli otiga kontekstual sinonim bo'ladi.

5. Absolyut sinonimlar. Har jihatdan bir-biriga teng bo'lgan sinonimlarga aytiladi. Masalan, *surat-rasm, so'roq- savol, xabar-darak, agitatsiya-tashviqot, tema-mavzu.* Bunday sinonimlar leksik **dubletlar** deb ham yuritiladi.

Sinonimlar tilda ikki asosiy hodisa natijasida paydo bo'ladi:

1. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi natijasida.

2. Tilda mavjud bo'lgan so'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida.

1. Tilda yangi so'zlar ikki yo'l bilan hosil bo'ladi: 1) boshqa tillardan yangi so'z o'zlashtirish asosida. Masalan, *sevgi* (o'zbekcha)- *muhabbat* (arabcha), *ot* (o'zbekcha) – *ism* (arabcha), *manglay* (o'zbekcha) – *peshona* (tojikcha), *qo'shin* (o'zbekcha) – *armiya* (ruscha); 2) tilda bor so'zlar asosida so'z yasash orqali hosil bo'uladi. Masalan, *vazifa – topshiriq, maosh – oylik.*

2. So'zlarning yangi ma'no kasb etishi ham sinonimlarni yuzaga keltiradi. Masalan: *o'rin* – joy, o'rin – lavozim.

Tilda sinonimlarning ahamiyati katta. Fikrni aniq, maqsadga muvofiq ifodalash uchun xizmat qiladi. Bulardan tashqari, sinonim so'zlardan juft so'zlar ham tuziladi: or-nomus, baxt-saodat kabi.

62- mashq. Quyida berilgan gaplar tarkibida qatnashgan sinonimik qatorlarni aniqlang.

1. Qiziq, bu odamga nima yetmaydi? Ixtiyoridagi vaqflardan behisob oyliklar daryoday oqib keladi, ... (P.Qodirov). 2. –Baraka toping, mulla Abdu G'afur. Limu ko'p shifoli narsa bo'ladi (S.Ahmad). 3. Dalada hosil

serob bo'ldi. 4. Sal narsadan quvonib, sal narsaga mo'lt-mo'lt yosh to'kkanini ham ko'p ko'rganman (S.Ahmad). 5. Qor qoplagan uyumlar ham talaygina (A.Nurpeshov). 6. Qishlog'imizdan ancha odam kelgan. 7. Bu yil hosilimiz mo'l bo'ldi. 8. Shunday go'zal qiz Humoyunga o'g'il tilab qo'lini yuziga surgani yigitga behad yoqimli tuyuldi (P.Qodirov). 9. Bog'imizda mevalar bisyor. 10. Osmon sen tufayli sayr etuvchi, yer esa osoyishta, falakdagi Bahrom g'azabnok, Zuhraning Diloromi esa, chang chaluvchidir (A.Navoiy). 11. Sening qudrating oldida falakning qadriyati, sar-sar shamoli esganda hosil bo'ladigan suv yuzasidagi olti-yetti pufakchalardekdir (A.Navoiy). 12. Olmos betob. Moskva kasalxonasi palatasida ko'kka boqib yotibdi (S.Ahmad). 13. Sen dahrning bunyodini qilayotganingda ko'k osmonni yetti gumbaz bilan yaratding (A.Navoiy). 14. Bordur manga zolim iki: gardun biri, dilbar biri, Ashkim bila ohim erur Jayhun biri, Sarsar biri, (Munis). 15. Gahi topdim falakdin notavonlig', Gahi ko'rdim zamondin kamronlig' (A.Navoiy). 16. Gardun manga gah jafou dunluq qildi, Baxtim kibi har ishga zabunluq qildi (A.Navoiy).

63-mashq. Quyida berilgan so'zlarning sinonimlarini topib, ular qatnashgan gaplar tuzing.

Ayyor, vaqt, yetuk, jahl, juda, istak, katta, ko'nmoq, ovqat, usta, o'smoq.

64-mashq. Quyidagi sinonimik qatorlardagi boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni aniqlang, qaysi tildan o'zlashganligini belgilang.

Agitatsiya—tashviqot, analiz-tahlil, aniq —konkret, barg-yaproq, barcha-hamma, bet-sahifa, bo'sag'a-ostona, bahor-ko'klam, bo'yoq-rang, vaqt-payt, vazifa-funksiya, dag'al-qo'pol, yog'du-nur, yozuv-xat, yog'-moy, jumla-gap, zaif-kuchsiz, ideya- g'oya, insoniyat-kishilik, ijtimoiy-sotsial, kishi-odam, kiyim-libos, mavzu-tema, muallim-o'qituvchi, mazmun-sujet, manglay-peshona, muloyim-yumshoq, oftob-quyosh, osmon-ko'k, ovoz-tovush, ochiq-ravshan-oydin, pishiq-puxta, ravon-silliq, turmush-hayot, tomon-taraf, unum-hosil, qarindosh-urug'.

65- mashq. A.Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (Toshkent,«O'qituvchi», 1974) asosida quyidagi sinonimik qatorlarni emotsional-ekspressiv va uslubiy bo'yoqdorligiga ko'ra tahlil qiling.

1. Jahl, achchiq, g'azab, qahr, zarda. 2. Uyat, nomus, sharm, hayo, or, oriyat, andisha, ibo, isnod. 3. Jilmaymoq, kulimsiramoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq.

OMONIMIYA

Til birliklarining ma'nolariga ko'ra har xil bo'lib, talaffuzida hamda yozilishida teng kelib qolishiga ***omonimiya*** deyiladi. Omonimiya so'zi yunoncha bo'lib, homos – «birdek», «bir xil», onyma – «ism» demakdir.

Omonimiya hodisasi lug'aviy birliklarda ham, grammatik birliklarda ham mavjud. Shunga ko'ra dastlab omonimiya 2 xil bo'ladi:

1. Lug'aviy omonimiya. Bunda leksik hamda frazeologik birliklarning omonimiyasi nazarda tutiladi. Masalan, ***to'r I*** – tabiiy yoki sun'iy toladan katak-katak ko'zli qilib to'qilgan buyum: to'r parda, ip to'r, pardabop to'r, bedana tutadigan to'r; ***to'r II*** – poygakdagi joyga nisbatan yuqoridagi joy, hurmatli o'rin : To'yxonada to'r aziz mehmonlar uchun jihozlab qo'yildi – ***leksik omonimiya. Boshiga ko'tarmoq I*** - «qattiq shovqin qilmoq»; ***boshiga ko'tarmoq II*** – «yuksak darajada hurmat qilmoq» - ***frazeologik omonimiya.***

2. Grammatik omonimiya. Bunda grammatik birliklarning omonimiyasi nazarda tutiladi. Masalan, ***-ma I*** fe'lning bo'lishsiz shaklini yasovchi affiks: *Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l* (maqol); ***-ma II*** fe'ldan ot va sifat yasovchi affiks: *Nahorlikka qushlar yana qatiq ichishdi, tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim* (G'.G'ulom), *yasama pichoqcha, burama qand.*

So'zlar omonimiyasi

Omonim so'zlar bir so'z turkumi doirasida ham, har xil so'z turkumi doirasida ham uchraydi. Masalan: *1. To'dadan ajralgan* ***to'rga*** *tushar (maqol). Mehmonlar* ***to'rga*** *taklif qilindi; 2. Bir yil* ***tut*** *ekkan kishi yuz yil gavhar teradi (maqol). Onangni kaftingda tutsang, singlingni kiftingda* ***tut*** *(maqol).*

Omonimlar bir xil so'z turkumiga tegishli bo'lganda, ular barcha grammatik shakllarida ham omonimik munosabatga kirisha oladilar.

Qiyoslang: o't I (maysa)	–	**o't II (olov)**
o'tim, o'ting, o'ti;	–	**o'tim, o'ting, o'ti;**
o'tning, o'tni, o'tga;	–	**o'tning, o'tni, o'tga;**
o'tlar	–	**o'tlar**

Omonimlar turli so'z turkumlaridan bo'lganda esa ular, asosan, o'zak holatida va ayrim grammatik shakllardagina omonimik munosabatda bo'ladi. Qolgan grammatik shakllarda omonimik munosabatga kirishmaydi.

Qiyoslang: soch I (o'zak) -ot — soch II (o'zak) -fe'l
soching - II shaxs, egalik, birlikda — soching - II shaxs, — tuslovchi, ko'plikda

Omonim so'zlarni omofonlardan va omograflardan farqlash kerak. Ular omonimiyaga yondosh hodisalar sifatida qaraladi.

Ma'nosi va yozilishi har xil bo'lib, aytilishi bir xil bo'lib qolgan so'zlarga **omofonlar** deyiladi. Masalan, *yot (yod) — yot, bop (bob) — bop.*

Ma'nosi va aytilishi har xil, yozilishi bir xil bo'lib qolgan so'zlarga **omograflar** deyiladi. Masalan, *tom — tom (kitobning jildi), tort — tort (taom nomi).*

Qiyoslang:

Bosh

Bosh 1. Tananing bo'yindan yuqori (odamda) yoki oldingi (hayvonlarda) qismi; kalla.

Bosh 2. Aql - hush, miya: Tog'ning ko'rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan (maqol).

Bosh 3. Boshliq, rahbar: Yaxshi yigit davraning boshi (maqol).

Bosh 4. Boshchilik, rahbarlik qiluvchi, eng katta yoki Bosh eng yuqori: Bosh vrach, bosh agronom.

Bosh 5. Eng muhim, asosiy: bosh maqola, bosh masala.

Bosh 6. Eng oldingi, birinchi: bosh bola, bosh kelin.

Bosh 7. Odam, kishi: Oilada o'n bosh edi.

Bosh 8. O'rin, karavot va shu kabilarning yostiq quyiladigan yuqori tomoni: Hoji Kumushning boshiga kelib o'tirdi (A.Qodiriy).

Bosh 9. Tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho'qqisi: Shamol bo'lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi (maqol).

Bosh 10. Cho'ziq, davomli, bo'yli narsalarning boshlanish joyi yoki oxiri, etagi: ko'chaning boshi, dalaning boshi.

Omonimiya hodisasini polisemiya hodisasidan farqlash kerak. Polisemiya termini ma'nolari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p ma'noli bitta so'zga nisbatan qo'llansa, omonimiya esa ma'nolari bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan, hatto turli so'z turkumlariga tegishli bo'lgan bir qancha so'zlarga nisbatan qo'llanadi.

Quy I. – ot turkumiga oid so'z.
Quy II. – fe'l turkumiga oid so'z.

Qirq I. – fe'l turkumiga oid so'z.
Qirq II. – son turkumiga oid so'z.

Omonimlarning she'riyatimizda tuyuq janrida ifodaviy vosita sifatida ahamiyati katta. Masalan:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.
(Fozil Yo'ldosh o'g'li).

Bog'bon qiz bog'aro ko'rsatdi yuz,
Elga bergan va'dalarni qildi yuz.
Bir kulimsib boqdi, hech kim bilmadi,
Bog'aro bor edi bir-ikki yuz
(Habibiy).

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.
Men vafosi va'dasidin shodmen,
Ul vafo bilmonki qilmas yo qilur
(A.Navoiy).

66- mashq. Maqollarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi o'rinda ko'p ma'noli, qaysi o'rinda omonim so'zlar ekanligini aniqlang.

1. Yomonning tili ***bor***, Yaxshining dili ***bor***.
2. Yomonning qo'liga borguncha, Yaxshining yo'liga ***bor***.
3. Yo'q muttahamdan ***bor*** muttaham yomon.
4. Yomg'ir bilan ***yer*** ko'karar, Duo bilan – el.
5. Puling bo'lsa, ***yer*** ol.
6. Insofli oshini ***yer***, Insofsiz boshini.

7. Yaxshi so‘zga quloq ***sol***, Yomon so‘zga uloq ***sol***.
8. Yaxshidan ***ot*** qolar, Yomondan – dod.
9. Yaxshi ***ot*** ko‘pniki.
10. Yomondan qoch, Yaxshiga quloch ***och***.
11. ***Och*** to‘ng‘izdan, qoch, to‘ng‘iz.
12. ***Son*** tegmaganga ***son*** tegdi, Zog‘ora tegmaganga non tegdi.

67-mashq. Maqollarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning omonimlarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, ***Oz*** so‘zning o‘zi yaxshi.
2. ***Og‘iz*** bir, quloq ikki, Bir so‘zlab tingla ***qirq*** ikki.
3. Suvni ***ich***, chashmani bulg‘atma.
4. Yomonning sovuniga ***kir*** yuvma.
5. Yaxshilikni daryoga ***qil***, biyobondan top.
6. Yomonga el bo‘lguncha, Yag‘ir otga ***bel*** bo‘l.
7. Yomonga qiz tugul, ***tuz*** ham berma.
8. Yomondan do g‘ qolar, Yaxshidan – ***bo***g‘.
9. Yaxshi bir tavba qilar, Yomon – ***Yuz***.
10. Yomonga ***osh*** berguncha, yaxshiga bosh ber.
11. Yomonlikni yaxshilik bilan ***yeng***.
12. Ta’na yo‘li tor, Toyg‘oqlari ***bor***.

68-mashq. Berilgan so‘zlarning omonimlarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: kul I. – O‘tin yonib kul bo‘ldi.
kul II. – Sen dildan kul.

Kul, sog‘, bug‘, gaz, yel, shim, et, yara, yot, aya, bez, oq, oshiq, bog‘, bit, bot, zang, yot, isitma, qo‘y, tur, ich, kir.

69- mashq. Klassik adabiyotimizdan olingan quyidagi tuyuqlarda qo‘llanilgan omonim so‘zlarni aniqlang va ularning ma’nolarini izohlang.

Charx tortib xanjari hijron bu tun,
Qo‘ymadi bir zarra bag‘rimni butun.
Tunga borib bizni behol aylading,
Ne balolig‘ tun emish yo rab bu tun.

(A.Navoiy)

Yo rab, ul shahdu shakar yo labdurur,
Yo magar shahd-u shakar yolabdurur.
Jonima payvasta novak otqali,
G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur.

(A.Navoiy)

Tiyg'i ishqing yorasidur butmagon,
Dardini har kimga ochib butmagon.
Hajr sahrosidur ohim o'tidin
Anda gul yoxud giyohe butmagon.

(A.Navoiy)

Necha dedim ul sanamg'a bormog'in,
Qilmadi ul tark oxir bormog'in.
Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab bormog'in.

(A. Navoiy).

Qadimni firoq mehnati yo qildi,
Ko'nglum g'am-u anduh o'tig'a yoqildi.
Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, sanga sharh qilmadi, yo qildi.

(Z.M. Bobur).

Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh,
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh.
Yosh kibi mashg'ulliq qilmoq nedur,
Har qachonkim suhbatingg'a yetti yosh.

(Munis)

Raxshi himmat men tutub mahkam yolin,
Yor izidin yet, karam qil, deb yolin.
Yo'qu borimni yoqib kul ayladi,
Ishq o'tidin ko'kka chirmashg'on yolin.

(Munis)

ANTONIMIYA

Til birliklarining o'zaro ma'nolariga ko'ra zid bo'lib kelishiga ***antonimiya*** deyiladi. Antonimiya so'zi yunoncha anti – «zid», «qarshi», onyma – «ism» demakdir.

Antonimiyaning sinonimiyadan farqi shuki, sinonimiyada ikki va undan ortiq til birliklari munosabatga kirishadi. Antonimiyada esa atigi ikkita til birligi munosabatga kirishadi. Biri ikkinchisiga zid bo'ladi. Ikkisi birgalikda antonimik juftlikni hosil qiladi. Antonimiya lug'aviy birliklarda ham, grammatik birliklarda ham mavjud.

1. Lug'aviy antonimiya. Bunda o'zaro antonimik munosabatga lug'aviy birliklar (so'zlar va iboralar) kirishadi. Lug'aviy antonimiya ham uch xil bo'ladi: ***1) leksik antonimiya*** – so'zlar zid ma'nolarga ega bo'ladi: *issiq-sovuq, katta-kichik, og'ir-yengil;* ***2) frazeologik antonimiya*** – iboralar zid ma'nolarga ega bo'ladi: *ko'kka ko'tarmoq, yerga urmoq;* ***3) leksik-frazeologik antonimiya*** – so'z bilan ibora zid ma'nolarga ega bo'ladi: *uyatli – yuzi yorug'.*

2. Grammatik antonimiya. Bunda o'zaro antonimik munosabatga grammatik birliklar kirishadi. Asosan, so'z yasovchilar zidlanishga ega. Masalan, *-**li** va –**siz, no-:** o'rinli – o'rinsiz, **noo**'rin; -**li** va **be-**, -**siz**: baxt**li** – baxt**siz**, **be**baxt; **ba-** va **be-**: – bama'ni – bema'ni.* Bunda ham lug'aviy antonimiya yuzaga keladi.

So'zlar antonimiyasi

O'zaro zid munosabatdagi ma'nolarni anglatib kelgan so'zlarga ***antonimlar*** deyiladi. Antonimlar ham sinonimlar kabi bir turkumga doir so'zlardan hosil bo'ladi. Antonimlar asosan sifat turkumida uchraydi. Boshqa turkumlarda kam uchraydi. Masalan: *og'ir-yengil, issiq-sovuq, katta-kichik, erta-kech, tez-sekin, kelmoq-ketmoq, yoz-qish, bor-yo'q.* Ba'zan sifat bilan sifatdosh antonimik munosabatga kirishadi. Masalan, *xom-pishgan.*

Antonimlar ma'no jihatidan zid va bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra oddiy qarama-qarshiliklar ham antonimik munosabatni hosil qilavermaydi, demak antonimiya ma'no jihatidan qarama-qarshilikka, zidlikka va birlikka asoslanadi. Antonimik munosabatdagi zidlik, inkor etish, yangini nomlash orqali bo'ladi. Masalan, *oq-qora* leksemalari biri ikkinchisini anglatgan ma'nosi bilan, yangini nomlash bilan inkor etib turadi.

Antonimlar ifoda planiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega: **1)** avvalo ifoda planiga ko'ra antonimlar har xil bo'ladi: *katta-kichik, uzoq-yaqin, tez-sekin* kabi; **2)** bir asosdan ikki zid affikslar yordamida yasalgan bo'ladi: *ongli-ongsiz, mevali-mevasiz;* **3)** bir so'zning o'zi ma'nolariga ko'ra zidlanishda bo'ladi: *arqonning uchi* birikmasida arqonning boshlanish qismi ham, tugallangan qismi ham ko'zda tutiladi. Buni tilshunoslikda ***enantiosemiya*** deb yuritiladi.

Leksik qo'llash natijasida ***kontekstual antonimiya*** hosil bo'ladi. Masalan, *o't (olov) - suv: o'tga ham suvga ham o'zini urishga tayyor. Ot - dod: yaxshidan ot qolar, yomondan – dod.*

Tilda antonimlarning ahamiyati katta. She'riyatimizda, xalq maqollarida antonimlar antiteza hosil qilishda keng qo'llaniladi. Masalan,

Abadiy ***firoqni***, hayhot do'stlarim,
Abadiy ***visol*** deb bildi kelinchak (A.Oripov).
Bu kun men ***shoh*** erurman tilak tilagil,
Bu kun men ***gadoman*** tingla, malagim (R.Parfi).
Achchiq o'yin ***shirin*** turmushni buzar (maqol).
Kattaga salom ber, ***Kichikka*** – kalom (maqol).

70-mashq. O'qing. Maqollarda berilgan antonimlarni juft holda daftaringizga ko'chirib oling. Ularning ahamiyatini tushuntiring.

1. Yaxshi aytar, yo'l qo'ydim, Yomon aytar men yengdim.
2. Dushman aslo do'st bo'lmas.
3. Avval o'yla, keyin so'yla.
4. Ko'p gapdan oz bo'lsa ham ish yaxshi.
5. Mard – o'zar, nomard – to'zar.
6. Nodon so'zlar, dono ibrat olar.
7. Bor – boricha, yo'q - holicha.
8. Ko'z qo'rqoq, qo'l botir.
9. Yoz yopig'ichingni qo'yma, qishda o'zing bilasan.
10. Achchiq o'yin shirin turmushni buzar.
11. Kengashganga keng dunyo, talashganga tor dunyo.
12. Yomonga kun ham qorong'u, tun ham.
13. Qallobning bolidan saxiyning zahri yaxshi.
14. Kamtarga – kamol, manmanga – zavol.
15. Yaxshilik ko'zga ko'rinmas, yomonlik ko'mib qo'yilmas.
16. Azob ko'rmay – rohat yo'q.

71- mashq. Yirik, uzoq, o'tkir, issiq, oq, uzun, obod, baland, xom, keksa, g'amgin so'zlarining antonimlarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: tez – sekin; tez yurdi – sekin gapirdi.

72-mashq. Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.Shukurovlarning «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati» (T., 1980) bilan tanishib chiqing. Lug'at asosida o'zingiz tanlagan antonimlarni tahlil qilib bering.

FRAZEOLOGIYA

Tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan yana biri iboralardir. ***Ibora*** ikki va undan ortiq so'zlardan tarkib topgan lug'aviy birlik bo'lib, xuddi so'z kabi lug'aviy ma'noni anglatadi. Masalan, *Xamirdan qil sug'urganday* iborasi «osonlik bilan», «qiyinchiliksiz» ma'nosini, *ko'ngil bermoq* iborasi «sevmoq» ma'nosini, *qo'y og'zidan cho'p olmagan* iborasi «yuvosh» ma'nosini bildiradi.

Xuddi so'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan bunday til birligi ***frazeologik birlik*** yoki ***frazeologizm*** deyiladi.

Ibora – frazema frazeologik birlik sifatida ***frazeologiya*** bo'limida o'rganiladi. Ibora tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga o'xshab ketsa ham nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi. U so'z birikmasi kabi har gal nutqning o'zidagina yuzaga kelmaydi. Til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra iboralarni tilshunoslikda turg'un so'z birikmasi deb ham yuritiladi. **Masalan,** *katta gapirmoq, gapni bir joyga qo'ymoq, tirnoq orasidan kir izlamoq, tomdan tarasha tushganday, aravani quruq olib qochmoq.*

So'z birikmasining tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'no mustaqilligini saqlagan bo'ladi. Iboraning tarkibidagi so'zlar esa o'z leksik ma'nosi bilan qatnashmaydi, ma'nosini yo'qotgan bo'ladi. Ba'zan ibora so'z birikmasi bilan shaklan teng kelib qolishi mumkin. Bunday holatda ibora turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan omonimik holatda bo'ladi. Quyidagi gaplar tarkibida kelgan turg'un va erkin birikmalarni qiyoslang: 1. Qiyiq ro'moli bilan *belini mahkam bog'lab olgan* yigit ishga kirishdi. 2. Ish og'ir. *Belni mahkam bog'lamasangiz*, qiyin bo'ladi (O.Yoqubov). 3. Bola qoqilib yiqildi, u *labini tishlab oldi*. 4. Xadicha xola gapni qo'zgashga qo'zg'adi-yu, lekin o'g'lining avzoyi buzilganini sezib, *labini tishladi* (H.Nazir).

Iboralar ham so'zlar kabi ifoda va ma'no butunligiga ega. So'zning ifodaviy tomonini tovushlar tashkil etsa, iboraning ifoda tomonini esa

so'zlar tashkil etadi. **Qiyoslang:** *Farzand – ko'zining oqu qorasi, ulug'lamoq – ko'kka ko'tarmoq.*

Ibora o'ziga xos ma'no tomoniga ham ega. Iboradan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi so'zlardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmay umumlashma, obrazli, ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. **Masalan,** Yo'qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi (A.Muxtor). Bu gapdagi *boshi osmonga yetmoq* iborasining «xursand bo'lmoq» ma'nosi ***bosh, osmon, yetmoq*** so'zlari anglatadigan ma'nolarning oddiy yig'indisi emas, balki xursandchilik tuyg'usini ifodalashga asoslangan obrazli umumlashma ko'chma ma'nodir. Bu jihatlar iboraning so'z bilan yonma – yon turadigan, unga nisbatan murakkab bo'lgan lug'aviy birlik ekanligini ko'rsatadi.

Lug'aviy birlik bo'lganligi uchun frazeologizmlar xuddi so'zlar kabi gapda bir bo'lak vazifasida keladi. Masalan,

1. *Aravani quruq olib qochish* evi bilan-da, avval burningni artsang-chi ... (S.Abdulla). 2. Elchibek bu xabardan *terisiga sig'may ketdi* (A.Muxtor). 3. *Sirkasi suv ko'tarmas* dadasining bunchalik «olijanoblik» qilishi juda g'ayritabiiy, Azizaning aqliga sig'mas edi (Shuhrat). 4. Hamma narsani *miridan sirigacha qoldirmay* gaplashdik (H.Nazir) Yuqorida keltirilgan gaplardagi frazeologizmlar birinchi gapda ega, ikkinchi gapda kesim, uchinchi gapda aniqlovchi, to'rtinchi gapda hol vazifasida kelgan.

Iboraning turlari

Frazemalar ikki turga bo'lib o'rganiladi: 1) frazeologik butunlik, 2) frazeologik chatishma.

I. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ma'no ifodalaydigan frazemalarga ***frazeologik butunliklar*** deyiladi. Masalan, 1. Bilib quying. Ish og'ir. *Belni mahkam bog'lamasangiz*, qiyin bo'ladi (O.Yoqubov). 2. Ayol kishiga *qo'l ko'tarish* erkakning ishi emas (R.Fayziy). 3. Bu maydon *yog' tushsa yalagudek* ozoda ... (A.Muxtor). 4. La'lixonning sha'niga bir gap aytdi, hammaning *tepa sochi tikka bo'ldi* (S.Ahmad).

II. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga ***frazeologik chatishmalar*** deyiladi. Masalan, 1. Qishki sessiyani yaxshi yakunladik, lekin bu hali – *xamir uchidan patir* (P.Qodirov). 2. Odamlar *qo'ltig'idan tarvuzlari tushib*, qishloqqa qaytishdi (M.Ismoiliy). 3. Butun gavdasi qizlik

xohlasangiz, «Qarshi»ga qo'l ko'taring (P.Tursun). 7. Kun yarimdan oqqanda o'ng qo'lini menga qarab bir cho'zdi-yu, ko'z yumdi (R.Fayziy). 8. Nima uchun bu haqiqatdan ko'z yumasiz? (Sh.Rashidov) 9. Men ham sizday haqqoniy bo'lishga so'z beraman (P.Qodirov). 10. Kun tartibi tasdiqlangandan keyin, axborot uchun so'z o'rtoq Ubaydullayevga berildi (A.Nazarov). 11. Keyin pista ko'mir solib, quvuriga mahsi kiydirib, dam berdi (S.Ahmad). 12. ... harsillab qolgan ho'kizlarni qo'shdan chiqarib, dam berdi (P.Tursun). 13. Gapiraversa, og'zimiz ochilib qolibdi (P.Qodirov). 14. Na ona, na qizlar ota oldida Ahmad haqida og'iz ocholmas edilar (Oybek).

77-mashq. Quyida berilgan gaplar tarkibida kelgan frazeologik antonimlarni topib, ma'nolarini ayting.

1. ... qizga o'zbek qishlog'ining sodda hayoti, oq ko'ngil odamlari juda yoqadi (S.Ahmad). 2. Hali ichi qora dushman chayondek bijib yotibdi (A.Muxtor). 3. Sulaymon halol odam! G'ayratli brigadir. Nohaq yerga uraverma, ... (Sh.Rashidov). 4. U nega o'z dushmanlarini o'zi ko'kka ko'taradi? (I.Rahim). 5. Saodatxonning ko'ngli yorishib ketganligi chehrasidan ko'rinib turar edi (S.Zunnunova). 6. Biroq Salomat opa choyga uringanda, yana birdan ko'ngli xira bo'la boshladi (A.Muxtor). 7. U darmonsizlanganidan Nizomiddinovni bir siltashidayoq o'zi gandiraklab ketdi. Ko'ngli ozdi ... Chalqanchasiga yiqildi (S.Ahmad). 8. ... hushiga kelsa, «Kasallikdan o'libdi, – deydi ...» (I.Rahim). 9. Betiga suv purkab, o'ziga keltirdilar (G'.G'ulom). 10. Parda sekin ochildi, sahna to'rida ... chiroyli bir kishi paydo bo'ldi. Istarasi issiq edi (M.Ismoiliy). 11. Xumoxon yomon ko'radi shu so'xtasi sovuq Rahmonqulovni (A.Muxtor). 12. ... kuniga bir bozor aylanib kelmasa, ko'ngli joyiga tushmas edi (A.Muxtor). 13. Yer gursillayotgandek, tog' ag'darilib tushayotgandek tuyildi. Kampirning yuragiga g'ulg'ula tushdi (Oydin). 14. Siz bilan bizning yuzimiz yorug', uyaladigan joyimiz yo'q (S.Zunnunova). 15. Bola bechoraning dilini og'ritgan edim. ... Uzr so'radim. Ammo hali ham yuzim shuvut. (S.Ahmad).

PARONIM SO'ZLAR

Talaffuzi (tovush qiyofasi) o'zaro yaqin, ammo ma'nolari boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar ***paronimlar*** deb yuritiladi. Paronim yunoncha so'z bo'lib, **para** – «yonidagi», **onyma** – «ism» demakdir. Masalan, abonent – abonement, diplomat – diplomant, abzal – afzal, xalos

xolos («faqat»), tizmoq – chizmoq, tahlil – tahrir, tahlil – tahlil, ma'naviy – ma'noviy.

Paronimlarga talaffuzi o'xshash bo'lib fonetik jihatdan bir-ikki tovushga bir-biridan farqlanadigan so'zlar kiritiladi. Lekin tovush qiyofasi bir-ikki tovushga bir-biridan farqlanadigan har qanday so'zlar ham paronim hisoblanmaydi. Masalan, tosh-bosh, bel-kel-sel, jon-ton, yur-yut kabi tovush qiyofasi bir-biriga yaqin so'zlarni paronimlarga kiritib bo'lmaydi.

Paronimiyani belgilashda so'zlarning tovush tomonidagi umumiy va farqli jihatlarigagina asoslanib, ularning semantik-grammatik xususiyatlarini e'tibordan soqit qilish to'g'ri bo'lmaydi, chunki shakliy o'xshashlik munosabati oppozitsiyadagi so'zlarni turli aspektda va bir necha parametrlar bo'yicha muqoyasa qilishni istisno etmaydi. Shuning uchun paronimiyani o'rganishga: ***a) formal; v) semantik; v) funksional aspektda*** yondashish lozim. Bu paronimik munosabatni formal-semantik oppozitsiya sifatida baholashni, so'z juftliklarini ham formal, ham semantik jihatdan muqoyasa etishni taqozo etadi[1].

Paronim so'zlar boshqa-boshqa so'zlar bo'lganligi uchun ularning har birida leksik-semantik xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar ularning biri o'rnida ikkinchisini almashtirib qo'llashga imkon bermaydi. Lekin nutqda paronimlarni birining o'rnida ikkinchisini turli uslubiy maqsadlarda ishlatish mavjud. Natijada paronimlar nutqning go'zalligini, ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim stilistik vositaga aylanadi. Bu uning asosiy ahamiyatidir. Masalan,

1. ... *sanoatingizga* balli! (Sh.Boshbekov).
2. ... hech kimdan *sazo* chiqmadi. Hamma jim, ... (X.To'xtaboyev).
3. Marrino! Avval Fransiya fuqarosi bo'lgan, keyin Italiyaga bir million dollarga *antrakt* tuzgan (H.G'ulom).
4. —Men so'zga chiqqanlar *reklamaga* rioya qilsin demoqchiman (X.To'xtaboyev).

O'ZBEK TILI LEKSIKASI TARAQQIYOTI

Har bir tilning lug'at boyligi, leksikasi ikki manba negizida o'sib, takomillashib boradi. *Birinchisi*, tilning o'z taraqqiyot qonunlari asosida. *Ikkinchisi*, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish asosida. Shunga ko'ra o'zbek tili lug'at boyligi ikki katta qatlamga bo'lib o'rganiladi: 1) o'z qatlam; 2) o'zlashgan qatlam.

[1] Qarang: I.Toshaliyev. O'zbek tilida paronimlar va ularning stilistik qo'llaninshi. O'zbek tili leksikasidan tadqiqotlar. Ilmiy ishlar to'plami. T., 1987- yil.

O'z qatlam – umumturkiy va o'zbekcha so'zlardan va shular asosidagi yasalishlardan, shuningdek, o'zbekcha affikslar yordamida boshqa til so'zlari asosidagi yasalishlardan tarkib topadi. Masalan, *bosh, ko'z, qosh, til, uch, kel, yosh, qush; qaznoq, o'pqon, qalin, burun, to'ng'iz; ayg'oqchi, bezak, botqoq, bog'lam, achchiq-chuchuk, bola-chaqa; boshla, oqla, ishchi, yonilg'i; traktorchi, jangchi, madaniyatli, bebosh, bilimdon* kabi.

O'zlashgan qatlam – o'zbek tiliga qardosh bo'lmagan tillardan turli davrlarda o'zlashgan so'zlardan tarkib topadi. Tarixda fors-tojik, arab tillaridan ko'plab so'zlar o'zlashtirilgan. Keyingi davrlarda rus tilidan so'z o'zlashtirish kuchli bo'lgan.

Tojik tilidan o'zlashgan so'zlar o'zbek tilining o'z so'zlari qatorida turmush uchun zarur tushunchalarni anglatadi. Masalan, *dastro'mol, dasturxon, kaft, kift, nay, dutor, duradgor, paxtakor, serhosil, bulbul, xo'roz, ohu, pashsha, bel, aft, diydor, anjir, anor, daraxt, jo'xori, sabzavot, juvoz, kulol, yog', go'sht, osh, non, javob, xo'randa, kamina, atlas, chopon, xona, panjara, anjom, kosa, chirog', bemor, betob, yor, nevara, do'st, oshno, ohista, tez, bahor, navro'z, zamin, falak, ombor, saroy, ohang, kuy, donish, dono, arzon, baho, shahzoda, shoh, jang, sardor, xudo, pir, mehmon, mezbon, baland, past, ovoz, gap* va boshqalar.

Hozirgi o'zbek tilida tojikcha so'zlar bilan birga ularning o'zbekcha sinonimlari ham teng qo'llanib kelinmoqda. Masalan, *buloq (o'zb.) – chashma(toj.), yaproq (o'zb.) – barg (toj.), butoq (o'zb.) – shox (toj.), manglay (o'zb.) – peshona(toj.), oltin (o'zb.) – tilla(toj.), quyosh (o'zb.) – oftob (toj.)* kabi.

Tojik tilidan ot turkumiga oid so'zlardan tashqari, sifat va ravish turkumiga oid so'zlar ham o'zlashgan: *astoydil, ozoda, otashin, baland, jangovar, dono, kamtar, puxta, shirin* kabi. Tojik tilidan faqat so'zlar emas *hech, chunki, yoki, garchi* kabi bog'lovchi va yuklamalar; *ba-, be-, bo-, no-, ham-, -kash, -parvar, ser-, -xo'r, -xush* kabi qo'shimchalar ham o'zlashgan: *badavlat, bechiqim, barkamol, boadab, nohaq, hamfikr, mehnatkash, insonparvar, serunum, oshxo'r, xushxabar* kabi. Tojikcha o'zlashgan so'zlar oxirida ***sht, st, xt, ft, nd*** kabi undoshlar qator ishlatiladi: *go'sht, g'isht, do'st, rost, shikast, past, kaft, daraxt* kabi.

Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha o'zlashmalar ham asosan ot va sifat turkumiga oid so'zlardir. Masalan, **Ot turkumiga oid so'zlar** – *davlat, vazir, ilm, ta'limot, nazariya, asar, g'azal, shoir, adib, masal, rasm, madaniyat, me'mor, tijorat, sanoat, askar, g'alaba, muallif, xabar, ta'lim, harf, kitob, dars, asbob, tarjimon, olloh, arvoh, qibla, inson, odam, oila, ayol, avlod, marosim, tavallud, asab, qalb, a'zo, shifo,*

tabib, vatan, imorat, mahalla, havo, nur, asr, saraton, vaqt, zamon, janub, sharq, dunyo, maymun, rayhon, ra'no, halvo, qand, marjon, sadaf, soat, sandiq, qulf, sado, jumla, nutq, suhbat, talaffuz, ariza, imzo, va boshqalar. ***Sifat turkumiga oid so'zlar*** *– azamat, ajoyib, odil, afzal, zolim, takabbur, ahmoq, baxil, johil, munis, nodir, mohir, muloyim, munosib, sof, halol, mudhish, makkor, mag'rur, za'far, za'faron, zilol va boshqalar.* ***Abstarkt tushuncha nomlari*** *– muammo, muborak, adolat, farosat, aql, fikr, dalil, mazmun, xabar, ilhom, insof, vasiyat, sadoqat, istiqbol, ishq, mavhum, murod, murakkab, mushtarak, nomus, saodat, taajjub, tasavvur, fazilat, farog'at, fahm, xotima va boshqalar.* ***Ravish turkumiga oid so'zlar*** *– avval, doim, doimo, aslo, axir, zarurat, ittifoqo va boshqalar.* ***Bog'lovchilar*** *– lekin, ammo, va, balki, biroq, hatto* va boshqalar. **Modal so'zlar** *– albatta, haqiqatan, faqat, ehtimol, balki* va boshqalar.

Hozirgi o'zbek tilida arabcha ***–iy*** yoki ***–viy*** yordamida yasalgan *– abadiy, amaliy, oddiy, ma'naviy* kabi sifatlar arabcha ***–an*** qo'shimchasi qo'shilib yasalgan *asosan, ba'zan, masalan, nisbatan, qisman, shaxsan, umuman* kabi ravishlar uchraydi.

Arab tilidan o'zlashgan so'zlar o'ziga xos fonetik belgilarga ega: **1)** arabcha o'zlashmalarda ikki unli yonma-yon kela oladi – *saodat, maorif, matbaa, mutolaa, oila, doir, rais* kabi; **2)** o'zlashgan so'zlarda cho'ziq unli qo'llanadi, yozuvda cho'ziq unlidan so'ng tutuq (') belgisi qo'llanadi: *ra'no, ma'no, ta'na, e'lon, da'vo, ta'lim* kabi; **3)** o'zlashma so'zlarda ba'zan bo'g'inlar yoki tovushlar bir-biridan tutuq talaffuz qilinadi. Yozuvda tutuq (') belgisi yordamida ajratiladi: *jur'at, sur'at, bid'at, qal'a, san'at* kabi.

Rus tili orqali o'zlashgan so'zlar bir qancha fonetik hamda morfologik belgilarga ega. ***Fonetik belgilari***: **1)** urg'uli bo'g'inlarda ***o*** unlisi o'zbek tilidagiga qaraganda cho'ziqroq talaffuz qilinadi: *opera, balkon, orden, aeroport* kabi; **2)** ***i*** va ***u*** unlilari o'zlashma so'zlarda cho'ziqroq talaffuz qilinadi: *turbina, lirika, klub, tush'* kabi; **3)** so'z boshida, o'rtasida va oxirida undosh tovushlar qatorasiga kela oladi: *spravka, traktor, strelka, trest, bank, kilovatt* kabi; **4)** unli tovushlar qatorasiga kela oladi: *diagramma, biologiya, geometriya* kabi.

Morfologik belgilari: **1)** rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda ***anti-, a-, de-, in-, inter-, re-*** kabi prefikslar ishlatiladi: *amorf, deduksiya, induksiya, regress* kabi; **2)** *-ist, -izm, -atsiya, -fikatsiya, -ar, -ant, -ent, -yor, -or, -it, -log* kabi suffikslar qo'llanadi: *jurnalist, lirizm, agitatsiya, yarovizatsiya, klassifikatsiya, inspektor, direktor, aspirant, opponent,*

grimyor, shaxtyor, revizor, metiorit, bronxit, filolog, nevrolog kabi; **3)** rus tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida qo'llangan prefiks va suffikslar o'zbekcha, tojikcha va arabcha so'zlarga deyarli qo'shilmaydi. *Ultratovush, mikroiqlim, mikroo'g'it, ultrabinafsha* kabi bir necha so'z bundan mustasno.

78- mashq. Quyida berilgan forscha-tojikcha va arabcha so'zlarni ikki ustunga ajratib yozing.

Ajdar, ajdaho, qonun, govmish, rahbar, satr, sher, jo'ja, satira, kaptar, ramz, naqqosh, kalla, chehra, maqola, mayiz, gilos, qasida, sayqal, do'kon, gul, giyoh, poliz, g'alaba, oshpaz, himoya, muxbir, sahifa, savol, javob, cho'pon, sharob, imtihon, qassob, e'tiqod, jonon, hamshira, poygak, dahliz, ka'ba, xalq, jamiyat, hayot, chirog', dori, husn, hamisha, shitob, jarohat, qasr, muqaddam, yakshanba, juma, sahar, makon, hamyon, gavhar, soya, Zuhro, Mirrix, sa'va, chaman, joy, ohang, ohanrabo, xina, anhor, hovuz, ustod, noma, tovush, shahar, poytaxt, nafis, xujjat.

79- mashq. Berilgan matnni o'qib chiqing, tojikcha, arabcha va ruscha so'zlarni toping, ularga xos umumiy belgilarni izohlang.

Kechqurunlari ko'pincha choyxonada odamlar bilan gurunglashib o'tiradigan Ibrohimov Qurbon ota aytmoqchi gullarni o'z ilmidan bahramand qildi: hademay karnaygullar juda hafsala bilan chiroyli qilib tortilgan iplarga chirmashib katta-katta yaproqlar otdi, rayhonlar qad ko'tarib hid sochdi, birin-ketin ochilgan rang-barang gullar ustida kapalaklar qanot qoqa boshladi. Gul, son-sanoqsiz nihol, bularning orasidan ko'rinib turgan bepoyon ko'm-ko'k dala, daryo-adirlar manzarasi, qulqillab oqayotgan kanaldan esgan yoqimli salqin shabada har qanday odamni ham mahliyo qilar edi. Ibrohimov o'zining har payshanba bo'ladigan agronomiya to'garagini shu yerga ko'chirdi. U chigit ekilgan to'qqizta yashikni, turli nav chigitning hosili bo'lgan paxta tolalarini ko'rsatadigan jadvallarini, turli-tuman diagramma va plakatlarini keltirib choyxonaning bir burchagini egallab oldi (A.Qahhor).

HOZIRGI O'ZBEK TILINING LEKSIK TARKIBI

Hozirgi o'zbek tilining leksikasini, asosan, umumxalq ishlatadigan so'zlar tashkil etadi. Bu qatlam hammaga tushunarliligi bilan boshqa leksik qatlamlardan ajralib turadi. Masalan, *non, suv, kitob, bola, yer, osmon,*

vatan, daryo, sen, biz, o'qimoq, yashamoq, bir, ikki, yuz, ming, tez, sekin va boshqalar.

DIALEKTIZM

Ma'lum hududda, territoriyada yashovchilar nutqidagina qo'llanadigan so'zlarga, til hodisalariga ***dialektizm*** deyiladi. Dialektizm yunoncha so'z bo'lib *dialektos* – «tilning mahalliy ko'rinishi» demakdir. Dialektizm faqat og'zaki nutqqa xos hodisadir. Uning *leksik dialektizm, fonetik dialektizm, grammatik dialektizm* kabi turlari mavjud. ***Leksik dialektizmlar*** biror dialektgagina xos bo'lgan so'zlardir. Masalan, *Mejana (Xorazm) – danak (adabiy shakli), gashir (Xorazm) – sabzi (adabiy shakli), g'o'z (Xorazm) – yong'oq (adabiy shakli), dasqar (Xorazm) – chumchuq (adabiy shakli), juvona (Buxoro) – novvos (adabiy shakli), qayir (Xorazm) – bo'z yer (adabiy shakli), chel (Xorazm) – marza (adabiy shakli), barak (Buxoro) – chuchvara (adabiy shakli), birinjoba (Buxoro) – mastava (adabiy shakli), barakgirak (Samarqand) – chovli (adabiy shakli), vasqarcha (Qashqadaryo) – nimcha (adabiy shakli).* Bu so'zlarni ***dialektizm-leksema*** deb ham yuritiladi.

Tilda dilektizm so'zlardan tashqari, ***ma'no dialektizmlar*** ham uchrab turadi. Ba'zi so'zlar adabiy tilda ham dialektda ham qo'llanadi. Lekin adabiy tilda boshqa ma'noda, dialektda boshqa ma'noda ishlatiladi. Masalan, *pashsha* - adabiy tilda «kunduzi uchadigan katta, qora hashorat», shevada kechasi uchadigan, kichkina chaqadigan hashorat, *chivin* – adabiy tilda kechasi uchadigan kichkina chaqadigan hashorat, shevada – kunduzi uchadigan, katta, qora hashorat. Xuddi shu holatni **lagan, tovoq, so'ri** so'zlari misolida ham ko'rish mumkin. Bu holatni **dialektizm-semema** deb yuritiladi.

Fonetik dialektizmlar deb, tovushlarning shevaga xos talaffuziga aytiladi. Masalan, adabiy tildagi *y* tovushining o'rnida shevada *j* ishlatiladi: *yur-jur, yo'q-jo'q, yo'l-jo'l* kabi.

Grammatik dialektizmlar deb, shevaga xos grammatik shakllarga aytiladi. Masalan, -yap(ti) – adabiy til shakli, -vot(ti), -op(ti), -ut(ti) – shevaga xos shakllar.

KASB-HUNAR LEKSIKASI

Ma'lum fan, soha, kasb-hunar kishilari nutqida qo'llanadigan so'zlarga ***kasb-hunar leksikasi*** deyiladi. Masalan, *kultivator, kultivatsiya (dehqonchilikka oid), vodorod, angidrid (ximiyaga oid), minus, kvadrat*

(matematikaga oid), qofiya, ritm (adabiyotshunoslikka oid), angob, do'g'ov (kulolchilikka oid), kaj, jo'sha (suvoqchilikka oid).

Kasb-hunarga doir leksika asosan shu soha terminlaridan tarkib topgan bo'ladi. Buni **terminologik leksika** deb ham yuritiladi. Terminologik leksikaning **determinlashishi** deyilganda, termin so'zning adabiy tilga to'la o'zlashishi tushuniladi. Masalan, *radio, televizor, yarmarka, kilogramm.* Hozirda bu so'zlar terminlikdan chiqib keng iste'molda qo'llanuvchi so'zlarga aylangan.

ISTORIZM

Eskirgan narsa va hodisalarning eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan, tarixiy nomlariga ***istorizm*** yoki ***tarixiy so'zlar*** deyiladi. Istorizm yunoncha so'z bo'lib, *historia* – «tekshirish», «tadqiqot» demakdir. Masalan, *qul, cho'ri, quloq, batrak, noib, parvonachi, sadr, jarchi, jallod* kabi.

O'zbek tili leksikasida istorizmlarning juda ko'p guruhlari mavjud. Masalan, *1)* ***kasb-hunar, mansab, amal, unvon nomlari:*** *sulton, xon, qul, darvesh, amin, zakotchi, jallod, farrosh, chorakor va boshqalar; 2)* ***maktab, maorifga oid tushunchalarning hamda ba'zi hujjatlarning nomlari:*** *mulla, xalfa, abjad, haftiyak, vasiqa, vaqf, mahzar va boshqa; 3)* ***harbiy tushunchalarning nomlari****: shamshir, sovut, sadoq (o'qdon), sarboz, navkar va boshqa; 4)* ***oziq-ovqat nomlari****: ko'mach, zog'ora, yorma, boda (may), tutmoch (xamir osh turi) va boshqa; 5)* ***o'lchov va pul birliklarining nomlari:*** *botmon, qadoq, chorak, tanob, chaqirim, pud, misqol, arjin va boshqa; 6)* ***etnonimlar****: barlos, qipchoq, o'g'uz, jaloyir, qarluq, chigil, yag'mo, arlot, nayman, ming, yuz va boshqa.*

Istorizmlar, asosan, so'z va uning ma'nosi eskirishidan tug'iladi. Bu to'liq ma'nodagi istorizm hisoblanadi va ***leksik istorizm*** deb nomlanadi. Ba'zan so'z faqat ma'nosiga ko'ra eskirishi mumkin. Bunda so'z yangi davrda yangi ma'noda qo'llanaveradi. Buni ***semantik istorizm*** deb yuritiladi. Masalan, *boy – «feodal sinf vakili» (eski ma'no, istorizm), boy – «badavlat», «layoqatli», «serob», «mo'l» (yangi ma'no).*

ARXAIZM

Hozirda mavjud narsa-hodisalarning eskirib qolgan nomlari ***arxaizmlar*** deyiladi. Arxaizm yunoncha so'z bo'lib *archaios* – «qadimgi» demakdir. Masalan, *ulus (xalq), lang (cho'loq), o'miz (ko'krak), riyoziyot (matematika), musallas (uchburchak).*

Tilda narsa va hodisalarning yangi va eski nomlari sinonimik qatorni hosil qiladi.

Eskilik bo'yog'i bor til birliklari sifatida arxaizmlar oz miqdorda grammatikada ham uchraydi. Masalan, *1. Puxta o'yladingmu? Keyin pushaymon chekmaysanmu? (O.Yoqubov). 2. –Qani ortimdan yur, senga aytadurgan yana bir so'zim bor! (O.Yoqubov).*

Leksik arxaizmlarda ***arxaizm-leksema*** va ***arxaizm-semema*** farqlanadi. *Arxaizm leksemada* so'z arxaizm bo'ladi. Masalan, *handasa (geometriya), hikmat (fizika), choparxona (pochtaxona)* kabi.

Arxaizm-sememada so'z emas, balki ma'nolaridan biri arxaizm bo'ladi. Masalan, ***afandi*** *so'zining «o'qituvchi» ma'nosi,* ***tikmoq*** *so'zining «ekmoq» ma'nosi arxaizm.*

So'zlar ba'zi fonetik shakllarida ham arxaizm bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra quyidagi so'zlarning avvalgi fonetik shakllari zamonaviy shakllarga nisbatan arxaizm hisoblanadi. **Qiyoslang**: *luzum-lozim, luzumsiz-lozimmas, ejod-ijod, ichinda-ichida, o'ldi-bo'ldi, o'lmas-bo'lmas, ivaz-evaz, zihn-zehn.*

Arxaizmlar nutqda ma'lum maqsadga ko'ra qo'llanadi. Ayniqsa, badiiy nutqda arxaizmlarning qo'llanilishi muayyan uslubiy ahamiyatga ko'ra amalga oshiriladi. Masalan,

Sarob girdoblari orqada qoldi,
Tole *qopqasini* qoqdim asabiy (M.Qo'shmoqov).
Zamon shiddatini qilolmay hisob,
Yer chizib turibdi yosh bir *munajjim* (A.Oripov).

Misralardagi *qopqa (eshik), munajjim (astronom)* arxaizmlari badiiylikni oshirish maqsadiga ko'ra qo'llangan.

NEOLOGIZM

Tilda ba'zi so'zlarning eskirishi natijasida iste'moldan chiqishi qonuniy holat bo'lgani kabi, yangi so'zning yuzaga kelishi ham tabiiydir. Yangilik bo'yog'i bor bo'lgan til birligiga ***neologizm*** deyiladi. Neologizm yunoncha *neos* – «yangi» demakdir. Masalan, monitoring, menejer, menejment.

Tilda 2 xil holatda neologizmlar yuzaga keladi: ***1. Yangi voqelikning nomi sifatida yuzaga keladi.*** Bu o'zlashma so'zning dastlabki qo'llanish davriga to'g'ri keladi. Masalan: *kompyuter, marketing, investitsiya.* ***2. Avvalda nomlangan voqelikning yangi nomi sifatida yuzaga keladi:*** Masalan, *jamoa xo'jaligi (kolxoz o'rnida), tuman (rayon o'rnida), viloyat (oblast o'rnida).*

Til birliklarining yangilik bo'yog'iga egaligi nisbiy holatdir. So'z har doim neologizm bo'lib turavermaydi. U keng iste'molga o'tishi bilan yangilik bo'yog'ini yo'qotib, odatdagi so'zlarga aylanadi. Shunga ko'ra, ekskavator, televizor, kosmonavt kabi so'zlar o'zbek tiliga yaqin vaqtlarda o'zlashgan bo'lsa ham yangilik bo'yog'ini yo'qotib, keng iste'molga o'tgan so'zlar hisoblanadi.

Jargon va argolar – juda tor doiradagi ijtimoiy guruh va to'dalar nutqidagina boshqalardan ajralib o'z maqsadlari yo'lida tuzilgan, qo'llanadigan so'zlar va iboralar. Masalan, *danap – ayol o'yinchi (otarchilar nutqida), xashpakchi – doirachi (otarchilar nutqida), atanda, shuxer qoch (bezorilar nutqida), novcha - aroq (ichuvchilar nutqida).*

Vulgarizm – adabiy tilga xos bo'lmagan, uyatli, haqorat so'z va iboralar. Vulgarizm so'zi lotincha *vulgaris* – «qo'pol», «sodda» demakdir. Masalan, *1.–Voy bachchag'ar-ey, tim urdingmi, buni qayoqdan olding? Ha, mayli kira qol, - dedi kal Asra (G'.G'ulom). 2. O'g'ri dumini xoda qilib qochdi.*

Vulgarizmlar tilda juda kam ishlatiladi, chunki ularni ishlatish odabsizlik hisoblanadi.

LEKSIKOGRAFIYA

Tilshunoslikning lug'at tuzish va lug'atchilik ishi bilan shug'ullanuvchi sohasiga ***leksikografiya*** deyiladi. Tildagi so'zlarning, iboralarning, maqol-matallarning, turli atamalarning ma'lum maqsadlarda tartibga olingan, kitob shaklidagi to'plamiga ***lug'at*** deyiladi. Lug'atlar turli maqsadlarga ko'ra tuziladi. Maqsadga ko'ra lug'atlar dastlab ikki turga bo'linadi: 1) ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar, 2) lingvistik (lisoniy) lug'atlar. Har ikki lug'at turida ham lug'at maqolalari, so'zligi qat'iy alifbo tartibida joylashtirilgan bo'ladi. Bu lug'at turlari o'z maqsadiga ko'ra, maqolalarining tuzilishiga ko'ra, yozilish mundarijasiga ko'ra farqlanadi.

Ensiklopedik lug'atlarda so'zlarning lug'aviy ma'nolari berilmaydi. Ular nom, atama sifatida narsa-predmetlar, joylar, shaharlar, daryolar, tog'lar, shaxslar va boshqa turli voqea-hodisalar haqida ma'lumot beradi. Shunga ko'ra ensiklopedik lug'atlarning so'zligi faqat ot so'z turkumiga doir bo'ladi. Buni «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»dan olingan quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

Asr (arab. – davr, vaqt) – 1) yuz taqvim yili (kalendar yil)ga teng vaqt oralig'i; mas., XX asr 1901- yil 1- yanvardan 2000- yil 31-dekabrgacha davrni o'z ichiga oladi; yuz tropik yil; 36524, 2199 o'rtacha Quyosh sutkasiga teng; 2) geologik davrning bir qismini o'z ichiga olgan

vaqt. A. ichida bir yarusning barcha tog‘ jinslari paydo bo‘ladi. Geoxronologiya jadvalida A. eng kichik qism (vaqt) hisoblanib, bir A. bir yarusga to‘gri keladi; 3) kun (Quyosh) botishi chog‘idan 1-2 soatcha oldingi payt va shu paytda o‘qiladigan namoz. A. namozining muddati – kun botishidan 2 soat ilgaridan to kun botgungachadir (yana q. Namoz).

Barxan (turkiycha) – Qumli cho‘l va chala cho‘llardagi relyefning ko‘chma qum shakllari. Shamol yo‘nalishiga ko‘ndalang bo‘ladi. B. yiliga o‘rta hisobda bir necha sm dan yuzlab m gacha ko‘chadi. Qizilqum va Qoraqum cho‘llarining ba’zi joylarida qattiq shamol vaqtida yangi B.lar paydo bo‘ladi yoki eskilari joyini o‘zgartiradi. B.lar tepadan qaraganda ko‘pincha yoy, yarim oy shaklida bo‘ladi. Shamolga ro‘para yon bag‘irlari qiya (5-14), shamolga teskari yonbag‘irlari tik (30gacha) bo‘lishi mumkin. B. uchlari shamol kuchiga, qumning namligi, tarkibiga qarab uzun yoki qisqa bo‘ladi. B. bal. 0,7 m dan 20 m gacha, hatto murakkab shakllari 200 – 300 m va undan ham baland bo‘ladi. Shamol harakatiga qarab B.ning to‘planishi turli shakllar oladi: barxan tepalari, barxan zanjirlari, barxan piramidalari va h.k. Qum kam bo‘lgan qattiq yerlarda, ko‘pincha taqirlarda yakka-yakka B.lar uchraydi. Tutash qumlarda murakkab B. tizmalari vujudga keladi. B. tizmalari Amudaryo sohillarida, Sandiqli, Kanpirak, Qoraqum cho‘llarida, shuningdek, Markaziy Farg‘onadagi Yozyovon cho‘lida uchraydi. B.lar nisbatan yaxshi nam to‘playdi va ihota qilinadigan bo‘lsa, daraxtzor bo‘lib qolishi mumkin. Avvallari Buxoro, Qorako‘l vohalarining shim. qismidagi bir qancha unumdor yerlar, qishloqlar ko‘chma qum ostida qolib ketar edi, endilikda saksovul va b. o‘simliklar ekilib, uz. 125 km, eni 3-4 km daraxtzorlar barpo qilindi va qum ko‘chishi to‘xtatildi. (Yana q. *Eol relyef shakllari*).

Bahor, ko‘klam – 1) yil fasli, mavsum. Yerning shim. Yarim sharida bahorgi kecha-kunduz tengligi (20 yoki 21 mart)dan yozgi quyosh turg‘unligigacha, ya’ni kunduz eng uzun, kechasi eng qisqa bo‘lgan kungacha (21 yoki 22 iyungacha) davom etadi. Shartli ravishda mart, aprel va may oylarini B. deb atash qabul qilingan. Yerning Jan. Yarim sharida bu vaqtda kuz fasli bo‘ladi. B. qishdan yozga o‘tish mavsumi hisoblanadi. B. kelishi bilan kunlar tez isiy boshlaydi, daraxtlar barg yozadi, maysalar ko‘karadi, qushlar uchib kela boshlaydi va h.k. Bular turli joylarda har xil paytlarda ro‘y beradi Qutb kengliklarida B. qisqa bo‘ladi, tropiklarda sezilmay o‘tib ketadi (q. Yil fasllari); 2) qad. og‘irlik o‘lchov birligi; musulmon davlatlarida qo‘llanilgan. Qiymati ishlatilish joyi davriga qarab har xil bo‘lgan: a) vazni 229 kg ga teng bo‘lgan

kichkina va vazni 422 kg ga teng bo'lgan katta B.larga bo'linadi. B.ning 207,4 kg li turi ham bor; b) Makkada 1 B. 183, 7 kg ga teng bo'lgan (16-a).

Lingvistik lug'atlarda lug'aviy birliklarning ma'nolari, grammatik, uslubiy belgilari haqida ma'lumot beriladi. Bunday lug'atlarning so'zligi barcha mustaqil va yordamchi so'zlardan, modal, undov va taqlidiy so'zlardan tartib topadi.

Qiyoslang: O'zbek tilining izohli lug'atidan namunalar:

Bahor (f-t) 1. To'rt faslning birinchisi, qishdan keyingi, yozdan oldingi fasl; ko'klam. *Erta bahor. Bahor quyoshi. Bahor shamoli. — U (Gulnor) bukun shod, bahor uning nash'asiga nash'a, go'zalligiga go'zallik qo'shgan.* (Oybek).

2. Ko'chma. Har narsaning, masalan, umrning, hayotning gulgun, yashnagan chog'lari va shunday chog'lar ramzi.

Bu hayotning xazoni yo'q, mangu bahor,
Bu bahor-la topdi nasl shon, e'tibor. (G'ayratiy).

Dunyoda tuganmas, o'zgarmas narsa yo'q, shuning uchun Hojixonning fasli bahori ham, husni-malohati ham, kuch-u quvvati ham tugalishga qarab yuz tutdi. (M.Ismoiliy).

Yonmoq **1.** O't olmoq; o'tda kuymoq. *To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq baravar yonadi* (Maqol). *Qalovini topsa, qor yonar* (Maqol). - *Quruq o'tin bir zumda lovullab yonib ketdi.* (M.Ismoiliy, "Farg'ona t.o.") Yolqinlanib, nur berib turmoq. Saroyning to'rida boshqalarga qaraganda ko'rkamroq, bir hujra... bu hujrada sham yonadi. (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar") Ko'rinardi uzoqdan yonib bir chiroq. (G'ayratiy. "Nur sochmoq"). Ko'kda daraxtlar ustida g'uj-g'uj yulduzlar yonadi. (Oybek, "Qutlug' qon") Archa turar o'rtada yonib, Oqmoqdadir haryon shu'lanur. (G'ayratiy).

2. Nurda tovlanmoq, nur qaytarmoq. *Sham nurida tovlanar, yonar, Bir chekkada turgan mis chilim.* (E.Rahim). *Qorda yulduzchalar yonar edi.* (Oybek, "Oltin vodiydan shabadalar").

3. Ortiq darajada issig'i, harorati oshgandek sezmoq, qizimoq. —*Uh ... badanim yonib boradi ... — dedi Gulnor. (*A.Muxtor, "Opa-singillar"). *U yonog'ini onasining yonib turgan o'tli yonog'iga surtib, siniq tovush bilan pichirladi.* (M.Ismoiliy, "Farg'ona tong otguncha").

4. *Ko'chma:* Qayg'urmoq, kuymoq; achinmoq. *Vali aka G'ulomjonning yonib kuylaganiga, ko'zlarining g'o'zalar ichida nigoron bo'zlashiga hayron bo'ladi.* (M.Ismoiliy, "Farg'ona tong otguncha"). /Muhabbat/ *Sendan*

yashiradigan sirim yo'q! Ilgarilari bunday emas edi... Ko'rmasam yuragim yonadi, ko'zi ko'zimga tushsa, a'zoyi badanimga qaltiroq kiradi. (N.Safarov, "Hayot maktabi"). *Qiz nima o'ylaydi, uning qalbi ham ishq alangasida yonadimi, yo'qmi?* (Oybek, "Qutlug' qon").

5. *Ko'chma* Qizishib, asabiylashib ketmoq, tutoqmoq; alangalamoq. *Ismoiljon bir nima desam, lov etib yonib ketadigan turqi bor.* (S.Abduqahhor), Sanamay sakkiz dema. *Siz onamdan xafa bo'lmang, azizim, uning odatini bilasiz-ku, bir yonib, bir o'chaveradi.* (S.Anorboyev, "Oqsoy").

6. Alangalamoq, o't olmoq. *Beg'ubor tong kabi qalbingda Vatan ishqi, xalq mehri yonar.* (G'ayratiy). *Hozir Xalilovning nafrati yonib turibdi.* (I.Rahim, "Ixlos").

7. *Ko'chma:* Oshiqmoq, sabrsizlik bilan kutmoq. *Navoiy Hirotga kirishi bilan, uning maxsus farmon olib kelganligi butun shaharga yashindek tarqaldi. Hamma uni tezroq eshitish orzusi bilan yondi.* (Oybek, "Navoiy").

Lov tasv. s. Kuchli alanga hamda shu alangadan chiqayotgan tovushni bildiradi. ***Lov etib*** 1) birdan alanga olib. Lov etib yonmoq; 2)*ko'chma* birdan qizishib, qizarib. *Sherbek ko'zlarida faqat qalb bilangina his etish mumkin bo'lgan allaqanday ehtiros, hayajon bor ekanini payqadi-yu, yuzlari lov (etib) yondi.*(S.Anorboyev, "Oqsoy").

Lingvistik (lisoniy) lug'atlarning asosiy maqsadi so'zlarning va iboralarning semantik mazmunini tavsif qilishdir. Shuningdek, lingvistik lug'atlar so'zlarning imlosi, talaffuzi, xalq maqollari, xullas, til birliklariga oid hodisalar haqida ma'lumot beradi. Tuzilish maqsadiga ko'ra lingvistik lug'atlar dastlab umumiy va maxsus lug'at turlariga bo'linadi.

Umumiy lug'atlar qaysi maqsadni kuzatishidan qat'iy nazar tilning barcha qatlamiga oid leksikani qamrab oladi. Bunga «Ruscha-o'zbekcha lugat», «O'zbek tilining izohli lug'ati», «Imlo lugati» singari lug'at turlari kiradi.

Xususiy (maxsus) lug'atlar tilning barcha qatlamiga oid leksikani qamrab olmaydi. Ma'lum bir qatlamga, sohaga oid leksikani chegaralab aks ettiradi. Bunga biror sohaning terminlari berilgan terminologik lugatlar, dialektal qatlamga oid dialektologik lug'at, maxsus leksik qatlamlarni aks ettiradigan sinonimlar lug'ati, omonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, tildagi iboralarni qamrab oladigan frazeologik lugat va boshqa shu kabi lug'atlar kiradi.

MORFEMIKA

So'zning morfemik tarkibi

Morfemika grammatikaning alohida bir bo'limi bo'lib, so'zlarning morfemik tarkibini, undagi morfemalarning o'zaro munosabatini, turlarini o'rganadi.

Morfema – so'zning ifoda qilinishi jihatidan tovushdan keyin turadigan semantik–morfologik birlik bo'lib, so'zning eng kichik ma'noli qismidir. Morfema so'zning qayta bo'linmaydigan eng kichik ma'noli qismi sifatida leksik ma'noni ham, grammatik ma'noni ham anglatadi. Masalan, *Mehnatkashlarimizning* so'zi ***mehnat-, -kash, -lar, -imiz, -ning*** qismlaridan tarkib topgan. Bu qismlarning har biri shu tarkibda o'ziga hos ma'lum ma'nosida qatnashgan.

Leksik ma'no anglatish yoki anglatmasligiga ko'ra morfemalar 2 turga bo'linadi: 1. O'zak morfema. 2. Affiksal morfema.

Masalan, *uzumzor, mevali, bog'bon, ishchi, ishla, ishdan, borgan, bordi, bolalar* so'zlarining ***uzum, meva, bog', ish, bor, bola*** qismlari o'zak morfemalar, ***-zor, -li, -bon, -chi, -la, -dan, -gan, -di, -lar*** qismlari affiksal morfema hisoblanadi.

So'z morfemalarini aniqlash uchun ularning hozirgi tilimizda xoh leksik, xoh grammatik ma'no anglata olishi hisobga olinadi. Ajratilmoqchi bo'lgan qism hozirgi tilda ma'no anglatmasa, boshqa so'zlar tarkibida ham kela olmasa, uni morfema deb bo'lmaydi. Shunga ko'ra, ma'noli qismlarning chegarasini turli so'z tarkiblarini qiyoslash asosida aniqlanadi. Masalan, *ishchilar* so'zining *ish+chi+lar* kabi morfemalarga ajratishga asos shuki, o'zak deb olingan ***ish*** so'zi o'z ma'nosida qatnashgan, keyingi so'zning yasalishi uchun asos bo'lib turibdi, turli so'zlar tarkibida kela oladi: *ishga, ishchan, ishli, ishsiz, ishla* kabi; ***-chi,*** affiksal morfema bo'lib boshqa so'zlar tarkibida ham *gulchi, xizmatchi, traktorchi* kabi shaxs oti yasab kela oladi; ***-lar,*** ham morfema sifatida turli so'zlar tarkibida ko'plik ma'nosini ifodalab kela oladi: *kitoblar, bolalar, binolar* kabi.

O'zbek tilida morfemalar o'zakka ketma-ket, biri orqasidan ikkinchisi qo'shiladi. So'zni morfemik tarkibga ajratish oxirgi morfemani belgilab olishdan boshlanadi va ketma-ket tarzda o'zak morfemani belgilash bilan tugallanadi.

Masalan;

muz > muz+la > muzla+t > muzlat+ish;
ko'k > ko'k+ar > ko'kar+tir > ko'kartir+ish > ko'kartirish+di;
oq > oq+la > oqla+v > oqlov+chi;
tom > tom+chi > tomchi+la > tomchila+t.

80- mashq. Matndagi so'zlarni morfemalarga ajratib chiqing.

Tong payti. Bog'larda ishkomlar uzumga to'la. Chillaki endi qizara boshlagan. Havoda qushlar ovozi yangraydi... Tong shabadasining salqini ko'ngillarga orom beradi...

Men va A'zam aravada ketmoqdamiz. Biz endi yorishib kelayotgan osmonning mayin shohisini, sehrli musiqa va ohangga, mislsiz husn-latofatga to'la bog'larni tantanali sayr etib boramiz. qalbimizda his-tuyg'ular, shodlik, zavq toshadi.

Kecha maktabdan qaytganimda onam oppoq qilib yuvgan ko'ylak-ishtonlarimni arqonga yoyar ekan, meni kulib qarshi olgan edi.

- Ertaga jo'naysan, - degan edi ko'zlarida mehr, sevinch chaqnab.

- Qayerga? – deb so'radim hapqirib.

Yangibozorga borasan. Hali to'satdan darvozani qoqib bir kishi keldi. Darrov chiqdim, dadangning oldidan kelipti. Tayyor bo'lib tursin Musavoy, ertaga, tongda olib jo'nayman, dedi. A'zam ham boradi, buvasi chaqirtiripti, oyisigaaytib keldim.

Men o'zimda yo'q edim. (Oybek)

O'***zak morfema*** so'zda albatta ishtirok etadigan, leksik ma'noni beruvchi qismdir. O'zak morfema yangi so'z yasalishi uchun ham shakl yasalishi uchun ham asos bo'la oladi. Masalan, *mevali, mevasiz, sermeva* kabi tarkibli so'zlarda **meva** so'z yasalishi uchun asos bo'lsa; *mevani, mevamiz, mevalar* tarkibli so'zlarda **meva** shakl yasalishi uchun asos bo'ladi.

O'zak morfema so'zning leksik ma'nosini bildiruvchi asosiy qism bo'lganligi uchun **asosiy morfema**, affikslar shu o'zak bilan birgalikda, shu orqali qo'llanganligi uchun **ergash morfema** yoki **yordamchi morfema** terminlari bilan ham ataladi.

O'zak morfema ifoda etilishiga ko'ra so'zga o'xshaydi, ular ma'no jihatidan o'zaro bog'langan bo'ladi. Lekin o'zakni so'zning tarkibiga kiruvchi morfema sifatida so'z bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Masalan, *boshliq, mevazor, ishchi, ishla* so'zlaridagi *bosh-, meva-, ish o'zak morfemalar alohida olingan bosh, meva, ish* so'zlariga aynan teng emas. Garchi ular fonetik jihatdan teng kelsa ham. Buni biz o'zaklarning ma'no doirasi bilan so'zlarning ma'no doiralari teng kelmaganligidan ko'rishimiz mumkin. O'zakning ma'nosi shu so'z tarkibi uchun aniq, cheklangan bo'ladi. Uning ma'nosi shu so'z tarkibi (yasalish tarkibi) doirasida belgilanadi. So'zning ma'nosi esa nutq, gap doirasida belgilanadi.

Affiksal morfema. So'zning tarkibida o'zakdan keyin kelib, so'zning leksik va grammatik ma'nolarini shakllantiradigan morfemadir. Affiksal morfema o'zicha mustaqil qo'llana olmaydi va ma'no ham anglatmaydi.

So‘z tarkibida affiksal morfemalar bir nechta bo‘lishi mumkin. Ular o‘zbek tilida o‘zakka birin-ketin, ma’lum tartibda qo‘shiladi. Masalan, *paxtakorlarimizdan – paxta+kor+ lar+imiz+dan.*

Affiksal morfemaning ma’nosi har bir konkret so‘z tarkibi asosida belgilanadi. har bir qo‘llanishda u konkret ma’no ifodalaydi. Masalan, *suv-chi, gul-chi, traktor-chi, o‘quv-chi; daftar-im, aql-im, halq-im, ko‘z-im, o‘z-im* kabi so‘z tarkiblarida affiksal morfemalardan (u xoh so‘z yasovchi, xoh shakl yasovchi bo‘lsin) o‘ziga xos konkret ma’nolarda kelgan, ular bir-biriga butunlay teng emas.

81-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni morfemalarga ajrating. O‘zak va affikslarning ma’nolarini, vazifalarini aniqlang.

1. Anvarning maxdum hovlisida turishini ***joysizlikdan*** va ***yoshlikdan*** shunda o‘sib ***o‘rgangandan,*** deb yurgan Sultonali mirzo bu kun ertalab o‘z uyiga kelgan maxdumning so‘zidan keyin bir oz haqiqatga ***tushungandek*** bo‘ldi. (A.Qodiriy) 2. Saidiy Munisxonning haligi so‘ziga ***muvaffaqiyatli*** javob ***qilgandan*** so‘ng yana o‘shanday ***so‘zlatib*** javob qilishni xohladi. (A.Qahhor) 3. ***Quvonchimdan*** terimga ***sig‘may Turg‘un degan*** o‘rtog‘imnikiga yugurdim. (Oybek) 4. Kuz iliq kelgani uchunmi, Hirot ***tojdorlari*** hali ham qal’a ***tashqarisidagi*** bog‘larda yashamoqda edilar. (P.Qodirov) 5. Qiz majorosi ***boshlanishidan*** ikki kun oldin Chavandoz Komila bilan birga toqqa ***chiqib ketgandi.*** (P.Qodirov) 6. Qizlar ***sandiqchalaridan,*** yostiqlarining ostlaridan ***tugunchalarini*** keltirib, nonlarini o‘rtaga to‘kib, nonushtaga ***o‘tirganlaridan*** keyin ham o‘zaro ***pichirlash*** tugamadi. (I.Rahim) 7. Yulduzlar ***bekinmachoq*** o‘ynayotgandek, onda-sonda yalt-yalt etib qoladi. (V.G‘ofurov) *8.* ***Ko‘ngilli*** o‘tgan bir hafta, ayniqsa, Qo‘qondan **hatlab** nariga chiqa olmagan G‘aribiyda katta taassurot qoldirgan edi. (S. Abdulla)

So‘zning morfemik tarkibidagi o‘zgarishlar.

Fonetik o‘zgarishlar so‘zning o‘zak qismida ham qo‘shimchada ham yuz beradi. Bunday o‘zgarishlar turli sabablarga ko‘ra bo‘ladi. O‘zakdagi o‘zgarishlar, asosan, qo‘shimchalarning qo‘shilishi bilan bog‘liqdir, Masalan, ong+la-angla, son+a-sana, ikki+ov-ikkov kabi.

Bunday o‘zgarishlar ko‘proq affiks morfemda yuz beradi. Qo‘shimchadagi o‘zgarishlar o‘zak-negizning fonetik tarkibiga bog‘liqdir. Masalan, *qishloq+ga- qishloqqa, terak+ga- terakka* kabi.

Davrlar o‘tishi bilan bir nechta affiks birikib bitta affiks morfema

holatiga kelib qolishi mumkin. Masalan, *zargarlik, dehqonchilik* so'zlari morfemalarga *zar+gar+lik, dehqon+chilik* tarzida ajratiladi. Ko'rinadiki, birinchi so'zda -lik alohida morfema bo'la oladi, ikkinchi so'zda esa u alohida morfema bo'la olmaydi. Sababi ikkinchi so'zdagi qolgan *dehqonchi* qism ma'no anglatmaydi, tilda shu shaklda qo'llanmaydigan bo'lib qolgan. Shunga ko'ra *dehqon-* o'zak morfema – ***chilik*** yaxlit holda bitta affiksal morfema sanaladi.

Affikslar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Sodda affikslar.
2. Qo'shma affikslar.

Sodda affikslar mustaqil morfema bo'la oladi. Masalan, ishlashdi - *ish+la+sh+di, lug'atchilik - lug'at+chi+lik, misgarlik - mis+gar+lik* kabi.

Qo'shma affikslar yaxlit holda bitta affiksal morfema sanaladi. Masalan, *kosibchilik - kosib+chilik, odamgarchilik - odam+garchilik, yordamlash - yordam+lash* kabi.

82-mashq. Belgilab qo'yilgan so'zlarning morfemik tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlang. Sababini tushuntirishga harakat qiling.

1. ... Xolmurodov uni bir yerda xoli uchratib: "Yoshlarning ishiga ***aralashmang***, ..." deb koyib bergan edi. (V.G'ofurov). 2. Normat shuncha urinsa ham ***o'rnidan*** turolmadi. (I. Rahim). 3. Ark darvozasi oldida Shayboniyxonning ***o'g'li*** Temur Sulton turgan ekan... (P.Qodirov). 4. Ammo so'nggi oylarda bir kishi ***ko'nglimda*** umid uchquni paydo qildi. (A.Qahhor). 5. –O'rtoq, - dedi u bir kun menga, - bozorga borgan edim, nog'oralar biram bisyorki, ko'zlarim ***o'ynaydi***. (Oybek). 6. Mana endi shunday odamlar o'z ***qishlog'iga*** ham kelishdi. (O. Yoqubov). 7. Tojiboy bir-ikki qadam oldinda bormoqda edi, ovozni eshitib ketiga qaradi, ***eshagini*** o'z holiga qo'yib yubordi... (S. Abdulla). 8. Sultonmurod... ajoyib manzaralariga suqlanib qarar, shodlikdan, hislarning ***sho'xligidan*** ko'ksi to'lib toshardi. (Oybek). 9. Bizning vazifamiz bu maqolani ***halqqa*** yetkazish... (A.Qahhor). 10. Endi u ham ***qornini*** ushlab kula boshladi. (M. Ismoiliy). 11. Sizning ***oyligingiz*** to'zg'ordan ortmaydi. (A.Qahhor). 12. Chor tarafga angraya-angraya ***attorlikka*** o'taman. (Oybek).

83-mashq. Keltirilgan gaplardan sodda va qo'shma affiksli morfemalarni belgilab chiqing. Qo'shma affikslarni tahlil qiling.

1. Bir juma kuni Saidiy Murodxo'ja domla bilan ***ulfatchilik*** qilib

o'tirganda, Yoqubjon keldi. (A.Qahhor). 2. Biroq boyagi shirin orzular hamon hayolini ***to'lqinlantirib***, ko'ziga uyqu ***qo'ndirmaydi***. (P.Qodirov). 3. Doimo ***ko'pchilikning*** diqqat ***markazida*** bo'lish... Boburni juda ***siqiltirar*** edi. (P.Qodirov). 4. Bozor boshdan -oyoq tim. Yozda salqin, qishda ***yog'ingarchilikka boshpana***. (Oybek). 5. ... do'ppi tikib, ***tirikchilik*** qilar edi. (S. Abdulla). 6. Lekin ***ichkaridan*** na ovoz, na oyoq ***dupuri*** keldi. (M. Ismoiliy). 7. Adolatning boshiga tosh ***urildimi***, yoki birov uning ***ko'zlariga*** qora chimmat ***to'sib qo'ydimi***, atrof ***qorong'ilashib***, ko'zi tinib ketdi. (I. Rahim). 8.–Ra'noni egasiga ***topshirmaguningizgacha***, - dedi Nigor oyim, - ***quyulmaydiganga*** o'xshaydi. (A. Qodiriy). 9. Shokirovning mina ***portlashidan yuragi shuvillab*** ketdi. (V.G'ofurov). 10. ***Otangizdan*** bir parcha yer qolganda o'sha ***qattiqchilikni*** ko'rmas ***edingiz***. (A.Qahhor).

Qo'shimcha morfemalarning turlari

So'zning leksik va grammatik ma'nolarini ifodalashiga ko'ra qo'shimchalar 2 turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar;
2. Shakl yasovchi qo'shimchalar.

So'z yasovchi qo'shimchalar yangi leksik ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalardir. Masalan, ***ishla, ishchi, ishchan, ishli, ishsiz*** kabi so'zlarda ***ish*** o'zagidan ***–la, -chi, -chan, -li, -siz*** so'z yasovchi qo'shimchalari yordamida ot, sifat, fe'l turkumlariga oid yangi so'zlar yasalgan. So'z yasovchi qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlari qo'llanmaning "So'z yasalishi" bobida batafsil o'rganiladi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar yangi so'z yasamaydigan, so'zlarning grammatik formalarini shakllantiradigan va turli grammatik ma'nolarni anglatadigan qo'shimchalardir. Masalan, ***talabalarimizning*** so'zida ***–lar, -imiz, -ning*** qo'shimchalari, **kelmading** so'zida ***–ma, -di, -ng*** qo'shimchalari qatnashgan bo'lib, ulardagi ***–lar*** ko'plik ma'nosini, ***-imiz*** I-shaxs ko'plik ma'nosini, ***-ning*** qaratqich kelishigi ma'nosini, ***-ma*** fe'lning inkor ma'nosini, ***-di*** fe'lning o'tgan zamon ma'nosini, ***-ng*** fe'lning shaxs-son (II-shaxs) ma'nosini ifodalaydi.

Shakl yasovchi qo'shimchalardan otlardagi egalik, kelishik fe'llaridagi shaxs-son qo'shimchalari vazifasiga ko'ra boshqa shakl yasovchilardan farqlanadi. Ular sintaktik munosabatni ifodalaydi. Masalan, *Men do'stimni ko'rdim* gapida so'zlarning sintaktik munosabati, so'zlarning o'zaro bir-biriga bog'lanishi I-shaxs egalik qo'shimchasi ***–im***, tushum kelishigining qo'shimchasi ***–ni*** va shaxs-son qo'shimchasi ***–m*** yordamida amalga

oshirilgan. Shuning uchun ham yuqorida keltirilgan 3 turli qo'shimchalarni ba'zi darsliklarda ***so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar*** deb yuritib kelinmoqda. Bu uch turli affikslardan boshqa qo'shimchalar esa sintaktik munosabatni ifodalamaydi. Lekin ulardagi grammatik ma'no so'zlovchining narsa, hodisa, voqelikka munosabatini aks ettirish asosida yuzaga keladi. Masalan, *yigitcha, qo'zichoq, kelinchak, talabalar, kengroq* so'zlaridagi ***-cha, -choq, -chak, -lar, -roq***, qo'shimchalari voqelikka bo'lgan turlicha munosabatlarni ifodalovchi grammatik ma'nolarni bildiradi: ***-cha, -choq, -chak*** «erkalash, kichraytirish», ***-lar*** ko'plik, ***-roq*** belgi miqdorining kamligi grammatik ma'nolarida kelgan.

Shakl yasovchilar kategorial va nokategorial shakl yasovchi turlariga bo'lib ham o'rganiladi.

Kategorial shakl yasovchilar so'z turkumlaridagi grammatik kategoriyalarga xos shakl yasaydi. Bunday shakl yasovchilarga otlardagi egalik, kelishik, ko'plik; fe'llardagi zamon, mayl, nisbat, shaxs-son; sifatlardagi daraja shakllarini yasovchi qo'shimchalar kiradi.

Nokategorial shakl yasovchilar grammatik kategoriyalarga xos bo'lmagan grammatik shakllarni yasaydi. Bularga otlardagi erkalash, kichraytirish *(kitobcha, toychoq, bo'taloq, kelinchak);* fe'llardagi sifatdosh *(o'qigan),* ravishdosh *(o'qib, yugurib)* shakllarini yasovchilar kiradi.

84- mashq. Matndagi so'zlarni morfemik tahlil qiling, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarni aniqlang. Shakl yasovchilarni qanday grammatik ma'no ifodalashini tushuntiring.

Qasida o'qib tugatilganda Bobur ta'sirlanganidan qayerda o'tirganini ham unutgan edi. U atrofiga qarab, go'yo mehmonxonaga uzoqlardan qaytib kelganday bo'ldi.

- Mavlono, bu qasidani Alisherbekka nega yubormaysiz?

- Hirotga boradigan tayinli odam yo'q, amirzodam.

- Biz yaqinda Hirotga elchi yubormoqchimiz. Kaminaga Alisherbekdan kitobat kelgan edi. Javobini yozib yubormoqchiman.

- Amirzodam, qani edi, qulingizning bu qasidasini ham...

- Marhamat, xattotga berib ko'chirtirmoq zarur bo'lsa, men buyururmen. So'ng elchidan berib yuborurmiz.

Gap shunga qaror topdi-yu, mulla Binoiy xursand bo'lib chiqib ketdi. Bobur yana xonayi xosga kirib, chala qolgan she'rini qo'lga oldi. Biroq endi katta shoir bilan bo'lgan uzoq suhbatdan so'ng, avvalgi she'rlari

Navoiyga yuborishga munosib emasdek tuyuldi. Unga ilgari jo'n tuyuladigan narsalar ham aslida juda murakkab ekani hozir juda aniq sezilayotganday bo'lardi. Hamma narsani muhit, ahli jahon murakkablashtiradi. Hirotda yashayotgan Alisher Navoiy ham, hozir Boburga ko'p narsalarni kuyunib aytib bergan Binoiy ham muhitdan, zamona ahlidan norozi bo'lganlaricha bor edi. Boburning o'zi bu zamonadan ozmuncha jabr ko'rdimi? (P. Qodirov,).

So'zlarda bo'lgani kabi affikslarda ham polisemiya, omonimiya va antonimiya hodisalari uchraydi.

Affiksal polisemiya. Affikslar ham xuddi so'zlar kabi ko'p ma'noli (polisemantik) bo'lishi mumkin. Bir turkumga tegishli bo'lgan har xil ma'noni bildiradigan birgina affiksga polisemantik affiks deyiladi. Masalan, ***-chi,*** affiksi turlicha shaxs oti ma'nolarini bildirib kela oladi.: *ishchi, traktorchi, o'yinchi, gulchi, tarixchi, hikoyachi, sportchi, paxtakorchi* kabilar; ***-li,*** affiksi bir o'rinda ega ekanlik ma'nosini (*mevali, bolali, aqlli, kitobli*) bildirsa, ikkinchi o'rinda ortiq darajada ega ekanlik ma'nosini (yog'li, suvli, shirali) bildiradi.

Affiksal omonimiya. Ma'no va vazifasiga ko'ra turlicha affikslarning shaklan teng kelib qolishiga affiksal omonimiya deyiladi. Affiksal omonimiyaning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. So'z yasovchi affikslar shaklan teng kelib qoladi. Bunda omonim affikslar bir so'z turkumi doirasida bo'lishi ham, turli so'z turkumlari doirasida bo'lishi ham mumkin. Masalan, *o'r+oq (ot) – qo'rq+oq (sifat), yashir+in (sifat) – erk+in (sifat), yon+g'in (ot) – oz+g'in (sifat), bilim+don (sifat) – qadr+don (sifat), soch+iq (ot) – chin+iq (fe'l)* kabi.

2. So'z yasovchi affiks bilan shakl yasovchi affiks shaklan teng kelib qoladi. Masalan, *maqtan+choq* (sifat yasovchi) – *qo'zi+choq* (otning kichraytish – erkalash shakli), *o's+ma* (ot yasovchi) – *qovur+ma* (sifat yasovchi) – *o'qi+ma* (fe'lning bo'lishsiz shakli) kabi.

3. Shakl yasovchi affikslar shaklan teng kelib qoladi. Masalan, *mashina+m, mashina+ng* (otning egalik shakli), *o'qidi+m, o'qidi+ng* (fe'lning shaxs-son shakli), *o'qi+sh, yoz+ish* (fe'lning harakat nomi shakli), *ishla+sh+di, kul+ish+di* (fe'lning birgalik daraja shakli) kabi.

Affiksal sinonimiya. Bir turkum doirasidagi affikslarning biror ma'nosida teng kelib qolishiga affiksal sinonimiya deyiladi. Affiksal sinonimiya boshqa-boshqa affikslarning bir asosga qo'shilishi natijasida sodir bo'ladi. Masalan, *savlat+li–ser+savlat, mahsul+dor – ser+mahsul* kabi.

Affikslar sinonimiyasi vazifasi bir xil bo'lgan affikslar doirasida bo'ladi. So'z yasovchi bilan so'z yasovchi *(unum+dor – ser+unum, til+chi – til+shunos)*, shakl yasovchi bilan shakl yasovchi *(ayt+giz – ayt+dir, o'zgar+t – o'zgar+tir)* sinonimik munosabatga kirishadi.

Affikslar sinonimiyasi ko'pincha o'zbek tilidagi affikslarning boshqa tillardan o'zlashgan affikslarning biror ma'nosida umumiylikka ega bo'lishlari asosida kelib chiqadi. Masalan, ***-chi*** affiksi bir ma'nosida tojikcha ***–shunos*** affiksi bilan (*til+chi – til+shunos*), ikkinchi ma'nosida tojikcha ***–kor*** affiksi bilan (*xizmat+chi – xizmat+kor*), uchinchi ma'nosida tojikcha ***-kash*** affiksi bilan (*childirma+chi – childirma+kash*) sinonimik munosabatga kirishadi.

Affiksal antonimiya. Bir turkum doirasidagi affikslarning zid ma'no bildirishi hodisasiga affiksal antonimiya deyiladi. **Masalan,** ***-li*** va ***–siz***: *kuchli – kuchsiz, unumli – unumsiz*; ***- li*** va ***–be:*** *barakali – bebaraka, nuqsonli – benuqson* kabi.

85- mashq. Keltirilgan gaplar tarkibidan ko'p ma'noli affikslarni aniqlang. Ularni shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra tahlil qiling.

1. Uyga kirsa – uyda, hovliga chiqsa – hovlida betoqat bo'ladi. (M. Ismoiliy). 2. Bu gap To'tiqizga yoshlik chog'larini eslatdi. O, u vaqtlar naqadar baxtli edi To'tiqiz! (M. Ismoiliy). 3. Namozshomda karvonchilar Komil bilan Qurbon ota turgan qo'raga yig'ilishdi. (O. Yoqubov). 4. Qabristonning bir chetida bosmachilar bilan urushda halok bo'lgan uch-to'rtta jangchining qabri bor edi. (O. Yoqubov). 5. U sersavlat, serpul shoir kechqurun ham kelmadi. (A.Qahhor). 6. Boshini egib xomush o'tirgan bobom, har turli ibratli so'zlar bilan, otamga nasihat qila boshlaydi. (Oybek). 7. Shahar ichida ham mevali daraxtlar, toklar juda ko'p... (P.Qodirov). 8. Biroq doktor... dori bermadi, tayinli bir gap ham aytmadi. (A.Qahhor). 9. –Bunday xayol qilmasligingizni iltijo qilar edim, otincha! (S. Abdulla). 10. Kuchli shamol ko'tarilib, boqchadagi har narsani to'rt tarafga buka boshladi. (A.Qodiriy). 11. Shu vaqt ayvonda kampirlarning kulgisi ko'tarildi, oshpaz bilan choyxonachining diqqatini tortdi. (V. G'ofurov). 12. Kechki kuz fasli. Erinchak qish hali o'zini sezdirgan emas. (Oybek).

SO'Z YASALISHI

So'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi bo'lib, u yangi so'z yasash, so'z yasash usullari va vositalarini o'rganadi. Tildagi so'zlarning yasalish tarkibini hamda ularning yasalish usullarini aniqlash bu bo'limning asosiy vazifasidir.

So'z yasash usullari. Qanday usul bilan bo'lsa-da, yangi so'z hosil qilishga so'z yasalishi deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida so'z yasalishining turli usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Semantik usul.
2. Fonetik usul.
3. Abbreviatsiya usuli.
4. Affiksatsiya usuli.
5. Kompozitsiya usuli.

Semantik usul. Ko'p ma'noli so'zning ma'nolari orasidagi aloqaning o'zgarishi, uzilishi natijasida omonim so'zlarning yuzaga kelishi haqida ma'lumotga egamiz. So'z ma'nosining o'zgarishi asosida yangi so'z xosil qilish semantik usul bilan so'z yasalishi deyiladi. Bu usul bilan yasalgan so'zlar turli so'z turkumlariga tegishli bo'lib qolishi mumkin. Masalan, *ko'k* («osmon», ot) – *ko'k* («rang», sifat), *ko'ch* («harakat», fe'l) – *ko'ch* («yuk», ot), *yupqa* («belgi», sifat) - *yupqa* («predmet», ot), *kun* («quyosh», ot) – *kun* («sutkaning yorug' qismi», hisob so'zi o'rnida) kabi.

Fonetik usul. So'zning fonetik tarkibida bo'ladigan o'zgarish natijasida yangi so'zning hosil bo'lishiga fonetik usulda so'z yasalishi deyiladi. Masalan, *tun* va *kun*, *ko'z* va *ko'r*, *aka* va *uka* kabi.

So'z urg'usining o'zgarishi ham fonetik usulda boshqa so'z turkumiga oid so'zlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Yangi so'z yasaladi. *Masalan, yangi (sifat) – yangi (payt ravishi), suzma (ot) – suzma (fe'l), qushcha (ot) - qushcha (qushdek, qush kabi - ravish), akademik (sifat) – akademik (ot)* kabi.

Abbreviatsiya usuli. To'g'ri ma'noli turg'un so'z birikmalarining qisqartma so'zlarga aylanishiga abbreviatsiya usulida so'z yasalishi deyiladi. Bu usulda qisqartma otlar yasaladi. Hozirgi o'zbek tiliga abbreviatsiya usulida so'z yasalishi rus tilidan kirgan. Masalan, *O'zMU* – O'zbekiston Milliy Universiteti, *BMT* – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, *ATS* – Avtomatik telefon stansiyasi kabi.

Affiksatsiya usuli. So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z

hosil qilinishiga affiksatsiya usulida so'z yasalishi deyiladi. Yasovchi asosga affikslar qo'shish bilan ot, sifat, fe'l, ravish turkumiga oid so'zlar yasaladi. Masalan, *suvchi, arrakash* – ot; *aqlli, suvsiz* – sifat; *ishla, otlan* – fe'l; *yashirin, yangicha* – ravish kabi.

Kompozitsiya usuli. Ikki va undan ortiq so'zlarning qo'shilishi orqali yangi so'z yasalishiga kompozitsiya usulida so'z yasalishi deyiladi. Bu usulda qo'shma so'zlar yasaladi. Masalan, *ko'zoynak, guldasta, oshqozon, gultojixo'roz* kabi.

86- mashq. Quyidagi so'zlarning tub yoki yasama ekanligini aniqlang. Yasama so'zlarni ajratib olib yasalish usuliga ko'ra tahlil qiling.

Abadiy, abadiylik, ajoyib, azoblantirmoq, bitta, bichim, bodroq, bodring, vajohat, vajohatli, zarpechak, ibo, iboli, ignasimon, ilgak, illat, ilg'or, kahrabo, ketkazmoq, lavlagi, lavozim, loyqa, mazluma, mehr-oqibat, mo'ylov, narigi, naqqosh, noaniq, oynasoz, olxo'ri, olcha, orombaxsh, pufak, puchqoq, ro'molcha, savag'ich, taglama, tagli, ulug'vor, umumiy, chapak, chaqaloq, sholipoya, shuhrat, shuhratli, ezgu, ezgulik.

87- mashq. Matndan yasama so'zlarni aniqlang. Qaysi usulda yasalganligini tushuntiring.

Navoiy g'azalni shavq bilan tovush chiqarib o'qidi. Cholning o'siq qoshlari tagidan qaragan, har vaqtdagi kabi sokin, ishonchli, dono ko'zlariga tikildi.

- Bizning g'azalimiz el orasida bir qadar shuhrat tutgani haqida rivoyatlar bor, - dedi Navoiy kamtarinlik bilan. – Sizning xolis durri gavhardan chizilmish bu badiangizning shuhrati jahonni tutishi muhaqqaqdir.

Jomiyning ko'zlarida, soqollarida samimiy, oqko'ngil tabassum toshdi.

- Bir nusxa ko'chirib olmoqqa ijozat berursiz. – Navoiy ko'zlari bilan qalam, dovot qidira boshladi.

- Zahmat chekmangiz, - qo'li bilan yengil ishorat qilib dedi Jomiy, - bu nusxani siz uchun maxsus ko'chirib qo'ygan edim.

- U holda tuhfangizning qiymati biz uchun behisob ortdi.

Navoiy qog'ozni avaylab taxladi-da, kissasiga soldi va xo'shlashdi. Jomiy uni tashqi eshikka qadar kuzatib qo'ydi.

Xuftondan keyin «Binafsha bog'»ning supasida Hirotning eng dongdor

me'morlari, binokorlari, sangtaroshlari, naqqoshlaridan iborat qirq-ellik ustod yig'ildi. Bularning aksari maxsus maktab ko'rmagan bo'lsalar-da, asrlarning tajribasini mukammal o'zlashtirgan, ijodchi fikrga ega ajoyib ustalar edi. (Oybek).

SO'Z YASALISH TARKIBI

So'z yasalishida affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari eng faol usullardan sanaladi.

So'z yasalish tarkibi so'zning morfemik tarkibi bilan uzviy bog'liqdir. Unda har bir o'zak hamda affiksal morfemaning yangi so'z yasovchilik xususiyati aniqlanadi. Bu so'z yasalish tarkibining o'ziga xos jihatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi.

So'z yasalish tarkibi ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchisi, **yasovchi asos**, ikkinchisi **yasovchi vosita** (qo'shimcha). Yasalish tarkibini esa yasalma (yasama so'z) deyiladi. Masalan, *o'tloq, gulla, mevali, tezlik* yasalmalarda *o't, gul, meva, tez* qismlar yasovchi asos bo'lib, ***-loq, -la, -li, -lik*** qismlari esa yasovchi vosita bo'lib kelgan.

So'z yasalish tarkibi so'zning morfemik tarkibidan farq qiladi Morfemik tarkibda qismlar, ya'ni morfemalar ikki va undan ortiq bo'lishi mumkin. So'z yasalish tarkibida esa faqat ikki qism bo'ladi, ya'ni yasovchi asos va yasovchi vosita (affiks). Agarda *terimchi* so'zi morfemik tarkibga ***ter-im-chi*** shaklida ajralsa, so'z yasalish tarkibiga *terim-chi* shaklida ajraladi. Demak *terimchi* so'zining yasalishi uchun **ter** qismi emas, **terim** qismi asos bo'ladi. Yasovchi asos har doim ham o'zakka teng kelmaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, yasovchi asos tub va yasama bo'lishi mumkin: *bilim, yaxshila, ishchi, tokzor* so'zlarida yasovchi asos bo'lib *bil, yaxshi, ish,* tok tub so'zlari kelgan; *bilimdon, terimchi, ovchilik, terimchilik* yasalmalarida esa *bilim, terim, ovchi, terimchi* yasama so'zlari yasovchi asos bo'lib kelgan.

So'zning morfemik tarkibini aniqlashda morfemalarning chegarasini belgilash qanchalik muhim bo'lsa, yasovchi asos bilan yasovchi qo'shimcha orasidagi chegarani aniqlash ham shunchalik muhimdir. Shunga ko'ra *gulchilik, paxtachilik, baliqchilik* so'zlarida yasovchi asos *gulchi, paxtachi, baliqchi,* yasovchi qo'shimcha *–lik* bo'lsa, *dehqonchilik, ahmoqchilik, ozchilik* yasama so'zlarida esa *dehqon, ahmoq, oz* so'zlari yasovchi asos, *-chilik* yasovchi qo'shimcha bo'ladi. Chunki tilda *dehqonchi, ahmoqchi, ozchi* shaklidagi so'zlar qo'llanmaydi. Qo'shma affikslar haqida morfemika bo'limida ham fikr yuritilgan.

Yasovchi asos qo'shma, juft, takror so'zlardan tarkib topgan bo'lishi ham mumkin: *asalarichi, ignabargli, ota-onali, sihat-salomatlik, sharshara* kabi.

Qo'shma so'zlarda yasovchi asos ikki va undan ortiq bo'ladi. Masalan, *ko'zoynak, mehnatsevar* so'zlari ikkitadan yasovchi asosga ega bo'lsa, *gultojixo'roz* so'zi uchta yasovchi asosdan tarkib topgan.

So'z yasalish tarkibida faqat so'zning leksik ma'no anglatadigan qismi hisobga olinadi. So'zning grammatik ma'no ifodalovchi qismi esa so'z yasalish tarkibiga kirmaydi. Ular so'zning morfologik tarkibi hisoblanadi. Masalan, *mehnatkashlarning* so'zida *mehnatkash* yasama so'z, ***-lar, -ning*** esa grammatik ma'no ifodalovchi (-lar ko'plik ma'nosini, **-ning** qaratqich kelishigi ma'nosini) qismlardir. Leksik ma'noni shakllantirmaganligi uchun bu qismlar so'z yasalish tarkibiga emas, shakl yasalish tarkibiga kiradi.

88- mashq. Yasama so'zlarni topib, yasalish tarkibini aniqlang.

1. Bir ozdan keyin ancha xavfsiz bo'lgan jarlikka tushib olishdi. (V. G'ofurov). 2. —Hay, voqean, - dedi maxdum, kulgi orasi to'xtab. — Mirzoboshidan bir iltimosimiz bor ekan... (A.Qodiriy). 3. Chuvalashib ketgan xayol kalavasining uchini topib olguncha yo'q edi, ko'zi uyquga ketdi, shu bilan ertalab eshik taqillaganda uyg'ondi. (S. Abdulla). 4. Bu haroratli satr qog'ozga tez va ravon tushdi. Bobur o'z zehnini go'yo qaynatib, o'tkirlashib qolganini sezib turardi (P.Qodirov). 5. Biroq Munisxon xatni ko'rdi-yu, sovuqqonlik bilan joyiga tashladi-da,... kitobini ochdi. (A.Qahhor). 6. Keyinroq gapning mazmunidan, bu kishining chor bozorchi, ya'ni shahar atrofidagi qishloqlarga qatnovchi bir savdogar ekanini va Shokir otaga mahsi uchun oldindan pul berib qo'yganligini, ham shu buyurtma qilgan molni olish uchun kelganligini angladi. (Oybek). 7. O'ziyam qandaydir o'ychan, hatto ma'yus edi. (O. Yoqubov). 8. Normat sakrab o'rnidan turib behush xotinning yuziga suv sepdi. (I.Rahim). 9. Lekin Dilshodning maslahatisiz bir narsa qilishni o'zboshimchalik deb o'ylab, shaytonga xay berdi. (M.Ismoiliy). 10. Ariqlardan, torko'cha va ko'chalardan loyqa suv oqa boshladi. (A.Qahhor). 11. Hunarmandlar o'rtasida ajoyib iste'dodli, serdiqqat, serzavq odamlar juda ko'p (Oybek). 12. Odatdagi ulfatchiliklarning birida Saidiy,... Munisxondan gap ochdi... (A.Qahhor). 13. Shu payt qal'aning narigi chetida... qo'shkarnaylarning g'at-g'ati... eshitildi. (P.Qodirov).

89-mashq. Berilgan yasama so'zlardagi yasovchi asos hamda yasovchi affikslarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.

Aloqachi, bichiq, bichiqchi, gazlama, terim, terimchi, terimchilik, ayiruvchi, yo'lovchi, boshqaruvchi, asalarichi, asalarichilik, baxtiyorlik, sihat-salomatlik, bizbizak, sharshara temirchilik, taqachilik, qo'lli-oyoqli, uvali-juvali, qattiq qo'lli, og'ir oyoqli, oq ko'ngilli, yozin-qishin, ochin-to'qin, ostin-ustin, osonlikcha, ortiqchalik, ovqatlanmoq, foydalanmoq, maydalanmoq, o'tkirlanmoq, do'stlashmoq, suxbatlashmoq, yaqinlashmoq, toraymoq, ko'paymoq, o'rtoqlarcha, qadrdonlarcha, aybdorlarcha, otalarcha, arzonchilik, bog'dorchilik, bema'nigarchilik, dag'dag'a, vasvasa, bizbizak, jizza.

90- mashq. Quyidagi berilgan so'zlar yordamida affiksatsiya hamda kompozitsiya usulida yangi so'zlar yasang, yasalmaning tarkibini ajratib ko'rsating.

Namuna: *Gul: gulli (gul+li), gulsiz (gul+siz), gulchi (gul+chi), gulla (gul+la), gultuvak (gul+tuvak), gulsapsar (gul+sapsar), gulchambar (gul+chambar).*

Bir, bog', bil, bo'l, sez, ich, ko'k, yaxshi, bosh, gaz, qisqa, mehnat, joy, barg, gul, ish.

91-mashq. Berilgan so'zlardan avval tub so'zlarni, keyin sodda yasama so'zlarni, so'ngra qo'shma so'zlarni alohida-alohida ko'chirib oling. Yasama so'zlarni yasovchi asos va yasovchi vositaga ajratib chiqing.

Adolatparvar, ajdargul, aybdor, ayiqtovon, alangali, asabiy, badavlat, badbo'y, bazmgoh, belbog'li, belkurak, betob, butazor, vazndor, gazanda, gulband, gumbaz, damlam, dardarak, dildor, donishmand, yem-xashak, yechim, yodgor, yodgorlik, yoqavayron, yog'in, jaydari, jamg'arma, jilovbardor, jonkuyar, zarracha, ilhombaxsh, insoniy, yo'lboshchi, yo'qlama, kaltakesak, kaltafahmlik, kechasi, kirsovun, lolaqizg'aldoq, madaniy, ma'rifatparvar, molboqar, mustaqillik, namozshomgul, nobop, oynasiz, olaqarg'a, oqjo'hori, rahmdil, ro'zg'or, salomnoma, sachratqi, tanga, tezpishar, temirtak, topag'on, uchuvchi, fikrdosh, xalqparvar, xalqparvarlik, cho'rtkesar, shifobaxsh, sho'xchan, elchi, yuklama, yumronqoziq, yaktakchang, o'ymakorlik, qalamcha, qiziqqon, g'ildirak, hayotbaxsh.

So‘z turkumlarida so‘z yasalish

Bir turkumdan boshqa turkumga oid so‘z yasash hodisasi tilda leksikaning boyish manbalaridan biri hisoblanadi.

So‘z yasalish hodisasi turkumlarga ko‘ra tahlil qilinganda, uning turlicha ko‘rinishlarini aniqlash mumkin. Ularni quyidagicha guruhlarga ajratsa bo‘ladi:

1) ma’lum turkumga oid so‘zdan affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari yordamida boshqa turkumga oid yangi so‘z yasaladi;

2) ma’lum turkumga oid so‘zdan affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari yordamida shu turkumning o‘ziga oid yangi so‘z yasaladi;

3) ma’lum turkumga oid so‘zlar boshqa turkumdagi so‘zlardan hamda shu turkumning o‘ziga oid so‘zlardan yasalmaydi;

4) yangi so‘z boshqa turkumga oid so‘zlardan hamda shu turkumning o‘ziga oid so‘zlardan yasalmaydi, balki u to‘g‘ri ma’noli turg‘un birikmalar asosida yasaladi.

1. Tilda ma’lum turkumdagi so‘zlardan boshqa turkumga oid so‘zlarning yasalishi ko‘p uchraydi. Bunda ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish, taqlid va undov so‘zlardan yangi so‘zlar yasaladi. Lekin yangi so‘z yasalishi faqat, ot, sifat, fe’l, ravish turkumlarigagina xosdir. Shu jihatdan qaralganda, son, olmosh, taqlid so‘zlar yasalmaydi.

Tilda ot, sifat, fe’l, ravish yasalishining turli shakllari mavjud:

Ot yasalish tarkiblari: ***kes*** (fe’l) – ***kesak*** (ot), ***bir*** (son) – ***birlik*** (ot), ***tez*** (ravish) – ***tezlik*** (ot), ***shar-shar*** (taqlidiy so‘z) – ***sharshara*** (ot), ***kalta*** (sifat) ***kesak*** (ot) – ***kaltakesak*** (ot), ***besh*** (son)+***barmoq*** (ot) – ***beshbarmoq*** (ot), ***dunyo*** (ot) + ***qarash*** (fe’l) – ***dunyoqarash*** (ot), ***besh*** (son) + ***otar*** (fe’l) – ***beshotar*** (ot) kabi.

Sifat yasalish tarkiblari: ***yog‘*** (ot) – ***yog‘li*** (sifat), ***bugun*** (ravish), ***bugungi*** (sifat), ***cho‘z*** (fe’l) – ***cho‘ziq*** (sifat), ***eg*** (fe’l) – ***egik*** (sifat), ***yumala*** (fe’l) - ***yumaloq*** (sifat); ***bozor*** (ot) + ***bop*** (sifat) – ***bozorbop*** (sifat), ***sof*** (sifat) + ***dil*** (ot) – ***sofdil*** (sifat), ***bola*** (ot) + ***jon*** (ot) – ***bolajon*** (sifat), ***kam*** (ravish) + ***gap*** (ot) – ***kamgap*** (sifat), ***g‘am*** (ot) + ***xo‘r*** (fe’l) – ***g‘amxo‘r*** (sifat), ***ham*** (yordamchi so‘z) + ***dard*** (ot) – ***hamdard*** (sifat) kabi.

Fe’l yasalish tarkiblari: ***arra*** (ot) – ***arrala*** (fe’l), ***tekis*** (sifat) – ***tekisla*** (fe’l), ***sekin*** (ravish) – ***sekinla*** (fe’l), ***dod*** (undov so‘z) – ***dodlamoq*** (fe’l), ***gumbur*** (taqlid so‘z) – ***gumburlamoq*** (fe’l), ***ikki*** (son) –

ikkilanmoq (fe'l), ***sen*** (olmosh) – ***sensiramoq*** (fe'l); ***imzo*** (ot) + ***chekmoq*** (fe'l) – ***imzo chekmoq*** (fe'l), ***kasal*** (sifat) + ***bo'lmoq*** (fe'l) – ***kasal bo'lmoq*** (fe'l) kabi.

Ravish yasalish tarkiblari: askar (ot) – ***askarcha*** (ravish), ***yangi*** (sifat) – ***yangicha*** (ravish), ***siz*** (olmosh) – ***sizcha*** (ravish), ***yugurgan*** (sifatdosh) + ***yugurgancha*** (ravish), ***qaragani*** (ravishdosh) – ***qaragancha*** (ravish), **bir** (son) – ***birdek*** (ravish), ***har+zamon*** (payt ma'nosini bildiruvchi so'z) – ***har zamon*** (ravish), ***hech + qachon*** (so'roq olmoshi) + ***hech qachon*** (ravish), ***bir*** (son) + ***yoqqa*** (o'rin ma'nosini bildiruvchi so'z) – ***bir yoqqa*** (ravish) kabi.

2. Ma'lum turkumga oid so'zdan shu turkumga oid yangi so'z yasalishi haqida gapirilganda, affiksatsiya hamda kompozitsiya usulida, asosan, ot, sifat, ravish turkumlaridagi yasalishlar nazarda tutiladi. Chunki fe'l turkumiga oid yangi so'z fe'lning o'zidan affiksatsiya usulida yasalmaydi. Lekin fe'l+ fe'l shaklida qo'shma fe'llar yasaladi.

Ot yasalish tarkiblari: ***ashula*** (ot) – ***ashulachi*** (ot), ***gul*** (ot) - ***gulzor*** (ot), ***o't*** (ot) – ***o'tloq*** (ot); ***bobo*** (ot) + ***dehqon*** (ot) – ***bobodehqon*** (ot), ***zar*** (ot) + ***kokil*** (ot) – ***zarkokil*** (ot) kabi.

Sifat yasalish tarkiblari: ***ulug'*** (sifat) – ***ulug'vor*** (sifat), ***g'ayri*** (sifat) ***tabiiy*** (sifat) – ***g'ayritabiiy*** (sifat) kabi.

Ravish yasalish tarkiblari: ***hozir*** (ravish) – ***hozircha*** (ravish), ***ko'p*** (ravish) – ***ko'plab*** (ravish); ***nari*** (ravish) – ***beri*** (ravish) – ***nari-beri*** (ravish), ***oldin*** (ravish) – ***keyin*** (ravish) – ***oldin-keyin*** (ravish) kabi.

Fe'l yasalish tarkiblari: ***sotib*** (fe'l) + ***olmoq*** (fe'l) – ***sotib olmoq*** (fe'l), ***borib*** (fe'l) + ***kelmoq*** (fe'l) – ***borib kelmoq*** (fe'l) kabi.

3. Ba'zi turkumga oid so'zlar boshqa turkumdagi so'zlardan ham, shu turkumning o'zidan ham affiksatsiya usulida yasalmaydi. Bularga mustaqil so'z turkumlaridan olmosh va son turkumlariga oid so'zlar kiradi. Lekin tilda *yigirma besh, bir yuz ellik besh* kabi qo'shma sonlar; *besh-olti, o'n-o'nbesh* kabi juft sonlar; *har kim, har nima, hech narsa, ba'zi bir* kabi qo'shma olmoshlar mavjud.

4. So'z yasalishining bu turida yangi so'z affiksatsiya usulida ham, kompozitsiya usulida ham yasalmaydi. Balki to'g'ri ma'noli turg'un birikmalarning qisqarishi asosida yasaladi. Bunda abbreviatsiya usulida so'z yasaladi. Abbreviatsiya usuli o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan bo'lib, ot turkumiga oid qisqartma so'zlarni yasaydi. Masalan, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti* (to'g'ri ma'noli turg'un birikma) – *BMT* (qisqartma so'z), *O'zbekiston Milliy Universiteti* (to'g'ri ma'noli turg'un birikma) – *O'zMU* (qisqartma so'z) kabi.

92-mashq. Quyida berilgan ot turkumiga oid so'zlarni yasalish tarkibiga ko'ra tahlil qiling.

1- topshiriq. Yasalmaning asos qismi qaysi so'z turkumiga oidligini aniqlang va ularni shu asosda guruhlang.

Namuna: *gul* (ot) – *gulchi* (ot);
beza (fe'l) – *bezak* (ot);
shod (sifat) – *shodlik* (ot);
kana (ot) + *kunjut* (ot); – *kanakunjut* (ot).

2- topshiriq. Yasovchi asosning tub, yasama, qo'shma, juft turlarini aniqlang.

Aloqachi, bichiqchi, gazlama, isitma, boshqaruvchi, baxtiyorlik, sihat-salomatlik, bizbizak, sharshara, istak, buyruq, yotoq, bilim, bosim, bog'lam, tenglama, kengashma, jamg'arma, yig'in, tugun, to'zon, to'sqin, toshqin, qirg'ich, o'chirg'ich, tutqich, kuldirgich, yuvindi, yig'indi, supurgi, urg'u, botqoq, yugurdak, qovurdoq, belanchak, bekinmachoq, bo'g'iz, ko'chat, o'tmish, quymoq, sinov, yolg'onchi, qizilcha, quyqa, shodlik, arzonchilik, bema'nigarchilik, to'rtlik, yaxshilik, tezlik, ko'pchilik, borliq, yo'qchilik, varrak, dardarak, tizza, asalarichi, attorlik, yigitchilik, asrdosh, bodomzor, siyohdon, qumloq, bog'bon, do'ppido'z, oromgoh, ajdargul, boychechak, beshqarsak, gulchambar, iskabtopar, bo'yo'sar, kiryuvdi, ochildasturxon.

93-mashq. Quyida berilgan sifat turkumiga oid so'zlarni yasalish tarkibiga ko'ra tahlil qiling.

1- topshiriq. Yasalmaning asos qismi qaysi so'z turkumiga oidligini aniqlang va ularni shu asosda guruhlang.

Namuna: *o'yin* (ot) – *o'yinchi* (sifat);
ulug' (sifat) – *ulug'vor* (sifat);
tin (fe'l) – *tiniq* (sifat);
dil (ot) + *xasta* (sifat) – *dilxasta* (sifat).

2- topshiriq. Yasovchi asosning tub, yasama, qo'shma, juft turlarini aniqlang.

3- topshiriq. Tarkibida o'zgarishga uchragan yasama sifatlarni alohida

ko'chirib oling va qanday o'zgarish sodir bo'lganligini aniqlashga harakat qiling.

Namuna: *sovi+q* – *sovuq;*
achi+q – *achchiq;*
si+q – *issiq.*

Tungi, yog'li, serpul, beaql, uyatchan, kulrang, lattachaynar, ikkiyuzlama, kuydi-pishdi, gavdali, odatdagi, tomdagi, xalqparvar, mansabparast, mazasiz, badavlat, davlatmand, baobro', shaharlik, tuhmatchi, vahimachi, o'yinchi, ulug'vor, jangovar, mardonavor, kuchli, gavdali, sevikli, sevimli, hurmatli, yoqimli, qiyomatli, qo'lli-oyoqli, qattiq qo'lli og'ir oyoqli, oq ko'ngilli, pastlik, tepalik, chuqurlik, qiyalik, go'daklik, yigitlik, didlik, temirchilik, taqachilik, odobsiz, noo'rin, bevaqt, tonggi, bulturgi, tushki, ertalabki, tiniq, buzuq, tetik, to'liq, titroq, qo'rqoq, cho'ziq, iliq, yopiq, siniq, qoloq, qochoq, yumshoq, yangroq, sovuq, chuchuk, quruq, achchiq, sassiq, qattiq, issiq, bozorbop, ommabop, dilorom, dilxasta, sofdil, ofatijon, kamgap, nimjon, nimrang, xushmanzara, xushfe'l, g'amxo'r, xushxo'r, g'ayriqonuniy, hamdard, hamnafas, ikkiyuzlamachi.

94-mashq. Quyida berilgan fe'l turkumiga oid so'zlarni yasalish tarkibiga ko'ra tahlil qiling.

1- topshiriq. Yasalmaning asos qismi qaysi so'z turkumiga oidligini aniqlang va ularni shu asosda guruhlang.

Namuna: ***arra*** (ot) – ***arralamoq*** (fe'l);
oq (sifat) – ***oqlamoq*** (fe'l);
tez (ravish) – ***tezlamoq*** (fe'l);
kasal (ot) + ***bo'lmoq*** (fe'l); – ***kasal bo'lmoq*** (fe'l).

2- topshiriq. Tarkibida o'zgarishga uchragan yasama fe'llarni alohida ko'chirib oling va qanday o'zgarish sodir bo'lganligini aniqlashga harakat qiling.

Ishlatmoq, moylamoq, randalamoq, tiklamoq, tozalamoq, yaxshilamoq, sekinlamoq, dodlamoq, voyvoylamoq, gumburlamoq, taqirlamoq, lapanglamoq, otlanmoq, foydalanmoq, ovqatlanmoq, achchiqlanmoq, sergaklanmoq, ikkilanmoq, sekinlanmoq, tezlanmoq, yaxshilanmoq, o'tkirlanmoq, zavqlanmoq, havotirlanmoq, qanoat-

lanmoq, do'stlashmoq, suhbatlashmoq, qiyinlashmoq, yaqinlashmoq, guvillamoq, chirillamoq, bezillamoq, likillamoq, yarqiramoq, sirqiramoq, mo'ltiramoq, oshamoq, o'ynamoq, bo'shamoq, qiynamoq, shildiramoq, jildiramoq, pasaymoq, qoraymoq, toraymoq, ko'paymoq, ko'karmoq, eskirmoq, suvsiramoq, xavfsiramoq, sensiramoq, sizsiramoq, yo'liqmoq, birikmoq, kechikmoq, zo'riqmoq, boyimoq, changimoq, to'latmoq, berkitmoq, kamsitmoq, boshqarmoq, yo'qlamoq, yotsinmoq, kasal bo'lmoq, kashf etmoq, bayon qilmoq, qo'l qo'ymoq, sotib olmoq, borib kelmoq, aytib kelmoq.

95-mashq. Quyida berilgan ravish turkumiga oid so'zlarni yasalish tarkibiga ko'ra tahlil qiling.

1- topshiriq. Yasalmaning asos qismi qaysi turkumga oidligini aniqlang va ularni shu asosda guruhlang.

Namuna: *rus* (ot) – *ruscha* (ravish);
siz (olmosh) – *sizcha* (ravish);
do'st (sifat) – *do'stlarcha* (ravish).

2- topshiriq. Tarkibida o'zgarishga uchragan yasama ravishlarni alohida ko'chirib oling va qanday o'zgarish sodir bo'lganligini aniqlashga harakat qiling.

Do'stcha, o'zbekcha, avvalgicha, yangicha, sizcha, shuncha, istagancha, yugurgancha, hozircha, ko'pincha, keyincha, bizcha, bizningcha, o'zicha, mardlarcha, do'stlarcha, o'rtoqlarcha, qadrdonlarcha, vahshiylarcha, dehqonchasiga, ochiqchasiga, uzunasiga, qatorasiga, askardek, yashinday, burgutdek, bekorchidek, avvalgidek, bunday, shunday, unday, sizdek, birdek, bilmagandek, achingandek, yo'qday, shundoq, shunaqa, qushdayin, oylab, yillab, harflab, bitta-bittalab, ko'plab, do'stona, kamtarona, oqilona, makkorona, qisman, haqiqatan, fikran, vijdonan, majburan, kechgacha, yaqingacha, anchagacha, hazilsimon, xafasimon, uyalgansimon, oliftanamo, uyalgannamo, butunlay, yoshlay, ertan, kechin, ostin-ustin, har tomon, har doim, hech vaqt, hech qachon, bir yo'la, bir oz, bir dam, takror-takror, tun-kun, eson-omon, biyron-biyron, bilinar-bilinmas, bora-bora, ko'rar-ko'rmas, nariberi, birin-ketin, unda-bunda, o'z-o'zidan, o'zidan-o'zi, birma-bir, taqa-taq, shartta-shartta.

GRAMMATIKA

Grammatika tilshunoslikning bir qismi bo'lib, u tilning grammatik qurilishini o'rganadi. ***Grammatikada*** so'zlarning shakliy o'zgarishi, so'z birikmalari hosil qilish usullari, vositalari va gap qurilishi bilan bog'liq qonuniyatlar o'rganiladi.

Lug'at tarkibidagi so'zlar yakka holda fikr ifodalamaydi. Masalan: *To'satdan yomg'ir yog'a boshladi.* Bu gap tarkibidagi so'zlar (to'satdan, yomg'ir, yog'moq, boshlamoq) ma'lum grammatik qonun qoidalar asosida shakllantirilgandan so'nggina fikr ifodalamoqda. Demak ***grammatika*** so'zlarning shakllanishi, birikishi va ularning fikr anglatish tarzini o'rganadi. Grammatika ikki qismni - ***morfologiya*** va ***sintaksisni*** o'z ichiga oladi.

MORFOLOGIYA

Morfologiya (yunoncha *morphe* – «shakl», *logos* – «ta'limot») so'z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta'limotdir. ***Morfologiyada*** so'zning morfologik tuzilishi, yangi shakl va ma'nolar hosil qilishi bilan bog'liq qonun-qoidalar o'rganiladi. Morfologiyada so'zlar mushtarak yoki farqli belgilari umumlashtirilgan holda turkumlarga ajratib o'rganiladi. So'z leksikologiyada leksik birlik sifatida, morfologiyada esa grammatik birlik sifatida o'rganiladi.

GRAMMATIK MA'NO VA GRAMMATIK SHAKL

So'zning borliqdagi narsa, belgi harakat va voqea-hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalashi uning ***leksik ma'nosi*** hisoblanadi. Leksik ma'no so'zning lug'aviy (asosiy, o'zak negiz) qismi orqali anglashiladi. So'zning biror turkumga mansubligini ko'rsatuvchi umumiy kategorial ma'no va so'zning ma'lum bir grammatik shakli ifodalaydigan ma'no ***grammatik ma'no*** deyiladi. Demak, grammatik ma'no o'z xususiyatiga ko'ra ikki turlidir:

1. Ma'lum bir so'z turkumi uchun umumiy bo'lgan ma'no. Masalan: *yomg'ir, bahor, shirinlik, qush, daraxt* kabi so'zlar uchun mushtarak bo'lgan ma'no predmetlik tushunchasini anglatishidir. Xuddi shu umumiy grammatik ma'no ularning ot turkumiga mansubligini ko'rsatadi.

2. So'zlar asosiy leksik ma'nosidan tashqari qo'shimcha grammatik ma'noni ham ifodalaydi. Masalan: *kitobim, kitobing, kitobi; uyga, uyda, uydan, bordik, yaqinlashyapti* so'zlaridagi egalik, kelishik, zamon, va

shaxs-son qo'shimchalari yordamida ifodalanayotgan ma'no ham grammatik ma'no hisoblanadi.

So'zning grammatik ma'nosi uning grammatik shakli orqali reallashadi. Masalan: *kitoblar* so'zidagi aniq bir predmet va uning ko'pligi ma'nosi - ***lar*** affiksi yordamida, *ishlayapmiz* so'zining grammatik ma'nosi (zamon va shaxs-son) ***-yap,-miz*** morfologik ko'rsatkichlari vositasida anglashilmoqda.

So'z shakli quyidagicha hosil qilinadi:

1. ***Sintetik shakl.*** So'zning o'zak-negiziga qo'shimchalar qo'shish orqali hosil qilinadi: *kuldi, yig'layapti, qalamni, shahardan* kabi.

2. ***Analitik shakl.*** Yordamchi so'zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qalam bilan, maktab tomon.* Nutqda sintetik va analitik shakllar aralash holda qo'llanishi mumkin: so'zla+***b*** ber+***dim***, ona+***m*** uchun; ko'r+**ib** tur+**ib**+**man**.

3. ***Juft va takroriy shakl.*** Bu tipdagi so'z shakllari ham ma'lum bir grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi.

Juft shakl. Bir turkumga mansub ikki so'zning juft holda qo'llanishidan yuzaga keladi. Bir turkumga mansub har qanday so'zni juft holda qo'llab bo'lmaydi. Buning uchun ularning ma'no munosabati e'tiborga olinadi. So'zlar juft holda qo'llanganda umumlashtirish, jamlik ma'nolari o'rtaga chiqadi: *qishin-yozin (doim), katta-kichik (barcha), mayda-chuyda (arzimas narsalar), aji-buji (tartibsiz), ora-sira (ba'zan).*

Nutqimizda juft so'zlar qismlarining o'rni asosan o'zgartirilmay qo'llanadi. *Kalta-kulta, o'lda-jo'lda, ota-bola.* Ba'zi juft so'zlar qismlarining o'rnini almashtirib qo'llash mumkin: *eson-omon – omon-eson, asta-sekin – sekin-asta.*

Takroriy shakl. Leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi, takror holda qo'llangan so'z shakli takroriy shakl hisoblanadi: *katta-katta (binolar), chopa-chopa (charchamoq), joy-joyiga (o'tirmoq), tez-tez (gapirmoq).*

Bir so'zni ketma-ket qo'llash bilan takroriy shakl hosil bo'lavermaydi. Takroriy shaklda so'zning leksik ma'nosidan tashqari ma'lum bir grammatik ma'nolar ifodalanishi lozim.

Masalan: Berganing bir yumurta,
O'ldirding *turta-turta.* (Maqol)
Berganga – *qo'sha-qo'sha,*
Bermaganga *o'sha-o'sha.* (Maqol)
Gul – *dasta-dasta,*

Gul – bermagan nokasta. (Maqol)
Ilib-ilib, yoz bo'lar,
Sovib-sovib, qish bo'lar. (Maqol)

Keltirilgan misollardagi *qo'sha-qo'sha, dasta-dasta* takroriy shakllari ko'plik ma'nosini, *turta-turta, ilib-ilib, sovib-sovib* harakatning takroriyligini ifodalaydi. Takroriy shaklni ***uslubiy takrordan*** farqlash kerak. Masalan: – *Iya, iya, biz turganda nega endi siz pol yuvarkansiz, opa? – Dod, dod! Omonatimdan ayrildim. – Obbo, - dedi Bozorboy uf tortib, - bo'pti, bo'pti, to'rtta balon berib yuboraman. Qutuldimmi?!* (S.Ahmad)

Uslubiy takror tarkibidagi so'zlar birgalikda boshqa bir ma'noni ifodalamaydi, bir butunlikni hosil qilmaydi. Qaytarilayotgan so'z asosan, ta'kidni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

OT SO'Z TURKUMI

Otlarning ma'no va grammatik belgilari

Predmetlik ma'nosini bildiruvchi so'zlar turkumi ***ot*** deyiladi. Ot son, egalik, kelishik kategoriyalari, turli ma'no va vazifa uchun qo'llanadigan morfologik shakllarga, shuningdek, o'ziga xos so'z yasalish tizimiga ega. Masalan: *ishchilarimizning* so'zida ***–chi*** – so'z yasovchi, ***-lar*** – ko'plik, ***-imiz*** – egalik, ***-ning*** – kelishik shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalardir.

Otlar ***kishi nomlarini***: *Ahmadjon, Nozimbek, Maftuna, Muslima*; ***o'rin-joy nomlarini***: *Farg'ona, Samarqand, maktab, qishloq*; ***daraxt va o'simlik nomlarini***: *chinor, majnuntol, kashnich*; ***narsa–buyum nomlarini***: *cho'mich, kosa, ko'ylak*; ***vaqt-fasl nomlarini***: *yil, daqiqa, soat, hafta, oy, yoz, kuz, qish, bahor, mart, may*; ***voqea-hodisa nomlarini***: *majlis, dars, to'fon, zilzila*; **Yer *va osmon jismlari nomini***: *tuproq, tog', tosh, quyosh, yulduz*. Shuningdek: *sevgi, tinchlik, orzu, yaxshilik, qobiliyat* kabi mavhum tushuncha nomlarini ifodalab keladi.

Ot turkumidagi so'zlar sifat, son, olmosh, fe'l va ravish turkumidagi so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishadi: *shirin olma, uchta qalam, o'sha kitob, maktabda ishlamoq, ko'p odam* kabi.

Ot gapda turli vazifalarda kela oladi, lekin ega vazifasida kelishi uning yetakchi sintaktik belgisidir.

Ot turkumiga mansub so'zlar bosh kelishikda kelganda – ***ega*** va ***kesim***, qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olganda ***aniqlovchi, izohlovchi, to'ldiruvchi, hol va undalma*** bo'lib keladi. Masalan, *Ko'z - qo'rqoq, qo'l – botir (maqol). Gullarning ichida eng qadrlisi – atirgul. Azamat teraklarning yaproqlari kumush astarlarini oyga tutib, orom uyqusiga ketishgan (S.Ahmad). Yo'lchi o'z do'sti Qoratoy temirchi bilan hangomalashib o'tirar edi (Oybek). Adabiyot ilmi xuddi yong'oqqa o'xshaydi: sirti qattiq, lekin ichidagi mag'izi shirin (A.Qahhor). Osmonda yulduzlar siyrak qoldi (P.Qodirov). –Bolam, hech kim otasiz o'smabdimi, bo'ying cho'zilib qoldi, endi o'zing ota bo'lasan, mana ko'rasan (S.Ahmad).*

Otlarning ma'no turlari

Otlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi: atoqli otlar; turdosh otlar.

Predmet, voqea-hodisalarga atab qo'yilgan otlar ***atoqli otlar*** deyiladi. Atoqli otlar bir xildagi predmet yoki voqea-hodisalarning birini ajratib

ko'rsatishga xizmat qiladi. Tilimizning lug'at zaxirasida atoqli otlar ma'lum bir o'rinni egallaydi. Kishilarning ismlari, familiyalari, otasining ismi, tahalluslar, laqablar, planeta va yulduzlarning nomlari, uy hayvonlari va qushlarga atab qo'yilgan nomlar, geografik nomlar, tashkilot va idora nomlari, gazeta va jurnal nomlari atoqli otlar sifatida o'rganiladi. Tilshunoslikda atoqli otlarni o'rganuvchi soha ***onomastika*** (yunoncha «nom qo'yish san'ati») deb yuritiladi. Atoqli otlar faqat birlik shaklda qo'llanadi. Atoqli otlar ko'plik qo'shimchasini olsa, grammatik ko'plikni emas, balki modal ma'nolarni ifodalaydi. Masalan: *Shahardan Saltilarning bir arava bo'lib kelishlari ham Enaxonning shu xil havaslaridan biri edi* (Cho'lpon). Bu gapda – ***lar*** qo'shimchasi orqali «mushtarak xususiyatga ega kishilar guruhi» (Salti va uning dugonalari) ma'nosi ifodalangan. *Men bu ishni shunday qoldirib ketolmayman ... Shamsiddin, To'raqul, Abdisamatlar qo'shkarnay bilan jar solishadi... bilasanmi?* (Cho'lpon). Bu gapda ko'plik shakli orqali «birgalikda», «birgalashgan holda» ma'nolari ifodalangan. Turdosh otlar yakka predmet, shaxs yoki voqea-hodisaga nom bo'lganda atoqli otga ko'chgan hisoblanadi. Masalan: *lola - o'simlik nomi, turdosh ot; Lola – ism, atoqli ot; gulxan – olov, turdosh ot; «Gulxan» - jurnal nomi, atoqli ot* va hokazo.

1-mashq. Ko'plik shaklida kelgan atoqli otdan anglashilgan ma'nolarni izohlang.

1. Arava Zebilar masjidi oldiga yetganda, Razzoq so'fi bir necha kishi bilan birga, boshqa bir aravada qarshi tomonga o'tib ketdi (Cho'lpon). 2. Balki Qodiriylar, Cho'lponlar, Usmon Nosirlar dilida armon bo'lib ketgan gaplarni aytish uchun taqdir bu yaxshi kunlarni bizga ravo ko'rgandir (S.Ahmad). 3. G'afur G'ulom, Oybeklar nazari tushgan sendek ijodkor do'stimiz bilan faxrlanamiz (S.Ahmad). 4. - Qizim, bugun mehmonlaringni Sultonxonlarnikiga olib chiqaşan-a? –deb qolsinmi? (Cho'lpon).

2-mashq. Quyida berilgan atoqli otlarni ma'no xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratib yozing.

Sirdaryo, Amudaryo, Hind okeani, Tinch okeani, Nurota tog'i, Qo'qon, Orol dengizi, Marg'ilon, Kaspiy dengizi, Toshbuloq, Norin daryosi, Jumanquduq, Chirchiq daryosi, Qumbuloq, Sho'rquduq, Qumariq, Jiydaariq, Oy, Gulhovuz, Venera, Toshhovuz, Do'nan, Gulqishloq, G'irko'k, Jarqishloq, Boychibor, Osiyo, Olapar, Afrika,

To'rtko'z, Yer, Qaytmas, Nilufar, Baroq, Gulnora, Mosh, Alisher, Malla, Bobur, Jizzax, Qirg'iziston, «Yoshlik», Farg'ona, «Sinfdosh», Tojikiston, «Xalq so'zi», «Sharq yulduzi», «O'zbekiston ovozi».

3-mashq. O'zingiz o'qigan badiiy asardagi atoqli otlarni ma'noviy guruhlarga ajratib yozing va ularning imlosi haqida ma'lumot bering.

4-mashq. «Uzoq o'tmishdan qolgan bebaho meros» mavzusida joy nomlari tarixi bilan bog'liq uy inshosi yozing. Insho yozishda ilmiy adabiyotlardan, etnografik, etimologik, izohli lug'atlardan, shuningdek, buvi va bobolaringizdan eshitgan hikoyalardan unumli foydalaning.

Turdosh ot

Bir turdagi predmet, voqea-hodisalarning umumiy nomini bildiradigan otlar ***turdosh otlar*** deyiladi: *odam, bug'doy, bayroq, yomg'ir, davlat, meva, tezlik, oqibat* kabi.

Turdosh otlar birlik va ko'plik shakllarda qo'llanadi. Turdosh otlar ifodalagan tushunchaning xususiyatiga ko'ra aniq va mavhum otlarga bo'linadi. Bevosita ko'rish, sanash mumkin bo'lgan jonli va jonsiz predmetlar ***aniq otlar*** hisoblanadi: *kitob, daftar, eshik, tuproq, olma.* Bunday otlar sanoq sonlar bilan sintaktik aloqaga kirisha oladi: *o'nta kitob, to'rtta olma.* Shuningdek, subyektiv baho hamda ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi: *qizaloq, kitoblar.*

Mavhum tushuncha, belgi, xususiyat va holat nomlari ***mavhum otlar*** deyiladi. Mavhum otlar ko'plik shaklida qo'llanmaydi: *ezgulik, yaxshilik, mehr, muhabbat, baxt, quvonch.* Ko'plik qo'shimchasini qabul qilganda grammatik ko'plikni emas, balki modal ma'nolarni ifodalagan bo'ladi: *Ovozlari qulog'im ostida jaranglab turibdi* (S.Ahmad). *Quvonchlarim yaproq misol to'kildi* (F.Azimova).

Turdosh otlar birlik shaklida predmetlarning jamini yoki yakka predmetlarni ifodalaydi. Shunga ko'ra yakka va jamlovchi otlarga ajratiladi.

Yakka otlar bir turdagi predmetlardan birini ajratib ifodalaydi: *gul, choynak, piyola.*

Jamlovchi otlar esa birlik shaklida bo'lsa ham, mazmunan ko'plikni bildiradigan otlardir: *aholi, omma, olamon, xalq, qo'shin.*

5-mashq. Berilgan matndagi ot so'z turkumiga mansub so'zlarni ajratib, ularni ma'noviy xususiyatlariga ko'ra guruhlashtirib yozing.

Namuna: O‘simlik nomlari: rayhon, binafsha, yalpiz...
Geografik nomlar: So‘qoq, Xuroson, Urgut...

Qulog‘imga mungli nola chalindi:
Bobomning, buvimning yoshligi o‘tgan, -
Turkiston tuprog‘i, endi alvido!
Ko‘zimdan yosh to‘kar, dilni qon etar
Ona – Yurt firog‘i! Endi alvido!

Olamni larzaga keltirgan bu mungli nola sekin-asta uzoqlashib borar edi. Yana o‘shanday qayg‘uli ovoz eshitildi. Shayx o‘sha tomonga o‘girildi. Sirdaryo bo‘ylab yuqoriga ko‘chib ketayotganlarning qorasi ko‘rindi. Qayoqqa? Jung‘orlar tarafgami? Xitoygami? Buxorogami? Yo Hindiston, Afg‘on ellarigami? Shayx ich-ichidan yig‘lab xudoga nola qilyaptimi yoki o‘sha mungli ovozga o‘zicha jo‘r bo‘lyaptimi, bilib bo‘lmasdi, harqalay, lablari qimirlardi, burushgan yuzidagi ajinlar goh yozilib, goh yig‘iladi. Nursiz ko‘zlari tagida shabnamday tomchi yaltiraydi.

- Ishqilib, tushim bo‘lsin-da, tushim, -deb pichirlagan shayxning bu gapi yonida turgan chopariga ham ta’sir qildi. Ot ham, o‘zi ham yiqildi. Shayx ham chidolmadi. Shamol yiqitgan terakday, oq bo‘z otining ustiga gup etib quladi (T.Qaipbergenov).

6-mashq. Berilgan matndan ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarni ajrating. Ularni namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: Kitoblar - ot; o‘quv quroli; turdosh ot; aniq ot; nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi; sanaladigan ot ko‘plik shaklida kelgan.

Bog‘da bahor hukmron edi...

Siz, umringizda biron marta bog‘da yashab, bahor kirib kelishini kuzatganmisiz?

Boshda tuni bilan tongda eriyotgan qor tomchilarining dilga xush yoqadigan tovushi taraladi. Hali bahor uzoq-anhorning suvi kam, yer - sovuq, maysalar - yer ostida, o‘t - o‘lanlar o‘smaydi, gullar ochilmaydi.

So‘ngra yer bug‘lanib, bog‘da qushlar paydo bo‘ladi, anhor suvi loyqalanib, ko‘paya boshlaydi-yu, dastlab daraxtlar soyasi tushmagan yalangliklarda maysalar uchun yer teshib, yashillanadi. Teraklar barg chiqarib, mayin shabada esganda qush tilidek barglar shodasi titray boshlaganini eshitasan-u «Mana, bahor ham kelibdi», -deb o‘ylaysan. Tevarakka sinchiklab qaray boshlaysan: momaqaymoqlar sap-sariq gul

ochibdi, olchalar gullabdi. Anhor bo'yida yalpizlar unibdi. «E voh, deysan shunda, - umr o'tayapti, umr!» (X.Davron)

Topshiriq: Berilgan matnga nom qo'ying. Nega shunday nomlaganingizni o'rtoqlaringizga izohlab bering.

7-mashq. O'zingiz o'qigan badiiy asarlardan mavhum otlarga misollar toping va ularni ma'noviy guruhlarga ajratib yozing.

Namuna: Diniy tushuncha otlari: ummat, farz... Kasb - hunar otlari: o'qituvchilik, noshirlik... His-tuyg'u otlari: qo'rquv, jasorat, sevgi...

8-mashq. Berilgan misollar asosida otlarning son, egalik va kelishik kategoriyalarini tushuntiring.

1. Zehningni kengaytirma, chuqurlashtir, toki nur taratuvchi oynaning olov nuqtasiga o'xshab aqlingning butun harorati va butun shuuri ham bir nuqtaga jam bo'lsin (K.Gelvesiy). 2. Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi (J.Bayron). 3. Faqat o'zi uchun yashash insonlikni suiiste'mol qilishdir (V.Shekspir). 4. Eng razil, ayni paytda eng oddiy va azaliy ko'rnamaklik – bu farzandlarning ota-onani qadrlamasligidir (L.Vovenarg). 5. Insonning bittagina zolimi bor, u ham bo'lsa jaholatdir (V.Gyugo). 6. Jaholatning uch turi mavjud: umuman hech nima bilmaslik, hamma bilgan narsalarini juda yomon bilish, lozim bo'lmagan narsalarni bilish (Sh.Dyuklo). 7. Do'stimga tushgan xavf meni ham tahlikaga solmas ekan, bu chinakam do'stlik emas (D.Dido).

9-mashq. Bu mashqni guruhlarga bo'linib, musobaqa tarzida bajarishga harakat qiling. Berilgan so'zlarni to'liq tahlil qiling. Shuningdek, og'zaki savol – javob orqali o'z bilimingizni sinab ko'ring.

Tahlil namunasi: varrak - ot, nima?, predmet, taqlidiy so'z+ak, sintetik shakl affiksatsiya usulida yasalgan sodda yasama ot.

Uyqu, ozodlik, olomon, o'rmon, qand-qurs, ota-ona, kuch-qudrat, ombor-ombor, etak-etak, sadarayhon, isitma, yog'in, yig'in, kesatiq, tezlik, bekinmachoq, ichkilik, sinov, qurshov, yog'ingarchilik, bilaguzuk, karvonboshi, ayiqtovon, dunyoqarash, gulxayri, gultoji-xo'roz, adi-badi, qiy-chuv, ur-yiqit, bordi-keldi.

10-mashq. Berilgan misollardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sintaktik xususiyatlarini tushuntiring.

1. ***Nazokat*** O'tkirning muomalasidan xursand (Uyg'un). 2. ***Daryolarim*** g'azabdan notinch (J.Jabborov). 3. ***Insonparvarligingizdan*** benihoya mamnunman (S.Jamol). 4. Bu ***Vatan*** barchamiz uchun muqaddas. 5. Odam *temirdan* qattiq, guldan nozik (Maqol). 6. ***Til***- *yuraknnig kaliti* (Maqol). 7. *Ona bilan bola- gul bilan lola* (Maqol). 8. Mening ***ismim - Muslima, familiyam Yo'ldosheva***. 9. ***Anorsoy- o'tmishning*** tilsiz *guvohi*. Dahshatli janglar *maydoni*, ko'chmanchi sahroyi *qabilalarning makoni*. 10. Mahallaning h*okimi* – ***ellikboshi*** (Oybek). 11. ***Vatanimiz - onamiz, mehnat - baxt durdonamiz*** (Q.Muhammadiy). 12. ***Kamtarlik*** kishining *bezagi* (Maqol). 13. ***Otam*** – *shifokor,* ***onam*** - *o'qituvchi*.

14. ***Yurak,*** sensan mennig ***sozim,***
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zimga ***oyni*** berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim. (U.Nosir)

Otlarda son kategoriyasi

Otlar nutqda birlik va ko'plik shakllarida ishlatiladi. O'zbek tilida otning birlik shaklini ifodalovchi maxsus qo'shimcha yo'q. Ko'plik qo'shimchasisiz holatdagi ot grammatik jihatdan birlik sonda hisoblanadi: *sochiq, soat, on, nabira, munchoq, avlod, aholi.*

Otning ko'plik shakli esa ***–lar*** qo'shimchasi orqali ifodalanadi va predmetning birdan ortiq ekanligini bildiradi. ***–lar*** qo'shimchasi quyidagi holatlarda qo'llanganda grammatik ko'plikni emas, balki turli modal ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

1. Atoqli otlarga qo'shilganda;

2. Mavhum otlarga qo'shilganda;

3. Inson tanasidagi asli bir dona bo'lgan predmetlar bildirgan so'zlarga qo'shilganda;

4. Donalab sanalmaydigan otlarga qo'shilganda;

5. Vaqt ma'nosidagi otlarga qo'shilganda;

6. Juft predmetni anglatgan otlarga qo'shilganda;

7. Aniq va mavhum otlarga qo'shilib, hurmat, izzat ma'nosi ifodalanganda.

Otlarda egalik kategoriyasi

Predmetning uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini anglatuvchi shakllar **egalik kategoriyasi** deyiladi.

Egalik kategoriyasi quyidagi qo'shimchalar bilan ifodalanadi:

Shaxslar	Birlikda		Ko'plikda	
	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng
I	**- m**	**-im**	**-miz**	**-imiz**
II	**- ng**	**-ing**	**-ngiz**	**-ingiz**
III	**- si**	**-i**	**-si**	**-i**

Egalik qo'shimchalari, odatda, ko'plik qo'shimchasidan keyin qo'shiladi: *uy+lar+im, o'yinchoq+lar+ing, rasm+lar+i.*

Egalik qo'shimchalari imlosi:

1. Ikkinchi bo'g'inda ***i, u*** tor unlisi qatnashadigan ayrim ikki bo'g'inli otlarda egalik qo'shimchasi (birlik shaklida) qo'shilganida ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmaydi va yozilmaydi: *og'iz+im–og'zim, burun+ing–burning, qorin+i–qorni, o'g'il+i–o'g'li, o'rin+ing–o'rning.*

Esda tuting: Bu qoidani ***o–i, o'–i, u–u, i–i*** tarzida shakllangan ikki bo'g'inli so'zlarning barchasiga qo'llab bo'lmaydi. Masalan: *odil, bo'g'in, kukun, chivin, ojiz* kabi.

2. Manba, tole kabi unli bilan bitgan otlarga egalik qo'shimchasining ***–im, -ing, -i(-yi)*** shakli qo'shiladi: *manbayi, toleyim* kabi.

3. Oxiri *k* yoki *q* undoshi bilan tugagan *tabrik, kerak, yong'oq, qayliq* kabi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda so'z oxiridagi k undoshi *g* undoshiga, *q* undoshi *g'* undoshiga aylanadi va tabrigi, keragi, yong'og'i, qaylig'i tarzida yoziladi.

Esda tuting. *nutq, zavq, ufq* kabi bir bo'g'inli otlarga, shuningdek, *idrok, ishtiyoq* kabi ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, o'zakda o'zgarish yuz bermaydi.

11- mashq. Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Orzu, kitob, do'stlik, qovoq, belbog', botqoq, shavq, sog'lik, boylik,

munchoq, sochiq, kamtarlik, bo‘g‘iz, qatiq, qaymoq, quloq, baliq, buzoq, yurak, o‘simlik, qo‘shiq, huquq.

Otlarda kelishik kategoriyasi

Ot yoki otlashgan so‘zning boshqa bir so‘zga tobeligini ifodalaydigan grammatik shakllar sistemasi ***kelishik kategoriyasi*** deyiladi. Otlarning kelishik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi **turlanish** deyiladi, kelishik qo‘shimchalari esa turlovchi qo‘shimchalar hisoblanadi. O‘zbek tilida 6 ta kelishik mavjud bo‘lib, ularning nomi, qo‘shimchalari va so‘roqlari quyidagi jadvalda berilgan:

№	Kelishiklar nomi	Qo‘shimchasi	So‘roqlari	Kelishik shaklidagi otlar
1.	Bosh kelshik	----	kim? nima? qayer?	Oybek, kitob, xayol, universitet
2.	Qaratqich kelishigi	**--ning**	kimning? nimaning? qayerning?	Oybekning, kitobning, xayolning, universitetning
3.	Tushum kelishigi	**--ni**	kimni? nimani? qayerni?	Oybekni, kitobni, xayolni, universitetni
4.	Jo‘nalish kelishigi	**--ga (-ka, -qa)**	kimga? nimaga? nimani? qayerga?	Oybekka, kitobga, xayolga, universitetga
5.	O‘rin-payt kelishigi	**--da**	kimda? nimada? qayerda?	Oybekda, kitobda, xayolda, universitetda
6.	Chiqish kelishigi	**--dan**	kimdan? nimadan? qayerdan?	Oybekdan, kitobdan, xayoldan, universitetdan

Otning sintaktik vazifasi uning qaysi kelishik qo‘shimchasini olib kelishiga qarab belgilanadi. Masalan, bosh kelishikdagi so‘z gapda ega, kesim, undalma, vazifasida, qaratqich kelishigidagi otlar qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi.

Bosh kelishik

Bosh kelishikdagi so‘z *kim? nima? qayer?* so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Bu kelishikni ifodalaydigan maxsus qo‘shimcha yo‘q. Bosh kelishik shaklidagi ot gapda ega, kesim, izohlovchi, sifatlovchi, undalma va atov gap vazifasida keladi.

12-mashq. Bosh kelishikdagi otlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Yomg‘ir tomchilay boshlagandi (N.Normatov). 2. Raxshona bekatga mendan oldin borib, kutib turgan ekan (E.A’zam). 3. Samarqand ko‘hna Sharq madaniyatining bebaho gavharidir. 4. O‘rmonjon mening tutingan o‘g‘lim-ku (A.Qahhor). 5. Mashrabning oti nega – Mashrab? (E.A’zam). 6. – U bekatning nomi – «Xatolik», amaki!

13-mashq. Bosh kelishikdagi otlarning qanday so‘zlar bilan bog‘lanayotganligi va sintaktik xususiyatini aniqlang.

1. Turg‘unboy munkib-munkib choy ho‘pladi. 2. Kelin tushadigan yasatug‘li uy huvillab qoldi. 3. Go‘rkov kelib qo‘ltig‘idan ko‘tarmaganda hali-beri o‘rnidan turmasdi. 4. Yer tagida ilon qimirlasa biladigan Robiya bo‘lgan voqeani o‘sha kechasiyoq eshitadi. 5. Shaharning pastqam mahallalarida xufiya «iskalat»lari bo‘lardi. 6. U qilgan to‘ylar hali-hali og‘izlarda doston. 7. Qamoq lagerlarida umrini o‘tkazayotgan mahbuslar uyini, bola-chaqalarini sog‘inib mushuk boqishardi. 8. Ko‘mir ortilgan vagonchalarni tortish shular zimmasiga tushdi. 9. Shirimbetov tunov kuni qo‘liga kishan solingan, soqchidan tepki yegan mahbus edi. 10. Qo‘shtegirmon bilan viloyat markazining oralig‘i atigi o‘n to‘rt kilometr, hozir yo‘lga chiqsa, o‘n besh minutga qolmay yetib keladi (S.Ahmad).

Qaratqich kelishigi

Biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga qarashliligini anglatadi. Qaratqich kelishigining morfologik ko‘rsatkichi ***–ning*** bo‘lib, she’riyatda ***-n*** yoki ***–im*** shaklida ham qo‘llanadi: *Birovning ko‘nglini chog‘ qilishning eng yaxshi usuli – uning so‘zlariga quloq tutish* (J.Louell). *Bu quyosh o‘lkasin otashin sasi, O‘zbek diyorining saratoni* bu (A.Oripov). Yerda qolgan, o, tanim manim, O‘zbekiston, Vatanim manim! (A.Oripov)

Jonli nutqda esa tushum kelishigi qo‘shimchasiga omonim bo‘lib keladi:

— *Siz kimni zurriyotini bozorga olib chiqqanligingizni bilyapsizmi? Kimsan, Mirzaboyni zurriyoti!* (T. Murod)

Bunday holatni ***—n*** shaklida ham kuzatish mumkin:

Har bolam ufurgan nafasin atri
She'rimning eng yetuk, eng yaxshi satri (G'.G'ulom)

Umid uzgil, deding, oshiq, muhabbat rishtasin uzgum,
Uzurman, deb azob etding, azobing ichra men borman (A.Oripov)

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi men, sen olmoshlariga ***—ing*** shaklida qo'shiladi: *men+ing, sen+ing.*

Qaratqich kelishigi qo'llanishiga ko'ra belgili yoki belgisiz bo'ladi. ***Belgili qaratqich kelishigi*** -ning bilan shakllanadi va real qarashlilikni ifodalaydi: *Usta Mahkamning kichik qizi Inobat mahmadonagina chiqqan* (S.Ahmad). *Qo'rquvdan Nilufarning ko'zlari pir-pir ucha boshladi* (U.Nazarov).

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi tushirilgan bo'lsa, ***belgisiz qaratqich*** hisoblanadi: *Xotiralar iskanjasida lom-mim demay, «xotirjamlik»ni ijro etmoqdaman* (Yo.Akram). *Urush azoblari xotiraga aylanmaydi, aksincha har kuni davom etaveradi* (Q.Norqobil).

Belgisiz qaratqich kelishigidagi otlar o'zidan keyingi ot bilan zich bog'langan bo'ladi va ular orasiga boshqa so'z kiritib bo'lmaydi. Bunday bog'lanishda qarashlilikdan ko'ra aloqadorlik ma'nosi ustun bo'ladi.

14-mashq. Gaplarni o'qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni topib, qanday hollarda belgili va qanday hollarda belgisiz kelishini tushuntiring.

1. — Kechalari osmonga boqasan-u men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotgandek tuyuladi. Ha, sening kula biladigan yulduzlaring bo'ladi (S.Ekzyuperi). 2. Yamasang yangi bo'lur, yangining tengi bo'lur (Maqol). 3. Yerga engashganning qomati oliftaning bo'yidan balandroq (B.Franklin).

4. Shamollar ichida men ham bir shamol,
Chechaklar atridan men ham sarmastman.
Lekin sen ruhimning mangu xayoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli (A.Oripov).

5. Hayron boqur bu manim ahvolima har kim,
Men ersam o'zgalar ahvoliga hayron, yozajakman (A.Oripov).

Tushum kelishigi

Tushum kelishigidagi ot ish-harakatni o'z ustiga olgan predmetni anglatadi. Bu kelishikdagi ot kimni? nimani? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Tushum kelishigi ***-ni*** qo'shimchasi bilan shakllanib, o'timli fe'lga bog'lanadi. Gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladi: *Hayotni sevasanmi? Unda vaqtni bekorga o'tkazma* (B.Franklin).

She'riy nutqda tushum kelishigining ***–n, -in*** shakllari ham uchraydi.

Har yonda go'zallik yoymish daftarin. (A.Oripov)

Gar muhabbatning hayotda
Turfa xil bozori bor,
Oshiq ahlin lek muhabbatga
yetishmagay zori bor. (A.Oripov)

Jo'nalish kelishigi

Jo'nalish kelishigidagi otdan anglashilgan ish-harakatning kimga, nimaga tegishliligini, ish-harakatning bajarilish o'rnini, vaqtini, sababini hamda ish-harakatning bajarilishida vosita ekanligini anglatadi. Kimga?, nimaga?, qayerga? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Jo'nalish kelishigi ***–ga*** qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. Mazkur qo'shimcha k yoki g tovushi bilan tugagan otlarga qo'shilganda ***–ka, q*** yoki ***g'*** tovushi bilan tugagan otlarga qo'shilganda ***-qa*** tarzida aytiladi va yoziladi.

Jo'nalish kelishigidagi ot kimga? yoki nimaga? so'rog'iga javob bo'lganda, gapda vositali to'ldiruvchi: qayerga? so'rog'iga javob bo'lganda, o'rin holi; qachon? yoki qachonga? so'rog'iga javob bo'lganda payt holi vazifasida keladi.

O'rin – payt kelishigi

O'rin – payt kelishigidagi ot ish-harakatning bajarilish o'rnini, vaqtini, bajarilish holatini ifodalaydi. ***–da*** qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi. Kimda?, nimada?, qayerda?, qachon?, qay holatda? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Gapda to'ldiruvchi, hol, kesim vazifalarida keladi.

Chiqish kelishigi

Chiqish kelishigidagi ot ish-harakatning chiqish o'rnini, vaqtini, sababini bildiradi. Chiqish kelishigi ***–dan*** qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. Kimdan?, nimadan?, qayerdan?, qachondan? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi va gapda to'ldiruvchi, hol vazifalarida keladi.

15-mashq. Matnni o‘qing. Otlarni aniqlab, qaysi so‘roqqa javob bo‘lishi, kelishigi va gapdagi vazifasini ayting.

Tog‘ bag‘ridagi huv o‘sha bulut bulut emas, chinor. Darvoqe, tog‘ning o‘zi ham, qishloq ham uning nomi bilan: chinortog‘, chinorqishloq deb ataladi. Bizning Ochil buva shu yerda tug‘ilgan. Men gapni to‘g‘ri shu kishidan boshlamoqchi edim-u, lekin bu joylarda chinorsiz hech narsani tushuntirib bo‘lmaydi. Hatto guzar, undagi katta, gavjum choyxona haqida gap ketganda ham «chinorda chaqchaqlashib keldik», «chinorga borib bir osh qilaylik», deyishadi. Butun qishloq shu chinorning soyasiga joylashgan. Ochil buva bugun chinor bilan xayrlashmoqda. Butunlay emas, albatta. Vaqtincha. U safar oldidan har gal shunday qiladi, tirik odam bilan xayrlashganday uzoq tikilib, pichirlashib xayrlashadi (A.Muxtor).

16-mashq. Gaplarni o‘qing. Qaratqich va tushum kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Umida hozir qo‘lga tushishdan ham ko‘ra, yana Bergerning basharasini ko‘rishdan qo‘rqar edi. 2. Berger shlapasini tizzasiga qo‘ndirib, oltin uzuk taqqan uzun qo‘llarini qayoqqa qo‘yishni bilmagandek, o‘ng‘aysizgina o‘tirdi. 3. Uning gapini yigitlar eshitmadilar, ammo kapitanning vaqti chog‘ligi ko‘rinib turardi. 4. Endi bu odamning qo‘pol so‘roq qilishlari g‘ashiga tegmay qo‘ygan edi. 5. Sumbulning har bargidan tiniq buloq suvi tomib turadi. 6. G‘orning og‘ziga yaqinlashganingizda siz, avvalo, quyosh nuri va buloq suvi zarralaridan paydo bo‘lgan ajoyib naykamalakni ko‘rasiz, keyin ko‘zingiz sal ko‘nikkach, bosh ustingizda qora soch tolalaridagi milliard-milliard yiltiroq bargchalarda ko‘z yoshiday mo‘lt-mo‘lt etib turgan tomchilarni, ularning oyoq ostingizdagi oydin buloqqa yomg‘irdek tomishini ko‘rasiz, tomchilarning ajoyib sirli, kumush tovushini eshitasiz, bag‘ringizga rohatbaxsh salqin kelib uriladi. 7. Jahonning sakkizinchi mo‘jizasi bino bo‘ldimi, yo‘qmi – roviylar bilmaydilar. 8. Bu dargoh baayni jahannam, falak gumbazini oh-nola tutuni tutgan, qiyomat qoyimning xuddi o‘zi edi. 9. Shohning imosi bilan uning oyog‘i ostiga bir tovoq oltin to‘kdilar. 10. Navolarning dardli avji dillarni tilkalar, odamlar esa bu jarohatdan lazzat topib o‘zligini unutar edi (A.Muxtor).

17-mashq. Gaplarni o‘qing. Jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Ularning imlosi va gapdagi vazifasini tushuntiring.

1. O'h-ho', bunaqa sigir bozorda falon pul bo'lsa kerak. 2. Ergashvoy to'nini yelkasiga tashlab ayvonga chiqdi. 3. Ergashvoyning peshonasi tirishdi. Bir so'z demay, yotoqqa kirib ketdi. 4. Avvallari oilasi jam, tinch paytlarda Turg'unboy jiyani Nasibjondan xabar olib turardi. 5. Ko'chada, do'xtirxonada lunjini bog'lab olganlarning son-sanog'i yo'q. 6. Har gal shunaqa yig'in oldidan Normatvoy atrofiga odam to'plab, latifa aytib kuldirar, ba'zi kichik rahbarlarning yurishini qilib ko'rsatardi. 7. To tushlikkacha to'rt-besh qog'oz yozib olmasa keyin ishlab bo'lmasdi. 8. Tongga yaqin xo'rozimiz cho'zib-cho'zib qichqirdi. 9. Urgutda adir tepasidagi Navro'z bayrami o'tkaziladigan yalanglikka chiqadigan tik so'qmoq yonboshida bir qabr bor. 10. Ot pastda, quyoshsiz, oysiz, yulduzsiz makonda mung to'la ko'zlarini yumganicha qora taqdirini poyoniga yetkazish uchun zimistonda qoldi (S.Ahmad).

18-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'ying. Ularning imlosini tushuntiring.

1. —Dezorganizatorlik... (-ga, -ka, -qa) o'zlari bosh-qosh bo'ptilar shekilli, o'rtoq Shomurodov? —dedi labi burilib. 2. Keyin ikki chet... (-ta, -da) qolgan «yoriq»... (-ga,-ka,-qa) beton quyiladi. 3. Ha, oldinroqda ikkita yigit turgan ekan-da. O'l, mov mushuk... (-ga,-ka,-qa) o'xshamay! 4. Qog'oz paketga tepchib chiqqan yog'... (-ga,-ka,-qa) ko'zim tushishi bilan yana o'qchidim. 5. Aprel... (-ni,-ning) o'rtalariga borib xuddi nok... (-ga,-ka,-qa) o'xshab to'p-to'p bo'lib gullaydi. 6. Hammasi orqaroq... (-ga,-ka,-qa) o'tirish... (-ga,-ka,-qa) harakat qiladi. 7. Oyim kosalar... (-ning, -dan) birini siltab oldi-da, zarda bilan sochiq... (-ga,-ka,-qa) artib, sharaq etib xontaxtaga qo'ydi. 8. Muzaffar, ko'zlari hayrat... (-tan,-dan) olaygancha beixtiyor chap yuzi... (-ni, -ning) kafti bilan bekitdi. 9. O'zimni to'shak... (-ga, -ka, -qa) tashlashim bilan yana tepamga keldi. 10. Etakdagi uy... (-ni, -ning) romi o'rniga omonat terib qo'yilgan xom g'ishtlari hovliga otilib, parokanda sochilib yotar, bostirma eshigi... (-da, -dan) arqon... (-ni,-ning) uzib chiqqan ikkala qo'chqor hovlida tipirchilab, u burchak...(-da, -dan) bu burchak...(-ga, -ka, -qa) jonsarak yugurar edi (O'. Hoshimov).

Otlarning yasalishi

Ot turkumiga mansub so'zlar, asosan, morfologik va sintaktik usul bilan yasaladi. Morfologik usulda so'zning negiziga maxsus yasovchi

qo'shimchalar qo'shish orqali ot hosil qilish tushuniladi. Sintaktik usulda esa bir necha so'z ishtirokida ot hosil qilish nazarda tutiladi.

Ot yasovchi qo'shimchalar ot, sifat, son, olmosh, fe'l turkumidagi so'zlardan ot yasashga xizmat qiladi. Masalan: *kursdosh (otdan), chopiq (fe'ldan), qiziqchi (sifatdan), birlik (sondan), o'zlik (olmoshdan).*

Morfologik usul bilan yasalgan otlar ma'no xususiyatiga ko'ra quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. Shaxs va kasb - hunar otlarini yasovchi qo'shimchalar. 2. Narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasovchi qo'shimchalar. 3. O'rin – joy oti yasovchi qo'shimchalar. 4. Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar.

1. Shaxs va kasb - hunar otlarini yasovchi qo'shimchalar, asosan, otga qo'shiladi va yangi ma'noli ot hosil qiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

-chi. Bu qo'shimcha barcha so'z turkumlariga va boshqa tillardan kirgan so'zlarga qo'shilib, quyidagi ma'nolarni ifodalovchi otlar yasaydi: a) biror kasb bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari: *sotuvchi, o'qituvchi, haydovchi, tarbiyachi*; b) biror fe'l-atvor, xususiyat bilan bog'liq otlar: *qiziqchi, og'machi, a'lochi, lofchi, ayg'oqchi.*

-dosh. Bu qo'shimcha negiz anglatgan shaxs yoki predmet bilan yashash, ishlash, o'qish o'rni va davri birga bo'lgan (*yurtdosh, ovuldosh, kursdosh, tengdosh, zamondosh*); ish harakati, xususiyati va holati umumiy bo'lgan (*ko'makdosh, safdosh, sirdosh, yostiqdosh, ohangdosh, suhbatdosh*); dunyoqarash va qarindoshlik jihatidan yaqinlik ma'nosini ifodalaydigan (*fikrdosh, maslakdosh, jondosh, qondosh, qarindosh*) shaxs otlarini yasaydi. Shuningdek, bu qo'shimcha yordamida ilmiy atamalar ham hosil qilinadi: *sifatdosh, ravishdosh, undosh, uyadosh, shakldosh, urg'udosh*. Bu qo'shimcha bilan shakllangan ayrim so'zlar ***ham***– old qo'shimchasi orqali hosil qilingan otlarga sinonim bo'ladi. *Kasbdosh/hamkasb, suhbatdosh/hamsuhbat, qishloqdosh/hamqishloq.*

-kash. «Shug'ullanuvchi», «tortuvchi» ma'nosidagi ot hosil qilishda ishlatiladi. Masalan: *aravakash, paxsakash, suratkash, tuyakash.*

-bon. Biror narsaga qarab turuvchi, qo'riqlovchi shaxsni bildiruvchi ot yasashda ishlatiladi. Masalan: *darvozabon, bog'bon, saroybon.*

-boz. «Shug'ullanuvchi» ma'nosidagi ot hosil qilishda ishlatiladi: *dorboz, kaptarboz, masxaraboz*. Bu qo'shimcha, ko'pincha, ***-voz*** tarzida talaffuz qilinadi, lekin –boz yoziladi.

-paz. Asosan, ovqat nomlariga qo'shilib, negiz anglatgan taomni pishirish, tayyorlash bilan shug'ullanuvchi shaxsni – kasb egasini bildiradi: *kabobpaz, somsapaz, oshpaz, mantipaz.*

-dor. Otlarga qo'shilib shu so'z orqali ifodalangan predmetga egalik yoki predmetning o'shanga xos, taalluqli ekanligini bildiruvchi ot yasaydi: *guldor, chorvador, amaldor, mansabdor.*

-shunos. Negiz anglatgan soha bilan shug'ullanuvchi shaxs oti hosil qilishda ishlatiladi: *tilshunos, adabiyotshunos, sharqshunos, tuproqshunos, huquqshunos.*

-soz. Negizdan anglashilgan predmetni yasash va tuzatish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti hosil qilishda ishlatiladi: *soatsoz, kemasoz, aravasoz, mashinasoz.*

-do'z. Negizda ifodalangan predmetdan tikuvchi, hunarmand ma'nosidagi ot yasaydi: *do'ppido'z, etikdo'z, mo'ynado'z, zardo'z, chopondo'z, maxsido'z.*

-xon. Negizdan anglashilgan predmetni o'qish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti hosil qilishda ishlatiladi: *kitobxon, gazetxon, jurnalxon.*

-gar, -kar, -kor. Negiz anglatgan predmet bilan shug'ullanuvchi muayyan kasb-hunarni, faoliyatni puxta egallagan ma'nolaridagi shaxs otlarni hosil qilishda ishlatiladi: *zargar, kimyogar, miskar, firibgar, tadbirkor, binokor, sholikor, san'atkor, ijodkor.*

-furush. Negiz anglatgan predmetni sotish bilan shug'ullanuvchi ma'nosidagi shaxs oti yasaydi: *mevafurush, qandfurush, qovunfurush, pistafurush.*

II. Narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasovchi qo'shimchalar, asosan, ot va fe'lga qo'shilib mehnat qurollari, o'lchov birliklari, muayyan harakat, holat nomi, natijasi yoki bajaruvchi ma'nolaridagi otlarni hosil qilishda ishlatiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

-k (-ik), -ak, -q (-iq, -uq), -oq. Mehnat quroli otini yasaydi: elak, kurak; muayyan harakat holat nomini yasaydi: *chaqiriq, buyruq, so'roq*; muayyan harakat natijasi nomini yasaydi: *tilak, yutuq, ko'rik, o'toq, bezak*; harakat bajaruvchi predmetlar nomini yasaydi: *pirpirak, bizbizak, guldirak.*

-gi (-ki), -qi (-g'i, -g'u). Bu qo'shimchalar fe'l negizlariga qo'shilib narsa qurol oti va mavhum otlar yasashda ishlatiladi: *supurgi, chalg'i, cholg'u, suzgi, yoqilg'i; kulgi, turtki, sezgi.* Shuningdek, bu qo'shimcha yordamida *tepki, kuydirgi* kabi kasallik otlari ham yasalgan.

-m (-im, -um). Bu qo'shimcha fe'llarga qo'shilib, asosan, quyidagi ma'nolarni ifodalovchi otlarni hosil qilishda ishlatiladi: narsa-buyum oti: *kiyim*; harakat-holat nomi: *aldam, chidam*; natija nomi: *to'plam, bitim,*

Juft otlar ikkita otning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: *ota-ona, qozon-tovoq.*

Qisqartma otlar qo'shma va murakkab ot qismlarining qisqartirilgan holda qo'llanishidan hosil bo'ladi: *TDPU, FarDU* kabi.

Qisqartma ot so'zlarni qisqartirib aytish va yozish, vaqt hamda o'rinni iqtisod qilish maqsadi bilan o'ylab topilgan.

O'zbek tilida qisqartmalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. ***Harfiy qisqartmalar***: *TTZ (Toshkent traktor zavodi), TDPU (Toshkent davlat pedagogika universiteti), BMT (Birlashgan Millatlar tashkiloti)* kabi.

2. Bo'g'inga teng qismlardan tuzilgan ***aralash qisqartmalar***: *FarDU (Farg'ona davlat universiteti), O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti), O'ztibtexnika, O'zekspomarkaz, O'zdavstandart.*

Bunday qisqartmalarni ayrim matnlarda ishlatiladigan shartli qisqartmalardan farqlash kerak. Masalan: *A.Navoiy (Alisher Navoiy), A.Qod. «O't. k.» (Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar»), O. (Oybek), v.b (va boshqalar)* kabi. Bunda harf yoki bo'g'indan so'ng nuqta qo'yiladi, demak, ajratiladi, shunga ko'ra bunday qisqartma yaxlitligicha so'z darajasiga ko'tarila olmaydi.

Otlarni tahlil qilish tartibi

1. Qaysi so'roqqa javob bo'lishi.
2. Ma'no turi.
3. Yasalish va tuzilishiga ko'ra turi.
4. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *Men o'sha insondan ko'p* ***yaxshilik*** *ko'rdim.*

1. Nima:
2. Mavhum ot.
3. Sifat + ot yasovchi qo'shimcha (lik), sodda, yasama ot.
4. Gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

SIFAT

Predmetlarning belgi-xususiyati (rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, holati, vazni, hidi, o'rin yoki vaqtga munosabati) ni ifodalaydigan so'zlar turkumi ***sifat*** deyiladi. Sifatlar ot yoki fe'lga bog'lanib *qanday?, qanaqa?, qaysi?, qachongi?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi: *oqshil qalam, mitti yulduz, kunbotar tomon, kuzgi tufli, afsonaviy qush, baxtsiz odam, yaxshi o'qimoq, chiroyli yozmoq.*

Sifatlar gapda *aniqlovchi, kesim, hol* bo'lib keladi: Uning *moviy* ko'zlari mast Safurani eslatib turardi (F.Azimova). Non *aziz,* uning ushog'i ham aziz (Maqol). *Chaqmoq* telpagini qiyshiq qo'ndirib olgan (O. Hoshimov).

Sifatlar otlashganda ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi va otning so'roqlariga javob bo'ladi, ot kabi sintaktik vazifalarni bajaradi. Masalan, *ega: Egri* ozadi, *to'g'ri* o'zadi (Maqol); *to'ldiruvchi: Hayosizda* hayo yo'q, *hayosizda* vafo yo'q (Maqol); *qaratqich aniqlovchi: Tirishning* so'zi– qaymoq, *yomonning so'zi*– to'qmoq (Maqol).

19-mashq. Berilgan matndagi sifatlarni ma'noviy guruhlarga ajratib yozing.

Namuna: Maza- ta'm bildiruvchi sifatlar: shirin, nordon...
Shakl-ko'rinishni bildiruvchi sifatlar: novcha, gavdali...

1. Halinchakka,
chatkan ko'ylak yarashar
Kelinchakka,
chatkan ko'ylak yengiga
Tor qoqaylik...

Bu ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon qiyqiriqdek jaranglab chiqadigan, chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi. (H. Ne'mat). 2. Mana o'sha sariq qamishzor ichida yurgan «yo'lbars»lardan biri barcha nonga zor, beholi bemador qadam tashlab, sarnigun, yo'l poyasida yiqildi. (Mirmuhsin). 3. Barcha jonzod bolaligida shirin va suyganchik bo'ladi, ochki bolasini oling, katta bo'lgach biri- shumshuk taka, bo'ri bolasi- bo'ri, ular ota-bobolari qilgan ishni qiladurlar. (Mirmuhsin). 4. Bir ko'chada qo'shnimizning eski, shaloq eshigi oldida mening chol bobom – uzun soqolli, yirik jussali, kar quloq mo'ysafid bilan nimalar to'g'risidadir ezmalanib so'zlashadi (Oybek). 5. Bobom oriq kichkina gavdasini devorga suyab cho'qqaygan, hassasini tizzalarining orasiga tiqqan. O'rtog'i esa qo'pol, eski, sag'ri kovush kiygan, uzun oyoqlarini

Juft otlar ikkita otning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: *ota-ona, qozon-tovoq.*

Qisqartma otlar qo'shma va murakkab ot qismlarining qisqartirilgan holda qo'llanishidan hosil bo'ladi: *TDPU, FarDU* kabi.

Qisqartma ot so'zlarni qisqartirib aytish va yozish, vaqt hamda o'rinni iqtisod qilish maqsadi bilan o'ylab topilgan.

O'zbek tilida qisqartmalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. ***Harfiy qisqartmalar***: *TTZ (Toshkent traktor zavodi), TDPU (Toshkent davlat pedagogika universiteti), BMT (Birlashgan Millatlar tashkiloti)* kabi.

2. Bo'g'inga teng qismlardan tuzilgan ***aralash qisqartmalar***: *FarDU (Farg'ona davlat universiteti), O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti), O'ztibtexnika, O'zekspomarkaz, O'zdavstandart.*

Bunday qisqartmalarni ayrim matnlarda ishlatiladigan shartli qisqartmalardan farqlash kerak. Masalan: *A.Navoiy (Alisher Navoiy), A.Qod. «O't. k.» (Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar»), O. (Oybek), v.b (va boshqalar)* kabi. Bunda harf yoki bo'g'indan so'ng nuqta qo'yiladi, demak, ajratiladi, shunga ko'ra bunday qisqartma yaxlitligicha so'z darajasiga ko'tarila olmaydi.

Otlarni tahlil qilish tartibi

1. Qaysi so'roqqa javob bo'lishi.
2. Ma'no turi.
3. Yasalish va tuzilishiga ko'ra turi.
4. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *Men o'sha insondan ko'p* ***yaxshilik*** *ko'rdim.*

1. Nima:
2. Mavhum ot.
3. Sifat + ot yasovchi qo'shimcha (lik), sodda, yasama ot.
4. Gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

SIFAT

Predmetlarning belgi-xususiyati (rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, holati, vazni, hidi, o'rin yoki vaqtga munosabati) ni ifodalaydigan so'zlar turkumi ***sifat*** deyiladi. Sifatlar ot yoki fe'lga bog'lanib *qanday?, qanaqa?, qaysi?, qachongi?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi: *ingichka qalam, mitti yulduz, kunbotar tomon, kuzgi tufli, afsonaviy qush, baxtiyor odam, yaxshi o'qimoq, chiroyli yozmoq.*

Sifatlar gapda *aniqlovchi, kesim, hol* bo'lib keladi: Uning *moviy* ko'zlari nasi Safurani eslatib turardi (F.Azimova). Non *aziz,* uning ushog'i ham aziz (Maqol). *Chaqmoq* telpagini qiyshiq qo'ndirib olgan (T. Hoshimov).

Sifatlar otlashganda ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi va otning so'roqlariga javob bo'ladi, ot kabi sintaktik vazifalarni bajaradi. Masalan, *ega: Egri* ozadi, *to'g'ri* o'zadi (Maqol); *to'ldiruvchi: Hayosizda* hayo yo'q, *hayosizda* vafo yo'q (Maqol); *qaratqich aniqlovchi: Yomonning* so'zi– qaymoq, *yomonning so'zi*– to'qmoq (Maqol).

19-mashq. Berilgan matndagi sifatlarni ma'noviy guruhlarga ajratib yozing.

Namuna: Maza- ta'm bildiruvchi sifatlar: shirin, nordon...
Shakl-ko'rinishni bildiruvchi sifatlar: novcha, gavdali...

I. Halinchakka,
Chatan ko'ylak yarashar
Ketinchakka,
Chatan ko'ylak yengiga
Tut qoqaylik...

Bu ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon qiyratadek jaranglab chiqadigan, chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi. (I. Sulton). 2. Mana o'sha sariq qamishzor ichida yurgan «yo'lbars»lardan biri parcha nonga zor, beholi bemador qadam tashlab, sarnigun, yo'l poyasida yiqildi. (Mirmuhsin). 3. Barcha jonzod bolaligida shirin va suyganchik bo'ladi, ochki bolasini oling, katta bo'lgach biri- shumshuk taka, bo'ri bo'ri, ular ota-bobolari qilgan ishni qiladurlar. (Mirmuhsin). 4. Bu ko'chada qo'shnimizning eski, shaloq eshigi oldida mening chol dadam – uzun soqolli, yirik jussali, kar quloq mo'ysafid bilan nimalar to'g'risidadir ezmalanib so'zlashadi (Oybek). 5. Bobom oriq kichkina gavdasini devorga suyab cho'qqaygan, hassasini tizzalarining orasiga qistirgan. O'rtog'i esa qo'pol, eski, sag'ri kovush kiygan, uzun oyoqlarini

cho‘zib, oftobga yag‘rinini tutgan holda, yerga yonboshlab o‘tiribdi (Oybek). 6. Siyrak o‘tkinchilar albatta, qo‘l qovushtirib «assalomu alaykum», - deb o‘tadilar (Oybek). 7. Bo‘yi pastroq odamlar baland bo‘ylilarga havas bilan qarar emish (Shukrullo). 8. Mashinaning oynalariga tushgan ertalabki quyoshning nurlari bugun ham kunning issiq bo‘lishidan darak berib turardi (Shukrullo). 9. Ovchi odam bog‘bonlik qilib daromad topishdan ko‘ra ko‘proq qanday qilib bo‘lsa ham o‘z ovchiligi orqali kattaroq o‘lja tushirish, uning bo‘ladigan joylari haqida bosh qotirgani ma’qul (Shukrullo). 10. Bugun kutilmaganda shahristonlik xavaskor shoirlar bilan uchrashib qoldik (Shukrullo). 11. Yangi yaraqlagan quticha ustiga kattakon bir karnay o‘rnatilgan (Oybek). 12. Muhabbatning saroyi keng ekan, yo‘lni yo‘qotdim-ku, Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarlik yo‘lda qotdim-ku. Karashma dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir, Halokat bo‘lg‘usin bilmay, qulochni katta ochdim-ku (Cho‘lpon). 13. Qoraqosh, ko‘krakdor, xushbichim bu yigit Dildorning ham hushini o‘g‘irlagan edi (S.Ahmad). 14. Yer hali yaxshi qurimagan, devorlarning kungay etaklari sergib qolgan bo‘lsa ham, o‘radagi arava izi pilchillab yotar, bultur kallaklangan tollarning silliq novdalari hushtak yasasa bo‘ladigan darajada sarg‘imtil rangga kirib suv yig‘ib qolgan (O‘.Hoshimov).

20-mashq. She’rni o‘qing. Sifatlarni aniqlab, ma’nosi va gapdagi vazifasini ayting.

Mittilarga ulkan ko‘rinar olam,
Ulkanlar nazdida mittidir dunyo.
Deydilar, Gulliver degan bir odam
Ayon ko‘rgan emish ularni go‘yo.

Atrofin ulkanlar qurshagani choq,
Gulliver zarradir, u- yo‘q, u- o‘lgan
Mitti odamchalar qoshida biroq
Gulliver buyukdir, Gulliver – ulkan!

(A.Oripov)

21-mashq. Berilgan gaplarni yozing. Otlashgan sifatlar ostiga chizing va ularning gapdagi vazifasini izohlang.

1. Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og‘rir (Maqol). 2. Axir inson bolasi baliq emaski, zo‘ravoni ojizini yutib, hayot kechirsa! (Shuhrat)

3. Yaxshigayam, yomongayam birdek yaxshi ko'rinishga urinadigan odam eng sayoz odamdir (O'.Hoshimov). 4. Odamlar «bozor munosabati»ni kimdan o'rgangan. Kattasi kichigini yeyaveradi (O'.Hoshimov). 5. Hech kimga hasad qilma. Hasadgo'y hech nimaga erisholmaydi (O'.Hoshimov). 6. Boshning bog'i ko'karmas (Maqol). 7. Yalqov bilan anqov – dushman uchun ov (Maqol). 8. Aqlli o'z fikrini o'zgartiradi, axmoq hech qachon (maqol). 9. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz - do'stini (Maqol). 10 Baxil baxilni ko'rganda saxiyligi tutadi (Maqol).

Asliy va nisbiy sifatlar

Sifatlar ma'no xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) asliy sifatlar; v) nisbiy sifatlar.

Predmet belgisini bevosita ifodalaydigan, belgini darajalab ko'rsata oladigan, ***-roq*** qo'shimchasini erkin qabul qiladigan sifatlar ***asliy sifatlar*** deyiladi: *shirin qovun - shirinroq qovun - eng shirin qovun; katta baliq - kattaroq baliq - juda katta baliq.*

Predmet belgisini o'rin yoki paytga nisbatlab, boshqa predmetga o'xshatish orqali ifodalaydigan, -roq qo'shimchasini qabul qilmaydigan sifatlar ***nisbiy sifatlar*** deyiladi: Nisbiy sifatlar ***–li, -iy (-viy), -simon, -lik, -ki (-gi, qi), -dagi*** qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *mevali daraxt, tibbiy* ma'lumotnoma, *zamonaviy* libos, *sharsimon* jism, *mard o'g'lonlik* savdogar, *yozgi* yumush, *qishki* kiyim, *tashqi* hovli, *uydagi* gap.

Nisbiy sifatlar belgini darajalab ko'rsatmaydi. Faqat ***–li*** qo'shimchasi bilan hosil qilingan nisbiy sifatlarda darajalab ko'rsatish xususiyati mavjud: *kuchli - kuchliroq - juda kuchli, aqlli - aqlliroq - juda aqlli.*

Asliy sifatlarda belgining kuchaytirma va ozaytirma shakllari bor: *yashil - yam-yashil, sariq - sap-sariq, qizil - qizg'ish, qora-qoramtir.* Nisbiy sifatlarda bunday xususiyat yo'q.

Asliy sifatlarda modal ma'no ifodalanadi: *yoshgina, ziyrakkina, do'nboqqina.* Nisbiy sifatlarda bunday xususiyat yo'q. Faqat *–li* qo'shimchasi bilan hosil qilingan nisbiy sifatlardagina modal ma'nolarni ifodalash imkoniyati mavjud: *aqlligina, chiroyligina* kabi.

Asliy sifatlar fe'lga bog'lana oladi: *Qiyshiq o'tirsang* ham, *to'g'ri gapir* (Maqol). Nisbiy sifatlar fe'lga birika olmaydi. Faqat *–iy* bilan hosil qilingan nisbiy sifatlar juda kam miqdordagi fe'llar bilan (masalan: zamonaviy kiyinmoq) birikishi mumkin.

22-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Sifatlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Kelinchakning kichkina, qop-qora va o'ynoqi ko'zlari keng ochilib, qo'shni xotinning og'ziga tikilgan edi (Cho'lpon). 2. Jayxun bo'ylaridagi bu bepoyon sarg'ish qamishzorlarga boqqan kishi uning ichida qancha yo'lbars, jayronlar yurganini ko'rmaydilar. 3. Bahor chog'lari tomlarda tizza bo'yi bo'lib o'sgan barra o'tlar orasidagi chuchmomalardan tortib, lolaqizg'aldoqlar ichiga kirib qolgan lolaqo'ng'izlaru, tip-tiniq osmon ostida bodroq-bodroq bo'lib gullab yotgan o'riklar hammasi esimda (Shukrullo). 4. Daraxtlarning bunday fusunkor gullari, ko'm-ko'k mayin yaproqlari ruhlarni ko'taradi, zavqlarni chayqaydi (Oybek). 5. Qodir ko'k eshikni asta qoqdi. Qiz yana bidirladi: -Ichkarilik, qoqavering! Qodir qattiqroq qoqdi. Ichkaridan ayol kishining «labbay» degan tovushi keldi (Shuhrat). 6. Jannatning shaharga kelishidan eng katta umidi nomi ketgan doktorda edi. Kimga maslahat solsa, shu doktorning nomini aytdi (Shuhrat).

23-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Sifatlarni topib, ma'nosi va gapdagi vazifasini ayting. Sifatlarda modal ma'noning ifodalanishini tushuntiring.

1. Bobom kichkina, zax, qorong'i hujrasida o'tiribdi. Omonatgina, eshigi kichkina sovuq hujra (Oybek). 2. O'zidan uncha uzoq bo'lmagan baland yantoq ostida kattagina bir chipor ilon cho'l sichqonini tishlab turardi (Mirmuhsin). 3. Jannat muyulishdan burilishi bilan kichikkina ariqchaga duch keldi (Shuhrat). 4. U nima qilishini bilmay, yana dovdirab guzarga kelib qoldi. Keksa qayrag'och tagidagi ko'rimsizgina bufetga kirdi (S.Ahmad). 5. Zebixon bu pachoqqina, ko'rimsizgina, kamgap bolaning ichida shuncha gap borligini bilmagan edi (S.Ahmad). 6. Chetroqda ko'rinishi bo'sh-bayovgina, xunukkina, ko'ziga oq tushgan kalta soqol bir kishi o'tirgan edi (Oybek). 7. Ey, siz mening g'aribgina kulbalarim, Sizni tashlab samolarga ketolmayman. (I.Mirzo).

24-mashq. O'zingiz o'qigan badiiy asarlardan asliy sifatning kuchaytirma va ozaytirma shakllari qatnashgan 10 tadan gap yozing.

Sifat darajalari

Bir predmetdagi belgini boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatlab farqlash hodisasi ***sifat darajalari*** deyiladi.

Sifatlarda uch xil daraja mavjud: *oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.*

Oddiy daraja sifatlari bir predmetgagina xos belgini ifodalaydi. Ular belgini boshqa belgiga qiyoslamagan holda anglatadi. Oddiy daraja sifatlarida hech qanday qo'shimcha yoki yordamchi so'z bo'lmaydi. Masalan, *katta hovli, chaqqon qiz, yashil durracha, qirmizi olma.*

Qiyosiy darajada bir predmetning belgisi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanadi.

Qiyosiy daraja *–roq* qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. Bu qo'shimcha belgining ortiq yoki kamligini ko'rsatadi.

Masalan: Belgining ortiqligi: Alining kitobi Valining kitobidan *qiziqroq.* Olim kumushdan *og'irroq.* Belgining kamligi: Bu xona avvalgisidan ham *kichikroq.*

Orttirma daraja shakli yordamchi so'zlar vositasida hosil qilinadi va belgining me'yordan ortiqligini ifodalaydi. Orttirma daraja ma'nosini ifodalovchi yordamchi so'zlarga quyidagilar kiradi: *eng, juda, g'oyat, g'oyatda, bag'oyat, o'ta, benihoyat, nihoyat, nihoyatda* kabilar.

15-mashq. Berilgan so'zlarga daraja shakli ko'rsatkichlarini qo'yib ko'chiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: yaxshi-yaxshiroq-eng yaxshi.

Bu yil akam «Eng yaxshi talaba» tanlovining g'olibi bo'ldi.

qiziq, qisqa, teran, ixcham, durust, yapaloq, yassi, ziyrak, qo'rqoq, kuchli, chiroyli, og'ir, afzal, kulgili, go'zal, bahaybat, sariq, aziz, uzun, baland, xira, nafis, nam, g'amgin, xafa, tund, sho'x, quvnoq.

16-mashq. O'zingiz o'qigan asarlardan sifat daraja shakllari ishtirok etgan 10 ta gap yozing. Ularning ma'no xususiyatlarini tushuntiring.

Sifatlarning yasalishi

Sifatlar *morfologik* va *sintaktik* usulda yasaladi. ***Morfologik usulda*** so'z negiziga maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali sifat yasaladi. O'zbek tilida sifatlar quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

li. Ot, sifatdosh va ravishdoshlarga qo'shilib, nisbiy sifat hosil qiladi: *aqlli* bola, *qiziqarli* kitob, ye*yishli* somsa.

siz. Otlarga qo'shiladi va undan anglashilgan ma'noning mavjud emasligini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *tuzsiz* taom, *suvsiz* quduq.

-chan. Ot, harakat nomi va ravishdoshlarga qo'shilib, negiz anglatgan ma'noning ortiqligini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *talabchan* rahbar, *ishchan* kayfiyat.

-chil. Otlarga qo'shilib, belgining ortiqligini anglatuvchi sifatlar hosil qiladi: *izchil* g'oya, *dardchil* odam.

-aki. Ot va sifatlarga qo'shiladi hamda belgining soxtaligini ifodalaydi: *zo'rma-zo'raki* bajarish, *og'zaki* bayon qilish, *qalbaki* hujjat.

-ag'on. Fe'lga qo'shilib, belgining ortiqligini ifodalaydigan sifatlar yasaydi: *bilag'on* bola, *tepag'on* ot.

-ma. Fe'lga qo'shilib, harakat natijasini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *qovurma* lag'mon, *uydirma* gap.

-k, -q, -ik, -uk, -uq, -oq, -ak. Fe'lga qo'shilib, harakat natijasini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *teshik, iliq, suzuk, yumuq, qo'rqoq, bo'lak.*

-qoq, -g'oq. Fe'lga qo'shilib, belgining ortiqligini ifodalaydi: *botqoq, toyg'oq.*

-choq, -chak, -chiq. Fe'lga qo'shilib, belgining ortiqligini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *maqtanchoq, kuyunchak, sirpanchiq.*

-g'in, -g'un, -qin. Fe'lga qo'shilib, holat ma'nosini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *qizg'in, tuyg'un, jo'shqin.*

-qir, -qur, -g'ir, -g'ur, -kir, -gir. Fe'lga qo'shilib belgining ortiqligini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *topqir, uchqur, olg'ir, bo'lmag'ur, o'tkir, sezgir.*

-dek, -day. Otga qo'shilib, o'xshatish ma'nosini ifodalovchi sifat yasaydi: *kundek, oyday, tog'day.*

-mand. Otga qo'shilib, belgining ortiqligini ifodalovchi sifat yasaydi: *davlatmand, ixlosmand.*

-simon. Otga qo'shilib, o'xshashlik ma'nosini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *tuxumsimon, odamsimon, sharsimon.*

Sifatning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, o'zakdan oldin kelib, yangi ma'noli sifat hosil qiladigan qo'shimchalarga egaligidir. Ular quyidagilar: ser-, be-, ba-, no-.

ser-. Otga qo'shilib, ortiqlik ma'nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *serunum, serfarzand.*

be-. Otga qo'shilib, mavjud emaslik ma'nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: ***bexabar, besabr***.

ba-. Otga qo'shilib, belgining ortiqligini ifodalovchi sifat yasaydi: *badavlat, basavlat.*

no-. Otga yoki sifatga qo'shilib, negiz anglatgan belgiga ega emaslik ma'nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *noinsof, notinch.*

Sintaktik usul bilan qo'shma, murakkab va juft sifatlar yasaladi.

Qo'shma sifatlar birdan ortiq so'z yoki so'z shakllaridan tarkib topib, bir urg'u bilan aytiladi va bir belgini ifodalaydi. Qo'shma sifat qismlari yozuvda qo'shib yoziladi: *orombaxsh, rahmdil, tinchliksevar, tezoqar, ertapishar.*

Murakkab sifatlar bitta murakkab belgini ifodalaydigan, alohida urg'u bilan aytiladigan, birdan ortiq so'z yoki so'z shakllarining birikuvidan hosil bo'ladi. Murakkab sifat qismlari ajratib yoziladi: *qo'li ochiq, ko'zga yaqin, so'zga chechan.*

Ayrim murakkab sifat qismlari orasidagi munosabat o'ta zich bo'lmaganligi uchun, ularning o'rnini almashtirib qo'llash mumkin bo'ladi: *oq ko'ngil- ko'ngli oq, sochi uzun-uzun sochli, ko'ngli tor-tor ko'ngilli.*

Juft sifatlar bir umumiy belgi ifodalovchi ikki sifatning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: *ochiq-sochiq, qing'ir-qiyshiq, uzun-qisqa, yaxshi – yomon, katta-yu kichik, sog'-u salomat.*

Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, murakkab, juft va takror holda qo'llanuvchi shakllarga ega.

Sodda sifatlar bir o'zak morfemadan tuzilgan bo'ladi: *go'zal, xunuk, sariq, yashil.*

Qo'shma sifatlar bir urg'u bilan aytiladigan ikki so'z shaklining qo'shilishidan hosil bo'ladi: *ertapishar, sheryurak.*

Murakkab sifatlar alohida urg'u bilan aytiladigan, bitta murakkab belgini ifodalovchi ikki so'zning birikishidan hosil bo'ladi: *to'q qizil, o'tkir zehnli.*

Juft va takror sifatlar bir umumiy belgi ifodalovchi ikki sifatning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: *oq-qora, uzuq-yuluq, katta-yu kichik, past-u baland; uzun-uzun, og'ir-og'ir, chuqur-chuqur.*

Sifatni tahlil qilish tartibi

1. Ma'no turi.
2. Darajasi: oddiy, qiyosiy, orttirma.
3. Tuzilishiga ko'ra turi: sodda, qo'shma, murakkab, juft, takror.
4. Yasama sifatning yasalish usuli.
5. Qaysi so'z bilan bog'lanishi.
6. Gapdagi vazifasi.

Masalan, Salima darslarini *chala-chulpa* tayyorlagan edi.

Chala-chulpa–sifat, belgining me'yordan kamligi ma'nosini ifodalaydi, oddiy daraja, juft, chala-chulpa tayyorlamoq, gapda hol vazifasida kelgan.

27-mashq. Gaplarni o'qing. Sifatlarni topib, to'liq tahlil qilishga harakat qiling.

1. Kuz. Daraxtlarning mo'rt bo'lib qolgan tillarang yaproqlari sal shamol bilan duv to'kiladi (Shuhrat). 2. Bu uyga o'ttiz-qirq chamaliq qizlar yig'ilganlar, yig'ilishdan maqsad: qizlar o'zlarining eng latif, eng go'zal bir a'zolarini bu kun xotinliq olamiga uzatmoqchidirlar (A.Qodiriy). 3. Men esa Munavvarni eslayveraman. Hayrat bilan tikilib turgan ko'zlarini, katta-katta, qop-qora ko'zlarini... (O'.Hoshimov). 4. Yoshliq ko'zlar ariq bo'yig'a tushib, nozik oyoqlar ariq bo'yi tomong'a harakatlandilar (A.Qodiriy). 5. O'tindan boshqaga yaramas gohi, Mevali daraxtning mevasiz shoxi (A.Jomiy). 6. Uyiga qaytib o'g'ilchasining behisob savollariga javob berayotganida ham, ovqatlanayotganida ham, yotganida ham muammolarning chigal kalavasi uni holi qo'ymadi (T.Malik).

28-mashq. O'zingiz o'qigan badiiy asardan qo'shma va murakkab sifatlar ishtirok etgan gaplarni topib, yozing. Sifatlarning yasalish usulini tushuntiring.

29-mashq. Sifatlarni tuzilishiga ko'ra guruhlashtirib berilgan jadvalni to'ldiring. Imloviy xatolarini to'g'rilang.

Sodda	qo'shma	murakkab	juft va takror

hamdard, pinhoniy, beozor, qiyiq ko'z, bug'doyrang, cho'qqisoqol, babbaravar, g'adirbudur, usta buzarmon, sofdil, ser fahm, tinchliksevar, xushfe'l, qopqora, yumyumaloq, xastadil, quralayko'zli, davlatmand, be-farosat, nopok, huzurbaxsh.

30-mashq. Matnni o'qing. Sifatlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib yozing. Sifatlarning ma'nosi, yasalish usuli va tuzilishiga

ko'ra turini ayting. Ostiga chizilgan so'zlarning sinonimini toping va izohlang.

Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ***ko'rkamrak*** bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, ularda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora chirog' sasig'anda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, ***serchaqchaq*** kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda.

Og'ir tabi'atlik, ulug' gavdalik, ***ko'rkam*** va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog'idan, ham ega jihatidan diqqatni o'ziga jalb etarlik edi. Qandog'dir bir xayol ichida o'ltirg'uchi bu yigit Toshkandning mashhur a'yonlaridan bo'lg'an Yusufbek hojining o'g'li – Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan biravi darboza yonidag'i kimdandir so'radi:

–Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko'rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo'lib, Marg'ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o'g'lidir, ikkinchisi: ***uzun bo'ylik,*** qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, cho'qqi soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an ***ko'rimsiz*** bir kishi edi (A.Qodiriy).

SON

Predmetning sonini miqdorini va joylashish tartibini bildirgan so'zlar turkumi **son** deyiladi. Sonlar *qancha? necha? nechanchi?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Hozirgi o'zbek tilida 22 ta tub son bor: *bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard.* Qolgan sonlar esa shu sonlar asosida hosil qilinadi. Masalan: *o'n olti, yigirma besh, yetti yuz o'ttiz, ikki ming to'rt* kabi.

Sonlar harf bilan ham, raqam bilan ham yoziladi: *sakson, to'qson, yuz; 80, 90, 100.*

Raqamning ikki xilidan foydalaniladi.

1. Arab raqami. Asosan, hisob ishlarida, kun va yilni ko'rsatishda ishlatiladi: *14+16=30, 21- mart, 2004- yil* kabi.

2. Rim raqami esa ko'proq asr, oy, hukumat anjumanlari, ilmiy tadqiqotlarda bob va fasllarni belgilashda ishlatiladi: *XXI asr,*

10. XI. 2004, XX chaqiriq, IX sessiya, I bob, IV fasl, I kurs kabi.

Sonlar otga bog'langanda *sifatlovchi,* fe'lga bog'lanib kelsa *hol* vazifasini bajaradi: *To'qqizinchi* qavat, Ilmsiz *bir* yashar, ilmli ming yashar.

Sonlar otlashganda, kelishik, egalik qo'shimchalarini oladi va gapda ot bajargan vazifalarda keladi. Masalan, ega: *Biri* mamnun bo'lsa, *ikkinchisi* kuyaveradi (T.Malik); kesim: Ikki karra ikki – *to'rt*; to'ldiruvchi: Bo'tqa sendaqadan *o'ntasini* sixga terib qo'yadi (T.Malik); qaratqich aniqlovchi: *O'nning yarmi* – besh.

Songa xos morfologik xususiyatlardan biri so'z yasash tizimining yo'qligi bilan belgilanadi. Boshqa turkumdagi so'zlardan son hosil qilinmaydi.

Songa ***–nchi (-inchi), -ov, -ala, -ta, -tacha*** qo'shimchalarini qo'shish orqali sonning turli shakllari hosil qilinadi: *to'rtinchi, beshov, uchala, to'rtta, o'ntacha.*

Ko'pincha sonlar maxsus o'lchov-miqdor bildiruvchi hisob so'zlari bilan keladi: o'n *daqiqa*, bir *tomchi*, uch *qadoq*, to'rt *kilogramm*, bir *burda*.

31-mashq. Gazeta va jurnallardan sonlar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring. Ularning qaysi so'z turkumi bilan bog'langanligini ayting.

32-mashq. Gaplarni o'qing. Raqam bilan ifodalangan sonlarni harflar bilan, harflar bilan yozilgan sonlarni raqam bilan yozing. Sonlarning imlosi va gapdagi vazifasini izohlang.

1. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi umumiy mablag' aylanishi 32889 million so'mni tashkil etdi. 2. Yer yuzida har yili o'rta hisobda yigirmata kuchli va uch yuz mingdan ortiq sezilmaydigan yer tebranishlari bo'lib turadi. 3. Birja bozorida 7954,3 million so'mlik, birjadan tashqari bozorda esa 24934,6 million so'mlik aksiyalar sotildi. 4. Akula terisining bir kvadrat santimetri to'rt yuz oltmish kilogrammgacha kuchga chiday oladi. 5. Yuz kilogramm og'irlikdagi dengiz toshbaqasi bir soatda o'ttiz ikki kilometr masofani bosib o'ta oladi. 6. Yog'ochdan qilingan eng uzun narvon 1955-yilda Norvegiyada tayyorlangan. Uning uzunligi bir kilometrdan ortiq bo'lib, uch ming yetti yuz o'n besh pog'onaga ega. 7. Narvon 740 metr balandlikka 45 gradus burchak ostida ko'tariladi (Gazetadan).

Sonlarning ma'no turlari

Sonlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: sanoq sonlar va tartib sonlar.

Sanoq sonlar predmetning sanog'ini, umumiy miqdorini bildiradi va ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi: miqdor son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son.

Miqdor son predmetning umumiy miqdorini bildiradi va *bir, o'n, o'ttiz, sakson, to'qson besh, yuz* kabi qo'shimchalarsiz yoziladi.

Dona sonlar miqdor songa ***–ta*** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: *sakkizta, to'qqizta, o'nta, mingta.*

Chama sonlar miqdor songa ***–tacha, -larcha, -lab*** qo'shimchalarini qo'shish yoki ikki sonni juftlash orqali hosil qilinadi: yuztacha, o'nlarcha, minglab; *o'n-o'n besh, besh-o'n, to'rt-beshtacha* kabi. Chama son taxminiy miqdorni bildiradi.

Jamlovchi sonlar -ov, -ala, -ovlon qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *ikkov, beshala, yettovlon* kabi. Jamlovchi son predmetning jamlangan, to'dalangan holdagi miqdorini anglatadi.

Taqsim sonlar predmetning miqdor jihatdan bo'linganligini bildiradi. Taqsim sonlar miqdor songa ***–tadan*** qo'shimchasini qo'shish orqali, hamda dona sonlarning takrorlanishdan hosil bo'ladi: *beshtadan, o'ntadan, yuztadan: o'nta-o'nta, yuzta-yuztadan.*

Tartib sonlar predmetning joylashish tartibini bildiradi. Tartib son miqdor songa ***–nchi (-inchi)*** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: birinchi kurs, to'rtinchi qavat, o'ninchi qator kabi.

Tartib sonlarning imlosi. Tartib son harflar bilan yozilganda ***–nchi (-inchi)*** qo'shimchasi so'zga qo'shib yoziladi: besh*inchi*, ikki*nchi*. Tartib son arab raqami bilan ifodalanganda mazkur qo'shimcha o'rnida chiziqcha qo'yiladi: 2-kurs, 18-maktab; rim raqami bilan ifodalanganda chiziqcha qo'yilmaydi, biroq o'qilganda –nchi (-inchi) talaffuz qilinadi: XXI asr, IX chaqiriq kabi. Tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanib oy va yillarni bildirsa, lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra chiziqcha qo'yiladi: 22- mart, 2004- yil kabi.

Sonlar qo'llanishiga ko'ra *butun* va *kasr* sonlarga bo'linadi.

Butun sonlar umumiy miqdorni bo'laklarga ajratmagan holda, butunligicha ifodalaydi: besh, o'n, yuz kabi.

Kasr sonlar butunning qismini bildiradi: beshdan bir, o'ndan uch kabi.

Butun son bilan kasr son birgalikda ifodalansa kasrli son deyiladi. Kasrli son yozuvda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

12,5 - o‘n ikki yarim, o‘n ikki butun o‘ndan besh.

$\frac{1}{3}$ - uchdan bir; bir taqsim uch.

5,03 - besh butun yuzdan uch kabi.

33-mashq. Gaplarni o‘qing sonlarni topib, ma’no turini va imlosini tushuntiring. Ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Har bir odamni hayot o‘z ummonidagi olovlari bilan pishiq g‘isht kabi toblamasa, siz ming tarbiya berganingiz bilan g‘isht xomligicha qolarkan, bir-ikki zarbadan uvalanib ketarkan (P.Qodirov). 2. Otasining rasadxonasida ilmi nujumdan saboq olgan Abdullatif osmondagi o‘nlab yulduzlarni bir qarashda tanir edi (P.Qodirov). 3. Uning ikkita aybi bor: birlamchi, jussadan bergan emas, ikkilamchi, xotinidan ko‘p urish eshitadi (A.Qodiriy). 4. Har bir mingboshiga o‘ntadan, har bir aminga ikkitadan, har bir ellikboshiga bittadan yaroqlik yigit beradigan bo‘lishibdi (Cho‘lpon). 5. Begimni madrasaga ikki nafar sodiq kanizagidan tashqari yana to‘rt nafar barvasta soqchilar ham kuzatib keldilar (P.Qodirov). 6. Uchovlon tashqariga chiqqanlarida daraxt soyasida poyloqchilik qilib turgan kishi yo‘lni to‘sdi (P.Qodirov). 7. Uchala xotin ham bu yukning nimaligini anglab yetolmadilar (Cho‘lpon). 8. Aholining uchdan bir qismi dehqonchilik bilan shug‘ullanar ekan (Gazetadan).

34-mashq. Sonlarni topib, ularning imlosini, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tushuntiring. Sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Ikkisining orasidag‘i sham’ yel bilan o‘ynashibg‘ina nur separ, ikkisi ham so‘z qo‘yishqandek sham’ga ko‘z tikib qanday o‘yg‘adir berilgandek ko‘rinar edi. 2. Nozik oyoqlar toldilar shekillik, sadaf kabi oq tishlarini bir-ikki qaytalab chaydi. 3. Kumushbibi endi o‘n yettini qo‘yib o‘n sakkizga qadam bosqanliqdan bo‘yi ham onasig‘a yetayozg‘an, ammo jussasi onasig‘a ko‘ra to‘laroq edi. 4. 1264-inchi hijriy, dalv oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir... 5. Uchchavi yuragini to‘xtatib olish uchun anchagacha jim qoldilar. 6. Qutidor bir tomondan dahshatka tushsa, ikkinchi jihatdan Otabekning dov yuragiga hayron qolar edi. 7. Musulmonqul voqi’asidan yigirma kunlar chamasi keyin edi.8. Xat sakkiz buklanib, qizil ipak bilan bir-ikki yeridan chatilg‘an va Otabekka atalg‘an edi. (A.Qodiriy)

Sonning tuzilishiga ko'ra turlari

Sonlar tuzilishiga ko'ra sodda, murakkab va juft bo'ladi.

Sodda son birgina o'zakdan tuzilgan bo'ladi: *uch, besh, o'n* kabi.

Murakkab sonlar kamida ikki o'zakdan tuzilib, bir umumiy miqdorni anglatadi: *bir yuz ellik, yigirma besh, ikki ming to'rt* kabi.

Juft sonlar ikki sonning juft holda, ketma-ket holatda yoki o'zaro teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: *besh-o'n, to'rt-besh, besh-besh, yuzta-yuzta, qirqta-ellikta, o'n-o'n beshta* kabi.

35-mashq. Gaplarni ko'chiring. Sonlarni topib, tuzilishiga ko'ra turini tahlil qiling.

1. Mevasining uzunligi 30 dan 90 santimetrgacha, aylanasi esa 25-30 santimetr, ya'ni qovunsimon, og'irligi 10-15 kilo keladi. 2. Dunyoda hammasi bo'lib 5621 til va sheva bor ekan. Hozirgacha shundan atigi 500 tasigina o'rganilgan bo'lib, 1400 tasining esa yo'qolib ketish xavfi bor. Har uch tildan bittasi yozuvga ega emas. 3. Mutaxassislarning hisob-kitobicha, boshimizda 125000 ga yaqin soch tolasi bo'lib, umrimiz davomida 1,5 millioni tushib, qaytadan chiqadi. 4. Terimizning har 6,5 kvadrat santimetrida 25 metr asab tolalari, mingdan ortiq asab nuqtalari, 6 metr qon tomirlari bor («G'aroyib olam»).

36-mashq. Gaplarni yozing. Sonlarni topib ma'no turini aniqlang. Otlashgan sonlarning gapdagi vazifasini belgilang.

1. Biz g'ofil bandalarmiz-da. Birimiz bu dunyoni sevib yashaymiz. Birimiz jirkanib yashaymiz. 2. Hazrat Ali (r.a.) der ekanlar, dunyo hayoti bilan oxirat hayoti bir erkakning ayni bir vaqtda nikohida bo'lgan ikki xotini kabidur, biri mamnun bo'lsa, ikkinchisi kuyaveradi. 3. Ajalni unutishda bir-birimizni ortda qoldirib ketganmiz. 4. Bu shoxga ikkita odam osildi. Sen uchinchisi bo'lasan. 5. Yigirma sakkizinchida kelganmisan? – deb so'radi Hamdam. 6. Kavkazliklarning ikkinchisi ham qariyb shunday javob berdi. 7. Keyin yana uch-to'rttasi paydo bo'lishdi. Bittasi g'ilay, juda beayov ekan. 8. Gavdali baquvvat odammi? Yoshi o'ttiz besh-qirqlarda, a? 9. Ularning qishloqlarida beshta hovuz bo'lardi. Uchtasidan odamlar suv ichardi, biri molhovuz, biri ot hovuz edi. 10. Savollar sel oqimiday bostirib keladi. Qani edi, loaqal bittasiga javob topsa... (T.Malik).

OLMOSH

Predmet yoki uning biror belgisiga nom bo'lmay, predmet yoki belgi tushunchasining mavjudligini ko'rsatadigan mustaqil so'zlar turkumi ***olmosh*** deyiladi. Olmoshlar nutqda *ot, sifat, son* o'rnida keladi va gapda ularga xos vazifani bajaradi.

Olmoshni boshqa turkumdagi so'zlardan ajratuvchi asosiy belgi uning ma'no xususiyatidagi mavhumlik va umumiylikdir. Olmoshlar boshqa turkumdagi so'zlardan yasalmasligi jihatidan songa o'xshaydi.

37-mashq. Gaplarni o'qing. Olmoshlarni topib, ularning qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanganligini va gapdagi vazifasini ayting.

1. Avtobus shahardan chiqar mahalda Zelixon Yigitaliga qarab ajablandi. Shuncha paytdan beri uning birga ekaniga ahamiyat bermagan ekan (T.Malik). 2. Shaharda bitta kutubxona bor. Bu kutubxona ham qarovsizlikdan to'kilib qolgan (Gazetadan). 3. Uning uchun bu eshik hovli bilan ko'chani bog'laydigan bir vosita emas, balki umid qopqasi edi (T.Malik). 4. Dunyoda faqat bir sobit suxan bor: U o'z farzandingga o'zing qo'ygan nom (A.Oripov).5.Kimdir eski kursi keltirib gulxan yonigaqo'ydi (O'.Hoshimov). 6. Balki qovurma chuchvaradan umid qilib tavanxonaga kirgandir? Mo'ralab qarasam, u yerdayam yo'q (O'.Hoshimov). 7. O'sha kuni ham odatdagidek yarim kechada uyga qaytdim (O'.Hoshimov). 8. Hammamiz duoyi-jonimizni qilib yuribmiz, siz mashq qilib bo'lguncha urush ham bitib qolarmish degin (O'.Hoshimov).

Olmoshlarning ma'no turlari

Olmoshlar ma'nosiga ko'ra yetti turga bo'linadi: kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, o'zlik olmoshlari, so'roq olmoshlari, belgilash olmoshlari, bo'lishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari.

Kishilik olmoshlari. Nutqdagi uch shaxs yoki predmetni ko'rsatib, birlik va ko'plikda qo'llanadi: *men, sen, u; biz, siz, ular.*

Ko'plikni ko'rsatuvchi biz, siz, ular olmoshlari qo'llanishiga ko'ra ba'zan birlik hamda kamtarlik, hurmat, kibrlanish, faxrlanish kabi modal ma'nolarni ifodalaydi. Biz, siz olmoshlariga ba'zan ko'plikni ta'kidlash maqsadida ***–lar*** qo'shimchasi qo'shiladi. Kishilik olmoshlari hech qachon egalik qo'shimchalarini qabul qilmaydi. Men, sen olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda bitta **n** tushib qoladi: *men+ni–meni, men+ning–mening.* U olmoshi jo'nalish, o'rin-payt,

chiqish kelishigi qo'shimchalarini olganda bitta **n** orttiriladi: *u+ga–unga, u+da–unda, u+dan–undan.*

Ko'rsatish olmoshlari predmet, shaxs, belgi, voqea-hodisa, o'rin yoki vaqtga nisbatan ko'rsatish, ajratish, ta'kidlash uchun ishlatiladi.

Ko'rsatish olmoshlariga quyidagilar kiradi: *bu, shu, u, o'sha, ana u, mana bu.* Poetik nutqda va tarixiy asarlarda *ul, bul, shul, o'shal* olmoshlari qo'llanilganligini kuzatish mumkin.

Ko'rsatish olmoshlariga qo'shimchalar quyidagi tartibda qo'shiladi:

Olmosh+kelishik: u+ni, shu+ning, o'sha+ni.

Olmosh+ko'plik: u+lar, bu+lar, o'sha+lar.

Olmosh+ko'plik+kelishik: u+lar+ni.

Olmosh+ko'plik+egalik+kelishik: shu+lar+ing+ni, o'sha+lar+ing+da.

So'roq olmoshlari predmet, shaxs, belgi, ish-harakatning bajarilish o'rni haqidagi so'roqni bildiradi.

So'roq olmoshlariga quyidagilar kiradi: *kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, necha?, qancha, qachon?, qayerda?.* Poetik nutqda *ne? na?, nechun?, nechuk?, qay?* shaklida qo'llanishi kuzatiladi.

O'zlik olmoshi aniq, yakka shaxsni ajratib ko'rsatish uchun qo'llanadi. *O'z (o'zi)* so'zi o'zlik olmoshi hisoblanadi. Bu olmosh kishilik olmoshlari o'rnida: *o'zim-o'zing-o'zi; o'zimiz-o'zingiz-o'zlari* ba'zan birga men o'zim - sen o'zing - uning o'zi; ot o'rnida kelib, egalik qo'shimchasini oladi va har uchala shaxsni ko'rsatadi. Qo'shimchalar qabul qilish tartibi quyidagicha: olmosh+egalik–o'z+i; olmosh+egalik+kelishik–o'z+i+ni. Ko'plik qo'shimchasini olganda nutq vaziyatiga ko'ra hurmat, kesatiq, piching kabi modal ma'nolarni ifodalashi mumkin. Gapda ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi va kesim vazifasida keladi.

Belgilash olmoshlari predmet yoki uning biror belgisini jamlab, yakkalab, ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. *Har kim, har nima, ba'zi, har qanday, har qaysi* olmoshlari shaxs yoki narsa belgini ajratib, alohida ta'kidlash orqli ifodalaydi.

Hamma, barcha, bari, butun olmoshlari jamlashga, umumlashtirishga xizmat qiladi.

Butun, bari olmoshlari ko'plikda qo'llanmaydi. Ba'zi olmoshi va har so'zi ishtirokida yasalgan belgilash olmoshlariga kelishik qo'shimchasi egalik qo'shimchasidan so'ng qo'shiladi: *ba'zisini, har qaysingizni.*

Belgilash olmoshlari gapda sifatlovchi bo'lib keladi. Otlashganda (hammasini, ba'zilar, har narsangizni) otga xos morfologik, sintaktik xususiyatga ega bo'ladi.

Bo'lishsizlik olmoshlari umuman mavjud bo'lmagan predmet, belgi yoki miqdorni ko'rsatadi. Bo'lishsizlik olmoshi *hech* so'zidan keyin so'roq olmoshi yoki narsa, bir so'zini keltirish bilan hosil qilinadi: *hech qaysi, hech kim, hech narsa, hech bir* kabi.

Gumon olmoshlari mavjud, ammo noma'lum bo'lgan predmet, belgi yoki miqdorni ko'rsatadi. Gumon olmoshlari so'roq olmoshlariga *–dir* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi: *kimdir, nimadir, qaysidir* kabi. Shuningdek, so'roq olmoshlari oldidan ***alla*** yoki ***bir*** elementini keltirish bilan: *allakim, allanima; bir narsa, bir qancha, bir necha* kabi hosil qilinadi.

Nutqda ba'zi, birov olmoshlarining birgalikda qo'llanilganini kuzatish mumkin: ba'zi birov, ba'zi birovlarning kabi. Bir so'zi qaysi, ba'zi olmoshlaridan so'ng kelishi mumkin: *qaysi bir, ba'zi bir*. Kimdir, qandaydir olmoshlariga sinonim bo'lgan birov, biron, biror so'zlari ham gumonni anglatadi. Hatto ***bir*** so'zining o'zi ham o'rniga ko'ra gumonni anglatadi.

38-mashq. Gapdagi olmoshlarni topib, qaysi so'z bilan bog'langanligini ayting. Ulardagi qo'shimchalarning qo'shilishini izohlang.

1. O'zi pasmondaning ko'zi osmonda (Maqol). 2. Har qanday chuqur yerdan ham osmonga ko'tarilish mumkin (Seneka). 3. Palag'da tuxumga murch sepib bergan bilan uni yeb bo'lmaydi (A.Qahhor). 4. Mening oltita sadoqatli xizmatkorim bor. Hamma narsani ulardan o'rganaman. Ismlari: nima?, qachon?, qanday?, qayerda?, kim?, nimaga? (D.Karnegi). 5. Taqdirotning muqarrar qonuniga ko'ra, har bir xalq o'z turmushi bilan jami insoniyat hayotining qaysidir bir qirrasini ifodalashi lozim, aks holda, bu xalq hayot kechirmaydi, balki behuda tirikchilik qiladi va uning mavjudligidan hech qanaqa naf yo'q (V.Belinskiy). 6. Biryoqlamalik har qanday odamga zararli, jumladan, butun insoniyatga ham. Butun dunyo Rimga aylanganida, hamma xalqlar rimcha fikrlab, rimcha his qila boshlaganida, inson tafakkurining harakati ham to'xtaydi (V.Belinskiy). 7. Har kimning o'z eli - o'ziga shirin (Maqol). 8. Birovning bergani – ko'rgulik, mehnatning bergani to'ygulik (Maqol). 9. O'zining butunini qo'yib, birovning yarmiga osilar (Maqol).

39-mashq. Gaplardagi kishilik va ko'rsatish olmoshlarining ma'no va grammatik xususiyatlarini aniqlang.

1. Mana biz, taqsir, shu keyingi ishda ko'rilmasa ham faqat shirin

xayollardagina yurgan oliy firqag'a o'zimizda tarafdorlik his etamiz. 2. – Biz bu daqiqada sizning fikringizcha go'yo bir ig'vogar, go'yo bir isyonchi bo'lib tanilib turibmiz, - dedi bek, - chindan ham shundog' kishilarmizmi, yo'qmi, buni, albatta, sizning tekshirishlaringiz, haqiqatlaringiz ko'rsatar. 3. Ana, ana, hov aka! O'shaqipchoqqao'q tegib o'lib-o'lalmay, yurib-yuralmay ingrab yotqan ekan. 4. Ul bizni aniq toshkandlik bo'lg'onimizga ishonsa darbozaga solingan nortuyaning boshidek qulfni ming mashaqqat bilan ochib, zanjirini tushuradir. 5. -O'shal kungi manim so'zlag'anlarim, otam bilan manim ichki sirlarimiz edi, - dedi bek, - albatta, bunga guvoh va isbot topish qiyindir. Adolatingizdan talabimiz shul! – dedi va qo'rboshig'a qaradi. 7. Uning yuzida qo'rqish va iztirob alomatlari ko'rdi. 8. Mundan so'ng xalqning o'ziga ishonib turolmay Toshkandni ololmay qaytqan Normuhammad qushbegiga yordamga yetib kelish uchun chopar yugurtiradi. 9. -Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo'lardi-ku, - dedi. 10. Biz sani Marg'ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o'ylamag'an edik, adabsiz... O'zingga qolsa shu marg'ilonliqni xoting'a hisoblab yuraberar ekansan-da, uyatsiz... (A.Qodiriy).

40-mashq. Gaplardagi so'roq olmoshlarini topib, nimaga nisbatan so'roq ifodalashini ayting. So'roq olmoshlarining ma'no va grammatik xususiyatini izohlang.

1. O'chib borayotir qanchalar kalom, Ne-ne bitiklar ham yo'qdir, vassalom (A.Oripov).2.Odamlar o'g'ri devorni qachon vaqanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorga sotishi mumkinligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi (A.Qahhor). 3. Hazratimni men nechun uyg'otdim? (P.Qodirov). 4. Bobur sahhoflarni chaqirib, bu kitobning eng baland narxi qancha bo'lishini so'radi (P.Qodirov). 5. Nimaga ishondim anavi imonsizning gapiga? Bolang nobud bo'pti desa, nega laqqa tushdim? (O'.Hoshimov). 6. Nima deb kelardim? Kimning oldiga? Qaysi yuz bilan? (O'.Hoshimov). 7. Dunyoning qanchalar chehrasi o'zgardi, qanchalar yangiliklar ro'y berdi (G'.G'ulom). 8. - Qanday kuyni chalay, bek aka? (A..Qodiriy). 9. Nega qadding egik, nega boshing xam, Nega nigohingni tortadi tuproq? (A.Qodiriy). 10. Bir qo'yning puli ekan, qayoqdan kelib, qayoqdan ketmaydi (P.Qodirov).

41-mashq. Berilgan misollardagi o'zlik olmoshining ma'no va grammatik xususiyatini izohlang.

1. Inson boshiga kelgan fojialarni o'zicha tahlil qiladi. Yuzaki sabablarga bog'lab yuradi. Ammo o'zini, o'zligini anglagan inson hayotida sodir bo'lgan ko'ngilsizliklar sababini o'zidan izlab ko'radi (B.Nurmuhammad). 2. O'z uyim - o'lan to'shagim (Maqol). 3. Endi uning butun borlig'i quloq bo'lib aylangan, o'zini unutib barcha diqqati hujraga ichiga oqg'an edi (A.Qodiriy). 4. O'zingiz toshkandlik bo'laturib nima majburiyat ostida Marg'ilondan uylandingiz? (A.Qodiriy). 5. Biz o'zimizni ichkariga olg'ach, darbozabon o'zining hazmi ko'targan qadar bizga po'ng'illaydilar-da, darbozani berklash harakatiga tushadir (A.Qodiriy). 6. «O'zaro gap uchun shu yerga ovora bo'lib kelib o'tirarkanmi bu odam» deb o'ylaydi u (T.Malik). 7. O'zlari ham tunda o'tishibdi. Gap bilan chalg'ib bu yoqqa qarashmabdi, -dedi (T.Malik). 8. «Men - o'zingizman, men – Ismoilbeyman. Men bunda bobomni kutayotirman» (T.Malik). 9.– O'zlaringning o'zbeklaringni o'ldirib tomosha qilib turasanlarmi! – deb baqirdi Zelixon osmonga qarab (T.Malik).

42-mashq. Gapdagi belgilash, bo'lishsizlik va gumon olmoshlarini topib tahlil qiling.

1. Vokzalda odam siyrak, har kim o'z tirikchiligi bilan ovora. 2. Hammalari zuv ko'chaga chiqqanlarida, kampir ham ularga ergashdi. 3. Unsin kichik hujraga kirganda shoshib qoldi: allaqaydan elas-elas kulgi, dutor, qo'shiq ovozi quloqqa chalinardi. 4. Hovlida olti-yetti juvon bor, bari xo'jayinning xonimlari. 5. Butun a'zoyi badani titroqda edi. 6. chol-kampir alla-pallagacha g'ijirlashishdi: goh biri, goh ikkinchisi baland kelardi. 7. Hech vaqo yo'q, hamma yoq tinch, boy nega muncha vahima qilmasa! 8. Hech kim uni alday olmas, yo'ldan urolmas, aqlli, farosatli qiz, Shokir otani o'z otasiday sevar, hurmat qilar edi (Oybek). 9. Har erta va har kech u tim qora bejirim xorij moshinasida keng va ravon ko'chadan g'izillab o'tadi, lekin hech qachon bunaqa chuchmal tuyg'uni kechirmagan (A.Dilmurod). 10. Yana qiziqki, allaqayerdan tasodifan paydo bo'lib qolgan o'sha matoh ko'ksida qadimdan (vo ajabo, qadimdan-a?!) qanaqadir yamoq borligiga ishora qilarmidi-ey. 11. Ammo bu ertalab ko'rgan-kechirgani Saidbek Umarni daf'atan hech qachon yechimini topolmaydigan jumboqqa ro'para qilgandek bo'ldi. 12. Saxiydil va kamsuqum avliyo otaning bir qarashdayoq yurakdagi har qanday muzni eritvoradigan tiyrak ko'zlarini tasavvurida tiklashga urina boshlagan chog'da, yopiray, supurib-sidirilgan ko'cha qoq o'rtasi – ro'paradan chopa-chopa kelayotgan keksa ayolni ko'rdi.

43-mashq. O‘zingiz o‘qigan badiiy asarlardan gumon olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring va olmoshlarni tahlil qiling.

44-mashq. Berilgan olmoshlarni ma’nosiga ko‘ra turlarga ajratib yozing.

Bari, hech qaysi, kimdir, har kim, hamma, hech kim, mana bu, o‘sha, qalay, nega, nimadir, qancha, o‘zi, na, jami, yalpi, hech nima, butun, qandaydir, allanima, allakim, allaqanday, birov, biz, nechun ular, siz, men, u, qanaqa.

45-mashq. Berilgan olmoshlarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajratib yozing.

Shu-shu, qay vaqt, mana bu, allaqaysi, har bir, hech qanday, ba’zi, nega, bari, jami, yalpi, o‘sha-o‘sha, uni-buni, allaqanday, hech kim, qanchadan-qancha, necha-necha, ana u, siz, biz, men, u, kim, nima.

Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari

Olmoshlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma va juft bo‘ladi.

Bir o‘zakdan iborat bo‘lgan olmoshlar ***sodda olmosh*** hisoblanadi: *men, sen, kim, hamma, ba’zi* kabi.

Qo‘shma olmoshlar birdan ortiq o‘zakdan tuziladi: *har bir, hech kim, ana o‘sha* kabi.

Ikki olmoshning tenglanishidan tuzilgan olmoshlar ***juft olmosh*** hisoblanadi. Bunday olmoshlar turli modal ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi: *u-bu, men-sen, siz-biz.*

Nutqda olmoshlar takror holda qo‘llanishi mumkin: *o‘sha-o‘sha, shu-shu.* Bunda ham modal ma’no ifodalangan bo‘ladi.

Olmoshlarni tahlil qilish tartibi:

1. Ma’no turi.
2. Qo‘shimchalari tartibi.
3. Tuzilishiga ko‘ra turi.
4. Qaysi so‘z bilan bog‘lanishi.
5. Qaysi so‘z o‘rnida qo‘llangani.
6. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *O‘sha* kitobni olib bering.

1. O‘sha – ko‘rsatish olmoshi

2. Qo'shimchasiz qo'llangan
3. Sodda
4. O'sha kitobni: olmosh + ot
5. Sifat.
6. Aniqlovchi

RAVISH

Ish-harakat nomi bilan bog'liq bo'lgan holat, payt, sabab, o'rin, miqdor kabi ma'nolarni bildirib morfologik jihatdan o'zgarmaydigan mustaqil so'zlarga ***ravish*** deyiladi. Masalan: *unda, bunda, ko'p, sal, picha, noiloj, chorasiz, quyida, chapda, uzoqda, kecha, bugun, yayov, astoydil* kabi.

Ravish biror so'z bilan grammatik aloqaga kirganda, hech qanday qo'shimcha qabul qilmaydi va shaklini o'zgartirmaydi. Ravishlar o'ziga xos yasalish tizimiga ega. Gapda hol vazifasini bajaradi. Ravishlar nutqda otlashganda otga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ravishlarning ma'noga ko'ra turlari

Ravishlar ma'nosiga ko'ra olti turga bo'linadi: holat ravishi, payt ravishi, o'rin ravishi, maqsad ravishi, miqdor-daraja ravishi, sabab ravishi.

1. Holat ravishi ish-harakat bilan bog'liq holatni ifodalaydi va *qanday?, qay holda?, qay tarzda?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Gapda ravish (tarz) holi vazifasida keladi. Holat ravishiga quyidagilar kiradi: *asta, sekin, tez, birdan, ilkis, qo'qqisdan, to'satdan, yonma-yon, qo'lma-qo'l, omon-eson, zo'rg'a, piyoda, yayov, do'stona, qahramonona, qadrdonlarcha, naridan-beri, ketma-ket, darhol, zimdan* kabilar.

2. Payt ravishi ish-harakatning bajarilishi bilan bog'liq payt ma'nosini ifodalaydi. *Qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Payt ravishi gapda payt holi vazifasida keladi. Quyidagilar payt ravishi hisoblanadi: *avval, oldin, ilgari, so'ng, keyin, kechgacha, kechadan, hozir, doimo, tez-tez, tez orada, bugun-erta, shu kuni, o'sha kundan buyon, bu orada, bugun-erta, kundan kunga, saharlab, boya, endi, indin, hali-beri, kechalari, hanuz, hanuzgacha, halitdan, azondan, so'ngra, qishin-yozin, erta-yu kech, uzzukun, tun-kun, hali zamon* kabi.

3. O'rin ravishi ish-harakatning bajarilishi bilan bog'liq o'rinni bildiradi. *Qayerda?, qayerdan?, qayerga?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Gapda o'rin holi vazifasida keladi. Quyidagilar o'rin holi hisoblanadi: *oldinda,*

orqada, o'ngda, chapda, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, berida, pastda, o'rtada, tashqarida, olg'a, u yoq-bu yoqqa, quyida, tubanda, unda-bunda, uzoqda, orqavarotdan, bunda kabilar.

4. ***Maqsad ravishi*** ish-harakatning bajarilishi bilan bog'liq maqsadni bildiradi. *Nega?, nima maqsadda?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Gapda maqsad holi bo'lib keladi. Maqsad holiga quyidagilar kiradi: *atayin, ataylab, jo'rttaga, qasddan, qasdma-qasdiga, azza-bazza* kabi.

5. ***Miqdor-daraja ravishi*** ish-harakatning bajarilishi bilan bog'liq miqdor-darajani, narsa-buyum yoki belgining darajasini, noaniq miqdorini ifodalaydi. *Qancha?, qay darajada?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi: *picha, qittak, biroz, sal, xiyol, soatlab, oylab, yana, tag'in, chamalab, ozmuncha, mumkin qadar, imkon qadar, aslo, sira, qisman, oz-moz, sal-pal, ko'p, mo'l, bir talay, benihoya, ko'plab, siqimlab, hovuchlab* kabi. Miqdor-daraja ravishlari ma'nosiga ko'ra guruhlarga bo'linadi: 1. Miqdor ravishlari predmetning noaniq miqdorini ifodalashga xizmat qiladi: *ko'p, oz, ancha, picha, biroz, bir muncha, xiyla, qittak, mo'l, kam* kabi. 2. Daraja ravishlari harakat yoki belgi bilan bog'liq darajaning kuchli yoki kuchsizligini ifodalashga xizmat qiladi. *Eng, juda, nihoyat (da), g'oyat (da), yana(da), tag'in, tamomila, naq, o'ta, qoq, obdan* kabi ravishlar harakat yoki belgi bilan bog'liq darajaning kuchli ekanligini; sal, xiyol, arang, bazo'r, sal-pal, zo'r-bazo'r kabi ravishlar darajaning kuchsizlik ma'nosini ifodalaydi.

7. ***Sabab ravishi*** ish-harakatning bajarilishi bilan bog'liq sababni ifodalaydi. *Nega?, nima sababdan?* kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi: *chorasiz(likdan), noiloj, ilojsiz(likdan), qo'rqqanidan, kuyganidan* kabi. Sabab ravishlari gapda sabab holi vazifasida keladi.

46-mashq. Gapdagi ravishlarni topib, ma'no turini aniqlang va ularning boshqa so'z turkumlaridan qaysi jihatlari bilan farq qilishini izohlang.

1. Bir yil avval o'g'lining og'zidan ilkis shu gap chiqib ketdi. 2. O'g'il bu gapni aytmasligi kerak edi-yu, orqavarotdan eshitganlari qulog'iga mahkam o'rnashib qolganidanmi yoinki ko'pdan buyon xayolida shu fikr yurgan ekanmi, tomdan tarasha tushgandek kutilmaganda aytdi-qo'ydi. 3. U avval hech nimani anglamayotgandek, o'z quloqlariga ishonmagandek hangumang bo'lib turdi; bir zumdan so'ng ko'kardi, qarshisida nima qilib qo'yganligini anglab-anglamay bezrayib turgan o'g'lining qulog'i ostida chunonam shavla qaynatdiki, u guppa qulab, boshqa o't yoqishning hojati bo'lmadi. 4. Bunday muomala o'g'ilning alamini kundan-kunga ulg'aytirdi. 5. Kampirning qarg'ishlari tegdimi yoinki o'zining vaqti soati

yetgan ekanmi, kelinning otasi birdan oyoq uzatib o'ldi-qoldi. 6. Xabar yetgach, kampir darrov kalish-maxsisini kiyib yo'lga otlandi. 7. Dod-voylaru yig'i-sig'ilar orasida quloqqa chalingan so'zlar ma'nosi chaqilganda shu narsa ayon bo'ldiki, qudaginasi bu dunyoda topilmas odam bo'lganmish, endi u qaytib kelmasmish, qaytib kelmasligiyam ko'p afsuslanarli ish emasmish, nega deganda, u naq behishtning o'ziga ketganmish, jannatiymish. 8. Toshmurodning buvisi bilan borishga otasi ko'p ro'yxushlik bermasa-da, buni ochiq-oydin aytolmas, mayli, hozircha kampirga yonqoziq bo'lib tursin-chi, keyin-keyin qadamini uzib tashlayman, deb xayol qilardi. 9. Boyagi boyagi, boyxo'janing tayog'i ekan — kichik o'g'il mana endi o'ziniyam, yolg'iz qiziniyam, ikkalasidan to'raganlarniyam og'ir kunlarga qoldirib o'tiribdi: u yoqdagilar buni avvalroq bilishganida yanayam boshqacharoq harakat qilisharmidi, kim bilsin; kechani kecha, kunduzni kunduz demay ko'paytirishgan mol-hollari ham kuyovni begonasirashib, ularning ortidan ketgani yomon bo'ldi; nafsilamburini aytganda, kuyov ham ana shu keyingi safardan ko'proq norozi bo'ldi, avval shod, keyin noshod bo'ldi. 10. O'nta qozig'-u o'nta arqonni yaxshi niyatda oxurga tashlab qo'ygan amaki ertalab turib qarasaki, xizmatdagi bitta qoziq qolibdi, xolos; arqon-parqoni bilan ilgarigi tirraqi buzov, hozirgi kattakon ho'kizni o'g'irlab ketishibdi (Sh.Bo'tayev).

Ravishlarda daraja

Ravishlar ham sifat kabi belgini darajalab ko'rsatish xususiyatiga ega: *oz, ozroq, eng oz, nihoyatda oz* kabi. Shunga ko'ra *oddiy daraja (sekin, tez, ko'p, erta), qiyosiy daraja (sekinroq, tezroq, ko'proq, ertaroq), orttirma daraja (juda sekin, o'ta tez, nihoyatda ko'p, ancha erta) kabi turlarga ajratiladi. Shuningdek, kuchaytirma (kuppa-kunduzi, juda-juda) va ozaytirma (ozgina, sekingina, sal)* ravishlar ham farqlanadi.

47-mashq. Sifat va ravish darajalarini qiyoslang. O'rtadagi farqni darslik va o'quv qo'llanmalar asosida tushuntiring. Badiiy asarlardan misollar topib, tahlil qiling.

Ravishlarning yasalishi

Ravishlar ham boshqa turkumdagi so'zlar kabi ***morfologik*** va ***sintaktik*** usulda yasaladi.

1. Ravishlar quyidagi qo'shimchalar orqali turli so'z turkumlaridan hosil qilinadi:

– ***cha:*** *qisqacha, yashirincha, yigitcha, yaxshilikcha, yangicha, buguncha* kabi.

– ***larcha:*** *do'stlarcha, qahramonlarcha, otalarcha, mardlarcha, o'rtoqlarcha.*

– ***chasiga:*** *dehqonchasiga, yangichasiga, toshkentchasiga.*

– ***siga, –iga:*** *yoppasiga, qatorasiga, ko'ndalangiga.*

– ***ligicha:*** *xomligicha, tirikligicha, paxtaligicha.*

– ***dek, –day:*** *o'qdek, tog'dek, oydek, yelday, muzday.*

– ***lab:*** *ertalab, ko'plab, yaxshilab, oylab.*

– ***ona:*** *mardona, mug'ambirona, g'olibona, shoirona.*

– ***an:*** *taxminan, rasman, vijdonan, tasodifan.*

– ***gacha:*** *ertalabgacha, kechgacha, tushgacha.*

– ***lay (in):*** *butunlay, tiriklay(in).*

– ***incha:*** *ko'pincha, aksincha.*

– ***n (-in):*** *yashirin, qishin-yozin, oldin* kabi.

2. Sintaktik usul bilan qo'shma, murakkab, juft va takroriy ravishlar hosil qilinadi: *u yoqqa, bu yoqqa, u yerga, shu yerda, har vaqt, hech vaqt, har zamon, bir zum, bir yo'la, birpas, birmuncha, allavaqt, asta-sekin, oyda-yilda, unda-bunda, bugun-erta* kabi.

Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari

1. ***Sodda ravishlar*** bir o'zak asosida hosil qilinadi: *ko'p, oz, yangicha, rasman, keyin, oldin, tepada, olg'a* kabi.

2. ***Qo'shma ravishlar*** ikki o'zakdan tuzilib, qismlaridan biri mustaqil qo'llanilmaydi: *allapayt, allamahal, bir talay, oz muncha, birvarakayiga, bir yo'la.*

3. ***Murakkab ravishlar*** har birini erkin holda qo'llash mumkin bo'lgan ikkita o'zakdan tuziladi: *har doim, bir oz, bir nafas, har kuni, o'sha yerda.*

4. ***Juft va takror qo'llanadigan ravishlar*** ikki so'zning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: *oldin-keyin, oldinma-ketin, orqama-orqa, birin-ketin, erta-kech, huda-behuda, ahyon-ahyonda, yelkama-yelka, birga-birga* kabi.

Ravish tahlili

1. Qaysi so'roqqa javob bo'lishi.

2. Ma'no turi.
3. Daraja ma'nosi.
4. Yasalishiga ko'ra turi (tub, yasama).
5. Tuzilishiga ko'ra turi.
6. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
7. Qaysi so'z bilan bog'langanligi va ma'no xususiyati.
8. Gapdagi vazifasi.

Namuna: U *sekin* qo'l ko'tardi.

Sekin – ravish; qay holda? holat ravishi; oddiy daraja; tub ravish; otlashmagan; kesimga bog'lanib ish-harakatning bajarilish tarzini, holatini ifodalagan; gapda ravish holi vazifasida kelgan.

47-mashq. Ravishlarni topib, bog'langan so'zi bilan birga ko'chiring. Qaysi savolga javob bo'lishini aniqlang.

1. O'z umrlari davomida ko'p shovqin-suron solishgan bo'lsa-da, har ikkala kampir ham abadiy maskanlariga jimgina oyoq uzatib ketishdi. 2. U yoqda nimalar qilishyapti, farishtalarni hol-joniga qo'ymay to'zitib yurishibdimi, u yoqdayam qarg'ashyaptimi-yo'qmi, buni yorug' jahondagi barcha odamzod vaqti yetib bilib olaveradi. 3. Amaki bu qishloqqa ko'chib kelishidan avvalgi holatga qaytgan edi, fe'li badbinlashgan, sal gapga olov olaman, deb turardi. 4. U hamon indamay-netmay ketvorishgan mollardan xafa, alami bosilmagan. 5. Har kuni bu yoqqacha tushib kelishadi, yalinishadi, chuvvos solishadi. 6. Qizarib-bo'zarib, uning so'zlarini bazo'r oxirigacha eshitib turdi-da, keyin xayr-ma'zurniyam nasiya qilganicha jo'navordi. 7. Yo'lda ketarkan, o'ziga-o'zi endi bu xonadonga qaytib qadam bosmayman, deb ont ichar, otasining taqiqlariga qaramay, yashirincha kelib yurganlarini eslar, hammasi bir go'r ekan, deb o'ylar, ana shu hammasi bir go'rning ichida o'ziyam borligi xo'rligini keltirar edi. 8. Toshmurod haqiqatan ham ancha vaqtgacha o'zini ko'rsatmadi (Sh.Bo'tayev).

FE'L

Ish-harakat yoki predmetning faol holatini ifodalaydigan so'zlar ***fe'l*** deyiladi: *kuldi, o'qidi, yozyapti, yig'layapti, gapirmoqchi, yugurmoqchi, sezdi, uyg'ondi.*

Fe'llar *nima qildi?, nima qilayapti?, nima qilmoqchi?* kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Fe'llar gapda, asosan, kesim bo'lib keladi.

Fe'lning morfologik xususiyatlari fe'llardagi so'z yasalish tizimining faolligi, o'timli-o'timsizlik, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari hamda vazifa va ma'no turlarining mavjudligi fe'l turkumining qamrovi kengligini ko'rsatadi.

Fe'llarning yasalishi

Fe'llar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va taqlid so'zlarga maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali fe'l yasash ***morfologik usul*** hisoblanadi. Fe'llar asosan, quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

-la. *gulla, kuyla, qorala, oqla, yangila, hozirla, shitirla, ufla.*
-a *osha, sana, o'yna, bo'sha.*
-y (-ay) *kuchay, qoray, ozay, zo'ray.*
-r (-ar) *ko'kar, qizar, yoshar, eskir.*
-ik (-iq) *kechik, birik, zo'riq, chiniq.*
-sira *sensira, yotsira, uyqusira.*
-i *boyi, tinchi, changi.*
-qir *o'shqir, hayqir.*
-lan (-lash) *otlan, ikkilan, yaxshilan, suhbatlash, yordamlash, tezlash.*
-illa *yaltilla, gurilla, do'rilla.*
-ira *yaltira, yarqira.*
-ir *gapir, tupir.*

Sintaktik usul bilan fe'l yasash

Bu usul bilan qo'shma va juft fe'llar hosil qilinadi.

Qo'shma fe'l ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Qo'shma fe'l yetakchi va ko'makchi qismlardan tarkib topadi.

Imzo qo'ymoq: imzo-yetakchi, *qo'ymoq*-ko'makchi qism. Asosiy ma'no yetakchi qism orqali ifodalanadi, ko'makchi qism esa qo'shma fe'l hosil qilishda va turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi: *borib keldi, kirib chiqdi, tabassum qildi, ta'zim qildi, ta'zim bajo keltirdi.*

Qo'shma fe'l tarkibidagi so'zlarni tabiatiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Fe'l+fe'l tipidagi qo'shma fe'l: *sotib olmoq, kirib chiqmoq, borib kelmoq, olib kelmoq.*

2. Ot+fe'l tipidagi qo'shma fe'l: *va'da bermoq, quloq solmoq, iltimos qilmoq, himoya qilmoq.*

Bu tipdagi qo'shma fe'llarning ayrimlari sodda fe'llarga sinonim

bo'ladi: *tamom qildi – tamomladi, yordam berdi – yordamlashdi.* Bu tipdagi qo'shma fe'llarni ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan farqlash kerak. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi yangi ma'no ifodalamaydi, balki yetakchi fe'ldan anglashilgan harakat ma'nosi bilan bog'liq qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi: *o'qib chiqdi, yozib bo'ldi, chizib ko'rdi, tortib qo'ydi, o'chira boshladi.*

Juft holda qo'llanib, yangi ma'no ifodalovchi fe'llar ***juft fe'l*** hisoblanadi: *turtdi-qo'ydi, uchdi-ketdi, aytdi-qo'ydi, bordi-keldi.* Juft fe'llar chiziqcha bilan yoziladi.

48-mashq. Berilgan matnni o'qing. Fe'llarni topib, qaysi so'roqqa javob bo'lishini ayting. Fe'llarning gapdagi vazifasini aniqlang.

Kechqurun odamlar birin-ketin qishloq chetidagi tepalikka ko'ngillarini yozgani chiqib kelishadi. Ostlariga choponlarini to'shab, davra qurishadi. chollar botayotgan quyoshga ma'yus termilishgan, o'rta yasharlar savdo-sotiq, tirikchilik g'amida so'z talashishgan... vaqt qanday o'tdi, samo shamlariga kim o't yoqdi – bilishmaydi, sezishmaydi. Gap, gap, gap. Tonggacha ham gapning tubiga yeta olmasliklarini bilib, qolganini ertaga qoldirishadi - har kuni ahvol shu, umr o'taveradi. Kun botdimi, chollar turib ketdimi – ularning quyoshdan boshqa ilinjlari yo'q. Yoshlargina yulduzlarga to'la sim-siyoh bepoyon osmondan ko'z uzishmay, yarim tungacha chalqancha holda, ajriq ustida yotishadi. Somon yo'li, tillarang iz qoldirib uchgan yulduz... bari-bari ko'ngillariga g'alati-g'alati tuyg'ularni quyadi, hapqirtirib yuboradi. Ko'zlaridan yosh sachraydi, xo'rsinishadi, negaligini bilishmaydi, yuzlari lov-lov yonadi (E.A'zam).

O'timli va o'timsiz fe'llar

Tushum kelishigidagi so'z bilan bog'lana oladigan fe'llar ***o'timli fe'l*** hisoblanadi: *keltirdi (nimani?), o'ydi (nimani?), kesdi (nimani?), uzdi (nimani?).* Bunda harakat ***nimani?*** so'rog'iga javob bo'ladigan otga to'liq o'tadi. Fe'l chiqish kelishigidagi otga bog'langanda harakat qisman otga o'tishi mumkin: *uzumni yeng – uzumdan yeng, nonni oling – nondan oling, qovunni kes - qovundan kes.*

Biror predmetga o'tmaydigan harakatni ifodalovchi fe'llar ***o'timsiz fe'l*** hisoblanadi. O'timsiz fe'llar jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanadi: uxladi, yig'ladi, yurdi, yozdi, chizdi.

49–mashq. Gaplarni o'qing. O'timli fe'llarni tushum kelishigidagi so'z bilan birga ko'chiring.

1. Xotirasi yaxshi odam ko‘p narsalarni osongina unutadi. 2. Gulxan bilan zulmatni daf etib bo‘lmaydi. 3. Men jahonga bittagina so‘z aytmoqchi bo‘ldim. Bunga muyassar bo‘lolmaganim uchun yozuvchi bo‘lib ketdim. 4. Sigirga kakao ichirsang hamki, shokolad sog‘ib ololmaysan. 5. Taajjubki, Prometey ma’budalardan o‘g‘irlab kelgan olovda Jordano Brunoni kuydirdilar. 6. O‘qlanmagan miltiqdan qo‘rqaman. U bilan boshni yoradilar. 7. Qo‘rqoqligidan u o‘z fikrlarini birovlarning kallalarida saqlardi. 8. Non har qanday og‘izni ham ochadi. 9. Birovning boshidagi sochni, yana qo‘lida bolta bilan to‘rtga bo‘lishni yoqtiradigan faylasuflarni jinimdan battar yomon ko‘raman. 10. Agar hokimiyat tepasiga buqalamun chiqsa, a’yonlari tez-tez tuslarini o‘zgartirib turadilar (S.E. Mels).

50-mashq. Matnni o‘qing. O‘timli va o‘timsiz fe’llarni ikki guruhga ajratib yozing.

Rivoyat qiladilar: kunlardan birida sulton Husayn Boyqaro shikorga – ovga chiqishni ixtiyor etdi. Unga hazrat Alisher Navoiy hamroh bo‘ldi. Shikordan qaytar ekanlar, bir qishloqdan o‘tdilar. Ko‘cha chetida turgan olti-yetti yoshlardagi bolakay salom berdi. Sulton Husayn qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, alik oldi-yu, o‘tib ketaverdi. Alisher Navoiy esa bolani ko‘rib otini to‘xtatdi. Pastga tushib bola bilan qo‘shqo‘llab ko‘rishdi. Keyin tag‘in otiga minib, yo‘lida davom etdi. Navoiyning bu ishi shahanshohni hayron qoldirdi.

–Mavlono, - dedi u Navoiyga yuzlanib, - siz saltanatning vaziri bo‘lsangiz, buning ustiga jahonga taniqli shoir bo‘lsangiz, nainki go‘dak bir bolaga shunchalar muruvvat ko‘rsatadursiz?!

–Olampanoh, - dedi Navoiy jilmayib. – Gap bolada emas. Gap shundaki, bir vaqtlar bu bolaning otasi mening savodimni chiqargan edi. Men ustozimning yetti pushti oldida hamisha qarzdordurmen.

Bu voqea chindan ham bo‘lganmi - yo‘qmi, noma’lum. Biroq, Navoiydek zukko insondan xuddi shunday harakatni kutish hech kimni ajablantirmaydi. Umuman, hamma xalqlar hamma zamonlarda o‘qituvchini buyuk inson hisoblagan. O‘zbeklar hurmat qilgan kishisini, ilmli odamlarni domla deb izzatini joyiga qo‘yadi. Ozarbayjonlar muallim deb ehtirom ko‘rsatadi. Tojiklar ustoz deydi. Ruslar uchun «uchitel» degan so‘z juda keng ma’noni anglatadi. Biroq bu so‘zlarning hammasini yagona ma’no – katta hurmat ma’nosi birlashtirib turadi. (O‘.Hoshimov)

Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar

Ish - harakatning amalga oshishi, bajarilishi haqidagi xabarni

ichkaridan zanjirlab qo'yibman-ku!»- degancha pichirlab, harsillagancha eshik tomon shoshildi. 10. Ruqiya kelinbibi enaning rang-u ro'yi oppoq oqarib, bir holatda ekanligidan avval sarosimalandi, hatto qo'rqib ketdi (Sh.Bo'tayev).

54-mashq. Gaplar tarkibidagi orttirma va majhul nisbatdagi fe'llarni aniqlab tagiga chizing. Ma'no va imlosini tushuntiring.

1. Bir ozdan so'ng katta uydan Zebining bidratma dutori va shirin ashulasi eshitildi. 2. chinakam jo'naydigan kishiday, bor puliga un olib, yog' olib – kulchalar yoptiradi. 3. Sultonxon butunlay nest-nobud bo'ldi. Kechagi botgan quyoshday ... Unutildi! 4. Salom berilar-berilmas yo'talga zo'r berib o'rinlaridan turgan «namozxonlar»ni so'fining yog'lanmagan aravaniki singari ingichka va g'ashga tegadigan ovozi to'xtatdi. 5. Yerga tushgan uch-to'rtta xazon yaproqlari kuz kechasining sovuq shabadasi bilan yer betida shitir-shitir surinadilar. 6. Yana o'sha kashtalarning yana o'shakular yuzli ipaklari ilang-bilang chiroq ustidan berib, kungiralarning shaklini qavartirardi. 7. «Boshqalar uchun yopildi, men uchungina ochiladi bu eshik!» deb o'yladi, Miryoqub yana. 8. Miryoqub oz pul, ko'p ustalik sarf qilib o'sha cho'lni o'z nomiga o'tqazdi. 9. Ko'ngliga og'ir tashvishlar solgan yigitchaning shundoq yonginasida juda shirin xayollar bilan birga juda qora o'ylarga botib turgan vaqtida birdaniga ayvon tomondan bir ovoz eshitildi. 10. Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi (Cho'lpon).

Fe'l mayllari

Ish-harakatning voqelikka munosabati ***fe'l mayllari*** orqali ifodalanadi. Fe'llarda 3 xil mayl bor:

1. Aniqlik mayli. 2. Buyruq-istak mayli. 3. Shart mayli.

1. Aniqlik (xabar, ijro) maylidagi fe'llar ish-harakatning uch zamondan birida bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabarni ifodalaydi. Aniqlik maylining maxsus ko'rsatkichlari yo'q: *o'qidi, o'qiyapti, o'qimoqchi* kabi.

2. Buyruq-istak maylidagi fe'llar ish-harakatning bajarilishi bilan bog'liq buyruq, istak, xohish, maslahat, iltimos, undov kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bunday fe'llar ***–(a)y, -gin, -sin, -aylik, -ing(iz), -sinlar*** qo'shimchalari bilan hosil qilinadi: *ketay, borgin, yozsin, ketaylik, boring, yursinlar* kabi.

3. ***Shart maylidagi*** fe'llar biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart qilib qo'yilgan harakatni ifodalaydi. Bu maydagi fe'llar ***–sa*** qo'shimchasi orqali hosil qilinadi. Shart mayli qo'shimchasi shaklidagi fe'llar sof shart, orzu-istak, iltimos, maslahat, faraz, payt kabi buyruq-istak mayliga xos ma'nolarni ifodalaydi.

Ayrim darslik va qo'llanmalarda shartli va maqsad mayli ham alohida ta'kidlanadi. ***Shartli mayldagi*** fe'l ***–(a)r, -mas*** qo'shimchasi bilan yasaluvchi sifatdoshga ***edi*** to'liqsiz fe'lining qo'shilishidan hosil bo'ladi va bajarilishi biror harakatga bog'liq bo'lgan harakatni ifodalaydi: *U kelsa, sen borar eding.*

Maqsad maylidagi fe'l ish-harakatning bajarilishi maqsad qilinganligini bildiradi: *bormoqchiman, bormoqchi bo'lyapman* kabi.

55- mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Shart va buyruq-istak maylidagi fe'llarni guruhlarga ajratib yozing. Ma'nosi va imlosini tushuntiring.

1. U – devday bir erkak bo'lsa, men bir siqim joni bor qiz bo'lsam? 2. Har qalay, ertaga xudo poshsho, egam... Bugunning maslahatidan keling. 3. Shashtini qaytarsam ... Hovliqishini bossam. 4. -Bo'lmasa «yo'q» deng. Saltanatxonga javob beray, ketsin! Azonda kelgan edi. 5. O'rus tilini bilarmidiki, amaldorlar, sudlar bilan chiqishsa? 6. - Aylanay mehmon, kimdan xafa bo'lib tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog'ingizni ochsangizchi! Yorug' dunyoga keldingiz! Shukur qiling, sevining! Mundoq bir kulung! Kulumsirang? Iljaying! 7. Men omi bo'lsam, savodim bo'lmasa, oq-qorani tanimasam, u kishi mulla bo'lsa, zabardast bo'lsa, xudoning buyrug'ini tushunsa, shariatni, tariqatni suvday bilsa... nima deyman? 8. Haligacha oz topgan bo'lsa, mundan nari ko'p topar. 9. Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo'lingizga suv berib, qizingizning choklarini tikishib, xizmatingizni qilib yotardim. Xoh ishoning, xoh ishonmang! 10. Biznikiga bir kirib chiqing (Cho'lpon).

56-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Aniqlik, buyruq-istak va shart maylidagi fe'llarni topib jadvalni to'ldiring. Bo'sh qolgan kataklarga badiiy asarlardan misollar toping.

1. - Shoh bundan tashvish tortmasalar ham bo'ladi. Agar buyursangiz, men borib uni olib kelayin, u shohning mute qullaridan bo'lsin. 2. Sher bu so'zlarni eshitib xursand bo'ldi va uni olib kelishni Dimnaga amr qildi. 3. - O'rtoqjon, agar rahming kelayotgan bo'lsa, meni yechib yubor,

seni o'z o'rnimga bog'lab qo'yay. Do'stim bilan ko'rishib, uzr so'ray va tezlik bilan qaytib kelay. 4. - Bemorning dardi og'ir bo'lib, sog'ayishdan umidi uzilgan bo'lsa, qanday qilib gapira olsin. 5. O'sha suvda bir toshbaqa yashar edi, suvga tushgan anjirlarni ishtaha bilan yer va «Maymun bularni atayin men uchun tashlamoqda, tanish bo'lmagani holda menga shuncha mehribonlik ko'rsatmoqda, do'stlashsam menga nimalar qilishi mumkin», - deb o'ylar edi. 6. – Agar bu yerlarda bo'lmasa, boshqa joylardan axtaray, do'stlardan iltimos qilay, dushmanlarga yolvoray. 7. Bu balodan qutulish uchun sendan najot kutaman, shuning uchun do'stlashmoqchiman. 8. Shunda Donodil dedi: –Menda mol-u dunyo yo'q, yo'lga olgan ko'rpa-to'shagimgina bor. Istasangiz oling, lekin meni salomat qoldiring, orzumga yetay. 9. Tabib yordamchisiga buyurdi: –Ko'zni ravshan qiladigan doridan keltir, bu kishining ko'ziga surtib qo'yaman. 10. Kim zo'r bo'lsa, u boshqalarni xor etmoqda, insof va muruvvat, adolat va sadoqatni oyoqosti qilmoqda («Kalila va Dimna»).

Turi / Ma'nosi	Aniqlik (xabar) mayli	Buyruq-istak Mayli	Shart mayli
Darak			
Maqsad			
Buyruq			
Istak			
Orzu			
Gumon			
Iltimos			
Shart			
Maslahat			

Fe'llarda shaxs-son

Fe'llarda ish-harakatning kim yoki kimlar tomonidan bajarilishi grammatik son qo'shimchalari orqali aniqlanadi. Ish-harakat bajaruvchisi bir kishi bo'lganda birlik, bir necha kishi bo'lganda ko'plik shakli qo'shimchasi ishlatiladi. Bu qo'shimchalar harakat bajaruvchisi – grammatik shaxsni ham ifodalaganligi uchun ***shaxs-son qo'shimchalari*** deb yuritiladi. Fe'llarda uch shaxs mavjud:

I shaxs – so'zlovchi
II shaxs – tinglovchi
III shaxs – o'zga

Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalarini olib kelishi ***tuslanish,*** mazkur qo'shimchalar esa ***tuslovchi qo'shimchalar*** deyiladi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	**1. -m** **2. -man** **3. -ay(in)**	**1. -k** **2. -miz** **3. -aylik**
II	**1. -ng** **2. -san** **3. -gin**	**1. -ngiz** **2. -siz** **3. -ing(iz)**
III	**1. -** **2. -** **3. -sin**	**1. (-lar)** **2. (-lar)** **3. -sin(lar)**

Fe'l zamonlari

Ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabati ***fe'l zamonlari*** deyiladi. Ish-harakat nutq so'zlanib turgan paytdan oldin, nutq so'zlanayotgan paytda yoki undan so'ng bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra fe'l zamonlari ham uch turga bo'linadi: O'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

I. O'tgan zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni bildiradi. O'tgan zamon fe'llari 5 turga bo'linadi:

1) Yaqin o'tgan zamon shakli fe'l o'zagiga ***–di*** qo'shimchasini qo'shish va tuslash orqali hosil qilinadi.

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	Bordim	bordik
II	Bording	bordingiz
III	Bordi	bordi(lar)

2) Uzoq o'tgan zamon shakli fe'l o'zagiga ***–gan*** qo'shimchasini qo'shish va tuslash orqali hosil qilinadi.

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	borganman	borganmiz
II	borgansan	borgansiz
III	borgan	borgan(lar)

Uzoq o'tgan zamon shakli ***edi, ekan*** to'liqsiz fe'llari yordamida ham hosil qilinadi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	borgan edim borgan ekanman	borgan edik borgan ekanmiz
II	borgan eding borgan ekansan	borgan edingiz borgan ekansiz
III	borgan edi borgan ekan	borgan edi(lar) borgan ekan(lar)

Uzoq o'tgan zamon shakli ish-harakatning bajarilganligi bilan bog'liq gumonni anglatganda ***–gan*** qo'shimchasidan so'ng ***–dir*** va tuslovchi qo'shimchalar keltiriladi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	borgandirman	borgandirmiz
II	yozgandirsan	yozgandirsiz
III	o'qigandir	o'qigandir (lar)

3) O'tgan zamon hikoya fe'li –b (-ib) qo'shimchasini olgan ravishdoshni tuslash orqali hosil qilinadi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	yuribman	yuribmiz
II	yuribsan	yuribsiz
III	yuribdi	yuribdi(lar)

-b (-ib) qo'shimchasi ravishdoshdan so'ng ***edi*** to'liqsiz fe'lini keltirish orqali ham o'tgan zamon hikoya fe'li yasaladi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	kelib edim	kelib edik
II	kelib eding	kelib edingiz
III	kelib edi	kelib edi(lar)

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	kuzatar edim	kuzatar edik
II	kuzatar eding	kuzatar edingiz
III	kuzatar edi	kuzatar edi(lar)

4) O'tgan zamon davom fe'li –r (-ar) qo'shimchasini olgan fe'l shakliga edi to'liqsiz fe'lini qo'shish orqali hosil qilinadi:

O'tgan zamon davom fe'li ***–yotgan edi*** va ***-moqda edi*** shakllari yordamida ham hosil qilinadi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	yozayotgan edim ketmoqda edim	yozayotgan edik ketmoqda edik
II	yozayotgan eding ketmoqda eding	yozayotgan edingiz ketmoqda edingiz
III	yozayotgan edi ketmoqda edi	yozayotgan edi(lar) ketmoqda edi(lar)

5) O'tgan zamon maqsad fe'li –moqchi edi, -digan edi shakllari yordamida hosil qilinadi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	chizmoqchi edim o'tadigan edim	chizmoqchi edik o'tadigan edik
II	chizmoqchi eding o'tadigan eding	chizmoqchi edingiz o'tmoqchi edingiz
III	chizmoqchi edi o'tadigan edi	chizmoqchi edi(lar) o'tmoqchi edi(lar)

II. Hozirgi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgani yoki bajarilmayotganligini bildiradi. Hozirgi zamon fe'lining quyidagi shakllari mavjud:

1) Hozirgi zamon davom fe'li ***–yap, -moqda, -yotib, -yotir*** va tuslovchi qo'shimchalar orqali hosil qilinadi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	yozyapman chizmoqdaman ketayotibman kelayotirman	yozyapmiz chizmoqdamiz ketayotibmiz kelayotirmiz
II	yozyapsan chizmoqdasan ketayotibsan kelayotirsan	yozyapsiz chizmoqdasiz ketayotibsiz kelayotirsiz
III	yozyapti chizmoqda ketayotibdi kelayotir	yozyapti(lar) chizmoqda(lar) ketayotibdi(lar) ketayotir (lar)

2) Hozirgi kelasi zamon fe'li ***–a(-y)*** va tuslovchi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	tuzaman to'qiyman	tuzamiz to'qiymiz
II	tuzasan to'qiysan	Tuzasiz to'qiysiz
III	tuzadi to'qiydi	tuzadi(lar) to'qiydi(lar)

III. Kelasi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalaydi. Kelasi zamon fe'lining kelasi zamon maqsad va kelasi zamon gumon fe'li shakllari mavjud.

Kelasi zamon maqsad fe'li ***–moqchi, -ajak, -gay*** tuslovchi qo'shimchalar yordamida, ***kelasi zamon gumon fe'li*** esa ***–(a)r*** va tuslovchi qo'shimchalar orqali hosil qilinadi.

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	kelmoqchiman yozajakman	kelmoqchimiz yozajakmiz
II	kelmoqchisan yozajaksan	kelmoqchisiz yozajaksiz
III	kelmoqchi yozajak	kelmoqchi(lar) yozajak(lar)

	Son	
Shaxs	**Birlik**	**Ko'plik**
I	o'qirman	o'qirmiz
II	o'qirsan	o'qirsiz
III	o'qir	o'qir (lar)

Nutqda zamon shakllarining o'rni almashtirilgan holda qo'llanishini kuzatish mumkin. Bunday hollarda ish-harakatning qaysi zamonga aloqadorligi gapning umumiy mazmunidan anglashiladi: Biz ertaga Buxoroga ketyapmiz.

57-mashq. Gaplarni o'qing. Fe'llarni topib, ulardagi tuslovchi qo'shimchalarning ma'nosini izohlang.

1. - Chidolmayapman, bilasanmi, chidolmayapman. Yana Kim bilan ketganini-chi. Voy jinni bo'lmasam, o'zim o'sha savilni «dugona» qilamanmi-a? (Yo.Akram). 2. - Dada-a ... – Jasura og'ringandek tikildi. – Siz uni bilmaysiz... Ana, hozir ham pastda turibdi (E.A'zam). 3. –Menga bittasini bering? – dedi chelakdan ko'z olmay (N.Norqobulov). 4.– Xullas, biz, -gapirdi chippingem, - o'zimiz qidiruv guruhini tashkil etishga qaror qildik. 5.–Hammamiz bu yerga nima uchun yig'ilganimizni bilamiz, - dedi Rita kengashni ochar ekan, rasmiy ohangda. –Sizlar bilan ishni qanday tashkil qilishni kelishib olaylik. Dastavval tashkiliy masalalarni muhokama qilaylik (A.Qahhor). 6. Men butun insoniyatni ikki toifaga ajratgan bo'lardim: sevishga qodir va muhabbat tuyg'usidan benasib insonlar (M.Shoxonov). 7. 70- yillarning oxirlarida Maryam ikkovimiz Moskvaga borib, mehmonxonadan joy oldik. Bizning kelganimizni eshitib, bir oqshom sen huzurimizga tashrif buyurding va buyuk qozoq bastakori Yestoyning muhabbatiga bag'ishlangan she'ringni o'qib berding. 8. -Bibisora

vafot etgach, oradan ko'p vaqt o'tmasdan meni Italiyaga taklif qildilar. Teploxodda Sitsiliyaga jo'nadik. 9. Odamlar palubada raqsga tusha boshladilar. Men esam, bir chetda to'siqqa suyanganimcha yum-yum yig'lardim. 10. O'sha musiqa tovushini hozir eshitsam ham to'lqinlanib ketaman. Darhol Bibisora esimga tushadi. Bu tuyg'uni tushuntirib berishga ojizman (Ch.Aytmatov).

58-mashq. Gaplarni o'qing. Fe'llarni topib, jadvalga muvofiq tahlil qiling.

Namuna: Men Oqtoshga o'tgan yili ta'tilda borganman.

Fe'l	zamoni	fe'l negizi	qo'shimchalari	shaxs-son	fe'lning gapdagi ma'nosiga ko'ra sinonimi
borganman	uzoq o'tgan zamon	bor-	-gan+man	I shaxs birlik	borgan edim, borgandim

1. Ustoz Oybek to'g'risida bilganlarimni yozmoqchiman. Ammo har gal jazm qilganimda jur'atsizlik qo'limni qaytaradi (S.Ahmad). 2. Ikkalasi yuzlari yulduzday charaqlagani holda, darichadan ichkariga hatlagan vaqtlarida Zebining «Qora sochim» kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi (Cho'lpon). 3. Sarsonboy ota otini ilgarilari shu ustunlardan biriga bog'lab qo'yardi (O'.Umarbekov). 4. Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so'ragan edi (O'.Hoshimov). 5. Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqiganidan buyon yomon ko'paydi (O'.Hoshimov). 6. Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi (O'.Hoshimov). 7. Barcha dalillar, toshlar kosmosdan tushganini ko'rsatadi (H.Shayxov). 8. Ular hayot otlig' mo'jizaga aylangancha, uchqur xayollaru sho'x shamollarga, avtobus-u tramvaylarga qo'shilib ayovsiz o'tib bormoqda (E.A'zam). 9. Yigitali ularni tanimadi. Lekin ust-boshlarining o'ziyoq ularning kimligi, bu yerga nimaga kelishayotganini anglatadi (T.Malik). 10. - Men avval ko'zingni davolamoqchiman. Shunda sen oq bilan qorani farq qiladigan bo'lib, ikkinchi marta kuygan non yemaydigan bo'lasan (Kalila va Dimna).

59-mashq. Matnni o'qing. Fe'llarni topib, ularda zamon ma'nosining ifodalanishini tushuntiring.

Osmonni bulut qoplagan. Qor yog'yaptimi, oppoq, mayin qor...

Kampir karavotga suyanib ko'rpa qaviyapti. Chol deraza oldida, bukchaygan, yuzida keksalik horg'inligi, bag'rida sochlari jingalak, qo'g'irchoqdaygina qizaloq. Qizcha kaftini yaxlagan oynaga bosib tashqariga talpinadi. Chol uni bir oldinga, bir orqaga tebratib, xixillagan tovush chiqaradi. Kampir ahyon-ahyonda ularga qarab qo'yadi. Choli xi-xilab kulyaptimi, yig'layaptimi bilmaydi.

Chol kuladi. Lekin kular ekan, nafasi tiqilib, yo'tal tutadi. Qor uchqunlariga tikilganicha yiroq xayollar band etadi uni.

Osmon shunday bulutli va rutubatli edi o'shanda ham. Xuddi shunday oppoq, Mayin qor yog'ardi...

60-mashq. Kichik hajmli bir hikoya yozing. Unga nom qo'yib o'rtoqlaringizga o'qib bering va ular bilan birgalikda fe'llardagi zamon ma'nosining matn mazmuniga mosligini tekshiring.

Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari

1. ***Sodda fe'l***: *yur, ishla, kel, bor, eshit.*
2. ***Qo'shma fe'l***: *sotib oldi, yutib oldi.*
3. ***Murakkab fe'l***: *o'qib berib turdi, sotib olib berdi.*
4. ***Juft fe'l***: *aytdi-qo'ydi, gapirdi-qo'ydi.*
5. ***Takroriy fe'l***: *o'qiy-o'qiy, ayta-ayta, yozdi-yozdi.*

61-mashq. Gaplarni ko'chiring. Qo'shma fe'llarni topib, ma'no xususiyatlarini izohlang.

1. Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi (G'.G'ulom). 2. Shundan keyin o'rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so'zlab ketdi (A.Qahhor). 3. Qattiq betoblikdan keyin negadir uning ko'ngli qishlog'ini qo'msab qoldi (S.Zunnunova). 4. Ba'zan to'xtab, adashmadimmi, degandek, u yoq-bu yoqqa alanglar, yana tusmollab yurib ketardi (S.Zunnunova). 5. Miryoqubning o'tkir quloqlari oshxona tomonni tinglarkan, ikki kishining pichirlashib gaplashganini aniq eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi (Cho'lpon). 6. U ham xuddi suratday jonsizgina sudralib yura boshladi (Cho'lpon). 7. So'fi ko'zlarida marvarid donalariday yirik-yirik yoshlari ko'ringani holda, bilganicha aytib berdi

(Cho'lpon). 8. Bir ozdan keyin Firuzani ko'tarib qaytib kirdi, ketma-ket ikkita o'g'lini yetaklab olgan Guljahon ko'rindi (O.Yoqubov). 9. Qiziq, usta shu so'zni eshitdi-yu, Nodirni ko'rganida tarqaganday tuyulgan darmonsizlik a'zoyi badanini qayta chulg'ab oldi (O.Yoqubov). 10. So'ngra urush boshlandi-yu, har kim o'z g'ami, o'z tashvishi bilan bo'lib qoldi.

62-mashq. Gaplarni ko'chiring. Juft fe'llarni topib, har birini alohida izohlang.

1. Shu tariqa, ikki aka-ukaning hali beshikda big'illab yotgan to'ng'ichlari «beshik kerti» qilindi-qo'ydi. 2. Kunbo'yi boshqa g'amda yurib, qorin g'amini unutganidanmi, haligi dilg'ashlik tufaylimi, ustma-ust ikki qadah ichdi-yu mast bo'ldi-qoldi. 3. Vaholanki, endi u sizni emas, o'z farzandini o'ylaydi, o'z farzandi uchun qayg'uradi, kuyib-yonadi—xuddi sizdek, sizning o'zingizdek. 4. Ba'zilar haftalab ishxonada ko'rinmasligi mumkin, ammo u bir soat bo'lmasa, darrov bilinadi-qo'yadi — o'rni bor, o'rni! 5. U birgina shu savolga: «Onasining qornida yig'lagani uchun», deya javob berdi-yu imtihondan o'tdi-ketdi. 6. Kutamiz-kutamiz — ofitsiantlardan darak yo'q. 7. Shunda hammaning xayolidan kechgan gapni Mirahmad aytdi-qo'ydi. 8. - Ishlar kelasi yilga qoladiganga o'xshayapti, domla — deb ochig'ini aytdim-qo'ydim. 9. Nogahon bir ko'ngilsizlik ro'y bergan kabi o'tirish birdan sovidi-qoldi. 10. Bu xonadonga, bunday bazmga shunday bir yugurdak kerak edi: Muftilla ana shu vazifani bus-butun egalladi-qo'ydi (E.A'zam).

To'liqsiz fe'l

Hozirgi o'zbek tilida to'liqsiz fe'lning quyidagi shakllari mavjud: ***edi, ekan, emish, emas.***

To'liqsiz fe'llar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Mustaqil ma'noga ega emas.

2. Fe'llarga xos bo'lishsizlik, nisbat, zamon kabi ma'nolarga ega emas.

3. To'liqsiz fe'l yakka holda tuslanmaydi. Shaxs-son qo'shimchasi to'liqsiz fe'lga qo'shilsa-da, ular bildirgan shaxs ma'nosi kesim vazifasidagi butun birikmaga taalluqli bo'ladi: *kelgan edi+m, kelgan edi+ng.*

4. To'liqsiz fe'l tarkibidagi ***–di, -kan, -mish*** qo'shimchalari o'z ma'no xususiyatini yo'qotgan.

5. To'liqsiz fe'lning birinchi tovushi tushirib qo'llanishi mumkin: *kelardi, kelarkan, kelarmish* kabi.

6. To'liqsiz fe'l otga ham fe'lga ham qo'shila oladi. Ko'proq sifatdosh va ravishdoshga birikib keladi.

7. Nutqda qatorlashib kelishi mumkin: Ana xolos, bu odam meni tanirmidi ekan? ... sharmanda bo'ldim (M.Ismoil).

63-mashq. Gaplarni o'qing. To'liqsiz fe'llarni topib, ma'nosi va imlosini tushuntiring.

1. Odamxo'r devlarni yuzlab chaqirim joydan ko'rgan zahoti Burgutning ko'zlaridagi olov devga borib chaqmoq bo'lib urilar ekan. 2. Hirotda hazrat bobom nomiga ham madrasa qurilgan-ku. Hech bo'lmasa o'shal madrasaga dafn etsalar bo'lmasmi-di? 3. - Gavharshodbegim – mening onam ekanini unutmang, amirzoda. 4. –Meni afu eting, hazrat otajon... Qamoqda yotganimda o'tgan alamlar hali xotiramdan chiqqan emas. 5. Elchilar orqali Alouddavlaga shu savol berilganda, «Podshoh hazratlari bizni ma'zur tutsinlar, inimiz Abulqosim Bobur bilan urush harakatlari to'xtagan emas». 6. Bu soqchilar tashqi ko'rinishidan begimni qo'riqlab yurgan bo'lsalar ham, aslida Alouddavla tomonidan qo'yilgan xufiyalar edi. 7. Alouddavla momosining Ulug'bekka yoki Abulqosim Boburga yon bosishida xavotirda bo'lgani uchun begimning har bir qadamini kuzatib turadigan qo'riqchilar qo'ygan edi. 8. Men suyangan yana bir tog' – siz onam hazratlari ekaningizni birga safar qilganlarimizda aytgan edim. 9. Agar ular bostirib kirib, qo'shni xonachada o'ltirgan Bobo Husaynni topib olsalar o'limga mahkum etishadi. 10. Nechunki men Hirotning eng nufuzli Mahdi Ulyosi, sizning onangiz bo'lganim uchun Alouddavlaga kerak emishmen (P.Qodirov).

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi

Nutqimizda ikki yoki undan ortiq fe'ldan iborat birliklar ham qo'llaniladi. Ular tarkibidagi asosiy ma'noni ifodalovchi qism ye***takchi fe'l***, uni to'ldirib, izohlab keladigan qism esa ***ko'makchi fe'l*** hisoblanadi: *o'qib chiqdi (o'qib – yetakchi, chiqdi – ko'makchi fe'l*). Bunday qo'shilmalar ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi (ayrim darsliklarda fe'lning analitik shakli) deb yuritiladi.

O'zbek tilida butunlay ko'makchi fe'lga aylangan birorta ham fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanib turli-tuman ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

1. Harakatning to'satdan yuzaga kelganligi: *bo'lib qoldi, taqillab qoldi, ko'rib qoldi, aytib qo'ydi.*

2. Harakatning davomiyligi: *aytib turdi, o'qib berib turdi, qarab-qarab turdi.*

3. Harakatning tugallanganligi: *o'qib chiqdi, aytib bo'ldi, so'zlab berdi, turtib qo'ydi* va hokazo.

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarkib jihatidan turlicha shakllanishi mumkin:

1. Ko'makchi fe'l birdan ortiq bo'lishi mumkin: *aytib berib turdi.*

2. Yetakchi va ko'makchi fe'l o'rtasida yuklama kelishi mumkin: *kechikib ham qolibman.*

3. Yetakchi qism juft va takroriy so'zga teng bo'lishi mumkin: *qizarib-bo'zarib ketdi, baqirib-baqirib tashladi.*

4. Yetakchi fe'l uyushib kelishi mumkin: *yaqinlashib, do'stlashib qoldi.*

64-mashq. Gaplarni o'qing. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarini topib yozing. Yetakchi va ko'makchi fe'lni alohida izohlang.

1. Katta to'yxonaning kichik kursisida bazo'r o'tirib, hasratimni ho'ngrab boshlayman (Yo.Akram). 2. U zardo'zi ko'rpachalar to'shalgan tanobiyga to'rdagi eshikdan kirib keldi (P.Qodirov). 3. «Mening qalbim yo'qmi, men baxtsizmanmi?» degan savol uni og'ir ahvolga solib qo'ydi (T.Malik). 4. Ariq suvining nihoyatsiz bu harakatini uzoq ko'zdan kechirib o'lturg'ach, qo'l uzatib suvdan oldi va yuzini yuvdi (A.Qodiriy). 5. Yaponiya urush vayron qilgan iqtisodini qanday qilib ko'tardi hamda uni hayratlanarli darajadagi yuksaklikka olib chiqa oldi? (N.Takayama). 6. U musichalar ketib qolmasligi uchun derazalarni yopib qo'ydi (T.Murod). 7. Kelin eshikdan ko'ringach, o'g'liga «qarshi ol» degandek qilib qarab qo'ydi (A.Qodiriy). 8. Xitoylar hamma narsani pul bilan hal qilish mumkin deb hisoblab, dunyodagi eng qimmatbaho harbiy kemalarni ko'plab sotib oladi (N.Takayama). 9. Angordan qaytayotgan poda ortidan ko'tarilgan quyuq chang bir muddat muallaq turib qoladi, so'ngra keng dala bo'ylab yoyilib ketadi (Sh.Bo'tayev). 10. Buvaydadan avtobusga chiqishim bilanoq Muazzamga ko'zim tushib qoldi (S.Ahmad).

65- mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Qo'shma fe'l va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasini farqlab, guruhlarga ajratib yozing va har birini namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: o'qib chiqdi – ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi; o'qib – yetakchi fe'l, o'qi+b – o'qimoq fe'lining ravishdosh shakli; chiqdi –

ko'makchi fe'l bo'lib, yetakchi fe'ldan anglashilgan harakat ma'nosining tugallanganligini bildiradi. – di yaqin o'tgan zamon fe'li III shaxs birlik shaklini ifodalaydi.

quloq soldi – qo'shma fe'l, ot+fe'l (-di), fe'l yaqin o'tgan zamon III shaxs birlik shaklida ifodalangan. Eshitdi, tingladi fe'llariga sinonim bo'ladi.

1. Urushning alg'ov-dalg'ovida tobora bo'yni yo'g'on bo'lib ketayotgan bebosh beklar esiga tushgani sari ko'ngli bezovta bo'lardi. 2. Boshqalari ham ko'chadagi otlariga minib, bir lahzada g'oyib bo'lishdi. 3. Tohir qopdagi po'lat sandiqni aravakash bilan ko'tarishib uyga olib kirdi. 4. Aravakash yigit ikki kosa to'la qatiqli osh ichgandan keyin otlariga qarash uchun hovliga chiqib ketdi. 5. Tohir aravadan yuk tushirayotib, otning sag'risiga qo'li tegib ketdi. 6. Mirzoning o'zi esa tom yog'ochlariga, somon suvoqlariga aralashib, uch terak bo'yi pastga qulab ketdi. 7. Xotinlari orasida eng yoshi ulug'i va eng obro'parasti Fotima Sulton bo'lganligi uchun Mirzo birinchi bo'lib uni yuqoriga taklif qildi. 8. Qorako'z begim tashvishli yuz bilan sekin burildi-yu, ichki eshiklardan o'tib, xobgohga qaytib bordi. 9. Ikki yigit bir tor ko'chaga kirib ketishdi-yu, anchadan keyin aytilgan narsalarni olib kelishdi. 10. Besh yigit muvaffaqiyatsizlikka uchragandan ruhlari tushib, uylariga tarqaganlarida tong yorisha boshlagan edi (P.Qodirov).

Fe'lning vazifadosh shakllari

Fe'lning vazifadosh shakllari deganda fe'lning gapda ma'lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan shakllari tushuniladi. Fe'lning vazifadosh shakllari 3 xil: *sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi.*

Bu shakllarning mavjudligi uchun fe'llar gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi bo'lib kela oladi.

Sifatdosh

Sifatdosh predmetning belgisini bildiradigan fe'l shakli hisoblanadi. Ular gapda, asosan, sifatlovchi aniqlovchi bo'lib keladi.

Sifatdosh fe'lning sifatga yaqin shakli bo'lib, xuddi sifatlar kabi otga bog'lanadi va uning belgisini aniqlab keladi.

Sifatdoshlar quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

-gan (-kan, -qan). *o'qigan bola, cho'kkan kema, oqqan daryo.*

-digan, -yotgan. *keladigan mehmon, yugurayotgan kishi.*

-r, -ar (bo'lishsizi -mas). *qaytar dunyo, uchar yigit, so'nmas hayot.*
-ajak. *bo'lajak kuyov, qurilajak bino.*
-asi. *kelasi kun, kelasi zamon.*
-vchi, -uvchi. azon aytuvchi, kechira oluvchi.

Tarixiy asarlarda sifatdoshning ***-mish*** (kelmish mehmon), **-g'lik** (yasatig'lik uy, chirog'i yoqig'lik xonadon), ***-rlik*** (qorin to'ydirarlik bir kasb) kabi affikslar bilan yasalgan shakllari ham uchraydi.

Sifatdoshlar ham barcha fe'llar singari o'timli-o'timsiz, bo'lishli-bo'lishsiz va zamon ma'nosini ifodalash xususiyatiga ega: rasm chizgan qiz – o'timli, rasm chizilgan daftar – o'timsiz, o'qigan – bo'lishli, o'qimagan – bo'lishsiz, kelgan – o'tgan zamon, kelayotgan – hozirgi zamon, bo'lajak – kelasi zamon.

Sifatdoshlar ifodalagan zamon nisbiy bo'ladi. Harakatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabatini bevosita ko'rsatmaydi. Uning qaysi zamonga tegishliligi gapning kesimi orqali anglashilgan vaqtga yoki gapning umumiy mazmuni bildirgan vaqtga nisbatan belgilanadi: Topshiriqni birinchi *bajargan* (bajaradigan) o'quvchini *taqdirlayman*. Buning ustiga, mamlakatning har yeridan sen *tanimagan* (tanimaydigan) odamlardan har xil xatlar, g'alati-g'alati sovg'a *kelib turadi* (A.Qahhor).

Sifatdoshlar otlashganda otga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. *Kuygan* o'lanchi bo'lar, *suygan* – laparchi. Qizni *so'raganga* ber, qimizni *suvsaganga*.

66-mashq. Gaplarni o'qing. Sifatdoshlarni topib, namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: Choy ichayotgan Xonzoda begim shoshilib piyolasini dasturxonga qo'ydi (P.Qodirov).

ichayotgan – sifatdosh, -ayotgan qo'shimchasi yordamida yasalgan, hozirgi zamon sifatdoshi, otlashmagan, otga bog'langan va gapda aniqlovchi bo'lib kelgan.

1. Fotima Sulton yonida uyqusirab o'tirgan o'g'ilchasi Jahongir mirzoni bag'riga bosib, boshini silab qo'ydi. 2. Farg'ona vodiysiga uch tomondan hujum qilib kelayotgan shu og'ir vaziyatda Umarshayx mirzo hamma xotinlariga iloji boricha iltifot ko'rsatmoqchi bo'ldi. 3. Dasturxonga tortilayotgan kiyik kabobi, kaklik go'shtlari hazratdan so'ng Qutlug' Nigor xonimga qo'yilar, undan keyin Fotima Sultonga navbat kelar edi. 4. Shu sababli og'izda eriydigan eng a'lo go'shtlar ham Fotima Sultonga ilitma

ovqatdek mazasiz tuyulardi. 5. Ammo uning qayg'udan ezilgan ko'ngli ham tashnalikdan qiynalayotgan tani ham ko'z oldidagi bekik va dim qo'rg'ondan ko'ra, uzoqdagi daraxtzorlarni, keng, ochiq joylarni afzal ko'rardi. 6. Uning raqiblari bu ikkilanishlarni bo'lajak podshohga aytib, dorug'alik amalini tortib olishlari mumkin emasmi? 7. Bo'lajak podshohga xizmat qilish uchun to'plangan beklarning hech qaysisi Boburga hozir bir qultumgina suv kerakligini sezmas edi. 8. Birda-yarim sezganlari ham shuncha odamning oldida yosh podshohning ro'zasini ochirish musulmonchilikka to'g'ri kelmaydi, deb bunday ishni qilishdan qo'rqishar edi. 9. Quvasoydan narida – Karkidon adiridagi yov ilg'orlari yoqqan gulxanlar milt-milt qilmoqda edi (P.Qodirov).

67-mashq. –(a)r, -(u)vchi qo'shimchalari yordamida yasalgan sifatdoshlar ishtirokida bir necha gap tuzing.

Ravishdosh

Ish-harakat belgisini bildirgan, uning qay holatda, qachon va nima maqsadda bajarilishini anglatadigan fe'l shakli ***ravishdosh*** deyiladi. Ravishdoshlar fe'lga bog'lanadi va gapda asosan hol bo'lib keladi: Shu payt chorbog'dan echki ye*taklab* Dildor kirib keldi (S.Ahmad).

Ravishdoshlar quyidagi qo'shimchalar bilan hosil qilinadi:

-a, -y: *bora-bora* unutdi, *yig'lay-yig'lay* charchadi. Bo'lishsizi ***–ma*** qo'shimchasi bilan yasaladi: *aytmay, bormay.*

-b, -ib: *so'rab* ko'r, *yig'lab* yubordi, *qiynalib* qoldi. Bo'lishsizi ***–may (–mayin)*** qo'shimchasi bilan yasaladi: *so'ramay kirdi, gapirmay o'tirdi.*

Qanotini qush *qoqmayin*
Uyg'onar el polvonlari (Mirtemir).

-gach, -kach, -qach: *kelgach, kechikkach, chiqqach.* U *kelmagach* men borishga majbur bo'ldim. Nutqda bunday ravishdoshlar o'rnida *kelgandan keyin, chiqqandan keyin* tipidagi shakllar qo'llaniladi.

-gani, -kani, -qani, -gali: *maslahatlashgani* keldi, *ko'rgali* keldi. Ko'chat *ekkani* bordik. Ko'chaga *chiqqani* payt poylar edi. Bu qo'shimcha bilan yasalgan ravishdoshlar maqsad ma'nosini ifodalaydi. Gapda *uchun* ko'makchisiga sinonim bo'ladi. *O'qigani keldi - o'qish uchun keldi.* Bu qo'shimcha bilan yasalgan ravishdoshning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning bo'lishsiz shaklga ega emasligidir.

-gudek. *yetgudek, o'tgudek, yig'lagudek, yiqilgudek.*

-guncha,-kuncha, -quncha. To xo'rda suzilib *kelguncha* u bir tomonga

qiyshayib uxlab qolgan edi (S.Ahmad). Kun *oqquncha* ulgurishi lozim. Bu ko'chat meva *tukkuncha* yana qancha qovun pishadi. Aytganini *qildirmaguncha* qo'ymaydi.

Ravishdoshlar ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Payt yoki sabab ravishdoshlari. Ular ***–gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha*** qo'shimchalari bilan shakllanadi.

2. Holat ravishdoshlari -b, -ib, -a, -y, -gudek qo'shimchalari bilan yasaladi.

3. Maqsad ravishdoshlari –gani, -kani, -qani, -gali qo'shimchalari bilan yasaladi.

Ravishdoshlar ham barcha fe'llar kabi bo'lishli-bo'lishsiz, o'timli-o'timsiz, nisbat, zamon ma'nolariga ega.

chizgani - o'timli, uxlagani - o'timsiz; borgach – bo'lishli, kelmagach - bo'lishsiz. Masala o'rtaga *qo'yilgach* hamma jim bo'lib qoldi. Qo'yilgach – majhul nisbat, o'tgan zamon shakli.

Tuslanish – tuslanmasligiga ko'ra ikki xil: ***tuslanadigan ravishdoshlar***: *kelibman, kelibsan, kelibdi.*

Tuslanmaydigan ravishdoshlar: -gach, -gina, -gani, -guncha qo'shimchalari bilan yasalib, shaxs-son va zamon qo'shimchalarini olmaydi.

68- mashq. Gaplarni o'qing. Ravishdoshlarni topib, ma'nosi va yasalishini tushuntiring.

1. Ariqning musaffo tiniq suvi yovoshg'ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig'a yetkanda go'yoki, uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib qo'yar, o'z ustida o'lturgan sohiraning sihriga muxassar bo'lg'an kabi tag'i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag'ina ko'prik ostig'a oqib ketar edi (A.Qodiriy). 2. Aybnomada ko'rsatilishicha, bu uchovlon hozir ko'zlarini javdiratib o'tirishgani bilan anoyilardan emas, qo'llari xiyla egrilikka o'rganib qolgan ekan (Sh.Bo'tayev). 3. Ijod – vahdatul vujudga intilish, shu bilan birga mavjud olamdan qochish, uni inkor qilish hamdir. Biroq u olamda o'zligini topolmagani, bu olamga mos kelmagani uchungina inkor qiladi (A.Kamyu). 4. Mulozim va navkarlar qo'rqa-pisa ko'shkka yaqinlashayotganlarida marmar hovuzdan beridagi behi shoxiga qontarib qo'yilgan bo'z otga ko'zlari tushdi (P.Qodirov). 5. Qarshimizda real dunyodan aks olgan badiiy dunyo – azoblari mahshargacha cho'ziluvchi, g'am-qayg'uni hech qachon baxt-u saodatga aylanmaydigan va qismat sharobini oxirigacha sipqorishga mahkum etuvchi dunyo turibdi

(A.Kamyu). 6. Aytishlaricha, olamdan o'tayotganida ham peshonasiga shapatilay-shapatilay, yuzlarini tirkay-tirkay, faryod cheka-cheka ko'zlarini yumgan ekan (E.A'zam). 7. Odam bolasi boshiga kulfat tushguday bo'lsa, xayolga berilib «bu kulfat bulutini kim yubordi-yu, kim tashvish yomg'irini yog'dirdi», deb o'ylay boshlaydi (T.Malik).

Harakat nomi

Ish-harakat yoki holatning nomini bildiruvchi so'zlar ***harakat nomi*** deyiladi. Harakat nomlari otga xos grammatik ko'rsatkichlarni qabul qiladi va gapda otga xos sintaktik vazifalarni bajaradi. Harakat nomi quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:

1. Fe'l negiziga ***–(i)sh*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *o'tirish, chalish, yozish, kulish, so'zlashish.*

Ba'zan ***–lik*** qo'shimchasi bilan qo'llanadi: *borishlik, yurishlik.*

2. Fe'l negiziga ***–(u)v*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *o'quv, uchrashuv, kelishuv.*

Agar fe'l ***«i»*** unlisi bilan tugagan bo'lsa, ***«i» «u»***ga, ***«a»*** bilan tugagan bo'lsa, ***«a» «o»***ga aylanadi: *to'qi-to'quv, sayla-saylov.*

3. Fe'l negiziga ***–moq*** qo'shimchasini qo'shish bilan: *kesmoq, o'qimoq, yozmoq, sog'inmoq.*

Harakat nomining sanab o'tilgan uchala shakli bo'lishsizlik ko'rsatkichi ***–ma*** qo'shimchasini qabul qilmaydi. Harakat nomining bo'lishsiz shakli ***–maslik*** qo'shimchasi bilan yasaladi: *o'qimaslik, aytmaslik, kulmaslik.*

69-mashq. Gaplarni o'qing. Harakat nomlarini topib, namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: Xushaxloq, ma'naviyatning komilligiga erishmoqni maqsad qilgan kishining qalbi ozod bo'lmog'i shart (T.Malik).

Bu gapda erishmoqni, bo'lmog'i so'zlari harakat nomi hisoblanadi.

Erishmoqni – fe'l o'zagiga –moq qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan. Tushum kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan. Gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan. Bo'lmog'i – fe'l o'zagiga –moq qo'shimchasini qo'shish bilan harakat nomi hosil qilingan. –i egalik qo'shimchasini qabul qilgan. Gapda ega vazifasida kelgan.

1. Majlis ahli Mas'udxonning aytganlarini ma'qullagach, ayniqsa, moddiy masala xususida muzokaralar, tortishuvlar qizib ketdi. 2. Yana mehmon kutishini aytmaysizmi, yolg'iz boshida shuncha g'avg'o. 3. Ammo insondagi bu qobiliyat bir javohirni, uni kamolotga yetkurmak-chun

tarbiya lozim. 4. Axloqi husniyani, ayniqsa, yosh avlodimizga o'rgatmoq bizga ham farz, ham vojib. 5. Qori o'tirganlarga bir-bir nazar tashlab olgach, tag'in so'zida davom etdi: - Buning ayni vaqti-soati keldi, fursatni qo'ldan bermaslik, hushyorlik darkor. 6. Xalqni ma'rifat tomon boshlamoq bizning burchimiz. 7. - Ahvoli zamon chakki emas, – so'zida vazmin davom etdi Anvar qori. – Muvaqqat hukumat harbni davom ettirmoqda, qurol-aslahaning g'amini yemoqda. 8. Shokir otaning kampiri Risolat bibi uyda kam bo'ladi, tentirashdan bo'shamaydi. 9. - Go'zal bayt, Lutfiy hazratlarini o'qishni ham, tinglashni ham yaxshi ko'raman, – dedi Zumrad chiroyli kulib.

70-mashq. Gaplarni o'qing. Fe'llarni topib, vazifa shakllariga ko'ra guruhlarga ajratib yozing va morfologik tahlil qiling.

Kuchli iroda – faqat bir narsani xohlab, unga erishishgina emas, balki zarur bo'lganida nimadandir yuz o'girishga o'zini majbur qila bilish hamdir. Iroda, bu shunchaki istak va uning qondirilishi emas, balki u ham istak, ham qanoat, ayni choqda, voz kechish hamdir. Donolar aytibdilarki: «Qat'iy iroda yetishmagan odamda aql ham yetishmaydi». Irodasiz kimsalar qo'rqoqdirlar, madomiki qo'rqoq ekan – demak, u ojiz. Iroda faqatgina arzimas narsalarga, faqatgina qandaydir ma'nosiz narsalarga osilib oladigan bo'lsa, u qaysarlikka aylanib qoladi. Ya'ni fazilat – illatga aylanadi va boshqalar bilan munosabatda to'sqinlik qila boshlaydi (T.Malik).

71-mashq. Gaplarni o'qing. Fe'llarni topib, vazifa shakllariga ko'ra guruhlarga ajratib yozing va morfologik tahlil qiling.

Barg ustida o'rmalayotgan ipak qurti bir zumgina to'xtab, boshini ko'tardi-yu, atrofida hayot jo'sh urayotganini ko'rdi: kimdir chirillab qo'shiq aytardi, kimdir sakrab quvnardi, kimdir rohatlanib uchardi... Faqat u bechoragina ucholmasdi, qo'shiq ham aytolmasdi. Bir bargni kemirib ado qilib, ikkinchisiga o'tguncha o'z nazarida dunyoni aylanib chiqqanday bo'lardi. Biroq shunga qaramasdan u taqdiridan nolimasdi, «har kim o'z ishi bilan shug'ullanmog'i lozim», deb hisoblardi. Haftalar o'tib, o'zigai pakdan ajoyib uy to'qishganavbat yetdi.U oshiqchamulohaza qilib o'tirmay, o'ziga buyurilgan yumishni ado etishga kirishdi–atrofini ipak tolalari bilan o'rab chiqdi-da:

– Yana nima qilay?–deb so'radi.

– Sabr qil, –degan ovoz eshitildi, –hammasi o'z navbati bilan.

Vaqti kelib ipak qurti uyg'ondi u endi arang o'rmalovchi qurt emas go'zal kapalak bo'lib ko'z ochdi. O'zining ipak saroyidan chaqqonlik bilan yorug' dunyoga chiqib, chiroyli qanotlarini qoqqan holda ucha boshladi... (T.Malik)

72-mashq. Matnni o'qing. Unga nom qo'ying. Fe'llarni topib tahlil qiling.

O'rgumchak qulf tirqishiga joylashib temir saroyga ega bo'ldim, deb quvonibdi. Tirqishdan mo'ralab, reja tuza boshlabdi: «zinapoyalar orasiga to'r tashlab, pashshalarning dodini beraman. Anavi burchakka to'rlarimni tortib, semiz-semiz chivinlarni tutaman. Ostonaga to'r tashlasam, mayda qurtlar ham ilinadi...»

O'rgumchak o'z rejasidan mast bo'lib turganda oyoq tovushlari eshitilibdi. Uy egasi kelib, qulfga kalit solibdi-yu, xayolparastni ezg'ilab yuboribdi...

73-mashq. Matnni o'qing. Unga nom qo'ying. Fe'llarni topib tahlil qiling.

Har bir inson ba'zan ongli ravishda, ba'zan esa o'zi bilmagan tarzda kelajak avlod uchun yo'l ochadi. Lekin ochayotgan yo'lining qandayligini va qayoqqa yetaklab borishini bilmaydi. Biz uchun ham ajdodlar qachonlardir yo'l hozirlagandirlar. Ko'plarning nomlarini ham ochgan yo'llarini ham yillar shamoli tuproqqa ko'mib tashladi. Bizlarning oqibat taqdirlarimiz ham bundan ortiq bo'lmas. Shunday ekan, kerilish, kibrlanish, maqtanish ko'chalaridan nari yurganimiz ma'qul. (T.Malik)

Fe'llarni tahlil qilish tartibi:

1. Qanday so'roqqa javob bo'ladi?
2. Bo'lishli-bo'lishsiz shakli.
3. O'timli-o'timsiz shakli.
4. Nisbati, turi, qo'shimchasi.
5. Qaysi mayldaligi, qo'shimchasi.
6. Shaxs-son shakli.
7. Zamon ma'nosining ifodalanishi.
8. Tuzilishiga ko'ra turi.
9. Yasalishiga ko'ra turi.
10. Vazifadosh shakllarga egaligi.
11. Gapdagi vazifasi.

Namuna: Yanaoʻshanday qaygʻuli ovoz **eshitildi** (T.Qaipbergenov). Nima qildi? Boʻlishli, oʻtimsiz, majhul nisbat –il, aniqlik xabar maylida, III shaxs birlik shaklida, oʻtgan zamon, yaqin oʻtgan zamon shakli, sodda fe'l, gapda kesim vazifasida kelgan.

74-mashq. Fe'lning ma'noviy guruhlarini 6- sinf darsligidan koʻchirib yozing va misollar asosida tushuntiring.

YORDAMCHI SOʻZLAR TURKUMI

Lugʻaviy ma'no ifodalamay, mustaqil soʻzlar orasidagi grammatik munosabatni shakllantiruvchi soʻzlar ***yordamchi soʻzlar*** deyiladi. Koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklama yordamchi soʻzlar turkumini tashkil etadi.

BOGʻLOVCHILAR

Gapning uyushiq boʻlaklari va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni bogʻlaydigan yordamchi soʻzlar ***bogʻlovchilar*** deyiladi. Bogʻlovchilar grammatik jihatdan oʻzgarmaydi va mustaqil lugʻaviy ma'no anglatmaydi. Ular gapda yakka va takroriy holda qoʻllanishi mumkin.

Yakka bogʻlovchilarga *va, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, sari, toki, goʻyoki, balki, basharti, -ki, -kim, holbuki, vaholanki, garchi* kabilar kiradi.

Takroriy bogʻlovchilarga *dam-dam, ba'zan-ba'zan, ham-ham, bir-bir, yoki-yoki, yo-yo, goh-goh, xoh-xoh* kabilar kiradi.

Bogʻlovchilar gapdagi vazifasiga koʻra ikki xil boʻladi: teng bogʻlovchilar, ergashtiruvchi bogʻlovchilar.

1. Teng bogʻlovchilar gap boʻlaklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatni ifodalaydi: Kecha sokin *va* iliq edi. Hamma keldi, *biroq* Rustamdan darak yoʻq.

Teng bogʻlovchilarning quyidagi turlari mavjud:

Biriktiruv bogʻlovchilari*: va, hamda (bogʻlovchi vazifasidagi bilan koʻmakchisi, ham yuklamasi).*

Kitob *va* daftar sotib oldim.
Kitob *bilan* daftar sotib oldim.
Kitob *hamda* daftar sotib oldim.
Ham kitob, *ham* daftar sotib oldim.
Kitob, *ham* daftar sotib oldim.

***Zidlov bog'lovchilari**: ammo, lekin, biroq, balki, holbuki.*

Gapingiz to'g'ri, *lekin* masalaning boshqa tomoni bor.

Gapingiz to'g'ri, *ammo* masalaning boshqa tomoni bor.

Gapingiz to'g'ri, *biroq* masalaning boshqa tomoni bor.

Gapingiz to'g'ri, *ammo lekin* masalaning boshqa tomoni bor.

Yolg'iz o'zini emas, *balki* butun guruhni o'yladi.

U keldi, *holbuki* kelmasligi ham mumkin edi.

***Ayiruv bog'lovchilari**: yo, yoki, dam, goh, ba'zan, bir.*

Bir zo'r otash, *bir* zo'r alanga

Ikki qalbga tutashgani rost (H.Olimjon).

Goh qirda, *goh* dalada ko'rinib qolar edi. Uning qo'shig'i *dam* eshitilib, *dam* yo'q bo'lib ketar edi (S.Ahmad).

***Inkor bog'lovchisi:** -na.*

Boysunqur mirzoga o'xshaganlarda *na* unisi bor, *na* bunisi (P.Qodirov).

***2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar:** agar, basharti, chunki, go'yo, go'yoki, garchi, shuning uchun, -ki (-kim).*

Ergashtiruvchi bog'lovchilarning quyidagi turlari bor:

***Aniqlov bog'lovchisi:** -ki (-kim), ya'ni.*

Roviylar nasihat qiladilar*kim*: yo'lda qaroqchilar mavjudligini bilgan tadbirli sayyoh yolg'iz yurmaydi (T.Malik).

***Sabab bog'lovchilari:** chunki, shuning uchun, negaki.*

U ketishni istamas edi, *negaki* qishlog'ining har qarich yeri uning uchun tabarruk edi.

***Shart bog'lovchilari:** agar, agarda, basharti, garchi, mabodo.* She'riyatda *gar, garchand* shaklida ham uchraydi. Ba'zan *bordi-yu* so'zi ham bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin: Bordi-yu hayotda uchratolmasam, o'ylab xayolimda yaratardim, kel! (A.Muxtor)

***Chog'ishtiruv bog'lovchilari:** go'yo, go'yoki.*

Otabek ko'zini to'ldirib binoga qaradi, *go'yo* bu qarashda u dunyo malagi bilan vidolashar edi (A.Qodiriy).

75-mashq. Bog'lovchilarni topib vazifa va ma'nosini tushuntiring.

1. Shuning uchun Sherimbek uning otini orqaga burayotganda Bobur qarshilik qilmadi. 2. Bobur shunday paytda ota yurti Andijonni tashlab ketganini xalq bilsin, undan ixlosi qaytsin. 3. So'nggi gap Fotima Sulton bilan Qutlug' Nigor xonimga qaratilganligini hamma sezdi. 4. Biroq boyagi shirin orzular hamon xayolini to'lqinlantirib, ko'ziga uyqu qo'ndirmaydi.

5. Bobur mirzo sendan faqat ikki yoshga katta bo'lsa ham, agar mening o'rnimda qolsa, sen unga farzanddek sodiq bo'lgin. 6. Lekin u otlanib uyiga qaytayotganda sal hovuridan tushdi-yu, Uzun Hasan aytgan so'nggi gaplarda achchiq bir haqiqat borligini sezdi (P.Qodirov). 7. Chunki shohini o'zim eltib berishka ham endi hozirlanib qolg'an edim. 8. Siz uylanganda o'zingiz yoqtirib uylandingizmi yoki oradag'ilarning yoqtirishi bilanmi? 9. O'tabboyning muloqoti uchun Musulmonqul ham go'yo hech narsa ko'rmagandek o'rnidan turib uning bilan quchoqlashib ko'rishdi. 10. Mana shuning uchun mundan keyin bizning boshqa bir yo'l bilan ish ko'rmagimiz taqozo qiladilar (A.Qodiriy). 11. Chunki mehmon xon tayinlagan gapni xonning og'zidan qanday chiqqan bo'lsa, shundayligicha yetkazyapti, deb o'yladi. 12. Agar o'ng qo'lning buyrug'ini chap qo'l bajarsa, oyoq miya da'vat etgan tomonga yursa ayb bo'lmasa kerak (T.Qaipbergenov). 13. Go'yoki shuncha o'tkan gaplarga qiymat bermagandek. Men buning sirrini endi xo'b bilib oldim, deb qo'ydi. 14. Bilsangiz ham yanglish onglabsiz, chunki buning sirri siz o'ylag'oncha emas (A.Qodiriy).

76-mashq. Gaplarni o'qing. Bog'lovchilarni topib, qo'llanishiga ko'ra guruhlarga ajratib yozing va ma'nosini izohlang.

1. Shu vaqt uy ichidagi sitamgar pari o'zining sihirlik ko'zlari bilan Otabekka yana kulib qarab turar edi-da, go'yoki shu kulish bilan o'z sihrining qaysi darajalarda kuchli bo'lg'onini so'zlab faxrlanar edi. 2. Ammo siz hurmatlularga ma'lumdir, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an tuyoqimiz va ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir (A.Qodiriy). 3. Izbosar bahodir uni xafa qilmoqchi emas edi, gapini ham sira qaytarib o'rganmagan edi, shuning uchun ham ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldi. 4. Go'yo qabrlari ustiga yog'ochlar qadalgan mozor bilan siljib kelayotganga o'xshaydi (T.Qaipbergenov). 5. Lekin o'zini dadil tutishga tirishib, otliq kelayotgan Yoqubbekning qarshisidan chiqdi. 6. Ammo shahar darbozalari biz uchun biron marta ochilmadi (P.Qodirov). 7. O'shal vaqtlarda hamrohsiz uxlag'anim to'g'ri, - dedi, - chunki birovlardan butunlay umidim kesilgan, hamrohim menga hamisha umidsizlikgina berar, dahshatimnigina ortdirar edi. 8. Yaxshi, men unga shunday deb aytkan ham bo'layin, lekin shunda ham sizning xafalanishingiz menga qiziq tuyuladir (A.Qodiriy). 9. Abu Yusuf bilan Muhammad Sulton hamon fitnachilarni ovlab yurgani, ularning uylarini talab boyiyotgani, allakimlar o'q yoki tig' zarbidan jon berayotgani Zuhrabegimning ko'z oldiga keldi.

10. Agar biz shaharni yetti oy qamal qilmasak, bu baxtsizlik bo'lmasligi mumkin (P.Qodirov).

Bog'lovchilarni tahlil qilish tartibi

1. Qo'llanishiga ko'ra turi (yakka, takror).
2. Ma'no va vazifasiga ko'ra turi (teng, ergashtiruvchi).
3. Bog'lash xususiyatiga ko'ra turi (gap bo'laklarini, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni).
4. Sinonimi.

Namuna: Agar topshiriqlarni o'z vaqtida bajarsang, seni ta'tilda Buxoroga olib boraman.

Agar – bog'lovchi.

1. Yakka bog'lovchi.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchi, shart bog'lovchisi.
3. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lagan.
4. Agarda.

KO'MAKCHILAR

Ot yoki otlashgan so'zdan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish asosida birikishini ta'minlaydigan so'zlar ***ko'makchi*** deyiladi. Ko'makchilar tuslanmaydi va yasalmaydi. Gapda o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'ladi va bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi. Ko'makchilar ma'no xususiyati va kelib chiqishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Sof ko'makchilar. 2. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar.

1. Sof ko'makchilar o'z lug'aviy ma'nolarini butunlay yo'qotib, qo'llanishiga ko'ra kelishik qo'shimchalariga yaqin turadigan so'zlardir: uchun, kabi, bilan, sayin, singari, uzra, qadar, yanglig'.

2. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlarga ot, sifat, ravish va fe'l turkumidan ko'makchiga siljigan, gapda ba'zan o'z ma'nosida, ba'zan ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar kiradi. Ular: tomon, burun, ilgari, boshqa, keyin, tashqari, chamasi; sababli, tufayli, orqali, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga; qarab, qaraganda, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qarata, tortib, ko'ra; avval, so'ng, burun, beri, buyon, asosan, binoan, keyin, oldin kabi so'zlardir.

O'z lug'aviy ma'nosini qisman saqlagan, gapda ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar ko'makchi otlar deyiladi. Ularga old, orqa, huzur, yuza, haq, xusus, to'g'ri, tashqari, yon, o'rta, ket, ich, ust, tepa,

ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, tomon kabi so'zlar kiradi. Ko'makchi otlar harakat bilan predmet o'rtasidagi turli munosabatni ifodalaydi. Ular kelishik va egalik qo'shimchalarini qabul qilishi mumkin: ostida, tagidan, ustiga, oldida, orqasiga, yonidan, o'rtasi, orasi, boshi kabi. Faqat bu so'zlar gapda o'zidan oldingi so'zlar bilan qaratqich-qaralmish munosabati asosida birikib kelishi lozim. Aks holda o'rin oti hisoblanadi: ko'prik ostida, suv tagidan, ko'chaning boshida, deraza yonida kabi.

Ko'makchilarning qo'llanishi

Ko'makchilar gapdagi vazifasiga ko'ra kelishiklarga yaqin turadi. Shuning uchun ko'p hollarda kelishik qo'shimchalariga sinonim bo'ladi: avtobusda keldim – avtobus bilan keldim, ukamga oldim – ukam uchun oldim.

Nutqimizda faol qo'llanadigan ko'makchilarga quyidagilar kiradi: azbaroyi, bilan, uchun, kabi, ilgari, burun, bosh, chog'li, qadar, sayin, bo'yicha, orqa, orqali, ora, sababli, ko'ra, yon, ich, qarshi, o'rta, tomon, qarab, qaramasdan, qaramay, so'ng, boshqa, keyin, tashqari, ost, ust, tag, buyon, beri, bo'lak, o'zga, holda, asosan, doir, binoan kabi.

Ko'makchilarni qaysi kelishikdagi so'zni boshqarishiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

Bilan. Birgalik, hamkorlik, qurol-vosita, harakatning ketma-ketligi, vaqt, holat kabi ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi. Badiiy adabiyotda – la, birla, ila shakllari ham uchraydi. Masalan: Ertaga shaharga tushing, *akam bilan* so'zlashib ishni bitiramiz (Oybek). Sharofat oldida turgan *choynak bilan* uning basharasiga tushirdi (A.Qahhor). Deraza ochilishi bilan Yo'lchi boshini ko'tardi (Oybek). Siddiqjon *kechasi bilan* kiprik qoqmay chiqdi (A.Qahhor). Yo'lchi *jahl bilan* o'rnidan turdi (Oybek).

Uchun. Maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarida qo'llanadi. Badiiy adabiyotda *-chun* shakli ham uchraydi. *-gina*, *-dir* affikslari bilan qo'llanishi mumkin. Masalan: Shaharga *o'qish uchun* keldim. Darsga *qatnashgani uchun* yaxshi biladi. *Ukam uchun* oldim. *Tirishqoqligingiz uchun* mukofot.

Kabi, singari, yanglig'. O'xshatish, chog'ishtirish, qiyos ma'nolarini ifodalaydi: *Olov kabi* kuydiradi. *Otasi singari* general bo'lishni orzu qilardi. *Bahor yanglig'* dillarni yayratar edi.

Sari. Yo'nalish ma'nosini ifodalaydi. Ayrim gaplarda tomon ko'makchisiga sinonim bo'ladi: Tirishdim tog'dan oshdim, *yorug'lik sari* yo'l ochdim (maqol), yorug'lik sari – yorug'lik tomon.

Sayin ko'makchisi payt, ***orqali*** – vosita, ***chog'li, chamasi*** – taxmin, ***holda*** ko'makchisi holat ma'nosini ifodalaydi: ***Yil sayin*** ortib bormoqda. *Telefon orqali* gaplashdim. *Qirq chog'li* yigit kelishdi. *Tugun ko'targan holda* kirib keldi.

2. Jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar: tomon ko'makchisi yo'nalish, ***qadar*** – chegara, ***ko'ra*** – sabab, ta'kid, qiyos, ***qaramasdan, qaramay*** – to'siqsizlik, ***yarasha*** – moslik kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Uyga tomon* yo'l oldi. *Kechga qadar* kutdi. *Shunga ko'ra* darsdan ozod qildik. *Yomg'ir yog'ishiga qaramay* yo'lida davom etdi. *Qilmishiga yarasha* jazosini oldi.

3. chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar: so'ng, keyin, ilgari, burun, beri ko'makchilari payt ma'nosini, ***boshqa, o'zga, tashqari, bo'lak*** – mustasnolik ma'nosini ifodalaydi: *Darsdan so'ng* kutubxonaga boramiz. *O'shandan beri* uni uchratmadim. *Shundan boshqa* ishim yo'q.

4. Qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar. Asosan ko'makchi otlar qaratqich kelishigidagi so'z bilan bog'lanadi: *Ko'cha boshida* kutib oldi. *Ko'prik ostiga* kirib ketdi. *Bog' o'rtasida* joylashgan.

Uchun, bilan, kabi ko'makchilari qaratqich kelishigidagi olmoshlar bilan bog'lanishi mumkin: *shuning uchun, shuning bilan, uning kabi.*

77-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Ko'makchilarni topib, ma'no va qo'llanishiga ko'ra izohlang.

1. Biz ham jon saqlash uchun harqayonga tarqab qochsakmikin? – kinoya bilan so'radi Xo'ja Abdulla (P.Qodirov). 2. Ana undan so'ng Jahongir mirzoning taxtga o'tirishiga hech bir monelik qolmas (P.Qodirov). 3. Shundan so'ng ikkinchi dushmanni tuynukdan chiqmayoq ishini bitirdim. 4. Ba'zi ehtimollarga qarshi siz bilan ko'rishmak menga muyassar bo'lmadi. 5. Otabek Musulmonqul otini, uning yirtqichlig'ini yaxshi bilsa ham, ammo shaxsan o'zini ko'rmagan, shuning uchun xonning yonidag'i hoqong'a iltifot etmadi (A.Qodiriy). 6. Haydar bolaning yuzig'a qarab, keyin peshonasiga kaftini bosdi. 7. Jamshidni ko'mib kelishganidan beri, ayniqsa, qizi Zaynab o'zini osib qo'yganidan beri Asadbek yursa ham, tursa ham sodiq yigitini o'ylardi. 8. Ammo uning nima uchun to'q mushuk singari o'ljasini o'ynayotganiga tushunmadi (T.Malik).

Ko'makchilarni tahlil qilish tartibi

1. Turi.
2. Qaysi kelishikdagi so'zga bog'langan?
3. Qanday ma'noni ifodalagan?
4. Qaysi so'zni qaysi so'zga bog'lagan?
5. Sinonimi.

Namuna: Feruza *kuni bilan* dars tayyorladi.

Bilan sof ko'makchi, bosh kelishikdagi so'zga bog'langan, vaqt ma'nosini ifodalagan, otni fe'lga bog'lagan, bo'yi – kun bo'yi.

YUKLAMALAR

So'z yoki gaplar mazmuniga qo'shimcha ma'no berishga xizmat qiladigan yordamchi so'z va qo'shimchalar ***yuklama*** hisoblanadi. Yuklamalar nutqdagi biror so'zni ajratib ko'rsatish yoki gapga *so'roq, his-hayajon, taajjub, ta'kid, tasdiq, inkor, gumon* kabi ma'nolarni qo'shish hamda gapga tasviriylik uchun ishlatiladi. Shuningdek, qo'shma gap qismlarini, sodda gaplarda esa uyushiq bo'laklarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi.

Yuklamalar ma'no va qo'llanishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. So'roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya. Dars tayyorlading*mi*? Gapirsang-*chi,* bolam, nimadan qiynalding? Voy, biram chiroyli gul ekan-*a*! Ah, qanday so'lim kecha-*ya*! (Oybek)

2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -ku, ham, -yu, -da, -oh, -yoq, -ki, -kim, hatto, axir, nahotki, hattoki, -oq, -yoq: O'g'lim, axir pokeding-*ku,* nur kabi, evoh! (A.Oripov) Ikkimiz *ham* o'qiymiz, albatta (A.Muxtor). Tarozibon ne desa shu, ishonamiz-*da*!

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: -gina (-kina, qina), faqat, yolg'iz. *Faqat* laylak Buxoroda manguga qoldi (A.Oripov). Nazarida qoramoyga bo'yalgan ushoq*qina* bu yigit nimasi bilandir shu qushlarga o'xshardi (O'.Umarbekov). Otabek *yolg'iz* mehmonxonada yotib kun kechirish bilan*gina* qolmadi (A.Qodiriy).

4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq. Vaholanki, endi u sizni emas, o'z farzandini o'ylaydi, o'z farzandi uchun qayg'uradi, kuyib-yonadi – *xuddi* sizdek, sizning o'zingizdek (E.A'zam).

5. Gumon yuklamasi: -dir. Qayda*dir* menga ham bor balki dilband (A.Oripov).

6. Inkor yuklamasi: na-na. Uning esiga *na sevgi, na istirohat* keldi (Oybek).

Yuklamalarning tuzilishiga ko'ra turlari

Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. So'z – yuklamalar: faqat, hatto, hattoki, nahotki, chunki, axir, naq, yolg'iz, ham, na.

2. Qo'shimcha shaklidagi yuklamalar: -mi, -chi, -oq, -yoq, -gina, -dir, -ku, -da, -u, -yu, -a, -ya.

Yuklamalarning yozilishi

-mi, -oq (-yoq), -gina (-kina, -qina) kabi turlari so'zga qo'shib yoziladi: *ko'rdingmi?, bugunoq, kechagina* kabi. Qolganlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *sen-chi?, aytdim-ku!* kabi. So'z shaklidagi yuklamalar alohida yoziladi.

Yuklamalarni tahlil qilish tartibi

1. Qaysi yuklamalr ishtirok etgan?
2. Ma'no turi.
3. Tuzilishiga ko'ra turi.
4. Imlosi.
5. Sinonimi.

Namuna: Iroda *faqatgina* arzimas narsalarga, faqatgina *qandaydir* ma'nosiz narsalarga osilib oladigan bo'lsa, u qaysarlikka aylanib qoladi (T.Malik).

1. faqatgina, -dir
2. faqatgina ayiruv va ta'kid yuklamasi, -dir gumon yuklamasi.
3. so'z va qo'shimcha shaklidagi yuklamalar.
4. so'z – yuklama ayrim yoziladi, qo'shimcha shaklidagi yuklama qo'shib yoziladi.
5. faqatgina – yolg'iz, qandaydir – allaqanday.

78-mashq. Gaplarni o'qing. Yuklamalarni topib, tahlil qiling.

1. Men faqat o'zim chizgan suratga - o'z ijodimga mehr qo'yganmen, xolos! 2. Axir uning yolg'iz o'g'li, suyukli farzandi Bobur ham mana shu binolarning birida istiqomat qilyaptimi? 3. Eshiklari nafis o'ymakorliklar bilan bezangan, ichidagi oltin-kumush buyumlar ko'zni qamashtiradigan ko'shkda hozir Boburni faqat bitta xona o'ziga tortar edi. 4. Bobur endi otasini umrbod ko'rolmasligini butun vujudi bilan his qildi-yu, achchiq

judolik tuyg'usi birdan uning borlig'ini to'ldirib, ko'zlaridan yoqasiga yosh bo'lib tomdi. 5. Yo'l bo'yidagi darvozaning bir tavaqasi sekin ochildi-yu, undan katta cho'va ko'targan pakana odam chiqdi. 6. Faqat xipcha qomati va hali uncha to'lishmagan yelkalari endi o'n besh yoshga kirganini eslatib turardi. 7. Bobur bu so'zlarni shunday kuyunib, alami kelganini yashirolmay lablari titrab aytdi-ki, uning hali ham juda yosh ekanligi birdan bilinib qoldi. 8. Bobur O'shda o'zi qurdirgan kichik bir hujradan bugun qanchalik zavq olganini esladi-yu, onasi bilan opasining tilaklarini qo'llab-quvvatlagisi keldi (P.Qodirov).

79-mashq. O'zingiz o'qigan badiiy asarlardan yuklamaga misollar topib yozing.

ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR TURKUMI
MODAL SO'ZLAR

So'zlovchining o'z fikriga munosabatini ifodalagan so'zlar ***modal so'zlar*** hisoblanadi. Modal so'zlar gap mazmuniga *aniqlik, shubha, gumon, maqsad, talab, shart, mavjudlik, tasdiq, inkor, xulosa, eslatish, achinish, afsus* kabi ma'nolarni qo'shadi. Shunga ko'ra ular quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

1. Fikr aniqligini ifodalovchi modal so'zlar. Bunda fikrning rostligi *(darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda),* fikrning qat'iyligi *(shubhasiz, so'zsiz, shaksiz),* fikrga ishonch bildirish *(albatta, albat),* fikr aniqligini eslatish *(aslida, darvoqe)* kabi ma'nolar ifodalanadi.

2. Fikr noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar. Bunda fikrning taxminiyligi *(shekilli, chog'i, chamasi),* gumon *(ehtimol, balki, har holda, har qalay),* tusmol *(hoyna-hoy, aftidan, mazmuni)* kabi ma'nolar ifodalanadi.

3. Fikr tartibi va so'zlovchi munosabatini bildiruvchi modal so'zlar: *birinchidan, ikkinchidan, avvalo, xullas, binobarin, masalan, jumladan, zero, zotan* kabi.

4. Hissiy holat ma'nosini ifodalovchi modal so'zlar: *attang, ajabo, hayriyat, afsus, essiz* kabi.

5. Tasdiq, mavjudlik va mavjud emaslik ma'nolarini ifodalovchi modal so'zlar: *mayli, xo'p, bor, yo'q* kabi.

Modal so'zlarning ko'pchiligi mustaqil so'zlardan o'sib chiqqan.

Ot turkumidan: ehtimol, haqiqatan, darvoqe, darhaqiqat, rostdan, aslida, aftidan; *Sifatdan:* tabiiy; ravishdan: albatta kabi.

Modal so'zlar nutqda *yakka holda* (balki, chog'i) va *takror* holda

(albatta-albatta, essiz-essiz) qo'llanishi mumkin. Bir gapda birdan ortiq modal so'z ham ishtirok etishi mumkin: Kanizak, *aftidan*, shuni aytmoqchi emas edi *shekilli,* noiloj «ha» dedi (A.Qahhor).

80-mashq. Gaplarni o'qing. modal so'zlarni topib, ma'nosiga ko'ra turini tahlil qiling.

1. Chunonchi, uy ishlarining hammasini – to kir yuvishgacha – bolalarning o'zlari qiladilar (Cho'lpon). 2. Chunki darboza taqqillatib, otini hurkitkan Hasanalini jallodg'a topshirish niyati, albatta yo'q emas edi. 3. Taqsir ... chaqirishingiz albatta fuqaroning tinchlig'i, raoyoning rohati, hukumatning barqaror turmog'i uchundir. 4. Darhaqiqat, aqldan ozib ko'chalarda ochiq kezish va kishanga tushishning o'zi ham Zaynab uchun kichkina jazo deb hisoblanmas edi. 5. Bas, ayb qipchoqda emas, balki uning manfaati shaxsiyasi yo'lida ish ko'rguchi, boshliqlarida va qipchoqlar o'ylag'andek gunoh qora choponlarda bo'lmay, balki uning uch-to'rt ma'nisiz beklarida! ... 6. Haqiqatdan ham, shayx xalq birligi buzilmasin deb, toshbo'ron qilishga hukm etdi-yu, keyiniga o'zi ham qiyomatlik do'stim O'razan botir qaytib kelganida nima javob qilaman, deb hayron edi.

Modal so'zlarning tahlili

1. Ma'no turi.
2. Qaysi turkumdan o'sib chiqqanligi.
3. Qo'llanishiga ko'ra turi.
4. Sinonimi.
5. Gapdagi vazifasi.

Namuna: –*chindan-chindan*: mundan so'ng Toshkand bormayman, - degan javobni berar edi (A.Qodiriy).

Chindan – chindan – modal so'z.

1. Fikr aniqligini ifodalovchi modal so'z. Fikrning rostligi ta'kidlanyapti.
2. Sifatdan o'sib chiqqan: chin+dan. chin - qanday so'rog'iga javob bo'ladi.
3. Takror holda qo'llangan.
4. Rostdan, haqiqatdan.
5. Kirish so'z.

UNDOV SO'ZLAR

His-hayajon, tuyg'u, haydash – chaqirish kabi ma'nolarni ifodalab, gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so'zlar ***undov*** deyiladi: *Eh, uh, o, e, uf, voy, ura, ofarin, salom, obbo, ey, eh-he, i-i, allo, o'h ho', be, tur, hah, iyi, hormang, rahmat, alvido, hoy-hoy* kabi.

Undovlar otlashib gapda turli vazifalarda kelishi mumkin: *Voy-voyingni* bas qil! Salom qanday bo'lsa, alik ham shunday.

Undovlar ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Holat undovlari: *ie, o, voy, eh, hay-hay, o', voh-voh.* Bunda sevinch, hayratlanish, mamnunlik, g'ururlanish, ogohlantirish kabi ma'nolar ifodalanadi.

2. Xitob undovlari: *hey, hoy, allo, ey, kisht, ishsh, bah-bah, tu-tu-tu, qurey-qurey, chuh* kabi. Bunda kishilar e'tiborini tortish, parranda yoki hayvonlarni haydash, ish bajarishga undash, harakatdan to'xtatish kabi ma'nolar ifodalanadi.

3. Ko'rsatish, ta'kid undovlari: *hu, huv, hovv, ha, xo'sh, labbay.* Bunda ishora, javob, ta'kid, mulohaza, so'roq, kinoya kabi ma'nolar ifodalanadi.

Undovlar nutqda *yakka, takror* va *juft* holda qo'llanadi: *chuh, bay-bay, oh-oh, ey-voh, voy-dod* kabi.

Undovlar gapning boshida, o'rtasida va oxirida kela oladi. Gap mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'lsa ham, grammatik jihatdan bog'lanmagan bo'ladi. Undovlar ayrim holda so'z-gap shaklida qo'llana oladi: Salom! Xayr. Ofarin!

Undovlarni tahlil qilish tartibi

1. Ma'no turi.
2. Qo'llanishiga ko'ra turi.
3. Otlashgan-otlashmaganligi.
4. Gap mazmuni bilan aloqasi va qo'llanish o'rni.
5. Sinonimi.
6. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *Oh,* bevafo dunyo! (P.Qodirov)

1. Holat undovi. Afsuslanish ma'nosini ifodalagan.
2. Yakka holda qo'llangan.
3. Otlashmagan.
4. Gap mazmuniga mos. Gapning boshida kelgan.
5. Eh.
6. Kirish so'z.

TAQLID SO'ZLAR

Turli tovush yoki harakat-holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar ***taqlid so'zlar*** deyiladi. Ma'nosiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Tovushga taqlid: *qars-qars, gumbur-gumbur, chug'ur-chug'ur, taq-tuq, g'arch-g'urch* kabi.

2. Harakat-holatga taqlid: *apil-tapil, milt-milt, g'uj-g'uj, yalt-yult* kabi.

Qo'llanishiga ko'ra *yakka, juft* va *takror* holda bo'ladi: *pirr, g'ovur-g'uvur, qalt-qalt* kabi.

Taqlid so'zlar gapda *hol, aniqlovchi* vazifasida kelishi mumkin: Ko'zidan *duv-duv (hol)* yosh to'kardi. Uzoqdan *g'ovur-g'uvur (aniqlovchi)* ovozlar kela boshladi.

Taqlid so'zlar otlashganda otga xos vazifalarni bajara oladi: Shivir-shivirni bas qiling.

Taqlid so'zlarni tahlil qilish tartibi:

1. Ma'no turi.
2. Qo'llanishiga ko'ra turi.
3. Otlashgan – otlashmaganligi.
4. Gapdagi vazifasi.

Namuna: Uzoqdan *duk-duk* ovoz kelardi.

Duk-duk – taqlid so'z.

1. Tovushga taqlid. Jonsiz, qattiq jismlar tovushiga taqlid.
2. Takror holda qo'llangan. Tovushning davomiyligini, takrorlanib turishini anglatadi.
3. Otlashmagan.
4. Aniqlovchi vazifasida kelgan.

81-mashq. Gaplarni o'qing. Taqlidiy so'zlarni topib ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratib yozing va to'liq tahlil qiling.

1. Mashriq tomon bilinar-bilinmas oqara boshlagan, lekin osmon hanuz g'uj-g'uj yulduzlarga to'la edi. 2. Urgut tog'laridan g'ir-g'ir shabada esib turgan, ilk bahor oqshomi edi. 3. Xurshida bonu shahzodaning sarak-sarak qilgan boshi, dir-dir titragan uzun nimjon gavdasi esiga tushdi-yu tirnoqlarigacha zirqirab ketdi. 4. Ali Qushchi nechundir yuragi gurs-gurs urib, qoyaga tirmashdi. 5. Shamol kuchayib, bulutlar tarqagan, osmon g'uj-g'uj yulduzlarga to'lib ketgan edi. 6. Uning iyagi qandaydir osilib

qolgan, tishlari bir-biriga tegmay shaq-shaq qilar, dir-dir titragan nogiron, qoqsuyak vujudi, yonib turgan ko'zlari shunday vahimali va ayanchli ediki, Mirzo Abdullatif qilichini mahkam ushlaganicha, beixtiyor orqaga tisarildi. 7. Mavlono Muhiddin, go'yo bu noxush xabardan ezilib ketayotganday, boshini yelkalari orasiga olib, g'ujanak bo'lib o'tirardi. 8. Bog'da, tog' etagidagi xushbo'y archazorlarda shoxlari qulochga sig'maydigan oq arxarlar, o'ynoqi kiyikchalar, ko'zlari ma'sum ohular gala-gala bo'lib yurardi. 9. Ichkarida gurs-gurs oyoq tovushi eshitildi. Sal o'tmay eshik qiyg'och ochilib, beliga qilich osgan qora barzangi yigit ko'rindi. 10. Atrofda turganlarning tillari tanglaylariga yopishib, yuraklari gup-gup ura boshladi. 11. Amir Jondor barvasta gavdasiga mos tushmagan bir chaqqonlik bilan apil-tapil o'rnidan turib, bosh egdi. 12. Shunda Ulug'bek yana boyagiday yuragi gup-gup urib, javob berdi. 13. Mirzo Ulug'bek yaqinlashayotgan oyoq tovushini eshitib ko'zini ochdi, ochdi-yu tubsiz osmon qa'rida, tez uchib o'tayotgan qora bulutlar orasida milt-milt yongan yulduzlarni ko'rdi. 14. Yomg'irda cho'milgan ko'm-ko'k barra maysalar g'ir-g'ir esgan tong shabadasida mayin chayqalar, go'yo ipakday tovlanib, kishining ruhini erkalar edi (O.Yoqubov).

SINTAKSIS

Sintaksis yunoncha so'z bo'lib *«tuzish, qo'shish»* degan ma'nolarni ifodalaydi. Shunga ko'ra bu bo'limda gap tarkibidagi so'zlarning bir-biriga qo'shilishi natijasidagi sintaktik birliklarning tabiati, bir so'zning boshqa bir so'z bilan sintaktik munosabatga kirishish usullari, vositalari, so'zlarning bir-biriga qo'shilishidan hosil bo'lgan so'z birikmalari va ularning turlari, gap bo'laklari va ularning turlari, gap va uning boshqa sintaktik birliklardan farqi, gapning turlari kabi masalalar o'rganiladi.

Ma'lumki, grammatika ikki qismdan iborat bo'lib, sintaksis shu ikki qismning biri hisoblanadi. Grammatikada o'rganiladigan yana bir qismi morfologiya bo'lib, u so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan birliklarni emas, gap tarkibida ishtirok etgan har bir so'zni alohida-alohida olib, uning qaysi belgilariga ko'ra qanday so'z turkumiga oidligini, grammatik ma'no va grammatik shakllar, shular orasidagi aloqadorlik natijasida yuzaga kelgan grammatik kategoriyalar, so'zlarni turkumlarga ajratish prinsiplari, har bir so'z turkumining o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlarini o'rganadi.

Grammatikaning bu har ikki bo'limi bir-biri bilan chambarchas

bog'liqdir. Misol: *Biz halollikni doim ardoqlaymiz.* Bu gap sintaktik tahlil qilinganda quyidagilarni aniqlaymiz: a) unda ega *(biz)* va kesim *(ardoqlaymiz)*, to'ldiruvchi *(halollikni)* va payt holi *(doim)* ishtirok etgan; b) unda 3 ta tobe birikma bo'lib, ularning bittasi *(biz ardoqlaymiz)* gapga teng bo'lgan predikativ birikma, ikkitasi esa *(halollikni ardoqlaymiz, doim ardoqlaymiz)*, so'z birikmasi bo'lib ular orasida boshqaruv va bitishuv aloqasi mavjud; v) bu gapda 4 ta gap bo'laklaridan: bosh bo'laklar *(Biz ardoqlaymiz)* va ikkinchi darajali bo'laklar *(halollikni* - to'ldiruvchi, *doim* - hol)dan tashkil topgan; g) gapda so'zlarni tutashtiruvchi, sintaktik aloqani hosil qiluvchi grammatik vositalar (tushum kelishigi affiksi -ni va shaxs-son qo'shimchasi – -ymiz) ishtirok etgan; d) sodda ikki sostavli gap. Morfologik tahlil qilinganda, quyidagilarga ahamiyat beriladi:

a) *Biz* so'zi – I shaxs, ko'plikdagi kishilik olmoshi bosh kelishikda; b) halollikni so'zi – sifat *(halol)*dan yasovchi qo'shimcha (-lik) yordamida ot yasalgan, tushum kelishigi affiksi (-ni) ni qabul qilgan; v) *doim* so'zi - holat (tarz) ravishi; g) *ardoqlaymiz* so'zi – ot (ardoq)dan so'z yasovchi affiks –la orqali fe'l yasalgan, -y ravishdosh affiksi, -miz tuslovchi (shaxs-son zamon ko'rsatkichi).

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, sintaksis gap haqidagi, uning tarkibidagi gap bo'laklari va so'z birikmalari, sintaktik aloqa va uning vositalarini o'rgansa, morfologiya so'z turkumlari ularning grammatik xususiyatlari kabi masalalarni o'rganadi.

1- mashq. Yuqoridagi bayon etilganlar va maktabda olgan bilimlaringiz asosida berilgan misollardagi gaplarni grammatik, ya'ni avval morfologik, keyin sintaktik tahlil qiling.

1. Bo'zto'rg'ayning ovoziday mayin, xushyoqim kuy olis-olislarga tarqalib, dasht yana ham kengayib yorishib ketganday bo'ldi (O.Yoqubov). 2. U ko'klam shabadasida mastona bosh chayqaydi (T.Malik). 3. Osmonda bahor quyoshi erkalanib jilmayadi (T.Malik) 4. Vatan onaning allasi taralgan, beshigining izlari chizilgan zamin (T.Sodiqova). 5. Bizning maktab daryo bo'yiga joylashgan. 6. Hozir odam uchun nomusdan qimmatli narsa yo'q. 7. Inson uchun eng muqaddas fazilatlardan biri- va'daga amal qilish. 8. Giyohlar shitirlaydi, shamol chodirni silkitadi (S.Ahmad). 9. Eshik oldida beshta ot qator turar edi (A.Qahhor). 10. Mehnat qilsang rohat ko'rasan (Maqol). 11. Usmon ota diydor ko'rishish ishtiyoqida sabri tugab, otiga qamchi bosdi (A.Qahhor).

Gapdagi so'zlar ma'lum grammatik qonun-qoida asosida bir-biri bilan birikib so'z qo'shilmasini hosil qiladi. Bunday qo'shilish natijasida ***so'z birikmasi*** va ***gap*** tashkil topadi.

So'z birikmasi tushuncha ifodalaydigan gapning tarkibiy qismi sanaladi. ***Gap*** esa fikr ifodalaydigan bir yoki bir necha so'z birikmalarining grammatik jihatdan birikuvidan tuziladigan sintaktik birlikdir.

So'zlarning bir-biri bilan qo'shilib birikma hosil qilishi uchun ularning semantik-grammatik tomonlari mos bo'lishi kerak. Masalan: sifat ot bilan birika oladi (*go'zal vatan, ilg'or kishilar, chiroyli bino* kabi), ot fe'l bilan birika oladi (*uydan keldi, kitobni o'qidi, sayohatga ketdi* kabi). Son ot bilan birikishi mumkin (*uchta bola, beshinchi sinf, o'ntacha kitob* kabi), olmosh ot bilan birikadi (*shu uy, o'sha odamlar, qanday voqea* kabi), ravish fe'l bilan birikadi (*tez gapirdi, ko'p ishladim, ertaroq keldi* kabi) va hokazo.

Gapda so'zlarni biriktirib, ma'lum sintaktik aloqani hosil qilishda sintaktik vositalar ishtirok etadi. Ya'ni gapni hosil qiluvchi so'zlar bir-biri bilan birikib so'z birikmasi va gap hosil qilishi uchun ularni biriktiruvchi vositalar ishtirok etadi. Bunday vositalar vazifasida eng asosiylari egalik, kelishik affikslari, tuslovchilar, ayrim yordamchi so'zlar (ko'makchi va yuklamalar) kela oladi. Masalan, *Men Vatanimni umr bo'yi ardoqlayman, unga jon-dilim bilan xizmat qilaman* gapida ega (*men*) bilan kesimni (*ardoqlayman, xizmat qilaman*) ni bir-biriga bog'lash vazifasida shaxs-son, zamon qo'shimchalari – tuslovchilar (-yman, -aman), to'ldiruvchini (*Vatanimni*) kesimlarga bog'lash uchun I shaxs birlikdagi egalik (-im) affiksi va tushum kelishigi qo'shimchasi (-ni), hollarni kesim bilan bog'lashda ko'makchilar (*bo'yi, bilan*) ishtirok etib, so'z birikmalari va gap hosil qilingan.

Bulardan tashqari gapda so'zlar orasidagi sintaktik aloqani vujudga keltirishda tartib va intonatsiya ma'lum darajada rol o'ynaydi. Bular Yuqoridagi asosiy vositalar ishtirok etmaganda qo'llanib, gapning mazmuni va grammatik xolatini o'zgarishiga ta'sir etadi. Masalan: *Yetti kun – bir hafta, bir* hafta – *yetti kun*. Demak, bu xil holatda tartibning o'zgarishi grammatik holatni o'zgartiradi.

Bu - uy (ega+kesim). *Bu uy...* (aniqlovchi aniqlanmish) so'z birikmasi – ya'ni oldingi misolda tugallangan ohang (intonatsiya) bilan aytilib *gap* hosil qilindi, keyingisida esa tugallanmagan ohang bilan aytilib gap emas, so'z birikmasi (aniqlovchili birikma) hosil qilindi.

Gapda so'zlarni biriktiruvchi asosiy sintaktik vositalar (egalik, kelishik

affikslari va tuslovchilar, shuningdek, yordamchi so'zlar) ishtirok etmaganda tartib va ohang asosiy rolni bajaradi.

2- mashq. Berilgan matndagi so'zlarni biriktiruvchi asosiy vositalar – egalik, kelishik affikslari va tuslovchilarni aniqlab, ularni o'zlari bog'lanadigan so'zlari bilan birga birikma holida ajratib yozing. Bularning qaysilari *ega kesim* munosabatini ko'rsatuvchi gap ekanligini, boshqalarini esa so'z birikmasi ekanligini ko'rsating.

Avval Rais buva bilan boyagi suhbatdoshi, ulardan keyin Sherzod ichkari kirdi. Xonada o'n-o'n ikki kishi o'tirar, kabinet jihozlari oddiy edi. Devorga viloyat xaritasi ilib qo'yilgan edi. Sherzod stol to'rida o'tirgan kishini darrov tanidi. Kulcha yuzlarida dehqoncha sodda bir ifoda aks etib turgan, doim do'ppi kiyib yuradigan bu yigitni u ilgari ham uch-to'rt bor ko'rgan, ammo gaplashmagan edi.

... Majlisda eng avval qisqa yengli katak-katak ko'ylak kiygan semiz bir kishi so'z oldi. Sherzod avvaliga e'tibor bermagan ekan. O'rnida turganidan keyin uni tanidi. Sherzod bu odamni dala shiyponida Rais buva bilan birga ko'rgandi. Xona salqin bo'lishiga qaramay, bu kishi qizarib, bo'zarib ketgan, kattakon ro'molchasi bilan hadeb yuzlarini, yo'g'on bo'ynini ishqalab–ishqalab qo'yardi. (O'.Hoshimov, «Nurli dunyo»).

3- mashq. O'zingiz mustaqil holda egalik va kelishik affikslari orqali birikkan qo'shimchaga uchta misol toping. Fe'l kesimli gaplarga ham uchta misol topib, tuslovchilarning biriktiruvchi vosita bo'lib kelganini tushuntiring.

4- mashq. Biriktiruvchi vosita sifatida ko'makchilar ishtirok etgan gapga ikkita misol, tartibning o'zgarishi bilan grammatik holat o'zgargan gaplarga ikkita, intonatsiyaning o'zgarishi natijasida grammatik holat o'zgargan gaplarga ham ikkita misol topib, uni tushuntiring.

TENGLANISH VA TOBELANISH

Gapda so'zlar bir-biri bilan tenglanish yoki tobelanish orqali sintaktik aloqaga kirishadi. ***Tenglanish*** orqali birikadigan birikmalar tarkibidagi so'zlar teng huquqli bo'ladi, ya'ni biri ikkinchisiga tobelanmaydi. Ular tenglanish ohangi bilan aytiladi. Tenglanish, asosan, uyushiq bo'laklar

va bog'langan qo'shma gapning qismlari orasida bo'ladi. Misol: *Biz do'stlikni, hallollikni va rostgo'ylikni qadrlaymiz*. Bu gapdagi uchta vositasiz to'ldiruvchi (*do'stlikni, hallollikni* va *rostgo'ylikni*) o'zaro tenglanish munosabatida birikkan, ular bir xil so'roqqa javob bo'lib keladi va o'zlari tobelanib kelgan hokim so'zga (fe'l kesim - *qadrlaymiz* so'ziga) teng holda bog'lanib keladi. Buni chizmada quyidagicha berish mumkin.



Tobelanish orqali birikadigan birikmalarda uning tarkibidagi so'zlar biri ikkinchisiga tobelanib, ergashib keladi. Ya'ni bunday birikmalar tarkibida tobe so'z (ergash so'z) va hokim so'z (bosh so'z) mavjud bo'lib, tobe so'z doim hokim so'zga tobelanib keladi.

Yuqoridagi chizmada oltita birikma bo'lib, ularning birinchisida ega va kesim orasida tobelanish aloqasi mavjud bo'lib, so'z birikmasini emas, predikativ birikmani tashkil qilgan. Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi birikmalar tobelanishli birikma bo'lib, ular to'ldiruvchi kesim munosabatini ko'rsatib, so'z birikmasini hosil qilgan. Beshinchi va oltinchi birikmalar (uyushgan to'ldiruvchilar) esa o'zaro tenglanish munosabatida birikkan. Ular so'z birikmasi hisoblanmaydi.

Tobelanishda uch xil sintaktik aloqa mavjud. *Moslashuv, boshqaruv va bitishuv* aloqalari. Ega bilan kesim va qaratqich bilan qaralmish birikmasini tashkil qilgan so'zlar bir-biri bilan shaxs va songa ko'ra mos bo'ladi. Bular tarkibidagi sintaktik aloqa ***moslashuv*** hisoblanadi. Misol: *Biz quvondik* (ega +kesim)

Talabalarning fikrlari (qaratqich+qaralmish). Misollarning birinchisida ega I shaxs ko'plikda kelgani uchun ham kesim I shaxs ko'plikda qo'llangan. Ikkinchisida qaralmish (fikrlari) III shaxs ko'plikda, qaratqich ham III shaxs ko'plikda kelgan. Ya'ni birikma tarkibidagi so'zlar shaxs, songa ko'ra biri ikkinchisi bilan moslashgan.

Boshqaruv aloqasida hokim so'z (ko'pincha fe'l va uning shakllari) talabiga ko'ra tobe so'z (to'ldiruvchi, ba'zan hol) ma'lum shaklda keladi. Ya'ni hokim so'z tobe so'zni boshqaradi, uni ma'lum shaklda kelishini talab qiladi Misol: *Kitobni o'qimoq, she'rni yodlamoq, ishlarni bitirmoq, ishga gapirmoq, Dilbardan so'ramoq* kabi.

Misollardan ko'rinadiki, boshqaruv aloqasidagi tobe so'zlar tushum, chiqish, o'rin-payt va jo'nalish kelishiklari affiksini olib hokim so'z (fe'l kesim) bilan boshqaruv aloqasida birikkan. Ba'zan boshqaruv ko'makchili ham bo'ladi: *Talabalar bilan uchrashmoq, ukasi uchun olmoq* kabi.

Bitishuv aloqasi tarkibidagi so'zlar orasida moslik ham bo'lmaydi, bir so'z boshqa so'z tomonidan boshqarilmaydi ham. Bunday birikmalar sifatlovchi va sifatlanish, hol va kesim munosabatini ko'rsatadi. Bitishuv aloqasida sifat+ot (*yaxshi odat, muloyim so'z*), son+ot (*o'nta talaba, birinchi uy)*, olmosh+ot (*shu uy, qaysi maktab*), ravish+ot (*ko'p so'z, oz miqdor*), taqlidiy so'z+ot *(g'ir-g'ir shamol, taqir-tuqir ovoz*) ravish+fe'l (*sekin yurmoq, tez ishlamoq*), sifat+fe'l (*yaxshi o'qimoq, qo'pol gapirmoq)* ravishdosh+fe'l (*kulib so'zlamoq, turtinib yurmoq*) kabi qolipda so'zlar sintaktik aloqaga kirishadi.

5- **mashq.** Berilgan misollardagi moslashuv aloqasidagi birikmalarni aniqlang. Ular qaysi jihatdan moslashganligini tushuntiring.

1. O'ttizinchi yillarda u hayotga tashna, butun vujudini she'riyat sehri qamrab olgan, olam ko'zlariga alvon ranglarga chulg'anib ko'ringan, dunyo tiniq, shaffof nurlardan iborat bo'lib tuyulgan shoir bola edi (S.Ahmad). 2. Bu mehribon, qayg'ungga qayg'udosh odamga Polvonning mehri tushib qolgandi (S.Ahmad). 3. Ko'tarma mashinalarning narvonli maydonchasi ustiga chiqib olgan kishilar binolarning devorini oqlashardi (O'.Hoshimov). 4. Sherzodning kirib kelishi sartaroshga yoqmadi (O'.Hoshimov). 5. Saidiyning shu kungi suhbatdan olgan taassuroti shu bo'ldi (A.Qahhor). 6. Markaziy gazetalarda yer islohotiga tayyorgarlik ishining boshlangani, uning borishi to'g'risida xabarlar bosilar, ularning ichida yoshlarning she'rlari, ocherklar ham ko'rinar edi (A.Qahhor) 7. Cho'lpon xayolidan shularni o'tkazdi-yu, bexosdan ko'zi yana o'sha yigitga

tushdi (M.Qoriyev). 8. Sovuq kunlarning birida hammamiz yig'ilib hovuz ustida, muzda to'polon bilan sirg'anar edik (Oybek). 9. Bahorda o'riklar, shaftolilar, olcha-olxo'rilar xilma-xil nafis gullarga tantana ila burkanmoqda (Oybek).

6- mashq. Matndagi boshqaruv aloqasidagi birikmalarni aniqlang. Ular qanday shaklda boshqarilayotgani va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini tushuntiring.

Kishi o'z onasini nima uchun yaxshi ko'rishini bilmaydi. O'z onasi bo'lgani uchun yaxshi ko'radi. Kishi o'z onasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni ham yaxshi payqamaydi. E'tibor bermaydi bunga. O'zingiz yashab turgan shahar ham, shunaqa. Siz uni nima uchun yaxshi ko'rishingizni bilmaysiz, ammo qattiq yaxshi ko'rasiz. Uning qiyofasida bo'layotgan o'zgarishlarga ko'pdan diqqat qilavermaysiz. Negaki, ular sizning ko'z o'ngingizda ro'y beradi. Siz ularni ko'raverib ko'nikib ketasiz. Ammo vaqti kelib bir bahona bilan to'satdan diqqat qilib nazar tashlaysiz-u, qanchadan-qancha o'zgarishlar bo'lib o'tganini, siz bo'lsangiz shuncha paytdan buyon ularni sezmay yurganingizni o'ylab, hayron qolasiz.

Sherzod avtobus derazasidan qarab borarkan, hozir to'satdan shuni his qildi. (O'.Hoshimov).

7- mashq. O'zingiz biror badiiy asardan ega va kesim orasidagi moslashuv va qaratqich-qaralmish orasidagi moslashuvga uchtadan misol toping va ularni to'liq izohlab bering.

8- mashq. O'zbek xalq maqollari bo'yicha bitishuv aloqasiga kirishadigan birikmalar ishtirok etgan gaplarga beshta misol toping va uni to'liq izohlab bering.

9- mashq. Berilgan matndagi bitishuv aloqasiga kirishgan birikmalarni ajratib ko'chiring. Ular qanday so'z turkumlari va qaysi xil gap bo'laklari orasida ekanligini tushuntiring.

Inson bamisoli bitta mashina, mashinaning sarf qilingan quvvatni foydali ishga aylantirish qobiliyati turlichadir. Inson ham insonga foyda keltirish qobiliyati turlicha. Fan mashinalarning shu qobiliyatini orttirishga, ya'ni sarf qilingan quvvatdan iloji boricha ko'proq foyda chiqarishga uringanday, tarbiya ham insonning jamiyatga foyda yetkazish qobiliyatini

ishirishga urinadi. Fan hali sarf qilingan butun quvvatini isrofsiz foydali ishga aylantiradigan mashina topolgani yo'q, ammo tarbiya buni topdi. Yer yuzida shunday tarbiya borki, bu tarbiyani ko'rgan kishi kuch va umrini samarasiz, xudbinlik natijasi bo'lgan ishlarga sarf qilmaydi (A.Qahhor).

SO'Z BIRIKMASI

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning tobelanish asosida birikishidan tuzilgan sintaktik birlik ***so'z birikmasi*** hisoblanadi.

So'z birikmasi tarkibida ***hokim so'z*** va ***tobe so'z*** mavjud bo'lib, tobe so'z hokim so'zga ergashib keladi. Yuqorida aytilganidek, so'z birikmasi gapning tarkibidagi qismlari hisoblanadi.

So'z birikmalari hokim so'zning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. ***Otli birikmada*** hokim so'z ot bilan, tobe so'z turli so'z turkumlari bilan ifodalanadi: *yaxshi so'z* (sifat+ot), *universitetning talabalari* (ot+ot), *bizning shahrimiz* (olmosh+ot), *uchinchi uy* (son+ot), *aytilgan so'z* (sifatdosh+ot), *dukur-dukur ovoz* (taqlidiy so'z+ot), *oz so'z* (ravish+ot) kabi.

2. ***Fe'lli birikmada*** esa, hokim so'z fe'l va uning shakllari, tobe so'z esa turli so'z turkumlari bilan ifodalanadi: *uydan kelmoq* (ot+fe'l), *yaxshi gapirmoq* (sifat+fe'l), *undan so'ramoq* (olmosh+fe'l), *tez yurmoq* (ravish+fe'l), *faxrlanib so'zlamoq* (ravishdosh+fe'l), *tapir-tupir ishlamoq* (taqlidiy so'z+'fe'l) kabi.

O'zbek tilida *bizdan yosh, mendan kuchli, hammadan tez* kabi ravish yoki sifatli birikmalar ham mavjud.

10- mashq. Keltirilgan matndagi otli birikmalarni aniqlang, tobe qismlarning qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini belgilang. Matndagi boshqaruv aloqasiga kirgan so'z birikmalarini tagiga chizing.

Bu yo'llar g'oyat go'zal, maftunkor. Bugun ertalabdan quyosh chiqib, qir-adirlardagi qorlarni eritib yubordi. Yerdan bug' ko'tarilib, navbahor hidi anqib qoldi. Ikki otliq qir oralig'idagi yolg'iz oyoq yo'ldan oldinkeyin shitob bilan ketishmoqda. Oldinda ketayotgan uzunbo'yli, qaddibasti kelishgan, sabza mo'ylovli bu yigitni Cho'lpon kuni kecha choyxona yonidagi maydonda ko'rgan, uzoqda bo'lsa ham, har holda, tanishib qolgandi. Taqdirni qarangki, kelib-kelib, kuyovnikiga eltib qo'yish shu

yigitning zimmasiga tushibdi. Bo'lmasa qancha askar yigitlar bor. Cho'lpon shunga ham shukur qildi, har holda bu yigitni o'sha kuni majlis bo'lgan joyda ko'rib qolgan, ko'zi-ko'ziga tushgan. Shu boisdan unga bir oz bo'lsa ham yaqin bo'lib qolgandek. (M.Qoriyev «Qiz uzatib borganda»).

11- mashq. Keltirilgan misollardagi fe'lli birikmalarni ajratib yozing va tobe so'z qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini belgilang. Moslashuv aloqasidagi birikmalarni tagiga chizing.

1. Endi ular kitoblarda, shoirlarning nazmida, bastakorlarning dilini o'rtovchi kuylarida qolgan (S.Ahmad). 2. Bu qissa adibning adolatsizlikka, zo'ravonlikka, qonunsizlikka qarshi ko'targan isyoni edi (S.Ahmad). 3. Akam dadamning, oyimning, kelinoyim, jiyanlarimning nomidan qizg'in duoyi salom yo'llabdi (O'.Hoshimov). 4. Bobom cho'p-xashak, kunjaralarni vaqtida g'amlab qo'yar ekanlar (Oybek). 5. Bahor keladi. Suvlar sharqirab, ariqlarga to'lib oqadi. Samoda atlasday yongan bulutlar kezadi (Oybek). 6. Saidiy hujrasiga yarim kechada yetib keldi (A.Qahhor). 7. Saidiyning shu kungi suhbatdan olgan taassuroti shu bo'ldi (A.Qahhor). 8. Bir mahal u Abduvohidning ko'z ochganini ichki bir his bilan his qildi-yu, uyg'onib ketdi (O'.Hoshimov).

So'z birikmalari tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **Sodda birikma** va **murakkab birikmalar**.

Sodda birikma ikki mustaqil so'zdan tuziladi: *Yaxshi niyat, kelajak avlod, ko'm-ko'k osmon, aniq fikrlamoq* kabi.

Murakkab birikma esa, uch yoki undan ortiq mustaqil so'zlardan tashkil topib, uning tarkibidagi so'zlar orasida sintaktik aloqa mavjud bo'ladi. Murakkab birikmalar sodda birikmalarning kengayishidan hosil bo'ladi. Masalan: *Navoiy g'azal mulkining sultonidir.* Bu gapdagi birikmalar quyidagicha tahlil qilinadi:



Chizmadan ko'rinadiki, berilgan gapda Navoiy so'zi ega vazifasida kelgan. Kesim esa murakkab birikmadan tuzilgan. Ya'ni *Navoiy* so'zi uchun *sultonidir* so'zini yoki *mulkining sultonidir* so'zlarini kesim deb olib ega va kesimni birikma deb olsak mazmun to'liq anglashilmaydi. *Navoiy g'azal mulkining sultonidir* deb olsakgina mazmun to'liq anglashiladi. Demak, kesim vazifasidagi uchta mustaqil so'z o'zaro ma'lum sintaktik aloqaga kirishgan holda (aniqlovchi+ «aniqlanmish» aniqlovchi aniqlanmish) murakkab birikmani tashkil qilgan va murakkab kesim vazifasida kelgan.

12- mashq. Keltirilgan misollardan sodda birikmalarni ajratib ko'chiring. Ularning otli birikma yoki fe'lli birikma ekanligini aniqlang.

1. Xiyobon chetidagi terak shoxlari bahor yomg'irining jonbaxsh kuyiga mast bo'lib, muloyim chayqaladi. Namxush havoda qish uyqusini tark etgan tuproqning mayin isi ohista qanot qoqadi (O'.Hoshimov). 2. Murodxo'ja domla bularning hammasini Saidiyga aytdi (A.Qahhor) 3. Qorong'i tushib qolgani uchun yigitga minnatdorchilik bildirib uyga qaytdik (Oybek). 4. Mulozimlar va qo'riqchilar kutilmagan falokatdan vahimaga tushib orqaga qochdilar (P.Qodirov). 5. Boburning mana shu, qonunni butunlay inkor etuvchi uslub bilan asar yozgani Xondamirga shakkoklikdek tuyuldi (P.Qodirov). 6. Ayollarni hovli etagidagi xonaga, erkaklarni kiraverishdagi mehmonxonaga olib kirishdi. (S.Ahmad.)

13- mashq. Berilgan gaplardagi murakkab birikmalarni aniqlang. Ularning qanday gap bo'laklaridan tashkil topganligini ko'rsating.

1. Ma'naviy barkamollik buyuklikning aynan o'zidir. 2. Navoiy g'azal mulkining sultonidir. 3. Odat edi bizlarga, Bog' o'stirish, gul ekish. 4. Kitobxonning ko'nglini topa bilish oson ish emas. 5. Dilda borini tilda bayon eta bilish ham katta san'atdir. 6. Ko'p kulish dilni o'ldiradi (maqol). 7. Bizning vatandan ayrilishimiz daryoning o'zanini yo'qotib, dashtu biyobonga toshib chiqib ketishiga o'xshaydi (P.Qodirov.) 8. Xazonrezlik payti. Hirot bog'lariga suv beradigan O'iriyrud daryosi va Injil anhorining qirg'oqlariga za'faron yaproqlar to'kilgan. (P.Qodirov).

14- mashq. Badiiy asardan beshta otli birikmaga, beshta fe'lli birikmaga misol topib yozing. Ulardagi sintaktik aloqaga kirituvchi vositalarni (egalik, kelishik, tuslovchilar yoki ko'makchi so'zlarni) aniqlang.

15- mashq. Maqollar misolida beshta murakkab birikmaga misol topib tahlil qiling.

Namuna: Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.

Tagiga chizilgan birikma to'ldiruvchi sifatdosh (fe'l shakli) murakkab birikma bo'lib, birikmali ega vazifasida kelgan.

GAP

Gap grammatik jihatdan tashkil topgan, tarkibidagi qismlar bir yaxlit holda kelgan, mazmun va intonatsion butunlikka ega bo'lgan sintaktik birlik bo'lib, u fikr, tuyg'u va istakni boshqalarga bildirish uchun qo'llanadi.

Har bir gap grammatika qoidalariga muvofiq shakllanadi.

Gapning muhim belgisi uning grammatik-intonatsion va fikriy jihatdan bir butunlikka, tugallikka ega bo'lishdir.

Gaplarning tasnifi quyidagicha:

1. Gaplarning kuzatilgan maqsadga ko'ra turlari: *darak gap, so'roq gap, buyruq gap.*
2. Gaplarning tuzilish jihatdan turlari: *sodda gap, qo'shma gap.*
3. Gaplarning modallikka ko'ra turlari: *tasdiq gap va inkor gap.*
4. Gaplarning emotsionallikka ko'ra turlari: *his-hayajonli gap (undov gap), his-hayajonsiz gap.*
5. Gaplarning tarkibiga ko'ra turlari: *bir sostavli gaplar, ikki sostavli gaplar.*

16- mashq. Matndagi sodda gaplarni ajrating, ular tarkibidagi so'z birikmalarini belgilang va moslashuv aloqasidagi birikmalarni ko'rsating.

Majlis tamom bo'lib, kishilar bir-biriga so'z ma'qullab, bir-biri bilan urushib, tarqala boshladi. Saidiy hamon o'tirar edi. Jamol Karimiy uning yonidan ko'zi bilan salom berib, o'tib ketdi. Abbosxon prezidium stoli yoniga o'tirdi. Uni yaxshi kiyingan alla narsasiga mag'rur bo'lgan bir necha kishi o'rab oldi. Yana bir qancha yoshlar ulardan uzoqroqda, xuddi birovning osh eganiga qarab turgan ochlarday, mo'ltillashib o'tirardi. Qayerdandir Jamol Karimiy paydo bo'lib, Abbosxonga bir quti papiros uzatdi. Abbosxon go'yo ko'p mol bilan kelgan va ko'ngliga yoqadigan kishilarga arzonroq narxda mol bera oladigan katta savdogar, uning atrofini o'rab olganlar esa eski, yangi do'kondorlar... Saidiy bu yerga kelganiga pushaymon bo'lib chiqib ketdi (A.Qahhor).

17- **mashq.** Matndagi darak gaplarni belgilab, undagi boshqaruv aloqasidagi birikmalarni ko'rsating. Murakkab so'z birikmalari qanday vazifada kelganligini ayting.

Bahor kelib, oftobning iliq nurlari yelkani qizitadigan kunlar bo'lib qolgan edi. Bodom tagida o'tirib varrak yasashga tushdim. O'rikning yelimi qog'ozga yopishsa qamishga yopishmaydi, qamishga yopishsa qog'ozga... Burnimni tortib-tortib urinib yotibman. Oyim nariroqda tagiga po'stak tashlab, kir yuvyapti. Dadam «kambag'al kiyim» deb aka-ukalarga chiyduxoba shim olib bergan. Chiyduxoba aslida yaxshi narsa-yu, chillak o'ynagandami, koptok tepgandami, bir dumalasang, ora-orasiga loy kirib ketishi yomon... Xullas, oyim unisini olib, bunisini qo'yib shimlarni yuvar, har siltab ishqaganda jomashovdan ko'pik sachrar, atrofni sovun hidi tutib ketgan edi (O'.Hoshimov «Dunyoning ishlari».)

GAPLARNING KUZATILGAN MAQSADGA KO'RA TURLARI

So'zlovchi o'z fikrini turlicha maqsad bilan turli shaklda bayon qiladi. U bir xil mazmun ifodalangan bitta gapni uch xil shaklda – yo xabar berish, yo o'zi uchun noma'lum bo'lgan narsa, voqea-hodisani so'rab aniqlash yoki biror ish-harakatni bajarishga tashviq qilish, buyurish yo'li bilan fikrini bayon qiladi. Misol: *Bugun yig'ilishda barcha talabalar ishtirok etdi.* Shu gapni so'zlovchi uch xil shaklda bayon etishi mumkin:

1. Bugun yig'ilishda barcha talabalar ishtirok etdi.
2. Bugun yig'ilishda barcha talabalar ishtirok etdimi?
3. Bugun yig'ilishda barcha talabalar ishtirok etsin!

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, so'zlovchi bir xil mazmun ifodalagan gapni xabar qilish yo'li bilan (birinchi misol), noma'lum bo'lgan narsani so'rab aniqlash uchun (ikkinchi misol) va ma'lum ish-harakat, voqea-hodisaning bajarilishiga tashviq qilish, buyurish (uchinchi misol) maqsadida o'z fikrini bayon etgan.

Gaplar kuzatilgan maqsadga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Darak gaplar.
2. So'roq gaplar.
3. Buyruq gaplar.

Darak gaplar

Gapning bu turi biror voqea-hodisa, haqida xabar berish, ish-harakatning mavjud emasligi yoki belgini tasdiqlash uchun ishlatiladi. Darak gaplarda biror voqea-hodisa haqida xabar berish bilan birga taxmin, gumon yoki istak mazmuni ham bayon etiladi. Misol: *Ilg'or kishilarga mukofotlar berishdi* (xabar berish mazmuni anglashilgan). *Universitet talabalarini ham taqdirlashsa kerak* (gumon, taxmin mazmuni ifodalangan). *Hammamiz o'z fikr-mulohazalarimizni ochiq bayon etsak edi* (istak, orzu mazmuni ifodalangan). *Anjumanda uchta ma'ruza tinglanar emish* (taxmin, eshitilganlik mazmuni ifodalangan).

18- mashq. Berilgan gaplarning orasidan darak gaplarni ajratib, undagi turli xil modal ma'nolarni tushuntirib bering. Otli so'z birikmalarini ajratib ko'rsating.

1. Baquvvat, semiz qorabayir ot qo'shilgan aravaga yozgi qizil olma ortilgan (Oybek). 2. Bir to'da o'rtoqlarim, har kundagi kabi yig'ilishib, Shayhontoxurga ketishdi (Oybek). 3. Oy nuriga ters o'tirgani uchun uning yuzida ko'zida qandoq, ifoda kasb etayotganini bilmasdim (S.Ahmad). 4. Insonning jasoratga, xayrli ishlarga yetaklaydigan shu emasmi?! (S.Ahmad). 5.Afzalxon akam anchagacha cho'kkalab o'tirdi-da, sekin qaddini rostladi (O'.Hoshimov). 6. Yigit hayron edi: «Buning husnigina emas, hatto kiygan kiyimi mo'jiza-ku, nega mening otimni biladi, nega yana o'zini past olgan tovush bilan so'raydi (A.Qahhor). 7. Kiyimidan yigit ko'proq studentga o'xshar edi (A.Qahhor).

19- mashq. O'zingiz mustaqil ravishda yozuvchi Odil Yoqubov asarlaridan darak gaplarga misollar to'plang. Tenglanish munosabatidagi bo'laklar ishtirok etgan gaplarga beshta misol toping.

Darak gaplar quyidagi belgilariga ko'ra gapning boshqa turlaridan farqlanadi: darak gaplarning fe'l kesimlari ko'pincha aniqlik maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.

Darak gaplar oxirida intonatsiya (ohang) pasayadi. Misol: Samandarov qamchi dastasi bilan kanal tomonni ko'rsatdi. (A.Qahhor). Hammamiz Navro'z bayramini munosib kutib olish uchun tayyorlana boshladik.

20- mashq. Matndagi darak gaplarni ajratib ulardagi fe'l kesimlarning shakllanishiga ahamiyat bering.

Sherzod eshik pardani siltab tortdi-da, ichkari kirdi. Katalakdek tor xona to'rida ingichka stol turar, stolga kattakon toshoyna tik qilib qo'yilgandi. Oynada bo'yniga oq fartuk tutilgan cho'qqisoqol cholning aksi ko'rinardi. Oppoq xalat kiyib olgan sartarosh hadeb suv ho'llab cholning boshini ishqalardi.

Sherzod salom berib, ostonadagi eski stolga cho'kdi. Sartarosh unga qiyo boqmay, «Valey» deb qo'ydi-da, cholning boshini ishqalashda davom etdi (O'.Hoshimov).

So'roq gaplar

So'roq gap so'zlovchiga noma'lum bo'lgan biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar bilish, ma'lumotni olish maqsadida ishlatiladi. So'roq gaplarning javob talab qilinmaydigan, so'roq bildirmaydigan turlari ham bor. Misol:

1. Bayram tantanalarida ishtirok etasizmi?
2. Dengiz safarini siz ham yaxshi ko'rasizmi?
3. Nega buncha go'zal ko'rinar olam?
   Nega qarab to'ymas ko'zlarim?
   Nega tush ko'radi, ko'piradi qon?
   Nega misday qizir yuzlarim?
4. Paranji ichida borgan Ra'noni tanish uchun hech kimda karomat yo'q, ayamga nega ishonib bo'lmasin? (A.Qodiriy).

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida so'roqqa javob talab qilinadi. Keyingi ikkita misoldagi so'roq gaplarga javob talab qilinmaydi.

So'roq gaplarda ba'zan so'roq bilan birga taajjub (*Meni tanimayapsizmi?*), buyruq (*Tezroq gapirsangizchi*), shubha yoki gumon (*Hamma yig'ilgandir-a?, Bu kishi o'qituvchi bo'lsa kerak-a?*) kabi ma'nolar anglashilishi mumkin.

So'roq gaplarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Ular quyidagilardan iborat:

1. So'roq gaplarda kim?, nima?, qachon?, nega?, qayerda? kabi so'roq olmoshlari ishtirok qiladi. Misol: Siz ko'proq kimni hurmat qilasiz? Nimani eshityapsiz? Nega ertaroq kelmadingiz?

2. So'roq gaplarda ***–mi, -chi, -a (-ya)*** kabi so'roq yuklamalari ishtirok etishi mumkin. Misol:

- *Berilgan vazifani o'z vaqtida bajara olasizmi?*
- *O'zingiz-chi?*

Ertaga hammamiz soat 9 da shu yerga to'planishimiz kerak-a?

3. So'roq gaplar so'roq intonatsiyasi bilan aytiladi. Ko'pincha intonatsiya so'roq elementlarida ko'tariladi. Misol: *Kim mashg'ulotdan kechikdi? Mashg'ulotdan kim kechikdi? Mashg'ulotdan kechikkan kim?*

Har uchta misoldagi so'roq intonatsiyasini (ohangning ko'tarilishi) chizig'i bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin:



So'roq gaplar yuqorida sanab o'tilgan so'roq elementlarisiz – faqat so'roq intonatsiyasi bilan ham hosil bo'ladi. Misol: *Ertaga hamma yig'iladi* (darak gap) *Ertaga hamma yig'iladi?* (so'roq gap)

21- mashq. Matnda berilgan so'roq gaplarning ajratib yozing. Ular tarkibida qaysi xil so'roq elementlari ishtirok etganligini belilang.

Saidiy eski tanishi Sharifni ko'rib, xuddi ko'rinish berishdan qo'rqib, qochib yurgan odamiga duch kelganday, yuragi «shuv» etib ketdi. Sharif esa u bilan do'stlarcha ko'rishdi.

-Xo'sh, o'rtoq Saidiy, Ehsondan hech xat olasizmi? Noinsof, bizni tamom unutib yubordi, shekilli.

-Ancha bo'ldi xat olganim yo'q. Xat yozay desam adresini yo'qotib qo'yibman.

Sharif kulib tegishdi:

-Xayriyat, otini esdan chiqarmabsiz-a?

-Qishloqqa o'zingiz ham chiqasizmi? - dedi Saidiy gapni chalg'itish uchun.

-Chiqamiz, hech qanday uzrimiz yo'q.

Saidiy, «uzrimiz yo'q» degandan «sening uzring bo'lsa ayt, olib qolay» degan ma'no angladi-da, sekin:

-Bir hafta qishloqda yurib kelsam bu yil kursda qolaman, -dedi.

-Nega?

-Juda qoloqman.

-Qaysi fanlardan?

-Asosiy fanlarning hammasidan (A.Qahhor)

22- mashq. Keltirilgan misollar ichida javob talab qilmaydigan so'roq gaplarni ajrating.

1. Men eng avval vafodor odamni, nomusli odamni baxtli deyman. (Said Ahmad) 2. Men hazratimni nechun uyg'otdim, xonim aya? U

kishiga kelgan ajal meni olsa bo'lmasmidi? O'sha kelgan ajal meni olsa bo'lmasmidi? O'sha jardan men qulasam bo'lmasmidi? (P.Qodirov) 3. U hammadan oldinda toshdan toshga yengil ko'tarilib borar, goh onasiga, goh opasiga yuqoridan qo'l cho'zib yordamlashib qo'yardi. (P.Qodirov). 4. Nechun indamaysiz? Yo bu yerda ko'nglingiz og'ridimi, bonu?! (O.Yoqubov). 5. Yuragimning eng chuqur joylarida izzatini ardoqlab yurgan kishilarim shu bo'ldimi? (O.Yoqubov). 6. Qani, kim e'tiroz qila oladi?(O'.Umarbekov). 7. Men uning holatidan nimadir ichini kuydirayotganini, birovga aytmasa tanasi kuyib ketadigan darajada ekanini bilib turardim. (S.Ahmad). 8. Nahotki, hech kim ularni ko'rmadi. (U.Umarbekov).

23- mashq. Berilgan darak gaplarni so'roq gapga aylantiring. So'roq gap hosil qiluvchi elementlarni belgilang.

1. Odamlar ularning inlari og'ziga non ushoqlari, har xil don-dunlarni sochib qo'yadilar (S.Ahmad). 2. Bundan bir necha soat oldingi hayoti, chorbog'ning musaffo havosi, zilol suvli hovuz, salqin ko'shk, betashvish damlar - hammasi birdan uzoq o'tmishga aylangan edi (P.Qodirov). 3. Kechki o'n bir – bu hali juda kech, bitta ham odam bu yerdan o'tmaydi (O'.Umarbekov). 4. Shom qorasida Majiddin xizmatdan uyga qaytdi (Oybek). 5. Dalaga yoyilgan otlarning kishnashlari, yigitlarning qo'shiqlari endi quloqlarda boshqacha yangraydi (O'.Hoshimov). 6. Qish qanday sekin-sekin kelgan bo'lsa, shunday sekinlik bilan chiqib ketdi.

24- mashq. Yozuvchi Said Ahmad asarlari bo'yicha so'roq gaplarga o'nta misol to'plang va uni tahlil qiling.

Buyruq gaplar

Buyruq gaplarda so'zlovchi tinglovchini biror ish-harakatni bajarishga qistaydi, buyuradi, istak bildiradi, tashviq qiladi, nasihat qiladi. Misol: *Bizdan xabar olib turing. Chiqib ketishimizga ijozat bering. Safar anjomlaringizni tezroq yig'ishtirib qo'ysangiz-chi. Biz ham keta qolaylik.*

Buyruq gaplarning o'ziga xos belgilari quyidagicha:

1. Buyruq gaplardagi fe'l kesimlar, asosan, buyruq maylidagi fe'llar (ayrim vaqtda shart mayli shaklidagi fe'llar) orqali ifodalanadi. Misol: *Belgilangan vazifalarni bajarishga tezroq kirishinglar. Biz ham Samarqandni ziyorat qilishga borsak edi.*

2. Buyruq gaplarda ba'zan undalmalar ishtirok etadi. Misol: *Talabalar, safar anjomlarini tayyorlab qo'ying. Bu xushxabar hammaga yetkazilsin.*

3. Buyruq gaplar oxirida intonatsiya darak gaplarga nisbatan kuchliroq bo'ladi.

25- mashq. Matndagi buyruq gaplarni ajratib ko'chiring. Uning qanday mazmun ifodalaganini izohlang.

Ehson ta'bi xiraroq bo'lib o'tirgan ekan, o'z holatini shuncha bildirmaslikka urinmasin, baribir Saidiy sezdi. Tag'in Saidiy boshqa o'ylarga bormasin deb, Ehson buning sababini ayta qoldi...

Ehson bu haqda Saidiyga ko'p so'zlamadi, chunki professor bilan uchrashib, shu to'g'rida so'zlashganidan beri tajang, asabi buzilgan, endi Saidiy bilan boshqa to'g'rilarda so'zlashib bir oz yozilishni xohlar edi.

- Gapiring, Rahimjon, gapiring... Aytganday, xizmatchingizdan xabar olib turibsizmi? Xabardor bo'lib turing.

- Xabar olib turibmiz.

Ehson stol ustidagi bir kitobchani Saidiyning oldiga surdi.

- Buni ko'rdingizmi? O'qib chiqing. (A.Qahhor.)

26- mashq. Misollardagi gaplarni kuzatilgan maqsadga ko'ra qanday gap ekanligini ayting va u gaplarning o'ziga xos belgilarini tushuntiring.

1. Hozir o'zida paydo bo'lgan noxushlikni yo'qotish maqsadida Rayimjon aka bilan suhbatlashmoqchi bo'ldi (O'.No'mon) 2. Fitir ro'za bahonasi bilan Saodat uchun sakkiz tepki xon atlas, onasi bilan ukasiga bo'z ko'ynak qilib, Saodatlarning uyiga o'zim chaqirib bordim (A.Qodiriy.) 3. Bordi-yu so'rasam, yo'q demaysizmi? (S.Ahmad.) 4. Bobo, nega egilib yurasiz? Nimani izlaysiz? 5. Aytishlaricha, kapalak vafoni bilmagani uchun guldan-gulga qo'naverar ekan. 6. Shu-shu bo'ldi-yu, Sodiqjon yana o'z to'piga qo'shilish, shularning ketidan borish taraddudiga tushdi (A.Qahhor). 7. Tepamizda eski, uniqib ketgan chit ko'ylakda Munavvar turar edi (O'.Hoshimov). 8. Yoshlik! Seni kuylamagan kim?Ertaklaring so'ylamagan kim? (E.Vohidov.) 9. Qismati azalni manglayga yozib, o'zing yana nechun qilasan so'roq? (Ch.Aytmatov.) 10. Yellar, bir daqiqa to'xtang esishdan, sernavo bulbullar, sayramang bir oz. (E.Vohidov).

27- mashq. Yozuvchi A.Qodiriy asarlari bo'yicha gaplarning kuzatilgan maqsadga ko'ra har uch turiga beshtadan misol toping va u gaplarning o'ziga xos belgilarini tushuntiring.

GAPLARNING HIS-HAYAJONGA KO'RA TURLARI

Gaplarning yuqorida ko'rib o'tilgan har uch turini ba'zan his-hayajon bilan, ba'zan esa his-hayajonsiz aytish mumkin. Masalan: *Mashina qo'zg'aldi* – darak gap. *Mashina qo'zg'aldi!* – undov gap. *Meni eshitmayapsizmi?* – so'roq gap. *Meni eshitmayapsizmi!* – undov gap. *Bu yerdan keting* – buyruq gap. *Keting bu yerdan !* – undov gap.

Keltirilgan misollarda darak, so'roq va buyruq gaplar hayajon bilan aytilib undov gapga (his-hayajonli gapga) aylandi. Undov gaplarda shodlik, qo'rqinch, tantana, do'q qilish nafratlanish kabi turli holatlar ifodalanadi. Misol: Gulla, yashna, hur o'lkam! Bolam, jon bolam, o'zingni ehtiyot qil... Xo'pmi, jon bolam! Tushunding-a?! (A.Qodiriy).

- Qo'y, qizim, siqilma!

Nahotki, o'n-o'n besh minutlik suhbat uchun vaqt topish shunchalik qiyin bo'lsa! (J.Abdullaxonov).

Undov gaplar quyidagi xususiyatlarga ega: 1. Ba'zan tarkibida *eh, oh, voy* kabi undov so'zlar ishtirok etadi: Eh, bahor qanday go'zal fasl! 2. Undov gaplar kuchli intonatsiya bilan aytiladi! Marhabo, Navro'z! Gulla, yashna, hur o'lkam! 3. Undov gaplarda gap bo'laklarining tartibi o'zgargan bo'ladi. Yani inversiya hodisasi uchraydi: Yashasin Mustaqillik! Abadiy bo'lsin Mustaqilligimiz!

28- mashq. Matndagi undov gaplarni ajratib yozing. Undagi fe'l kesimlarning qanday shakllanganligini izohlab bering.

Kechqurun otam hujraga kirishi bilan xunob bo'lib qichqirdi:

- Soatga kim tegdi?

- Hech kim kirgani yo'q-ku!- dedi onam hayron bo'lib.

Hammasini sochib tashlabdi-ku!-dedi otam jahl bilan chiqib keldi. Qo'lida biz «tuzatgan» soat. – Mili yo'q. Egasiga nima deyman!

Ukam ikkalamiz churq etmay mo'ltirab o'tiribmiz. Yaxshi hamki akalarimiz ko'chada. Bo'lmasa, hamma ayb o'shalarga tushishi aniq...

- Ketaman! – dedi u ovozini baralla qo'yib, - u qo'ymasa mana men qo'ydim! Ketaman! Ketgandayam uyini vayron qilib ketaman!

Tushundim. Bundan chiqdi, kelinoyi eri bilan urishgan. Uyida sal janjal chiqsa, albatta, oyisinikiga «ketadigan» bo'ladi (O'. Hoshimov).

29- mashq. Tarkibida undov so'zlar ishtirok etgan undov gaplarni ajratib ko'rsating.

1. Na yaxshilik, na yomonlikni bilgan bunday telbaga xizmat qilmoq o'ta ketgan nodonlikdir! (O.Yoqubov). 2. U salkam yigirma besh yil tuprog'ini yalab o'tgan Ulug'bek madrasasi bilan vidolashar edi. O, salkam yigirma besh yil! (O.Yoqubov). 3. Tovba, sira kattalarga o'xshamaysiz-a, shundoq odam o'zimizga o'xshab jo'ngina gaplashasiz-a! (S.Ahmad). 4. Eha, hali gap bu yoqda degin! (S.Ahmad). 5. Qishloqdan chiqib ketganimga, ehhe, qancha bo'ldi? (O'.Hoshimov). 6. Til tegizma kitobga! - dedi domla. 7. Peshonangizga yozib qo'ying, uka! Ilm kishisi avvalambor odam bo'lmog'i kerak, ana undan keyin olim! (A.Qahhor.) 8. – Yangi kasb qulluq bo'lsin boyvachcha!- dedi O'rmonjon (A.Qahhor.) 9. Hoy, noinsof, sizga gapirayapman! (Shuhrat).

30- mashq. Matndagi gaplar oxiriga lozim bo'lgan tinish belgilarini qo'yib, ular kuzatilgan maqsadga ko'ra qanday gap ekanligini tushuntiring.

Yoqubjon miyig'ida kulib qo'ydi:

-Otdan tushsangiz ham, uzangidan tushmaysiz-a, domla...

-Tushunmadim uka...

-Yo'q endi aytaman-da... foydasi yo'q... bo'rining yesa ham og'zi qon, yemasa ham...

Saidiy Yoqubjonning bu gapini tushuntirib berdi Salohiddin o'ylanib turib, dedi.

-Agar masala siz aytgancha bo'lsa, albatta, munofiqlik bo'lar edi. Bunday emas. Men bayroq ostiga zo'r kelganidan o'tganim yo'q. Bu bayroq mash'al bo'lib, saodati abadiya yo'lini yoritdi. Turli yaltiroq pardalarni yirtib, uning ostidagi kir niyatlarni ko'rsatdi. Haqiqatni ko'rdim. Mana shuning uchun o'tdim.

Saidiy go'yo Salohiddinga emas, o'ziga gapirganday, kesatib do'ng'illadi.

- Har holda negadir beaqlroq ziyolilar siz ko'rgan haqiqatni ko'rolmaydi.

-Injenerlar ham ziyoli hisoblanadimi – dedi Yoqubjon Saidiyga qarab.

Salohiddin bularning nima demoqchi ekanini bildi, ammo muddaosini anglay olmas edi.

-Shaxta voqeasini aytmoqchisiz, shekilli – dedi Salohiddin. –Albatta, ular dono ziyolilar, aqlli ziyolilar (A.Qahhor).

30- mashq. O'zingiz yozuvchi O'.Hoshimov asarlari bo'yicha undov gaplarga beshta misol toping.

GAPLARNING MODALLIKKA KO'RA TURLARI

Gaplarning kuzatilgan maqsadga ko'ra har uch turida (darak gap, so'roq gap va buyruq gaplarda) so'zlovchi biror voqea-hodisaning sodir bo'lgani mavjud ekanligini yo tasdiqlash orqali yoki inkor etish orqali bayon qiladi. Ya'ni gaplar bo'lishlikni yoki bo'lishsizlikni bildiradi.

Shunga ko'ra gaplar ikki turga ajratiladi:

1. Tasdiq gaplar;

2. Inkor gaplar.

Tasdiq gaplar ma'lum voqea-hodisaning sodir bo'lganini, belgining mavjud ekanligini bildiradi. Bunday gaplarning kesimlari bo'lishli shaklda keladi.

Misol: *Yaxshilik – insonning eng yaxshi fazilati. Kamtarlik insonning eng yaxshi fazilatidir. Kitob bilim manbayi ekanligini biling. Vaqtingizni foydali ishlarga sarflang.*

Inkor gaplar esa ma'lum voqea-hodisaning mavjud emasligini bildiradi. Inkor gaplar tarkibida *hech kim, hech narsa, hech qachon* kabi bo'lishsiz olmoshlar ishtirok etishi mumkin. Misol: *Bizda hech kim hech qachon unutilmaydi.*

Inkor gaplarning kesimlari tarkibida bo'lishsizlikni ifodalovchi ***–ma*** affiksi, ***emas*** so'zi va ***yo'q*** so'zi ishtirok etadi. Misol: *Ota-bobolarimiz o'gitlarini hech qachon unutmaymiz. Ukam yalqov emas. Shu kitobni o'qib chiqqanim yo'q.*

31- mashq. Matndagi inkor gaplarni ajratib ko'chiring. Ularning tasdiq gap shaklini og'zaki bayon eting. Shuningdek, tasdiq gaplarni inkor gapga aylantiring.

Bugun ham tong saharda yomg'ir quya boshladi. Havoning avzoyiga qaraganda hali-veri tinadiganga o'xshamasdi, ammo bu yer-u ko'kni toliqtiradigan ezma yomg'ir emas, ko'klam nafasining qanotiga osilib kelgan mayin, iliq tomchilar edi. Sherzod eshikka yelkasini tiragancha hovlini tomosha qildi. Yomg'ir tinimsiz shovillar, sementi ko'chgan zinaning shundoqqina yonidagi zang bosgan tunuka tarnovdan loyqa suv otilib chiqar, asfalt yo'lkada ilang-bilang sarg'ish iz qoldirib, nariroqdagi ariqchaga qo'yilar, shiddatli oqimga qo'shilib ketardi. Ariqcha qirg'oqlarida

endigina olamga kelib, ko'z ochgan maysalar atrofida ro'y berayotgan voqealarga hayratlanib tikilardi (O'.Hoshimov «Nur borki, soya bor»).

32- mashq. Berilgan misollar tarkibida ***–yo'q, -ma*** affiksi, ***-emas*** so'zi ishtirok etgan gaplarni ajratib, ularni qanday gap tarkibida kelganini tushuntirib bering.

1. Shu paytgacha polvonning bir so'zi ikki bo'lgan emas (S.Ahmad.) 2. Tasodif ham, anglashilmovchilik ham bo'lgani yo'q (A.Qahhor). 3. Shu gapni yuzimga aytishdan toymadi. 4. Uning ko'zlarida na mung, na hayrat bor (S.Ahmad). 5. Yomg'ir uzoq vaqt shiddat bilan yoqqan bo'lsa ham, yerlar unchalik loy bo'lmadi. 6. Men ikki yil birga o'qigan dugonamni ko'p izladim, lekin topa olmadim. 7. Hozir biz ishlarni boshlab yuborish qaroriga kelganimizcha yo'q. 8. Bizda manmanlik odati yo'q.

33- mashq. Yozuvchi A.Qahhor asarlari bo'yicha bo'lishsiz olmoshlar ishtirok etgan inkor gaplarga beshta misol topib, ularni tahlil qilib bering.

GAP BO'LAKLARI

Gapda mustaqil so'zlar bir-biri bilan bog'lanib ma'lum bir grammatik vazifani bajaradi. Yordamchi so'zlar gap bo'lagi bo'la olmaydi. Masalan: *Ko'chaning o'rtasida haykal bor. Hovlimizning yoniga maktab qurilgan.* Yuqoridagi misollarda qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelgan *o'rtasida, yoniga* so'zlari ko'makchi ot bo'lgani uchun ularni alohida *o'rtasida, yoniga* shaklida olib gap bo'lagi deya olmaymiz. Bu so'zlar o'zidan oldingi ***ko'chaning, hovlimizning*** so'zlari bilan birga - *ko'chaning o'rtasida, hovlimizning yoniga* shaklida qo'llanib bitta gap bo'lagi bo'ladi va qayerda, qayerga so'roqlariga javob bo'ladi. Qolgan so'zlar esa, turli gap bo'laklari vazifasini bajarib kelgan.

Har qaysi gap bo'lagi ma'lum grammatik vazifani bajaradi. Yani ular turli gap bo'laklari bo'lib keladi.

Gap bo'laklari vazifasiga ko'ra bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar deb ikki guruhga bo'linadi.

Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil qiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlaydi, to'ldiradi yoki izohlaydi. Misol: *Abdulla Qodiriyning asarlarini hamma sevib o'qiydi.*

Keltirilgan misolda gapning barcha bo'laklari mavjud (*hamma* – ega,

o'qiydi – *kesim, Abdulla Qodiriyning* – aniqlovchi, *asarlarini* - to'ldiruvchi, *sevib* - hol).

Gapning bosh bo'laklariga ega va kesim, ikkinchi darajali bo'laklariga aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol kiradi.

Ega va uning ifodalanishi

Ega harakatni bajaruvchi shaxsni bildiradi. Gapda kesim fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanganda, kesimdan anglashilgan jinsning turini ifodalaydi. Misol: *Men* Toshkentda yashayman. *Suv tiniq. Daraxtlar* ko'm-ko'k. *Onam - terimchi. Biz talabamiz.*

Ega doim kesim bilan shaxs va sonda mos bo'ladi. Masalan: *Men o'qidim* (*Men o'qiding* yoki *men o'qidik emas*). Ega, asosan, bosh kelishik shaklida keladi. Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan : *Milliy his* – Vatan oldidagi mas'uliyatdir. (Shukrullo) *Dilbar* o'qishga ketishga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

2. Olmosh bilan: *Men* dengiz safarini juda yaxshi ko'raman. U ariq ustidagi taxta ko'prikchadan yugurib o'tdi. (O'.Hoshimov)

3. Son bilan : *Ikkovi* xonadan chiqib ketishdi. Ularning *biri* o'qituvchi, *ikkinchisi* esa shifokor ekan.

4. Sifat bilan: *Yaxshilar* ko'paysin, *yomon* qolmasin.

5. Sifatdosh bilan : *O'qigan* o'zar, *o'qimagan* to'zar (Maqol).

6. Harakat nomi bilan: *Yurish foydalidir. Ishlamoq ishtaha ochar. O'qimoq ulg'aymoqdir* va hokazo.

34- mashq. Matndagi egalarni aniqlang, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ko'rsating.

U o'zini tarbiya va kengashga munosib darajaga ko'tarish uchun juda ko'p kitoblar o'qiydi, bir necha oy ichida ikki yuzdan ortiq badiiy asarlarni o'z ichiga olgan kutubxonaga ega bo'ldi; bulardan ko'pini o'qigan, qolganlarini ham o'qish uchun har bir bo'sh minutdan foydalangan edi. Ammo Saidiy hafta sayin jurnalning oxirgi sahifasida o'z ismini «bosilmaydi» bezagi bilan ko'raverganidan so'ng, yozuvchi bo'lish uchun o'zining tutgan yo'li to'g'ri ekaniga shubhalana boshladi. Bir kuni u «balki asarim bosilishiga muvofiq bo'lsa ham, qalam haqi to'lashga arzimas, shuning uchun boshqarma qaytarar» degan o'yga borib, so'nggi yuborgan asarlarining ustiga «gonorarsiz» deb yoza boshladi. Bundan ham natija chiqmadi-hamon o'sha, sira o'zgarmaydigan quyma javob chiqishda davom etdi.. (A.Qahhor).

35- mashq. Nuqtalar o'rniga o'zingiz ega vazifasida kelishi lozim so'zlarni qo'yib, ularning qanday so'z turkumiga oid ekanligini tushuntirib bering.

1. Bir kuni Munisxondan ... keldi. 2) Bu ... Saidiyning yozishga bo'lgan ishtiyoqini yangiladi. 3) ... qo'lidagi jurnal ichidan bir varaq qog'ozni olib Abbosxonga uzatdi. 4) ... uni avval tanimadim. 5) ... bu ishni qilmang, keyin pushaymon bo'lasiz. 6) ... O'zbekistonning eng chiroyli va obod shaharlaridan biri. 7) ... Sizga tarjima qilinadigan besh-oltita maqola tayyorlab qo'ydim. 8) ... oldin musht ko'tarar. 9) ... tariq ekmas. 10) ... topib gapirar, ... qopib gapirar. 11) Kasalni yashirsang, ... oshkora qiladi.

36- mashq. A.Qahhor hikoyalaridan ot bilan ifodalangan ega ishtirok etgan gapga 3 ta misol, olmosh ega bo'lib kelgan gapga 3 ta, sifatdosh ega bo'lib kelgan gapga 2 ta misol toping va uni izohlab bering.

Eganing birikmali qo'llanishi. Ega bir so'z bilan ifodalanganidek, ba'zan ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning birikuvidan hosil bo'lgan birikma orqali ifodalanishi mumkin. Bunday birikmali bo'laklar o'z ichida ma'lum sintaktik aloqa mavjud bo'ladi. Masalan: *1. Ma'naviy barkamollik buyuklikning aynan o'zidir.* 2. *Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.* 3. *Inson orzularining amaliy manbayi mehnatdir.* Berilgan har uchala misolda ega birikmali holda kelib, birinchi gapda aniqlovchi+aniqlanmish; ikkinchi gapda to'ldiruvchi+sifatdosh («kesim» vazifasida), uchinchi gapda aniqlovchi+aniqlovchi + aniqlovchi + aniqlanmish tipidagi sintaktik aloqalar mavjud.

37- mashq. Matndagi bir so'z bilan ifodalangan egalarni aniqlang. Birikmali egalar tarkibidagi sintaktik aloqani ko'rsating.

Tagida mashinasi bor student ko'p emas. Tez orada Sirojiddin tanilib qoldi. Qizlar o'rtasida ham, domlalar orasida ham ko'zga ko'rinadi. Fakultetda hamma Domla deb ataydigan kafedra mudiri unga, ayniqsa, mehribonlik qilar, Sirojiddin ham nafsoniyati har qancha og'rimasin, bu domlaga aravakashlik qilishga majbur edi. Uning institutga kirishida xuddi shu Domla jon kuydirganini, bu odam dadasining yoshlikda birga o'sgan do'sti ekanini endi u bilardi. Domla Sayfi Soqiyevichnikiga tez-tez boradigan, Sirojiddinni o'g'il o'rnida «o'g'limsiz» deydigan bo'ldi (O'.Hoshimov).

38- mashq. Maqol va matallardan birikmali egalar ishtirok etgan gaplarga to'rtta misol toping va ularni tahlil qiling.

Uslubiy talabga ko'ra ba'zan gapda ega qo'llanmasligi mumkin. Bu xildagi egalar kesimdagi shaxs-son ko'rsatkichlariga ko'ra aniqlanadi. Misol: *Sizlarga ko'maklashish uchun keldik (Biz keldik). Yaxshi kitoblarni doim o'qib yuraman (Men o'qib yuraman).*

39- mashq. Berilgan misollardagi qo'llanmagan egalarni aniqlab, kesim bilan moslanmaganligini tushuntiring.

1. Bu jarlikda faqat qushlarning chirqillashi-yu, shamolning g'uvillashi eshitildi, xalos (S.Ahmad) 2. U adabiyotimizning xazinasiga o'nlab roman, doston, drama, she'riy to'plamlar qo'shdi (S.Ahmad). 3. So'zlari ham, ko'zlari ham merganning o'zginasi (O.Yoqubov) 5. Yashirganing seniki emas, birovga berganing seniki (maqol.) 6. O'qish maqsadida yurt oshib kelganlar qalbida shum niyat bo'lmasa kerak. 7. Qishloq ko'chalari naqadar go'zal, orombaxsh... 8. O, jondan aziz Vatanim! Sen bilan og'ir jon-u jadal kunlarda uchrashish nasib bo'ldi! (Ch.Aytmatov).

Kesim, uning ifodalanishi va turlari.

Kesim bosh bo'lakning biri bo'lib, u ega haqidagi hukmni bildiradi. U predikativlikni ifodalovchi asosiy bo'lakdir.

Kesim ifodalanishiga ko'ra ikki yirik guruhga bo'linadi: **ot kesimlar va fe'l kesimlar.**

Ot kesimlar ot, olmosh, son, sifat, ravish, harakat nomi bilan ifodalanadi. Misol: *Biz talabamiz. Mening tug'ilib, o'sib-ungan yerim – Samarqand. Bizning ahdimiz - shu. Shu ulug' diyor – barchamizniki. Birniki mingga. Ikki o'n besh – bir o'ttiz. Shahrimiz juda ko'rkam. Bu yerda daraxtlar ko'p. O'qish yaxshi, o'qish undan ham yaxshi. Bo'sh yerlar oz. Umidim yaxshi inson bo'lmoq.*

Ot kesimlarning tarkibida ularning shaxs, son va zamonga munosabatini ko'rsatish uchun bog'lamalar (*bo'lmoq, sanalmoq, emoq, dir*) ishlatiladi. Masalan: *Biz kechagina yosh edik. Hozir talaba hisoblanamiz, yaqin kunda yaxshi o'qituvchi bo'lamiz.*

40- mashq. Matndagi ot kesimlarni aniqlang. Ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting. Bog'lamalarni ajratib ko'rsating.

Yoz saxovat bilan dunyoni sharbatga to'ldirdi. Kechagina chumak ura boshlagan chillaki uzumlar dasturxondan arib, o'rnini qahrabo husaynilarga bo'shatib berdi... Hammaning og'zida, harakatida to'y.

Nahotki, to‘y qiz bola uchun shu qadar larzali bo‘lsa! Yuragi goh ivishib, shirin g‘ivirlaydi, goh vahimaga tushib, xunuk visirlaydi. Qaysi biriga quloq solsin? Nega endi vahm? Uyda to‘y taraddudi, yurakda g‘uv-g‘uv. Otasi kelyapti. Xo‘sh, yana nechuk betoqatlik? Balki To‘tiqiz oshiqayotgandir? Balki yuragidagi vahm emas-u, vahm bo‘lib ko‘ringan shodlik hayajonidir? (M. Ismoiliy)

41- mashq. Berilgan misollardagi tushirib qoldirilgan so‘zlar o‘rniga o‘zingiz gapning mazmuniga mos holda kesimlarni qo‘yib ko‘chiring. Kesimlarning ega bilan shaxs-songa ko‘ra mosligini tushuntiring.

1. Men qishlog‘imizdagi yangi maktabda... 2. Maktab hovlisi o‘quvchilar bilan... 3. Men qo‘ng‘iroq chalinishi bilan birinchi sinf o‘quvchilari xonasiga, bolalar bilan ... 4. Ular mening olib borgan suhbatimdan ... 5. Oilamizda hammamiz o‘qituvchilik kasbini ... va shu kasb bilan ko‘p yillardan buyon... 6. Do‘stimning onasi tibbiyot institutini ikki yil avval ... va hozir vrach bo‘lib...

Fe’l kesimlar fe’l va uning shakllari bilan ifodalanadi.

Misol: *Biz o‘z vatanimizni* ***sevamiz.*** *Talabalar Samarqand shahriga* ***borishmoqchi.***

42- mashq. Berilgan matndagi fe’l kesimlarni ajrating. Fe’l kesimlarning qaysi zamon shaklida kelganini belgilang.

Dahshatli gumburlashdan tank silkinib ketdi. Boshim lyuk qopqog‘iga urilib, hushimni yo‘qotdim. Xayolim joyiga kelganida beixtiyor engashib, pastga qaradim. O‘ng tomondagi zanjir uzilib ketgan, tank mina portlaganda paydo bo‘lgan chuqurga yonboshlab qolgan edi. Narigi tank minadan qanday o‘tib olgani-yu, nega bizniki portlaganiga aqlim yetmasdi. O‘sha zahoti chakalakzor tomonda avtomat tarilladi. Boshim ustidan o‘qlar vizillab o‘tayotganini eshitib, beixtiyor lyuk qopqog‘ini yopdim. Tank yana bir silkindi (O‘.Hoshimov).

Kesimlar tuzilishiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi:

1. Sodda kesimlar
2. Sostavli kesimlar
3. Murakkab kesimlar.

Sodda kesimlar birgina so‘zdan tashkil topgan bo‘ladi. Sodda kesim vazifasida fe’l, ot, sifat, olmosh, son, ravish va *bor, yo‘q* so‘zlari keladi.

Men ikki yildan buyon shu oliy o'quv yurtida **o'qiyapman**. Ukam hali **yosh**. Uning maqsadi – **shu**. O'nning yarmi **besh**. Respublikamizning poytaxti – **Toshkent**. Mening umidlarim **ko'p**. Yozma ishingizda ayrim juz'iy kamchiliklar **bor**.

43- mashq. Berilgan misollar orasidan sodda kesimli gaplarni ajratib yozing. Sodda kesimlarning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini belgilang.

1. Bir necha daqiqa davom etgan g'uv-g'uvdan keyin olisdan qizning yurakka g'uluv soluvchi hayajonli, titroq ovozi eshitildi. (O.Yoqubov) 2. Tor joyda osh yeguncha, keng joyda musht ye (maqol). 3. Qishloq ko'chalari naqadar orombaxsh, obod! 4. Yer to'ysa, el to'yadi (maqol) 5. Endi mullaka, muhr bosib qo'ya qolay, Ota buvamiz ham muhr bosgan (A.Qahhor). 6. Xafa bo'lmang, Qodirjon, sizni ayblayotganim yo'q. (Shuxrat). 7. Saidiy dastlab tortindi, nimalardir uni bu do'konlardan ajratib turardi (A.Qahhor)

44- mashq. Badiiy asardan sodda kesimlarga 6 ta misol tanlang. Ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini tushuntiring.

Sostavli kesimlar ikki yoki undan ortiq so'zning birikuvidan tuziladi. Bunday kesimlar, asosan, qo'shma so'zlardan tashkil topgan bo'lib, ularning tarkibida hech qanday sintaktik aloqa mavjud bo'lmaydi. Chunki ular bir yaxlit so'z (bir gap bo'lagi) sifatida olinadi.

Sostavli kesimlar fe'l+'fe'l shaklida qo'llanishi bilan birga fe'ldan boshqa so'z turkumlarining birikuvidan hosil qilinadi. Misol: *1. Men yaxshi hikoyani o'quvchilarga **so'zlab** berdim. 2. O'qituvchilar bizdan **mamnun bo'lishdi**. 3. Yangi taklifni aytgan **men edim**. 4. Sharoitimiz **yaxshi bo'lib qoldi**.*

Keltirilgan misollarning birinchisida ikkita fe'l (so'zlamoq va bermoq) birgalikda fe'l+'fe'l shaklidagi sostavli kesim bo'lib kelgan. Qolgan misollarning hammasida ham (ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi misollar) sostavli kesimlar birdan ortiq so'z bilan ifodalanib ular ot+fe'l, olmosh+fe'l va sifat+fe'l shaklida sostavli kesim bo'lib kelgan.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bunday kesimlar ikki yoki uch so'zdan tuzilgan bo'lsa ham ular orasida hech qanday sintaktik aloqa yo'q.

45- mashq. Matndagi sostavli kesimlarni aniqlang. Ular qaysi so'z turkumlaridan tuzilganini va qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.

Oppoq qorga burkanib olgan azim tog‘ cho‘qqilari, qir-adirlar, archazor yonbag‘irlari xuddi yana qaytadan uyquga ketgandek jim yotibdi. Bunday kezlarda tabiat o‘z salobati, hech kimga bo‘ysunmaydigan o‘ziga xos qonuniyatlari bilan butun borliqni ana shunday jimjitlikda ushlab turgandek tuyuladi kishiga. Daraxtlar bo‘lsa, ustidagi qor ko‘rpasini silkitib tushirib yuborsa sovuq urib ketayotganday o‘zini tutib turardi... qishloq betinch. Qayerdadir, odamlar oyog‘i yetishmaydigan tog‘ yonbag‘irlarida bosmachi to‘dalari yashirinib olib, vaqti-vaqti bilan atrofdagi aholini betinch qilgani qilgan. Ular Bog‘idaryo aholisidan olganini olib, endi bu yerlarning odamlariga tegmay qo‘yishgan... Birdaniga tushgan sovuq yupun beva-bechoralarni dovdiratib qo‘ydi (M.Qoriyev).

46- mashq. Keltirilgan misollar orasidan fe’l+fe’l shaklida tuzilgan sostavli fe’l kesimli gaplarni ajratib ko‘chiring.

1. Bu durni men ilgari ko‘rmaganman va men uni sotib olib bermaganman. (O‘.Umarbekov). 2. Munisxon bo‘lmasa, boshqa bir odamni topardi. (U.O‘marbekov). 3. Bu xabarni eshitgan rais shamoldan tez uchib borar edi. (A.Qahhor) 4. Hayratdan serrayib turib qolgan Asqarali, uni o‘nglab qulfi ochiqmi, yopiqligini bilmoqchi bo‘ldi. (S.Ahmad) 5. Xartumning bozoridan bir qadoqqina sedana opkelib bering. (S.Ahmad). 6. Baxt tushunchasini o‘ylaganimda, dastavval nomus, vafo ko‘rinadi. (S.Ahmad). 7. Yuzlari, ko‘zlari doim kulib turardi. (S.Ahmad) 8. Ertalab ishga ketayotganlar, avtobusdagilar, mashinadagilar unga ajablanib qarashadi (S.Ahmad).

47- mashq. Misollar orasidan ot+fe’l yoki sifat+fe’l shaklidagi sostavli kesimlar ishtirok etgan gaplarni ajratib ko‘chiring. Shu gaplardagi egani ham aniqlang.

1. Biz talabalarning bilimdonligi, sezgirligi va ko‘p narsani bilishga intiluvchanligidan mamnun bo‘ldik. 2. Ular bizni ertangi yig‘ilishda ishtirok etishga taklif qilishdi. 3. Qishlog‘imiz yanada obod bo‘ldi. 4. Talabalarning taklif qilgani biz uchun yaxshi bo‘ldi. 5. Qarindosh urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilari, yor-birodarlari Sharipovning ota-onalarini tabrik qilishdi (S.Ahmad) 6. Bu mustahkam devorlar tikanli simlar hech narsani ko‘rmagandek gung-soqov bo‘lib qolishdi (S.Ahmad). 7. Afsuski, shunday odam Gulchehra bo‘lib chiqdi (O‘.Umarbekov).

48- mashq. Badiiy asardan fe’l+fe’l shaklida va ot+fe’l shaklida tuzilgan fe’l kesimli gaplarga oltita misol tanlang. Shu gaplarda ega

vazifasida qaysi so'z turkumiga kiradigan so'zlar ishtirok etganligini tushuntiring.

Kesimlarning tuzilishiga ko'ra uchinchi turi – ***murakkab kesim*** deb nomlanadi. Bunday kesimlar ham sostavli kesimlar kabi ikki, uch va undan ortiq mustaqil so'zlardan tashkil topadi. Murakkab kesim tarkibidagi so'zlar (bo'laklar) orasida turli sintaktik aloqa (moslashuv, boshqaruv, bitishuv) mavjud bo'lib, ular o'zaro sintaktik munosabatga kirishsa ham sodda kesimlar kabi bitta so'roqqa javob bo'ladi.

Murakkab kesimlar tarkibida so'z birikmalari kabi hokim va tobe bo'laklar (ergash so'z va bosh so'z) mavjud bo'lgani va ular turli birikmalarni tashkil qilgani uchun ularni birikmali kesim deb ham atash mumkin.

Masalan, *Navoiy g'azal mulkining sultonidir* gapida *Navoiy* so'zi ega vazifasida kelgan bo'lib, shu ega uchun *sultonidir* so'zini kesim deb bo'lmaydi, *mulkining sultonidir* deb ham ega va kesim munosabatini ko'rsatuvchi predikativ birikmani hosil qilib bo'lmaydi. *g'azal mulkining sultonidir* so'zlarini birga olib gapdagi ega vazifasida kelgan *Navoiy* so'zi bilan birga *Navoiy g'azal mulkining sultonidir* deb qo'llasak, ega va kesim munosabati to'liq anglashiladi. Demak, bu gapda *Navoiy* so'zi ega hisoblansa, *g'azal mulkining sultonidir* so'zlari birgalikda murakkab kesimni tashkil qiladi.

Bu holatni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Chizmadan ko'rinadiki, kesim vazifasidagi uchta mustaqil so'z o'zaro sintaktik aloqaga kirishib, yaxlit holda bitta kesim vazifasini bajargan.

Yana misol keltiramiz:

1. Do'stlik – xalqimizning xulqi, odati,
   Do'stlik – naslimizning baxt-saodati.
2. Halollik buyuklikning aynan o'zidir.

3. Til millionlarcha avlodlar tomonidan yaratilgan tirik jondir.

4. U o'rta bo'yli, keng yag'rinli, quyuq jingalak sochli, 35-40 yoshlar chamasidagi kishi edi. (Oybek)

5. Yomon ish o'zingni oqlay bilmaslik,
Insonlik odobin saqlay bilmaslik.

49- mashq. Matndagi kesimlarning qanday so'z turkumlari bilan ifodalanganini aniqlang. Tuzilishiga ko'ra qanday turga oidligini aytib bering.

Ayasi harsillab nafas olgancha par yostiqni karavot boshiga tashladi. Katta-yu kichik barobar «Rais buva» deb ataydigan tajang rais Sherzodning ko'z o'ngiga keldi. Ayasining gapi to'g'ri. Rais buva kajbaxs odam. Ayasi karavotga imo qildi:

- Bir pas damingni ol, bolam. Halizamon kelganingni eshitib odam yopiriladi.

Ayasi chiqib ketishi bilan Sherzod karavotda yonboshlagancha uyni ko'zdan kechirdi. Uy to'rida bir surat turar, bu dadasi bilan onasining surati edi... Tokchalardagi yaltiroq mis samovaru, barkashlar ham devordagi eski gilamu, kapkirli soat ham - hammasi qadrdon edi unga. Faqat uy burchagida yangi servant paydo bo'pti. Shiftga qo'shaloq chiroqli nafis qandil osilibdi (O'.Hoshimov «Nur borki, soya bor»).

50- mashq. Berilgan misollardagi bosh bo'laklarni aniqlang. Birikmali qo'llangan eganing tagiga chizib, uning qanday birikmalardan tuzilganini ayting.

1. Achchiq, izg'irinli shamol esardi (Sh.Xolmirzayev). 2. Kakliklarning ovozi onda-sonda eshitiladigan bo'lib qoldi (Sh.Xolmirzayev). 3. Cho'lda to'da-to'da to'rg'aylarning ovozi yoqimli yangraydi (O'.Umarbekov). 4. G'iybat qilingan odam, albatta, g'iybatchining so'zlarini eshitmay qolmaydi (Oybek). 5. Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa – tarbiyadir. 6. Bir oqshom kutilmagan vaqtda, ko'chamizda tuyalarning baqirishi, havoni yangratgan qandaydir notanish ovozlar eshitiladi (Oybek) 7. Qop-qora qalin bulutlar orasidan mo'ralagan quyosh isitmaydi.

51- mashq. Misollar bo'yicha avval sostavli ot kesimlarni, so'ngra sostavli fe'l kesimlarni aniqlang. Ularning tarkibi qaysi xil so'z turkumlaridan tashkil topganligini izohlab bering.

Namuna: Talabalar erishgan yutuqlardan **mamnun bo'ldik.**
(ot+fe'l = sostavli ot kesim)

Keyingi vazifalarni **belgilab berishdi**.
fe'l + fe'l = sostavli fe'l kesim.

1. U qo'yday yuvosh, kiyikday hurkak, lekin qahri kelganda, yarador yo'lbarsday beomon kishi edi. 2. U bu ishni nabirasi Muhammad Tarag'ay xavfsizligini ta'minlash uchun qilgan edi (Xurshid Davron) 3. Rusiyadan qaytganlar bilan qo'shilib, majlisbozlik, va'zxonlik qilib yurgan (Oybek). 4. Uning tovushidan quloqlar yorilguday bo'ldi (Oybek). 5. Go'zallik nafosat olamining mag'zidir. 6. Inson eng oliy qadriyatdir. 7. Bobom bozordan opam uchun turli narsalar sotib oldilar (Oybek). 8. Kelin, darhaqiqat, yosh va sodda bo'lgan ekan.

52- **mashq.** Ma'lum badiiy asardan ot, sifat, olmosh va son bilan ifodalangan kesimlar ishtirok etgan gaplarga misollar tanlang va ularni izohlab bering.

53- **mashq.** Keltirilgan misollardagi murakkab (birikmali) kesim ishtirok etgan gaplarni aniqlab, ulardagi kesimlarning murakkab kesim deb olinishga asos nimalar ekanini tushuntiring.

1. Umringda samovarning jo'mragini buramagan bo'lsang ham, ko'p to'qim tabiat samovarchilarga ibrat bo'ladigan ish qilibsan. (A.Qahhor). 2. Yellar, bir daqiqa to'xtang esishdan, Sernavo bulbullar sayramang bir oz! (E.Vohidov). 3. Bu kishi qirq yoshlar chamasi, qonsiz yuzlik, siyrakkina soqollik, qo'y ko'z, qotma, uzun bo'ylik odam edi (A.Qahhor). 4. Demak, o'z qadrini topdi desa bo'ladi (Shuxrat). 5. Soy bo'yida o'sguvchi yulg'unzoru, eski chashma biz uchun aziz edi (Sh.Xolmirzayev). 6. Ko'zlari odamni zo'rg'a ko'radigan qisiq, lekin ko'ngillari daryoday keng (Sh.Xolmirzayev). 7. Uning butun harakati dushmanidan o'chini olish ekan (A.Qodiriy).

GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI

Yuqorida aytilganidek, gaplar bosh bo'laklar (ega va kesim) va ikkinchi darajali bo'laklardan tashkil topadi. Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil qilsa, ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarni to'ldirib, aniqlab, izohlab keladi. Ikkinchi darajali bo'laklarga aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol kiradi.

Aniqlovchi, uning ifodalanishi va turlari.

Aniqlovchi predmet belgisini ifodalovchi, ya'ni predmetning qandayligini, kimga qarashli ekanini bildiruvchi ikkinchi darajali bo'lakdir.

Misol: 1. ***Yozuvchining*** vazifasi go'zallik yaratishdir (A.Qahhor). 2. ***Yaxshi*** fazilatlardan biri tilni tiyib so'zlashdir. 3. Uzoqdan ***baland bo'yli, ozg'in*** kishi ko'rindi. 4. ***O'n beshta*** kitob o'quvchilarga tarqatildi. 5. ***Shu*** kitoblar Toshkentda nashr qilingan.

Yuqoridagi misollarda ajratilgan so'zlar predmetning kimga qarashliligini (birinchi misol), shaxs predmetning qandayligini – belgisini (ikkinchi va uchinchi misol), miqdorini (to'rtinchi misol) va ko'rsatishli belgini (beshinchi misol) ifodalangan.

Aniqlovchilar quyidagi so'z turkumlari orqali ifodalanadi:

1. Sifat bilan ifodalanadi: *Yaxshi niyat – yarim mol* (maqol)

2. Son bilan ifodalanadi: *Yig'ilishda <u>uchta</u> talaba so'zladi.*

3. Olmosh bilan ifodalanadi: *Uzoqdan ko'ringan <u>ana shu</u> binoga bizning universitetimiz joylashgan.*

4. Ot bilan ifodalanadi: *Fakultet talabalari hamma ishda namuna bo'lishdi.*

5. Ravish bilan ifodalanadi: *Ko'p odamlar shu maydonga yig'ilishdi.*

6. Sifatdosh bilan ifodalanadi: *<u>Aytilgan</u> so'z <u>otilgan</u> o'q* (Maqol).

54- mashq. Matndagi predmet belgini ifodalovchi aniqlovchilarni aniqlang. Ularning qaysi so'zga, qaysi xil aloqada sintaktik munosabatga kirishganini ayting.

Shoira navbatchilik qilmagan kun kam bo'lardi. U goh birinchi qavatda, goh bemorlarni qabul qiladigan bo'limda ishlardi. Sherzod darrov ko'zini olib qochdi. Uning qiziq odati bor edi: birovning ovqatlanishiga nazar solishni uyat hisoblardi. U tez-tez yurib, burchakdagi titan oldiga bordi. Sherzod paxta gulli choynakka shoshib-pishib qaynoq suv to'latdi. Zum o'tmay, ikkinchi choynak ham to'ldi. Sherzod ikkala qo'li band bo'lgani uchun jo'mrakni burashga ulgurolmay qoldi. Qaynoq suv choynakdan toshib, tog'oraga to'kila boshladi. Bug' ko'tarilib, Sherzodning qo'li achishdi. Shu ondayoq Shoiraning yangroq qah-qahasi xonani to'ldirdi. U yugurib kelib jo'mrakni buradi. Sherzod har ikkala choynakni yaqinroqdagi stol ustiga qo'ydi. (O'.Hoshimov)

Aniqlovchilar ikki turga bo'linadi: sifatlovchi aniqlovchilar va qaratqich aniqlovchilar. ***Sifatlovchi aniqlovchilar*** predmetning rang-tusini

qandayligini, miqdorini, o'rin va paytga munosabati va hokazo shunga o'xshash xususiyatlarini ifodalaydi.

Misollar: 1. ***Ko'm-ko'k*** *daraxtlar yengilgina tebranmoqda.* 2. ***Daladagi*** *ishlarni bitirib qo'ydik.* 3. ***Kechagi*** *yig'inda hamma qatnashdi.* 4. ***Birinchi*** *kurs talabalari zalda to'planishdi.* 5. ***Mana shu yer*** *bizning tug'ilib o'sgan zaminimiz.* 6. ***G'ir-g'ir*** *shamol esib turibdi.* 7. ***Yozilgan*** *xat shu edi.*

Misollarning birinchisida rang-tus, ikkinchisida o'rniga nisbatan belgi, uchinchisida paytga nisbatan belgi, to'rtinchisida tartib, beshinchisida ko'rsatish va oltinchida tovushga taqlid qilingan belgi xususiyatlar va eng oxirgisida harakat bilan bog'liq belgi ifodalangan.

Misollardan ko'rinadiki, sifatlovchi aniqlovchilar sifat, son, olmosh, ravish, sifatdosh, ot, taqlidiy so'z kabi turli so'z turkumlari bilan ifodalanadi, aniqlanmish (sifatlanmish) bilan birga sifatlovchili birikmani hosil qiladi va ular o'zaro bitishuv aloqasida bir-biri bilan birikadi.

55- mashq. Berilgan misollardagi sifatlovchi aniqlovchilarni ajrating. Ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini tushuntiring.

1. Qizil, ko'k sariq, zangori ninachilar tinimsiz uchib turardi (Said Ahmad). 2. To'g'riso'z, halol odam hammaga yoqa bermas ekan. 3. Nahotki, shunday obro'li, dono odam o'z bolasiga tarbiya bera olmasa?! 4. Baland bo'yli, baquvvat matroslar kemadan ruda tushirishar edi (S.Ahmad). 5. Teppamda eski, uniqib ketgan chit ko'ylakda Minavvar turardi (O'.Hoshimov). 6. Zunnunning uyi juda chiroyli qilinib yig'ishtirilgan edi (Cho'lpon). 7. Bu so'qmoq yo'ldan shayx afandining uyiga boriladi.. («Cholіqushi»). 8. Yana qor. Oq kafan o'raldi, yana, yana ko'k quydi yerga parlarin (Cho'lpon). 9. Anchagacha jim o'tirganimizdan keyin sekin xo'rsindi. (O'.Hoshimov).

56- mashq. Yozuvchi Said Ahmad asarlaridan olingan matndagi birikmali sifatlovchi aniqlovchilarni aniqlang. Ularning tuzilishi va qaysi gap bo'lagi bilan qanday sintaktik aloqaga kirishganini tushuntiring.

1. Abdulla Qahhor insonni beburd qiladigan, obro'sini to'kadigan, qadr qiymatini yerga uradigan jamiki narsalardan xazar qilardi. 2. O'zidek sodda, do'lvor mirishkorlar suhbatida yayrab ketardi. 3. Aslini olganda, bu mehribon, qayg'ungga qayg'udosh bo'ladigan odamga Polvonning mehri tushib qolgandi. 4. O'yga tolasiz: tahqirlangan, quvg'inga uchragan, qamoq kameralarida xor-zor bo'lib, umrini poyoniga yetkazgan, olis

yurtlar tuprog'ida qolib ketgan jigarbandlaringizni eslaysiz. 5. U yelkalari keng, bilaklaridan mushaklari bo'rtib chiqib turgan, ochiq kaftiga bitta odam bemalol o'tirsa, ikkita barmog'i ortib qoladigan bo'z yigit edi. 6. Qandoq beozor, bearmon kunlar edi Andijondagi kunlarim!

57- mashq. Yozuvchi A.Qahhor asarlari bo'yicha sifatlovchi aniqlovchilar ishtirok etgan gaplarga oltita misol tanlab ko'chiring. Gaplardagi bosh bo'laklarni aniqlang.

Qaratqich aniqlovchilar predmetning kimga yoki nimaga qarashliligini ifodalaydigan aniqlovchilarning bir turidir, ya'ni aniqlovchining bu turi qarashlilikni bildiradi. Misollar: Aslini olganda, shu odamga **Polvonning** mehri tushib qolgan edi (S.Ahmad) U **minglab o'quvchilarning, ixlosmandlarining** yuragiga chiroq yoqib ketdi (S.Ahmad). Men **Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhorning** romanlarini berilib o'qiganman (S.Ahmad). **Uning** peshonasida ikki qator ajinlar paydo bo'lgandi (H.G'ulom). Mavlono Fazliddin **uyining** qayerdaligini Tohirga batafsil tushintirdi. (P.Qodirov) **Umrining** eng yaxshi mavsumi yoshlik bahori o'tib ketdi. (O.Yoqubov) **Onasining** ovozini eshitib, badaniga shirin bir narsa o'rmalab ketdi. (S.Ahmad).

Qaratqich aniqlovchilar ot, olmosh, sifat, son, sifatdosh, harakat nomi bilan ifodalanadi: Maktabning hovlisi yaxshi bezatilgan. Uning har bir burchagiga gullar ekilgan. Bunga hammaning havasi keldi. O'nning yarmi besh. Piyoda yurmoqning foydasi ko'p. Yomonning bir qilig'i ortiq.

Qaratqich aniqlovchi o'zi toblangan bo'lak- qaralmish bilan shaxs-sonda mos bo'ladi va shuning uchun ular moslashuv aloqasi orqali sintaktik munosabatga kirishadi. Qaratqichli birikma turlicha shakllanadi: a) qaratqich va qaralmish belgili qo'llanadi (Bizning rejalarimiz, Uning quvonchi kabi) b) qaratqich belgisiz, qaralmish belgili keladi (Universitet talabalari, shahar ko'chalari kabi) v) qaratqich belgili, qaralmish belgisiz keladi. (Bizning uy kabi).

58- mashq. Matndagi qaratqich aniqlovchilarni belgilang. Ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting. Fe'l+fe'l tipida kelgan kesimlarni ajratib ko'rsating.

Ko'chada ot tuyoqlarining tovushi eshitildi. Dehqonboy eshik tomon yugurdi. Cho'lpon bilan onasi ham uning ketidan yugurib chiqishdi. Otliqlar qayoqqadir ketishayotgan edi. Cho'lponning ko'zi yana o'sha, qorabotir mingan yigitga tushdi. U go'yo otga yopishib, singib ketganidek

edi. Ko'zi Cho'lponga tushdi-yu, otning yolidan ushlab, kulimsirab qo'ydi. Qiz birdan ko'chaning narigi betidagi qiya ochiq turgan eshikdan qarab turgan tanish basharani ko'rib qoldi... Cho'lpon uning yuzini bu safar aniq ko'rib qoldi... Xuftonga yaqin Dehqonboyning eshigi taqillab qoldi. Malla chopon kiygan yapaloqdan kelgan notanish odam eshik yonida turardi. (M.Qoriyev).

59- **mashq.** Keltirilgan misollardagi qaratqich aniqlovchilarni aniqlang. Qaratqich kelishigisiz (belgisiz) qo'llangan qaratqich va qaralmishni aniqlang va ularning izohini bering.

1. Quyosh, havo, yer, suv barcha jonivor va ko'katlarga ozuqa berganidek, xalq hayoti "yozuvchiga ilhom beradi (A.Qahhor). 2. Biz tushgan poyezd sostavi Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand oblasti vakillari bilan to'lgan edi (S.Ahmad). 3. Kemada suzib, Hind okeani tagidagi giyohlarning, jonivorlarning suvratini oldi (S.Ahmad). 4. Ehson ayamagandan keyin, Saidiyning ham ayagusi kelmadi va shu topda ko'ngliga kelgan gapni ochiq ayta boshladi (A.Qahhor). 5. Chinakam badiiy adabiyotni ilhomsiz yaratib bo'lmaydi (A.Qahhor). 6. Bir oqshom, kutilmagan vaqtda tuyalarning baqirishi eshitilib qoldi (Oybek). 7. Men bularning qishloqdan, dadamning oldidan kelganini payqadim (Oybek). 8. Sirojiddin beixtiyor Qilich Valiyevga qarab qo'ydi. U tirsagini stol qirrasiga qo'ygancha hamon indamay o'tirardi (O'.Hoshimov). 9. Adabiyot haqidagi ilmim G'ofur G'ulomning to'rtta, Abdulla Qahhorning oltita hikoyasi bergan ilm edi (S. Ahmad).

60- **mashq**. Mustaqil ravishda o'zingiz maqol va matallardan qaratqich ishtirok etgan gaplarga oltita misol tanlang. Ularni tahlil qiling.

Izohlovchilar, ularning turlari

Izohlovchilar shaxs yoki predmetni boshqacha nom bilan atash orqali izohlaydi, aniqlaydi. Izohlovchilar aniqlovchilarning boshqa turlaridan farq qiladigan alohida turidir. Izohlovchi bilan izohlanmish orasida tobelanish aloqasi emas tenglanish aloqasi mavjud bo'ladi. Izohlovchilar laqab, kasb, tur, jins, mashg'ulot, lavozim, millat kabi ma'nolarni ifodalaydi. Misol: Yo'lchi o'zidan nariroqda, odamlar orasida temirchi Qoratoyni, eski do'sti ***qirg'iz*** O'rozni ko'rib qoldi (Oybek). Bu yerda ***sotuvchi qiz*** Dilbar ham, ***keksa bo'lim boshlig'i*** Sayfullo aka ham uni

yaxshi tanib qolishgandi (O'.Hoshimov). Ertasiga ***ellikboshi*** Qobil ***boboni*** boshlab, ***qaynotasi*** – Egamberdi ***paxtafurushning*** oldiga olib bordi (A.Qahhor). ***Dotsent*** Muxtorxon Mansurov nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol (A.Qahhor).

Yuqorida ko'rsatilgan so'zlar (temirchi, qirg'iz, sotuvchi qiz, keksa bo'lim boshlig'i, ellikboshi, qaynotasi, paxtafurush, dotsent so'zlari) izohlovchi sanalib, kasb-hunar, lavozim, qarindoshlik, millat kabi ma'nolarni ifodalagan.

61- mashq. Berilgan misollardagi izohlovchilarni aniqlang. Ularning qanday ma'no ifodalaganini ayting. Sifatlovchi aniqlovchilarni aniqlab, ularning aniqlanmish bilan qanday aloqada birikkanligini tushintiring.

1. Avvalgi qahvaxonada yangi xizmatchi paydo bo'lganini sezmadi, to'g'rirog'i durust razm solmagan ekanman (O'.Hoshimov). 2. Dilshod ayolining tug'ilgan kunida katta qizil ko'zli tilla uzukni sovg'a qildi. 3. Uning hujrasida batrak – Yo'lchiboy o'tirar edi (A.Qahhor). 4. Rohat buvi pechkaning eshigini yopdi, borib divanga cho'zildi (A.Qahhor). 5. Sobir boqqol ohangdor-mayin ovoz bilan meni erkalab qo'yadi (Oybek). 6. Xon atlas ko'ylagi baland bo'yiga yarashgan, ikki o'rim to'sdek qora, qalin sochi beligacha tushib turgan, oyog'iga o'rta poshnali tufli kiygan qizni ko'rgan Obidjon haykalday qotib qoldi. 7. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofotining laureati, professor Zarifa Saidnosirova uyda Oybekning shaxsiy kotibasi va xonadon sohibasi edi (S. Ahmad).

62- mashq. O'zingiz laqab va kasb-hunar ifodalaydigan izohlovchilar ishtirok etgan gaplarga beshta misol keltiring va ularni tahlil qiling.

63- mashq. Berilgan misollardagi izohlovchilarni va qaratqich aniqlovchilarni aniqlang. Ularning qaralmish va izohlanmish bilan qanday aloqaga kirishganini ayting.

1. Ustoz yozuvchilarimizdan G'ofur G'ulomning, Abdulla Qahhorning, Shayxzodaning shogirdlari ko'p bo'lardi (S.Ahmad). 2. Shu tobda men ana shu allomalar, adib-u udabolar davrasida o'tirgandekman (S.Ahmad). 3. Dadam Toshmuhammad baland bo'yli, sariqdan kelgan, soqol-mo'ylovli qora, usti boshi qo'polgina kishi (Oybek). 4. Bu yerda miskar Zokir ota, taqachi Obid aka, qassob Mavlon akalar yashar edi. 5. Ayasi uni bag'riga bosgan edi, boshi Sherzodning yelkasiga ham yetmadi. Uning

to'moli yelkasidan sirg'anib tushdi. Shunda Sherzod ayasining sochlarida oq ko'payib ketganini sezdi (O'.Hoshimov).

64- mashq. Quyida keltirilgan misollarda birdan ortiq izohlovchilar ishtirok etgan gaplarni ajratib, ularning ma'nosini tushuntiring.

1. Vafo va sadoqat timsoli bo'lgan Mohlar oyim Farg'ona xoni shoir Amir Umarxonning umr yo'ldoshi, benazir maslahatchi, sha'riat osmonida chaqnagan yulduz Nodirabegim edi (S. Ahmad). 2. Ular orasida G'ofur akaning supurgichi o'rtog'i Hoji aka, «chechachi tog'a» laqabli chol, ulardan keyin xalq hofizlaridan Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlar kirib kelishdi. (S.Ahmad). 3. U doimo: «Ibn Sino faqat tabib emas, tarixchi, tabiatshunos, kattakon shoir, hatto jahonda birinchi bo'lib notani ijod etgan zo'r bastakor», - derdi (S.Ahmad). 3. Saroymulkxonim bobomiz sohibqiron Amir Temurning sodiq rafiqasi, dono kengashchisi, tayanchi, buyuk Turonning go'zal malikasi Bibixonim edi (S.Ahmad).

Aniqlovchilar ham boshqa gap bo'laklari kabi birikmali qo'llanadi. Misol: 1. Ota-bobolarimizdan o'tib kelgan asriy udumlarni abadiy saqlaylik. 2. Yashil palak yopingan ishkomlar quyosh taptini ho'plab yerga olov purkardi (Oybek). Klubni, uning quyoshda toblangan tunuka tomini uzoqdan ko'rdim. (O.Yoqubov).

Keltirilgan misollarning birinchisida birikmali sifatlovchi to'ldiruvchi (ota-bobolarimizdan) va sifatdosh, «kesim» (o'tib kelgan)dan tashkil topgan, ikkinchi misol sifatlovchi (yashil)+ to'ldiruvchi (palak) + sifatdosh «kesim» (yopingan) shaklida tuzilgan. So'nggi misolda birikmali aniqlovchi vositali to'ldiruvchi (quyoshda) sifatdosh «kesim» (toblangan) tarzida ifodalangan.

65- mashq. Misollardan birikmali aniqlovchilar ishtirok etgan gaplarni ajrating. Otli so'z birikmalarini belgilang.

1. Kun isishini kutish haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. (O.Yoqubov). 2. Bu baxt, bu yoshlik oldida uning yuragini qimtiyotgan g'am o'tkinchi bir narsa, halizamon undan qutiladi; zavqli, ilhom va iqbolga to'la sahiy hayot uni o'z quchog'iga oladi. (O'.Umarbekov) 3. Kapitan u bilan xayrlashdi-da, sekretarni chaqirdi. (O'.Umarbekov). 4. Tilga e'tibor - elga e'tibor. 5. Dilda borini tilda bayon eta bilish katta san'atdir. 6. Bilmaganni so'rab o'rgangan odam olimdir. 7. Kitobning shavq

bilan o'qilishi uning latofatlaridan biridir. (A.Qahhor). 8. Kitobni badiiy qilib, mahorat bilan yozish ijodiy jasorat ko'rsatish demakdir. (A.Qahhor). 9. Ilmiy saviyasini muttasil oshirib bormaydigan o'qituvchi qarovsiz qolgan daraxtga o'xshaydi.

To'ldiruvchi, uning ifodalanishi va turlari

To'ldiruvchi fe'l kesim bilan boshqaruv yo'lida birikadigan, harakat obyektini ko'rsatadigan ikkinchi darajali bo'lakdir. Misol: Do'stimdan ko'p kitoblarni so'rab oldim. Bu misolda *do'stimdan* so'zi *so'rab oldim* fe'l kesimi bilan boshqaruv yo'lida sintaktik munosabatga kirishgan. *Kitoblarni* so'zi ham fe'l kesim bilan boshqaruv usulida birikkan va ular fe'l kesim orqali ifodalangan harakatning obyektini ko'rsatgan.

To'ldiruvchilar tushum, o'rin-payt, chiqish va jo'nalish kelishigidagi so'zlar, shuningdek, *bilan, uchun* kabi ayrim ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlar orqali ifodalanadi. Misol: Yaxshi *xabarni* eshitdik. *Sizdan* ko'p minnatdormiz. *Bizga* yaxshi maslahatlar berdingiz. *O'quvchilarga* yangi kitoblar tarqatildi. *Xalqimizda* juda yaxshi urf-odatlar bor. Talabalar yangi *ko'rsatmalar bilan* tanishtirildi.

To'ldiruvchilarning ifodalanishi. To'ldiruvchilar ot, olmosh, sifat, son, ravish, sifatdosh, harakat nomi, taqlidiy so'zlar va modal so'zlar bilan ifodalanadi. Misollar: 1. Biz rostgo'ylikni, halollikni, mehnatsevarlikni ardoqlaymiz.

1. O'nni kessang, mingni ek. (maqol).
2. *Yaxshidan* ot qoladi, yomondan dod. (maqol).
3. Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar.
4. Bizdan bilimdon, bizdan ko'ra kuchli bo'ling.
5. Ko'pni ko'rgan ko'pni bilar.
6. Ko'chaning g'ovur-g'uvuriga quloq soldik.
7. Dilda borini gapirdik.

66- mashq. Matndagi to'ldiruvchilarni aniqlang. Ularning kesim bilan qanday sintaktik aloqaga kirishganini ayting.

Tabiat oq yopinchig'ini tashlar-tashlamas, kurtaklar ko'z uqalay boshladi. Bahor mayin yellari bilan kirib keldi. U qish bo'yi qaydadir dimiqib, yuragi siqilib yotgan-u, mana endi o'z mayliga qo'ymaganidan xursanddek keng dalalarda yayraydi, bog'-rog'larda quvnaydi, goh qizlarning durralarini tortqilab o'ynaydi, goh yuzlarini muloyim silaydi. To'tiqiz ana shunday bahorlarning o'n yettitasini ko'rdi. Bu bahorlar uni

ko'klam chechagi kabi ochib, o'n besh kunlik oyday to'ldirib bordi. So'nggi yillarda har yangi bahor unga yangi bezakda, yangi jozibada ko'rinib yuragini nimaningdir talpintiruvchi shirin intizorligi bilan yondiradi. (M.Ismoiliy).

67- mashq. Berilgan misollardagi to'ldiruvchilarning qanday so'z turkumi bilan ifodalangani va qaysi xil grammatik ko'rsatkich bilan qo'llanganini belgilab bering.

1. Shu zaylda kulgi bilan, qo'shiq bilan ish davom etadi (S.Ahmad). 2. Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri so'zla (Maqol). 3. Men opamning jildidan kitobni olib pala-partish varaqlayman (Oybek). 4. Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo'shib Toshkand ustiga jo'natqan (A.Qodiriy). 5. Yoshlik! Seni kuylamagan kim! Ertaklaring so'ylamagan kim! (E.Vohidov). 6. Qismati azalni manglayga yozib, O'zing yana nechun qilasan so'roq? (Cho'lpon) 7. Zebi esa dutorchilar va ashulachilar bilan birga yengil yallalar qilib turdilar (Cho'lpon).

68- mashq. O'zingiz biror doston bo'yicha tushum, chiqish, o'rin-payt, jo'nalish kelishigi shaklidagi to'ldiruvchilar ishtirok etgan gaplarga o'nta misol to'plab, uni izohlab bering.

To'ldiruvchilarning turlari. To'ldiruvchilar vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi deb ikki turga ajratiladi.

Vositasiz to'ldiruvchilar harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat bevosita o'ziga yo'nalgan predmetni bildiradi.

Vositasiz to'ldiruvchilar tushum kelishigidagi so'zlar bilan ifodalanadi va kimni? nimani? qayerni? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Misol: *Yaxshiliklaringizni unutmaymiz. Talabalarni majlisga taklif qilishdi. Ular Samarqandni, Buxoroni sayohat qilishmoqchi.*

Vositasiz to'ldiruvchilar ba'zan belgisiz qo'llanadi: Xat yozdik (xatni yozdik). Kitob o'qidik (kitobni o'qidik).

Vositali to'ldiruvchilar harakat biror vosita orqali o'ziga qaratilgan predmetni bildiradi.

Vositali to'ldiruvchilar o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishiklari affikslarini olib yoki ayrim ko'makchilar bilan birga ifodalanib, shu xil formadagi kim? nima? o'zakli so'roqlarga javob bo'ladi. Misol: *Bildirilgan yaxshi tilaklar* ***sizga*** *qaratilgan. Uyat* ***o'limdan*** *qattiq. Dilbar* ***hayoda, kamtarlikda*** *juda tengsiz. Ertaga o'tkaziladigan yig'ilish* ***kun tartibi haqida*** *gaplashib oldik.* ***Boshqalar bilan*** *ham maslahatlashdik.*

69- mashq. Berilgan matndagi vositasiz to'ldiruvchilar ishtirok etgan gaplarni aniqlang, ularning kesim bilan qanday aloqada birikkanligini ayting.

Shu payt mashina cho'zib, qattiq signal berdi. «Voy yaramas-ey» deb o'yladi u boshini keskin ko'tarib. Sirojiddinning to'rt yashar o'g'ilchasi mashinaga o'ch edi. Hozir ham Sirojiddin «Volga»ning ikkala oldingi eshigi lang ochiq turganini ko'rib yugurdi. Sochi peshonasiga tushgan, bosh yalang o'g'li rul chambaragini ushlab, u yoq-bu yoqqa aylantirar, lablarini cho'chchaytirgancha, og'zini «motor» qilib g'uvillatar edi. U tuflichasi bilan o'rindiqqa chiqqan bo'lsa kerak, qizil chiyduxoba g'ilof loy bo'lib ketgandi... Bola ko'zlarini katta-katta ochib negadir iljayib qo'ydi-da, nari ketdi... Sirojiddin katta ko'chaga chiqishi bilan gazni bosdi. (O'.Hoshimov).

70- mashq. Berilgan misollar ichidan vositali to'ldiruvchili gaplarni ko'chiring. Fe'lli so'z birikmalarini aniqlang.

1. To'rt roman, to'rt qissa, qator dostonlar, dramalar, tom-tom she'rlar, hisobsiz adabiy-tanqidiy maqolalar mana shu oltmish yilning ijod bilan o'tgan qirq yili davomida yaratildi (S.Ahmad). 2. Jo'rabek bular oddiy kishilar emasligiga endi to'la ishonch hosil qildi. Demak, ularning hammasida ham qurol bor (M.Qoriyev). 3. Jo'rabek Cho'lpondan xavotir ola boshladi (M.Qoriyev). 4. Yugurib vannaxonaga kirdi. Paqirga limmo-lim suv to'ldirdi. Deraza oldiga borib, pastga engashdi-da, sepib yubordi (O'.Hoshimov). 5. Oldingi uyda ko'tarilgan qattiq kulgi tovushi muharrirning g'ashiga tegdi, sekretarga xo'mrayib qaradi (A.Qahhor).

71- mashq. Matndagi to'ldiruvchilarning turlarini belgilang. Otli so'z birikmalarini izohlab bering.

Saidiy hujrasiga yarim kechada qaytib ketdi. U lanj edi, ertasiga fakultetda ham shunday bo'lib yurdi, to ko'nglini undan ham badtar g'ash qiladigan yangi tashvish ortguncha shunday bo'lib yura berdi. Bu kunlarda markaziy gazetalar yirik-yirik sarlavhalar bilan turli joylarda yer islohotiga tayyorgarlik ishini boshlashgani, uning borishi to'g'risida xabarlar bosar va ularning ichida yoshlarning she'rlari, ocherklari ham ko'rinar edi. (A.Qahhor).

72- mashq. Badiiy asar bo'yicha kelishikli to'ldiruvchi ishtirok etgan gaplarga ikkita, ko'makchili to'ldiruvchi ishtirok etgan gaplarga ikkita misol toping va tahlil qiling.

To'ldiruvchilar ham yuqoridagi gap bo'laklari kabi birikmali qo'llanadi. Misollar: 1. Vatanni qadrlamaydigan kishini xalq ham qadrlamaydi. 2. Kishi unib o'sgan ona yurtiga, voyaga yetkazgan ota-onasiga va ta'lim bergan ustoziga har qancha ta'zim qilsa oz. 3. O'qituvchining pedagogik mahorati o'zi tarbiyalagan shogirdlarining axloq, odobi va bilimdonligi bilan o'lchanadi. 4. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.

Hol, uning ifodalanishi va turlari

Hol ish-harakatning qay holda yuzaga kelishi, o'rin va paytga munosabati, sabab yoki maqsadi, miqdori kabi belgilarni ifodalovchi ikkinchi darajali bo'lakdir. Hol doim fe'l kesimga tobelanadi. Hol quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. *Ravish bilan*: U sekin ishladi. Biz tez yurdik.
2. *Ravishdosh bilan*: Kulib so'zladi. Turtinib yurdi.
3. *Sifatdosh bilan*: Qizargan holda kirib keldi. Yugurganicha uyiga ketdi.
4. *Sifat bilan*: Yaxshi tushuntirdi. Muloyim gapirdi.
5. *Son bilan*: Bir qaradi-yu, ikkinchi qaramay qo'ydi.
6. *Olmosh bilan*: Shu-shu ko'rinmay ketdi.
7. *O'rin kelishklari* (o'rin payt, chiqish, jo'nalish kelishiklari) *affikslarini olgan otlar bilan*: Samarqandga bordik. Uydan keldim. Toshkentda yashaymiz.
8. *Ayrim ko'makchilar bilan birga kelgan otlar bilan*: Zavq bilan o'qidi. Diqqat bilan eshitdik.
9. *Mimemalar bilan*: Shamol g'ir-g'ir esyapti. Yomg'ir shatir-shutir yog'ardi!

73- mashq. Misollar orasidan hollarni aniqlang va hol vazifasini bajargan shu so'zlarni otlarga bog'lab, ularning sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib kelganini izohlang.

Namuna: Oz so'zlang - hol bo'lib kelgan. Oz gapni yoqtiramiz – sifatlovchi aniqlovchi bo'lib kelgan. Biz yaxshi ishladik – yaxshi so'zi hol bo'lib kelgan. Yaxshi odamlarni doim maqtaydilar - yaxshi so'zi sifatlovchi aniqlovchi bo'lib kelgan.

1. Dag'al buyumlarni tozalash kerak. Bizga bunchalik dag'al gapirmang.
2. Kishilarga manzur bo'ladigan ko'p ishlarni bajardik. U ariq bo'yida o'tirib kelgusidagi rejalari haqida ko'p o'yladi.
3. Hayotimizdagi baxtli kunlarni ko'p esladik. Shuncha mehnat qildinglar, endi baxtli yashanglar.
4. Shu kungacha ancha gaplar eshitildi. Bu haqda ancha o'yladik.

80- mashq. Keltirilgan misollar ichidan ravish va payt hollari ishtirok etgan gaplarni ko'chiring. Ular qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting. Tanlangan gaplar tarkibidagi sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarni ajratib ko'rsating.

1. Taqachilar terlab, azob bilan otlarning oldida ishlaydilar. (Oybek). 2. Birpas sukutdan keyin gapira boshladim (Oybek). 3. Erta bahor edi o'shanda. Maysalar endi bosh ko'tarib sabza bo'lgandi (Maqsud Qoriyev). 4. Tog'-toshlardan urilib-surilib, vodiy tomon shoshilib kelayotgan sho'x daryo shalolalari g'oyat go'zal bo'lsa ham, bugun kishiga yoqimsizdek tuyuladi (M.Qoriyev). 5. Viloyatlardan kelgan qizlar normani bemalol bajaradi. Avval ham qilib yurgan ishi (O'.Hoshimov). 6. Ular bir etakni to'ldirguncha peshin bo'ladi. G'ayrat qilmasa bo'lmaydi. Bir kuni jon-jahdi bilan ishlashga qasd qilishdi. Birinchi etak ancha tez to'ldi (O'.Hoshimov). 7. Qo'rquv ichida molxona eshigini ochdi ...Qor kechib bostirma oldiga bordi. Pastak eshikni tortgan edi, negadir ochilmadi (O'tkir Hoshimov).

81- mashq. Badiiy asardan ravish holi va payt holi ishtirok etgan gaplarga oltita misol toping va ularning qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

O'rin holi ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiradi. O'rin hollari o'rin ravishlari (*Allaqayerdan musiqa ovozlari eshitilib turardi. Oldinroq yuraylik, keyinda qolmaylik*), o'rin kelishiklari (o'rin-payt, chiqish, jo'nalish) affikslarini olgan otlar bilan (*Universitetda o'qiyman. Maktabdan kecha keldim. Yaqinda Marg'ilonga jo'naymiz*), ko'makchilar bilan birga qo'llangan otlar bilan (*Anhor bo'ylab yurdik. Beshyog'och bekatiga dovur piyoda ketamiz.*), *-gacha* affiksi bilan birga qo'llangan otlar bilan (*Mustaqillik maydonigacha so'zlashib bordik.*) ifodalanadi.

O'rin hollari qayerda?, qayerga?, qayerdan?, qayergacha? kabi so'roqlarning biriga javob bo'ladi.

82- mashq. Berilgan misollar orasidan o'rin hollarini ajratib ko'rsating. Ularga tegishli so'roqlarni qo'yib ko'chiring.

1. Ayollarni hovli etagidagi xonaga, erkaklarni kiraverishdagi mehmonxonaga olib kirishdi (S.Ahmad). 2. Uni Farg'ona, Andijon, Sirdaryo viloyatlariga ko'p chaqirishardi (S.Ahmad). 3. Go'zallik nafosat olamining mag'zidir. 4. Bobom bozordan opam uchun turli narsalar sotib oldilar (Oybek). 5. Bolaligimda bu nom qulog'imga kirgan. O'sha vaqtda

parkning mana shu o'ng qanotlaridagi tepalik - hozirgi teatr binosi tushgan joy – go'riston edi (A. Qahhor). 6. Zuhra azaning to'qqizinchi kuni kirib keldi (A.Qahhor). 7. Hovlida, derazaning tagida turgan ikkita xotin tik holda gaplashib turib, gapni mingboshi dodho va Zebi to'g'risiga ko'chirdilar (Cho'lpon). 8. Aytishlaricha, kapalak vafoni bilmagani uchun guldan-gulga qo'naverar ekan (A. Qahhor).

83- mashq. Matndagi o'rin va payt hollarini aniqlang. Ularning farqini tushuntiring.

To'tiqiz ertalab qo'lga olgan do'ppisining gulini tikib bo'lib, bog'chasidagi shaftoli tagiga bordi, keyin nashvatilarni tomosha qildi. U yerdan o'tib, behilarni ko'rdi... To'tiqiz so'nggi vaqtlarda tinchini tamom yo'qotib qo'ydi. Uyga kirsa - uyda, hovliga chiqsa - hovlida betoqat bo'ladi. Nazarida kunlar oldinga emas, orqaga ketayotgandek, bosgan izi manzilga yaqinlashtirmay uzoqlashtirayotgandek tuyiladi. U ilgarilari hech qachon bu qadar betoqatlik sezmasdi. Hammasining og'zida, harakatida to'y. Nahotki, to'y qiz bola uchun shu qadar larzali bo'lsa! (M.Ismoiliy).

84- mashq. O'zingiz badiiy asarlardan o'rin hollari ishtirok etgan gaplarga oltita misol to'plang va qanday so'z turkumlari bilan ifodalanganini izohlang.

O'rin hollari ham holning boshqa turlari kabi birikmali qo'llanishi mumkin: *Ahillik bor joyda* hamma ish soz ketadi. *Talabalar yashaydigan xonalarda* doim ozodalik va saranjomlik saqlanishi kerak.

85- mashq. Matndagi birikmali hollarni aniqlang. Qaysi turdagi hol ekanligini aytib bering.

Sherzod salom berib, ostonadagi eski stulga o'tirdi... Zulayho pildiragancha hovli to'riga yugurdi. Yong'oq shoxiga ilib qo'yilgan ikki quloch arqondan yasalgan arg'imchoqqa osildi. Uydan naridagi supa ustida xontaxta turar, xontaxtada qolgan shisha idishdagi murabboni ari talar edi... Sherzod pastak darvozadan kirishi bilan dimog'iga rayhon isi urildi. Chap tomondagi gulzorda rayhonlar barq urib yotar, hovli yuzi iflos, hamma yoqda shox-shabbalar sochilib yotardi (O'.Hoshimov).

Daraja-miqdor holi ish-harakatning miqdorini, darajasini bildirib qancha? qay darajada? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Misollar: Gapni *kam* so'zla, ishni *ko'p* ko'zla. Daraja– miqdor hollari

ko'p, oz, biroz, bir muncha kabi miqdor ravishlari bilan *(oz* ishladim, *ko'p* o'qidim, uning ahvoli *biroz* yaxshilandi), *marta* so'zi bilan birga kelgan sonlar bilan (kitobni *uch marta* o'qib chiqdim) ifodalanadi. Misol: Darvoza oldida turib talabalarning mashg'ulotdan chiqishini *ancha* kutdik. Bu filmni *ikki marta* ko'rdim.

Daraja-miqdor hollari ham boshqa turdagi hollar kabi birikmali kela olishi mumkin.

86- mashq. Matndagi daraja-miqdor hollarini aniqlang. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

Meva bozorda sust ketadi. Tilanchilar va devonalar, boshqa hech kim deyarli ko'rinmaydi. Vaqt peshindan biroz oqqan. Biz tentirab yurib, unda-bunda to'xtab olxo'ri qidiramiz. Bozorda olxo'ri ko'p bo'lsa ham ancha qimmatga sotishadi. Biz esa arzonini qidiramiz. Nihoyat topamiz, ammo dumbul, mayda. Sotuvchidan so'rayman:

-Narxi qancha turadi? Arzonroq bersangiz olamiz, aka.

... Savdo zo'r bo'ladi. Talashib, tortishib qadog'ini bir miri kam bir tangadan, jami o'n ikki tangaga shaftoli sotib olamiz. G'izillab bozordan chiqib Balandmachitga boramiz. Nafs o'lgur yomon, birpasda o'nta shaftolini yeb qo'ydik (Oybek).

87- mashq. Berilgan misollar orasidan ravish hollari va daraja miqdlor hollari ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

1. Oldimdan katta-kichik odamlar o'tib turadi, lekin shaftoliga kimsa boqmaydi (Oybek). 2. O'rtoqlarim bilan ko'p o'ynadik. 3. Shu voqeadan bir necha kun o'tdi. Lazokat xolaning xonadoniga ancha fayz kirdi (M.Qoriyev). 4. El-yurt boshida yana qora bulutlar paydo bo'la boshladi. Urushning sovuq shabadalari esib, sovuq xabarlar kela boshladi (M.Qoriyev). 5. Anchadan keyin buvim g'imirsib o'rnidan turdi-da, tasbehini tokchaga qo'yib, sekin oldimga keldi (M.Ismoiliy).

Sabab holi ish - harakatning yuzaga kelish yoki kelmasligini bildiradigan holning bir turidir. Sabab hollari nima uchun?, nima sababdan? kabi so'roqlardan biriga javob bo'lib, chiqish kelishigidagi so'zlar bilan (*betobligidan mashg'ulotga kelolmadi, qo'rqqanidan qichqirib yubordi*), *-gani uchun* (sababli, tufayli) shaklini olgan so'zlar bilan (*yosh bo'lgani uchun ayrim xatolarga yo'l qo'ydi, mavzuni yaxshi tushunganimiz tufayli yuqori baho oldik*), *-(i)b, -may* affikslarini olgan ravishdoshlar bilan

(*Onam xavotirlanib uxlay olmadilar. Xatni o'qiy olmay qiynaldim*) ifodalanadi.

88- mashq. Berilgan misollar orasidan sabab holi ishtirok etgan gaplarni ajratib ko'chiring. Qavs ichiga so'roqlarini quyib chiqing.

1. Derazamning ro'parasidagi yuksak tog'lar tepasida tumanning nafis pardalari tortilibdi (S.Ahmad). 2. Oyog'iga kattakon etik, egniga qalin shinel kiyib olgan semiz bir harbiy doktor zina pog'onasiga o'tirib olib, bir nimalar yozar, qorong'ida yuzi uncha yaxshi ko'rinmagan bir necha kishi bilan ora-sira gaplashib qo'yar edi (Shuhrat). 3. Normuhammadning ra'yini deb hamma ixtiyor o'z qo'limizda bo'lgani holda, Ummatboyni mingboshi belgilab yuborduk (A.Qodiriy). 4. Qo'llari, oyoqlari, yuzi - hammayog'i loydan qorayib ketgan edi. 5. Vodiyning odamlariga hech tushunib bo'lmas ekan.

89- mashq. Matndagi sabab va o'rin hollarini aniqlang. Ularga tegishli so'roqlarni qo'ying.

Kuzatish boshlandi. Gulxan yonida ikki kishi o'tirar, undan nariroqda yana bir kishi endigina so'yilgan qo'yni daraxtga osib, terisini shilmoqda edi. Daraxtlar ostida bo'lsa, to'rtta ot o'tlab yuribdi. Jo'rabek yana u yoq – bu yoqni sinchiklab kuzata boshladi. Qurollari bormi, yo'qmi? Gulxan yonida o'tirgan ikki kishining biri po'stin kiygan, boshida savsar telpak. Unisi qora chopon kiyib, ustidan belbog' bog'lab olibdi... Jo'rabek bular oddiy kishilar emasligini endi tushundi. Ularning hammasida ham qurol bor... Jo'rabek Cho'lponning kechikib qolganidan xavotir ola boshladi. Hozir uning yoniga tezroq yetib borish uchun taraddudlandi. Lekin bir daqiqa ham bu yerdan ketib bo'lmaydi (M.Qoriyev).

90- mashq. Sabab hollari ishtirok etgan gaplardan misollar keltiring.

Maqsad holi ish - harakatning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi va qanday maqsadda?, nima uchun? (nima maqsadda?) kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Maqsad hollari fe'lning harakat nomi shakli va uchun, maqsadida (niyatda) so'zlari ishtiroki bilan (Do'rmonga dam olish uchun ketdik), jo'nalish kelishigi affiksini olgan fe'lning harakat nomi shakli bilan (Toshkentga o'qishga, bilim olmoqqa kelganmiz), ravishdoshning –gali (-gani) affiksini olgan shakli bilan (Sizni ko'rgani, ahvolingizni bilgani keldim).

91- mashq. Keltirilgan misollar orasidan maqsad holi ishtirok etgan gaplarni ko'chiring va so'roqlarini belgilang.

1. Tog'! Uning osmon barobar ko'tarilib turishini ko'rishning o'ziyoq kishini zamindan bir darajada ko'targandek bo'ladi. 2. Bayramxonning o'ttiz besh yoshlardagi turkman xotini, yana bir qancha kanizlar, xizmatkor ayollar shosha-pisha daryo tomonga yo'l oldilar (P.Qodirov). 3. Hozir o'zida bo'lgan noxushlikni yo'qotish uchun Rayimjon aka bilan suhbatlashmoqchi bo'ldi (O'.No'mon). 4. Shodligidan qul Tarlon, To'xtamadi yig'idan (O'.Olimjon). 5. Odiljon uyalganidan hech nima deya olmay, jim turdi. 6. Ko'zlarini bir-biridan uzmay sekin-sekin dardlasha boshladilar. 7. Uzoq yo'ldan charchab kelib uxlab qoldim (Oybek).

92- mashq. Matndagi sabab va maqsad hollarini aniqlang. Qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini izohlang.

1. Onasining ovozini eshitib badaniga shirin bir narsa o'rmalab ketdi (S.Ahmad). 2. Talabalar istagini bilish uchun bu yerga yig'ildik. 3. Onamdan xat kelmagani uchun xavotirlana boshladim. 4. Eshik oldi gul hovuz, Gul tergani kelganmiz. 5. Elmurod mol boqish uchun o'tloq qidirib kun sayin uzoqroqqa ketib qolardi. 6. Bobom ishtiyoq bilan so'ri atrofiga turli – tuman gul ko'chatlari ekdi (Oybek). 7. Oydinda chiroyli yiltiragan shaftolilar shoxini ko'tarolmay duv-duv to'kildi. 8. Nasiba O'ktam bilan qadrdonlarcha xayrlashdi (Oybek).

93- mashq. Misollardagi hollar ishtirok etgan gaplarni aniqlang. Hollarning qaysi turiga oidligini ayting.

1. Ikki otliq daryoni yoqalab, so'qmoq bilan yo'lga tushishdi. 2. Davruqqa bir borganimda bu do'ppini amakimning boshida ko'rib qoldim (A.Qahhor). 3. O'n kun orasida hozirlikni bitirib, to'y qildik 4. Sobir baqqol ohangdor, mayin ovoz bilan meni erkalab qo'yadi (Oybek). 5. Zulfiya ammam ahyonda bir yonimga kelib, ... ikir-chikir ishlariga unnab qo'yadi. 6. Yetti o'ylab, bir kes. 7. Kechki yoqimli shabada Halim bobo bog'ining har bir niholini erkalatib o'tardi. 8. Qayrag'ochlar yosh bo'lishiga qaramay, bog'chaga boshqacha husn berib turardi. 9. Tevarakda gala-gala qushlar to'xtovsiz chirqillashardi. 10. Haqiqatan, she'rlar samimiy yosh qalbdan yozilgan edi.

94- mashq. Matnda qo'llangan hollarni aniqlang. Ularning turini va qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

Ehson sog'liqni saqlash bo'limining apparatida qoldi. Nosirov unga o'zini xayrixoh tutar, apparatda shunday ishchan doktor ishlashiga juda xursand ekanini hammaga aytar edi. Ehson tayinlangan vazifada bir muncha vaqt ishlagandan so'ng Nosirovni uchratdi... Nosirov o'sha kunning o'zidayoq Ehsonni chaqirib boshqa ishga taklif qildi. Biroq Ehson o'z vazifasida qoldi. Nosirov toqatsizlana boshladi. U o'zini Ehsonga xayrixoh ko'rsatishga tirishsa ham, bu xayrixohlik ostida boshqa narsa borligini boshqalar bilishardi (A.Qahhor).

95- mashq. O'zingiz mustaqil ravishda oltita gap tuzing. Unda bir xil so'z ham aniqlovchi, ham hol vazifasida kelgan bo'lsin.

Namuna: Yaxshi odam yaxshi ishlaydi.

96- mashq. Misollarda tushirib qoldirilgan o'rinlarga gapning mazmuniga mos holdagi hollarni qo'yib ko'chiring. Hollarning qaysi turiga kirishini belgilang.

1. ... tugagandan keyin biz o'z qishlog'imizga ... ketdik. 2. Oradan ... kun o'tgach maktabdagi sinfdoshim Zafarni ko'rdim. 3. Dugonalar ... suhbatlashishdi. 4. Men ... ularning suhbatiga aralasha olmadim. 5. ... uchun hammamiz yig'ilib muzeyga bordik. 6. ... ko'p ajoyib narsalarni tomosha qildik. 7. Bundan hammamiz ... uy-uyimizga qaytdik. 8. Talabalarning orzusi ... shu xildagi ... marosimlarda ishtirok etish edi.

BIR SOSTAVLI GAPLAR

Tarkibidagi bo'laklarning ishtirokiga ko'ra bir sostavli va ikki sostavli gaplar mavjud.

Ikki sostavli gaplarda ega va kesim o'ziga qarashli bo'laklari bilan birga keladi, ya'ni ikki sostav – ega sostavi va kesim sostavi ishtirok etadi. Masalan: *Hovlimizdagi mevalar erta pishdi*. Bu gapdagi ega (mevalar) o'z aniqlovchisi (bog'imizdagi) bilan birga ega sostavini, kesim (pishdi) o'ziga qarashli payt holi (erta) bilan kesim sostavini tashkil qilgan. Demak, keltirilgan misolda ham ega sostavi, ham kesim sostavi – ikki sostavi mavjud. Shuning uchun bu xildagi gaplar ikki sostavli gap hisoblanadi. *Bu gapni sizga aytib bo'lmaydi.* Bu misolda kesim (*aytib bo'lmaydi*) o'ziga qarashli to'ldiruvchilar (*sizga* va *gapni*), birinchi to'ldiruvchi (*gapni*) ga qarashli bo'lgan (*bu*) bilan birga kesim sostavini tashkil qilgan. Gapda ega sostavi ishtirok etmagan. Shunga ko'ra bunday gaplar bir sostavli gaplar deyiladi.

Bir sostavli gap turlari quyidagicha: shaxsi aniq gap, shaxsi noma'lum gap, shaxssiz gap, shaxsi umumlashgan gap, atov gap va bo'laklarga ajralmaydigan gap.

Shaxsi aniq gaplar tarkibida ega qo'llanmagan, lekin kesim orqali egani topish mumkin bo'ladi: *Ertaga universitetda uchrashamiz. (Biz ertaga universitetda uchrashamiz.) Yaqin kunlarda Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarini ziyorat qilgani boraman. (Men yaqin kunlarda Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarini ziyorat qilgani boraman.)*

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, har ikki gapda ega qo'llanmagan bo'lsa ham, kesimdagi tuslovchilar orqali gapning egasi ***men*** va ***biz*** ekanligini aniqlash mumkin.

Shaxsi noma'lum gaplarda esa voqea-hodisaning, ish- harakatning bajaruvchisi noma'lum bo'ladi: *Mana shu joylarni sahroga o'xshatishadi.* Bu misolda sahroga o'xshatuvchilar (*bajaruvchi* - subekt) borday ko'rinadi. Ular sahroga o'xshatishadi deb ega o'rnida ular so'zini qo'yib ko'rsak gapning mazmuniga mos kelmaydi. Chunki, gapning mazmunidan «*Mana shu joylar sahroga o'xshatiladi*» degan mazmun bor. Yana misollar keltiramiz: *Ukamni kollejga qabul qilishibdi. Radioda bugun yomg'ir yog'adi deyishibdi.*

97- mashq. Keltirilgan misollardan shaxsi aniq va shaxsi noma'lum gaplarni ajratib ko'chiring. Shaxsi aniq gaplar uchun zarur bo'lgan ega vazifasidagi so'zni qavs ichida ko'rsating.

1. Yer haydasang kuz hayda; kuz haydamasang, yuz hayda, deydilar. 2. Otalikning farzi ayni – farzandga munosib ism qo'ymoq, deydilar. 3. Yugurganniki emas, buyurganniki, deb juda to'g'ri aytishgan ekan-da (A.Qahhor). 4. Rahmatilla Obidiyni kasalxonaga olib ketishdi (A.Qahhor). 5. Bemorlardan doim xabardor bo'lib turamiz. 6. Ilm deganni misqollab bobma-bob o'rganadilar.7) Jo'jani kuzda sanaydilar. 8. Bu joylarni hozir ham Qoradaryo deydilar. 9. Ijozat bersangiz fikrimni bayon qilsam.

Shaxssiz gaplarda ega borday tasavvur qilinmaydi va umuman harakatni bajaruvchi shaxsni topib bo'lmaydi. Misol: *Xonada shovqin qilinmasin. Bu yerdan tezda ketishga to'g'ri keladi.* Keltirilgan misollarda harakat bajaruvchisi – egani topib bo'lmaydi.

98- mashq. Qiyoslab berilgan gaplar orasidan bajaruvchi shaxs qo'llanmagan, lekin uni topib gapni ega bilan birga qo'llash mumkin bo'lgan gaplarni alohida, harakatning bajaruvchisi (ega)ni topib bo'lmaydigan gaplarni alohida ko'chiring va ularni izohlab bering.

1. Hamma ishni birdan bajarib bo'lmaydi. 2. Baribir shunday ishlashga to'g'ri keladi. 3. Yig'lanmasin. Nega yig'lanadi? (A.Qahhor) 4. Singan ko'zani o'z holiga keltirib bo'lmaydi-ku. 5. Bu xarsang toshlarni yemirib, bu metin devordan tuynuk ochib bo'lmas. 6. Ali Qushchining qutlug' boshini qutqarish uchun oltin javohirotlarni olmaslik lozim (O.Yoqubov). 7. Bu o'ktam, sohibtadbir yigitlarni ilgaritdan Samarqandda ekan chog'idan bilar, ularning omilkorligi-yu, dovyurakligiga ishongani vajidan Xumoyun yoniga xizmatga qoldirgan edi (P.Qodirov). 8. Charlar ham o'tar, andining yuzini ham ko'rarsan. (A.Qodiriy).

99- mashq. O'zingiz biror doston bo'yicha shaxsi aniq gapga ikkita, shaxsi noma'lum, shaxssiz gaplarga bittadan misol to'plab, ularni izohlab bering.

Atov gaplar (nominativ) gaplar predmet yoki hodisaning mavjud ekanligini bildiradi. Bunday gaplarda ega va kesim munosabati aniq ko'rinmasa ham predikativlik va gaplarga xos bo'lgan nisbiy tugal intonatsiya mavjud bo'ladi.

Masalan: *Keng dala. Bu yerda har qanday odam bahri dili ochilib yaxshi dam oladi. Ko'klam. Hammayoq yam-yashil libos kiygan.* Nominativ gaplardan keyin, albatta, uning izohi, aniq mazmunini ifodalovchi ikki sostavli gaplar keltiriladi: *Tong. Quyosh yerga oltin lentalar yoydi (O'.Hoshimov). O'qituvchi bo'lish. Bu juda katta mas'uliyat talab qiladigan kasb.*

Atov gaplar bitta so'zdan tuzilishi yoki birdan ortiq so'zlarning birikuvidan tuzilishi mumkin: *Mayning so'nggi kunlari.* Talabalar yozgi ta'tilga qizg'in tayyorlanishmoqda. *Oddiy yoz tongi.* Quyosh kalkovuz suvi bo'ylab o'sgan qalin tollarning uchida o'ynaydi (Oybek). Ayrim vaqtda atov gaplar birdan ortiq - qator kelishi mumkin. *Mart oyining oxirlari. Kunduz soat to'rtlar chamasi. O'quvchilarning qizg'in munozaralari boshlandi.*

101- mashq. Berilgan misollar ichidan atov gap ishtirok etgan qurilmani ajratib ko'rsating. Shu gapdagi kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini belgilab chiqing.

1. Jimjitlik. Giyohlar shitirlaydi, shamol chodirni silkitadi (S.Ahmad). 2. Vafo va sadoqatni timsoli bo'lgan Mohlar oyim Farg'ona xoni shoir Amir Umarxonning umr yo'ldoshi, benazir maslahatchisi, she'riyat osmonida chaqnagan yulduz Nodirabegim edi (S.Ahmad). 3. Qish. Butun

borliq oppoq choyshab bilan bezangan (Oybek). 4. Milodiy 1494- yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kun bo'yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi (M.Ismoiliy). 5. Xazonrezgi payti. Hirot bog'lariga suv beradigan Hirmiyrud daryosi va injil anhorining qirg'oqlariga za'faron yaproqlar to'kilgan (P.Qodirov). 6. Shu choldevor hovlimiz, shu tirikchilik ko'zimga har qanday boylarning sersavlat uylaridan yaxshi ko'rinadi (Oybek). 7. Hozir shu hamsuhbatlarining ko'zlari daraxt yaproqlari ortida qoldi (T.Malik). 8. Niyoz hech bir mulozamatsiz mashinaning oldingi eshigini ochdi-da, o'rindiqning changini qoqdi. 9. Ikkalamiz pushtada cho'kkalab qoldik. 10. Kun sovuq. Quyosh dam ochilib ko'ngillarni yoritib yuboradi, dam yopiladi-da, tumshayib oladi (Oybek). 11. Kech. Kun qoraygan. Temir yo'l ustaxonasida majlis o'tmoqda (Oybek).

102- mashq. Mustaqil ravishda o'zingiz atov gaplar ishtirokida to'rtta gap tuzing va nima uchun atov gap bo'lishini izohlab bering.

Shaxsi umumlashgan gaplarda ko'pincha nasihat, maslahat, odob o'rgatish kabi mazmun anglashiladi.

Bunday gaplarda ba'zan ega mavjud bo'lsa yoki uni topish mumkin bo'lsa ham gapdagi mazmun o'sha ega vazifasidagi so'zga emas umumga qaratilgan bo'ladi: Nimani eksang, shuni o'rasan. Bu gapda qo'llanmagan (yoki «tushib qolgan») ega *sen* so'zi bo'lsa ham mazmun umumga (hammaga) qaratilgandir. Shuning uchun bunday gaplar shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.

Shaxsi umumlashgan gaplar ko'pincha maqollarda uchraydi: Birni kessang, o'nni ek (Maqol). Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar (Maqol). Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt (Maqol). Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l (Maqol). Yer haydasang, kuz hayda; kuz haydamasang, yuz hayda (Maqol).

103- mashq. Berilgan misollar orasidan shaxsi umumlashgan gaplar ishtirok etgan bo'lsa, ularni ko'chirib yozing.

1. Yomonga yaqin yursang balosi yuqar. 2. Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar. 3. Sherzod bayramni o'tkazish uchun o'ziga yuz so'm olib qoldi-da, qolgan pulning hammasini qishloqqa – singlisining nomiga jo'natdi. Ayasi qanchalik quvonishini, qanchalik duo qilishini ko'z o'ngiga keltirib, o'ziyam suyunib ketdi. 4. Ko'z qo'rqoq - qo'l botir. 5. O'g'ri

bo'lsang ham, insof bilan bo'l. 6. Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l. 7. Yetti o'lchab bir kes. 8. Ko'pdan quyon qochib qutilmas.

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar. Bunday gaplar tarkibida ishtirok etgan so'zlarni gap bo'laklariga ajratib bo'lmaydi. Agar bunday gaplar bir so'zdan tuzilgan bo'lsa, u so'z hech qanday gap bo'lagi nomi bilan atalmaydi. Ko'pincha bu xildagi gaplar modal so'z, undovlar yoki ma'no jihatdan boshqa turkumga ko'chgan *qani rost, to'g'ri* kabi so'zlardan tuziladi.

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar, asosan, dialoglarda qo'llanadi va shu dialogda uning mazmuni to'liq ochiladi.

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar tasdiq (*mayli, xo'p, albatta, ha, to'g'ri, darhaqiqat* kabi) inkor (*yo'q, zinhor*, kabi), so'roq (*to'g'rimi, rostdanmi, a* kabi), his-hayajon, taajjub (*iya, voy, voy bo', nahotki* kabi) rasm-odat (*salom, xayr, ko'rishguncha* kabi) ma'nolarini ifodalaydi.

Misol: - Ertaroq ketsak maylimi?
- Mayli.
- Kech qolmay tezroq qayting.
- Xo'p.
- Fikrimizga tushundingizmi?
- Ha.
- Ertaga uchrasharmiz.
- -A?
- Bu ishni uch kunda bitiramiz.
- Nahotki!

104- mashq. Berilgan misollar orasidan bo'laklarga ajralmaydigan gaplarning aniqlang. Ular qanday ma'no ifodalab kelganini tushuntiring.

1. Sharif u bilan do'stlarcha ko'rishdi.
- Xo'sh? - dedi Sharif. — Ehsondan hech xat olasizmi?
- Yo'q.

2. — Uyga borishga yurak yo'q. Kampirga ro'para bo'lgani toqatim qolmabdi.
- Menda ozroq bor, - dedi Saidiy yonini kovlab.
- Yo'... yo'q.
- Yo'q, bemalol. Menda uch so'm bor. Ikki so'mi yetib turadi.
- Mayli. (A.Qahhor).

3. — Bozor yaxshi-da. Odam qalin, misoli daryoyi kabir, - deydi halfa.

- Bas! - deydi bobom charmdan boshini ko'tarmay. (Oybek)

4. Tog'alarim, halfalar ishlab o'tirganda to'satdan keksa halfa sukutni buzdi:

- Ertaga chorshanba bozorga boramiz-a?
- Ha (Oybek).

5. Bobom kulgidan qotib qoldi:

- Ey, tovba! (Oybek)

6. Oyim yana o'ylanib o'ylanib qoldi:

- To'g'ri, - dedi anchadan keyin. (O'.Hoshimov).

7. U sekin burildi:

- E,- dedi qo'l siltab. - Har xil odam bor ekanda bu dunyoda (O'.Hoshimov).

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar *so'z-gap* deb ham nomlanadi. Bunday so'z-gaplar to'liqsiz gaplardan farqlanadi.

To'liqsiz gaplar ham so'z-gaplarga o'xshash, asosan, dialoglarda qo'llanadi, uning mazmuni o'zidan oldin yoki keyin kelgan gaplardan to'liq anglashiladi. Farqi shundaki, to'liqsiz gaplar biror gap bo'lagi vazifasini bajaradi. So'z-gaplar esa, gap bo'lagi vazifasida qo'llanmaydi.

Qiyoslaymiz:

To'liqsiz gap	*So'z-gap*
- Bugun yig'ilishga kelasizmi?	- Bugun yig'ilishga kelasizmi?
- *Kelaman (kesim)*	- *Ha*
- Yig'ilishga qachon kelasiz?	- Bizni tanidingizmi?
kelasiz? - *Yo'q*	
- *Ertaga (payt holi)*	
- Kimlarni chaqiryapsiz?	- Uyga kirsam maylimi?
- *Talabalarni (*vositasiz to'ldiruvchi)	- *Mayli*

Misollardan ko'rinadiki, to'liqsiz gaplar bir so'z bilan ifodalangan bo'lsa ham, ma'lum gap bo'lagi vazifasini bajaradi. O'ng tomonda keltirilgan so'z-gaplar esa gap bo'lagi nomi bilan atalmaydi, gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi.

Agar so'z-gap vazifasidagi bunday so'zlar gap ichida (gapning boshida, o'ntasida va oxirida) kelsa, ular so'z-gap emas, kirish so'z hisoblanadi.

Quyidagi misollarga e'tibor bering:

- Siz Samandarovmisiz? - dedi qo'ng'iroqday ovoz.
- Ha, Sherzodman, - dedi bosiq ovozda.
- Sizni topib bo'ladimi o'zi?
- Kechirasiz, yana Farg'onaga ketishga to'g'ri keladi...
- Ie, sizmisiz, Shoiraxon?...
- Oldingizga kirmoqchi edim.
- Mayli, hozir ruxsatnoma yozib berishadi (O'.Hoshimov).

105- mashq. Matndagi to'liqsiz gap, so'z-gap (bo'laklarga ajralmaydigan gap)larni ajratib ko'rsating. Ularning qo'llanishidagi o'xshash tomonlari va farqli tomonlarini tushuntiring.

...Dutor yerga urildi... qars etdi. Tamom! Kuy ham, qo'shiq ham tindi-qoldi.

- Sindi! – dedim ovozim titrab.

Vali yugurib tepamga keldi:

- Voy-y-y! Endi dadang o'ldiradi! Ikkalamiz qo'limiz titragancha g'ilof bog'ichini yechdik. Qarasam, dutorning ip tortadigan qulog'i sinib tushibdi.
- Endi nima qilamiz? – dedi Vali ko'm-ko'k ko'zlarini jovdiratib.
- Yur! – Vali qo'limdan tutib, uyiga boshladi.

... Vali qutini titkilab zanglab ketgan temir topdi.

- Mana! – dedi u tantana bilan. – Endi hech ham sinmaydi.

Kechqurun oyimga nima bo'lganini aytib bergandim, rangi o'chib ketdi... Uch kundan keyin sir ochildi. Dadam hujradan turib jahl bilan qichqirib qoldi:

- Dutorga kim tegdi?...
- Zebi opa chaluvdi, - dedi oyim sekin. Sumalakka chiqqanimizda... bir chalib beray devdi. Qiziq, dadam birdan hovuridan tushdi.
- Mayli, - dedi birdan ovozi pasayib,- Zebi chalsa mayli. (O'.Hoshimov).

106- mashq. Keltirilgan misollardagi so'z-gap, to'liqsiz gap va kirish so'z vazifasida kelgan so'zlarni tagiga chizib ko'chiring. Misollardagi birikmali bo'laklarni aniqlang.

1. Bobur Mirzo sog'milar? - Ha, tuzalib qoldilar (P.Qodirov). 2. Bularning hammasini Xonzoda begimga bergin. – Bajonidil! (P.Qodirov). 3. Hozir deysizmi? - Hozir. Mayli hozir bo'lmasa, biron soatda bo'lar. 4.

Albatta tuzalasan, doktorga qarataman. – Yo'q uka, do'xtir deb chiqimdor bo'lma (A.Qahhor). 5. Demak, Ashirmirzoni kutamiz. Qachongacha kutamiz? – Dadasi kelguncha-da. 6. Yo'q, yo'q, keladi. Albatta, keladi (M.Ismoiliy). 7. Hey bolalar, ehtiyot bo'linglar. Bu hovuz ancha chuqur. (Oybek) - Qani, yaxshilab quloq sol. 8. Qorong'ida turtingan holda otinbibi paydo bo'ladi:

- O, yurtning boshiga falokat ag'darildi. Eshitdingizmi, Shahodatbonu?
- Ha, ha, eshitdik,- javob beradilar oyim (Oybek).

107- mashq. O'zingiz biror badiiy asardan bo'laklarga ajralmaydigan gaplar (so'z-gaplar)ga beshta misol topib, uning qanday mazmun ifodalaganini ayting.

UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR

Gapda ba'zan ayrim bo'laklar birdan ortiq kelishi mumkin. Birdan ortiq kelgan bunday bo'laklar bir xil shaklda kelib bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Shu xilda qo'llangan bo'laklar uyushiq bo'lak hisoblanadi. Tarkibida uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gaplar uyushiq bo'lakli gap sanaladi.

Misol: 1. Shu payt Qosim aka patnisda *xurmo, anor, olma* olib chiqdi (S.Ahmad). 2. Umarali *tollar, majnuntollar, teraklar* tagida asta sayr qilib, sabrsizlik bilan kezardi (Oybek). 3. Aytganlarim rost*: bordik, o'tirdik, bahslashdik* (Oybek).

Yuqoridagi misollarning birinchisida vositasiz to'ldiruvilar (*xurmo, anor, olmani*), ikkinchisida o'rin hollar (*tollar, majnuntollar, teraklar* tagida) va uchinchisida esa kesimlar (bordik, o'tirdik, bahslashdik) birdan ortiq bir xil shaklda, bir xil so'roqqa javob bo'lib kelgan - uyushib kelgan.

Birdan ortiq kelgan bir xil bo'laklar doim uyushiq bo'lak hisoblanavermaydi. Misollarni qiyoslaymiz:

1. Men sportni, muzikani sevaman.

2. Men sizga kitobni sovg'a qilmoqchiman.

Misollarning birinchisida ikkita vositasiz to'ldiruvchi bir xil so'roqqa javob bo'lib, birdan ortiq kelgani uchun uyushiq to'ldiruvchi hisoblanadi. Ikkinchi misolda ikkita to'ldiruvchi kelgan bo'lsa ham ular ikki xil shaklda – jo'nalish kelishigi va tushum kelishigi affikslarini olgan holda qo'llangan va ikki xil so'roqqa (kimga? nimani?) javob bo'lgan. Shuning uchun ular uyushgan bo'lak sanalmaydi.

Xuddi shunga o'xshash holatni quyidagi misollarda ham ko'rish

mumkin: *Ko'klamning mayin shamollari esmoqda.* Bu gapda ikki xil aniqlovchi (qaratqich va sifatlovchi) ishtirok etgan. Doim Samarqandda yashadik. Bu gapda ikki xil hol (payt holi va o'rin holi) ishtirok etgan. Bu har ikki misoldagi birdan ortiq qo'llangan aniqlovchi va hollar uyushgan bo'lak hisoblanmaydi.

Gapning barcha bo'laklari uyushib keladi.

***Egalar uyushadi**: Bu musobaqaning o'z g'oliblari, o'z «chempion»lari bor edi. Unga Buxoroning tillasi, qora ko'li, pillasi, gazi kerak edi (S.Ahmad). Uning do'stlari, shogirdlari, muxlislari benihoya ko'p edi (S.Ahmad.)*

***Kesimlar uyushadi**: Ko'zini oladi, yana qaraydi, iljayadi. U faqat yozardi, o'qirdi, mashina tuzatardi. (S.Ahmad) Yalindimi, yolvordimi, bo'lib o'tgan ishlarni bir umr unutib yuborganligimni aytdim, bo'lmadi (S.Ahmad)*

***Aniqlovchilar uyushadi**: Qandoq beozor, bearmon kunlar edi Andijondagi kunlarim. Abdulla Qahhor insonni beburd qiladigan, obro'sini to'kadigan, qadr-qimmatini yerga uradigan narsalardan hazar qilardi (S.Ahmad). Qodiriy, Qahhor romanlarini berilib o'qiganman. Lekin u ming-minglab o'quvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari yuragiga chiroq yoqib ketdi. (S.Ahmad).*

***To'ldiruvchilar uyushadi**: Endi ular kitoblarda, shoirlarning nazmida, bastakorlarning dilni o'rtovchi kuylarida qolgan. (S.Ahmad). Terini, junni va go'shtni davlatga sotishadi. Abdulla, Erkin, O'lmas, Ne'mat, O'tkir, Nosir, Xudoyberdi, Anvarlarni o'z ukasidek ko'rardi. (S.Ahmad.)*

***Hollar uyushadi**: Yomonligi uchun betiga qora surtib, eshakka teskari mindirib qishloqdan chiqarib yuborishadi. Oyim shikasta ovoz bilan g'azallarni juda ravon, mayin o'qir edilar. Kampir bu tovushlarga bir dam quloq tutib, boshini tebratib, kulib qo'ydi. (S.Ahmad) Uning tergovchilari Farg'onada, Xorazmda, Buxoroda ish olib borardi. (S.Ahmad).*

108- mashq. Matndagi uyushiq bo'lakli gaplarni aniqlang. Gapning qaysi bo'laklari uyushganligini belgilang.

Yozgi ta'tilda Munisxon akasi bilan Qrimga ketib, Saidiy shaharda yolg'iz qoldi. Uning boradigan yeri, so'zlashadigan kishisi yo'q: kuni bilan hujrasida o'tirib turli yozuvchilarning maqtalgan asarlarini o'qish va hikoya yozish bilan vaqtini o'tkazar edi. Yana birmuncha she'r va hikoyalarini o'sha jurnalga yubordi.

Bu jurnal yozuvchilarni uch turga bo'lib, asarlarini taqdim qilardi:

talantli shoirlar, tarbiya va kengashga munosib yosh qalamkashlar va havaskor yozuvchilar. Saidiy esa so'nggisiga ham kirmas, uning ismi mudom oxirgi sahifada «bosilmaydi» so'zi bilan zikr qilinardi. Saidiy umidsizlanmadi, chunki o'zi yolg'iz emas, yana boshqa yigirmalab ismlar ham bor edi. U o'zini tarbiya va kengashga munosib darajaga ko'tarish uchun juda ko'p kitoblar o'qidi, bir necha oy ichida ikki yuzdan ortiq badiiy asarlarni o'z ichiga olgan kutubxonaga ega bo'ldi (A.Qahhor).

109- mashq. Berilgan misollar orasidan uyushiq bo'lakli gaplarni ajratib, ular qaysi bo'lak ekanligini ayting.

1. Qashqarcha kumush obdasta ko'tarib kelayotgan semiz oftobachi har o'n qadamda bir to'xtab qolardi (P.Qodirov). 2. Deraza oldiga ekilgan olchalar va giloslardan shovullab xazon to'kildi (P.Qodirov). 3. Mahalla machitining minorasidan bobomning baland, toza, yangragan ovozi eshitiladi (Oybek). 4. Sobir baqqolning do'koniga bir zum ag'rayapman, eski, pachoq qul torozini o'ynagim keladi (Oybek). 5. O'zi Samarqandga qarab yo'lga chiqish oldidan tiniqib olish maqsadida daryo bo'yidagi chorbog' tomon ketdi (X.Davron). 6. Muqaddas teskari qarab turgan bo'lsa ham, men uni darrov tanidim (O.Yoqubov). 7. Yomonlikka adolat, yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishga to'g'ri keladi (X.Davron).

110- mashq. Badiiy asardan uyushiq ega va uyushiq kesimli gaplarga oltita misol to'plang.

Uyushiq bo'lakli gaplardagi uyushgan bo'laklarni yaxlitlab, umumlashtirib ko'rsatish uchun ba'zan *umumlashtiruvchi birliklar* birga qo'llanadi.

Bunday birliklar birgina so'z yoki so'z birikmasi shaklida keladi. Masalan: *bu ishni oz fursatda bitirish uchun quruvchilar, olimlar, o'qituvchilar - hamma bosh qo'shdi. Insonning hamma narsasi: yuzi ham, qalbi ham chehrasi ham, kiyimlari ham go'zal bo'lmog'i kerak.*

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, birinchi gapda umumlashtiruvchi birlik vazifasida birgina so'z *(hamma)*, keyingi gapda esa, umumlashtiruvchi birlik vazifasida so'z birikmasi (*insonning hamma narsasi*) bilan ifodalangan. Umumlashtiruvchi birlik vazifasida ko'pincha jamlovchi olmoshlar hamma, bari, barcha), otlar yoki boshqa so'z turkumlari kela oladi: Ko'rib chiqdi uni *barcha:* Odil, Toshmat, Halima. (P.Mo'min). Ibrohim otaning *o'g'illari*: Sobir, A'zam, va Dilshodlar ham ana shu yerda edi. Qushlarning rangi

ajoyib: oq, pushti, qora, qizil. Otliqlardan *uchtasini*: Ergashni, Obidni va Ahmadni tanidim. *Tabiat hodisalari*: shamol, qor, yomg'ir, do'l o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ko'rganlarim, eshitganlarim – *hammasi* esimda.

Uyushiq bo'laklar *orasida va, ham, ammo, biroq lekin, goh-goh, dam-dam, na-na* kabi teng bog'lovchilar ishlatiladi yoki tenglanish ohangi qo'llanadi.

111- mashq. Yozuvchi Said Ahmad asarlaridan uyushiq bo'lakli gaplarga keltirilgan misollarni tahlil qiling.

1. Ayriliq, cheklanish, iztirob damlarida inson bitta maqsad bilan yashaydi. 2. Shu zaylda kulgi bilan, qo'shiq bilan ish davom etadi. 3. Mirtemir jon-tani bilan, vujud-vujudi bilan, sabr-bardoshi, o'y-tuyg'ulari bilan shoir edi. 4. U erta bilan Ko'kcha bozoriga borib bolalarga qatiq, qaymoq, issiq non xarj qilib kelardi. 5. Ularning ijod jarayonlarini, xususiyatlarini, xalq og'ziga tushib qolgan qo'shiqlarini, har bir xonadonning mulki bo'lib qolgan kitoblarining qay tariqa yaratilganini tarixga qoldirishimiz kerak. 6. Bu she'r ulkan shoirning falsafiy qudratini, so'z san'atkorligini, hayot hodisalarini nihoyat chuqur bilishini namoyish qilgan edi. 7. O'.Umarbekovning fikr doirasi kengligi, ko'p o'qiganligi, o'zini tutishi, odobi unga yoqdi.

112- mashq. Berilgan misollar orasidan uyushgan aniqlovchi va uyushgan to'ldiruvchilarni ajrating. Bu uyushgan bo'laklar qanday vositalar orqali bir-biri bilan birikkanligini tushuntiring.

1. O'ktam O'zbekistonning tabiatini, paxtasini va xilma-xil mevalarini ta'rif etar edi (Oybek). 2. Ko'katlar, gullarning hidi dimoqqa gup etib urar edi. 3. Tip-tiniq, musaffo Andijon osmonini to'ldirib yulduzlar porlardi (P.Qodirov). 4. Baland teraklar, serquloch qayrag'ochlarning uchlarida yulduzlar chaman-chaman yonadi (Oybek). 5. Hamidaxon goh singlisiga, goh To'tiqizga qarab quvonar edi. 6. U kosiblar, kambag'allar, soatsozlar, kulollar bilan suhbat qiladi; sulhdan, hayotdan, ishdan so'zlaydi (Oybek). 7. Ko'klamning mayin shabadalari ko'm-ko'k yaproqlarni asta tebratmoqda.

113- mashq. Berilgan misollardagi ko'p nuqta qo'yilgan o'rinlarga gapning mazmuniga qo'yib o'zingiz uyushgan bo'laklarni qo'shib yozing va qanday bo'lak uyushganligini belgilang.

1. Erta tongda turib kitob va ...ni papakaga joylab o'qishga otlanardi. 2. Biz keng va ... dalalarda yayrab dam oldik... 3. Maktab binosi orqasiga ekilgan olma... va ...ni doim o'zimiz parvarish qilardik. 4. Ukam qushlarni juda yoqtiradi, shuning uchun u sa'va, mayna va ...larning suratini berilib chizadi-da, bizga ko'rsatib ... 5. Qishlog'imiz o'rtasidagi katta va ... anhor doim sokin va ... oqardi. 6. Onam o'zlari bilgan ertaklarni bizga zavqlanib ... so'zlab berar edilar.

114- mashq. Berilgan misollar orasidan umumlashtiruvchi birliklar ishtirok etgan gaplarni aniqlang. Umumlashtiruvchi birlik qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini ayting.

1. «O'tgan kunlar»dan, «Mehrobdan chayon»dan, «Kecha va kunduz»dan judo bo'lgan o'zbek kitobxoni romanni nihoyatda quvonch bilan kutib oldi (S.Ahmad). 2. Vafo, sadoqat, muhabbat haqidagi she'rlari gazetada bosila boshladi (S.Ahmad). 3. Yonidan har xil odamlar: ko'chat sudraganlar, qo'y yetaklaganlar, qop orqalaganlar o'tib turardi (Oybek). 4. U juda ko'p joylarda: Armanistonda, Turkmanistonda, Tojikistonda tanilgan yozuvchi edi. 5. Kishilar, xotinlar, bolalar – kutib oluvchilar vagon bo'ylab chopdilar. 6. O'zini tutishi ham, ovozi ham muloyim jilmayib turishi ham - hamma-hammasi odamlarni sehrlab qo'ygan edi. 7. Jaladan so'ng daladagi narsalarning hammasi: polizlardagi ekinlar, daraxt nihollari, hatto omonat chayla ham yer bag'irlagan. 8. Gulzorning narigi tomonida daroyi, husayni, yakdona, charos – turli uzum ishkomlari bor edi.

115- mashq. Yozuvchi Abdulla Qahhor asarlari bo'yicha uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gaplarga o'nta misol topib, uni izohlab bering.

UNDALMALI GAPLAR

So'zlovchi o'z fikrini shaxs yoki predmetga qarata bayon qiladi. Ya'ni so'zlovchining fikri ma'lum shaxs yoki shaxslarga qaratilib aytiladi. So'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki predmet undalma hisoblanadi. Undalma ishtirok etgan gap esa undalmali gap deyiladi. Misol: *Zaminni, zamonni, yashartir, Navro'z! Gulla, yashna, hur o'lkam*! *Aziz o'lkam O'zbekiston, aziz yoshing muborak!*

Undalmalar gap tarkibidagi bo'laklar bilan grammatik aloqaga

kirishmaydi. Ya'ni undalmalar ma'lum gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi. Shuning uchun ham undalma gapdagi bo'laklar bilan mazmunan bog'lansa ham, ular bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi.

Undalma gapning boshida, o'rtasida va oxirida keladi. Misol: *Onajon,* men sog'-salomat yuribman, mendan hech xavotir olmang. *Muxtaram, otalar, onalar,* sizga murojaat qilamiz. Ko'zimizning go'zalligin ko'rganmisiz, og'aynilar! (Q.Muhammadiy). Kuylangiz, xonim qizlar, chevar qizlar (Mirtemir). Bor, bolam, bor! (A.Qodiriy). Undalmalar, asosan, otlar bilan ifodalanadi. Ayrim vaqtda undalma hoy, hey, ey kabi undalmalar bilan birga qo'llanadi. Misol: Hoy ukam, men sizni anchadan buyon axtarayapman. Hoy qarg'avoy, endi sen gapir-chi! Ba'zan bunday gaplarda ot bilan ifodalangan undalmalar tushib qolib, undov so'zlarning o'zi undalma vazifasida keladi. Misol: *Hoy,* nega gapirmayapsiz? *Hoy,* bu yerdan tez ketaqolaylik.

Undalmalar bir so'z bilan yoki birikmali holda kelishi mumkin. Misollar:

Kuylangiz *xonim qizlar, chevar qizlar,*
Boshlarida ipak ro'mol hilpillasin,
Kuylangiz *asl qizlar, dongdor qizlar*
Ko'kraklarda yulduzlar yaltillasin.

(Mirtemir)

Bo'stonimning guli! Bog'imning bulbuli! Ko'zingni och, *oltinim! Qo'li qo'li gullar,* dard ko'rmasin qo'lingiz. O'lmang, ey qo'li gul, jafokash bog'bon!

Undalmalar birdan ortiq holda, uyushib kelishi mumkin:

Surayyo, Muhayyo, Ra'no, Muqaddas!
Ko'zimni o'ynatib kiyibsiz atlas.

Tiz cho'kmas, gard yuqmas g'oyamisiz,
Ey baland cho'qqilar, qoyalar.

(Z.Obidov)

Suyukli qiz, qorako'z Navro'z,
Badaxshonning nozli kaptari,
Sen haqingda yuritaman so'z.

(Mirtemir)

- *orzu-umid* ma'nosini bildiradi: *afsus, attang, essiz* kabi
- *taajjub* ma'nosini bildiradi: *hayhot, ajabo, voajab* kabi.
- *fikrning kimga qarashliligini* bildiradi: *menimcha, uning aytishicha* kabi.
- *fikr tartibini* bildiradi: *birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan* kabi.
- *fikrni xulosalash* ma'nosini bildiradi: demak, xulosa qilib aytganda kabi.

Modal so'zlar, sifat, son, ot, undovlar, kirish qurilma vazifasida keladi.

Bunday so'zlar ikki xil vazifada ishlatiladi:

1) faqat kirish qurilma vazifasida qo'llanadi: albatta, balki, attang, afsus, birinchidan, demak kabi.

2) ham kirish qurilma, ham gap bo'lagi bo'la oladi: to'gri, rost kabi.

Kirish qurilmalar tuzilishiga ko'ra sodda va birikmali holda qo'llanadi.

Sodda kirish qurilmalar bir so'zdan tuzilgan bo'ladi. Albatta, chamasi, ehtimol, shubhasiz kabi.

Birikmali kirish qurilmalar birdan ortiq so'zlardan tashkil topgan bo'ladi: uning aytishicha, mening fikrimcha, qisqasini aytganda kabi.

Kiritma qurilmalar so'zlovchi bayon qilinayotgan fikrning izohini, to'liqroq mazmunini ifoda qilish uchun ishlatiladi. Misol: Otabek (Yusufbek Hojining o'g'li) juda aqlli, hushli yigit. (A.Qodiriy)

Biz maqtanchoqlarni (ayniqsa, o'zini o'zi maqtaydiganlarni) hech yoqtirmaymiz. Daraxt ko'chatlari (bu yil ekilgan daraxtlarni nazarda tutyapmiz) juda tez avjiga oldi.

120- mashq. Keltirilgan misollardagi kirish qurilmali gaplarni ajrating. U gaplarda kirish qurilma qanday ma'no ifodalash uchun qo'llanganini ayting.

1. Baxtga qarshi, Saida uning xohishini payqamadi (A.Qahhor). 2. Hay attang, qani o'rtoq Odilov, siz gapiring, shu gaplar rostmi? (A.Qahhor) 3. Haqiqatan, she'rlar samimiy, yosh qalbdan yozilgan edi. 4. Bizningcha, ma'ruzachi ko'p narsalarni chuqur mushohada qiladigan olim bo'lsa kerak. 5. Shubhasiz, ko'prik shu yerga yaqin joyda. 6. Xullas kalom, sabr-qanoatni ham unutib qo'ydi. 7. Qishloqdan chiqib ketganiga, ehhe, qancha bo'ldi! (O'.Hoshimov) 8. Qirq oltinchi yil. Toshkentda Navoiy teatri qurilgan kezlar.. Tepaqo'rg'ondagi yetti yillik maktabda g'alati voqea sodir bo'ldi (O'.Hoshimov). 9. Peshonangizga yozib qo'ying, uka! Ilm kishisi avvalambor odam bo'lmog'i kerak, ana undan keyin olim! (O.Yoqubov)

10. Hoy, noinsof, sizga gapirayapman, bola qiynalib ketdi (Shuhrat). 11. Tavba, sira kattalarga o'xshamaysiz-a, shundoq odam o'zimizga o'xshab, jo'ngina gaplashasiz-a! (S.Ahmad)

121- mashq. Berilgan misollardagi kiritmalarni alohida, kirish qurilmalarni alohida izohlab bering. Kiritma va kirish qurilmali gaplarni esa farqlab, alohida-alohida ko'chiring. Undalmali gaplarni ham izohlab bering.

1. Eha, hali gap bu yoqda degin! Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz? (S.Ahmad) 2. Qo'y, qizim, siqilma! Unut o'shani! Boshqa hohlagan odamingni ayt. 3. Xamdardim Habibulla, shu kungacha qismatda borini ko'rdik, endi qolganiga ham tayyor turmog'imiz darkor. 4. Meni doimo qoyil qoldiruvchim, siz o'quvchilarda insof-u diyonat kuchli-da, ashaddiy dushmanimni ham bir pasda do'stga aylantirdingiz. 5. Qiz xo'jonim, tez zoringni (chodrangni demoqchi bo'lsa kerak) yopin, yur tezroq («Choliqushi). 6. Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (maqtanchoqlikni yomon ko'rar edi) ba'zan ichidan faxrlanadi. 7. Toshkent tinchlangandan keyin (agar salomat bo'lsam) o'zim xabar yuboraman. 8. Ehtimol uni sevarman. Biroq hali javobini berganim yo'q (Sh.Rashidov).

«SODDA GAP SINTAKSISI» BO'LIMINI TAKRORLASH UCHUN MASHQLAR

123- mashq. Matndagi berilgan sodda so'z birikmalarini aniqlang. Ularning tarkibida qanday sintaktik aloqa (moslashuv, boshqaruv va bitishuv) mavjud ekanligini ayting.

Erta bahor edi o'shanda. Maysalar endi bosh ko'tarib sabza bo'lgan, nihollar nish ura boshlagandi. Birdan sovuq shamol turib, yomg'ir yog'a boshladi, keyin qorga aylanib, hammayoqni qish libosiga burkadi-qo'ydi.

Oppoq qorga burkanib olgan azim tog' cho'qqilari, qir-adirlar, archazor yonbag'irlar xuddi yana qaytadan uyquga ketgandek jim yotibdi. Bunday kezlarda tabiat o'z salobati, hech kimga bo'ysunmaydigan qonuniyatlari bilan butun borliqni ana shunday jimjitlikda ushlab turgandek tuyuladi kishiga. Daraxtlar bo'lsa, ustidagi qorko'rpasini silkitib tushirib yuborsa sovuq urib ketadiganday mayishib-egilib bo'lsa ham o'zini tutib turgandek (Maqsud Qoriyev).

124- mashq. Keltirilgan misollarning kuzatilgan maqsadga ko'ra qanday gap ekanligini aniqlang. Gapning bosh bo'laklarini topib, qanday so'z turkumi bilan ifodalanganligini ayting.

1. Muvaffaqiyat qozonish - hamma narsaning asosi, u hukmronlik garovi (P.Qodirov). 2. Ikkovi ham latofat va iffat farishtasi (P.Qodirov). 3. – Mehrdan gapirmang! - deb Xolida tog'asini jerkib tashladi, - Hammalaringiz birsiz! Boring, ayting uylanaversinlar! Ammo ikkinchi mening yaqinimga kelmasinlar! Bas! (P.Qodirov) 4. Oh! Yana o'sha og'riq uyg'onganidan sohibqiron chuqur oh tortdi (Xurshid Davron). 5. Shunaqa bo'lishini bilganimda, kecha keta qolmasmidim? (O.Yoqubov) 6. Shu xotiralardan boshqa nimam ham bor meni? (O.Yoqubov) 7. Uning tovushidan quloqlar yorilgudek bo'ladi (Oybek). 8. Mening o'g'lim ekan o'sha yigit! Mening o'g'lim! – dedi Amir Temur ko'zidagi alam o'rnini g'urur egallab (Xurshid Davron). 9. O'zimni o'limga berib, bir gunohsizni qutqarish uchun kelganman (A.Qodiriy).

125- mashq. Birikmali gap bo'laklarini aniqlang va shu birikmali bo'lak qaysi gap bo'lagi vazifasida kelganini ayting.

1. Sendan bitta iltimos Asroradan Karimning adresini olib, menga yubor (S.Ahmad). 2. Uyqusizlikdan achishgan ko'zlarimni ishqalab, endi vannaxonaga kirmoqchi edim, pastdan mashinaning guvillashi eshitilib qoldi (O'.Hoshimov). 3. Ali Qushchining qutlug' boshini qutqarish uchun oltin-javohirlarni ayamaslik lozim (O.Yoqubov). 4. Yong'oq shoxlari orasida boshiga kuloh kiygan barvasta bir odamning qorasi ko'rindi (O.Yoqubov). 5. Temir qoplangan og'ir eshik ohista g'ichirlab ochildi (O.Yoqubov). 6. Ular uyga bir quchoq shox-shabba olib kirib, tancha o'rniga gulxan yoqishdi (O.Yoqubov). 7. Kakliklarning ovozi onda-sonda eshitiladigan bo'lib qoldi (Sh.Xolmirzayev). 8. Bu xayolga sig'maydigan bir xom xayoldur (O'.Hoshimov).

126- mashq. Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini topib, ular qanday so'z turkumi bilan ifodalangani va hokim so'z bilan qanday sintaktik aloqaga kirishganligini ayting.

1. O'g'lim, sizda o'shanday zaho va iste'dodni ko'raman, sa'y-g'ayratni aslo qo'ldan bermangiz (Oybek). 2. Shom qorasida Majiddin xizmatdan uyga qaytdi (Oybek). 3. Nahotki, hech kim ularni ko'rmadi? (O'.Umarbekov) 4. Abdulla uning taram-taram peshonasiga, oq oralagan

siyrak sochlariga tikilar edi. 5. Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa tarbiyadir. 6. Ijod dardi - qalbning qa'rida uyg'onib, butun vujudini larzaga solgan bu og'riq, Navoiy uchun shirin lazzat ona allasi kabi yupantiruvchi hayot va quvonch bag'ishlovchi bir kuch edi (Oybek). 7. Har ikkala imorat qurilishi nazorat qilib borildi (X. Davron). 8. Haqiqatni bilishni istasang, uni oxirigacha eshit (X.Davron).

127- mashq. Keltirilgan misollardagi sifat va ravish boshqaruvli birikmalarni ajratib tushuntirib bering. Gaplardagi kesimlarning qanday turlari ishtirok etganligini ayting.

1. Shu vaqt olisda soqqadek kichkina, qora bir narsa paydo bo'ldi (O'.Umarbekov). 2. Darvoza orqasida kunga boqardek katta qizil kartoshka guldan boshqa narsa ko'ziga ko'rinmadi. 3. Inson qalbi toshdan qattiq, guldan nozik bo'lar ekan. 4. Qum ham misoli oqar daryo. Shamol uni qayoqqa haydasa, o'sha yoqqa oqadi. Ammo qumning oqimi suvdan tez, shamoldan kuchli, seldan dahshatliroq (P.Qodirov). 5. Bu narsa uning yuragini taka-puka qiladi, a'zoyi badanini zir titratadi (P.Qodirov). 6. Bir soat tafakkur bir yillik toatdan afzal (Oybek). 7. Unga bari birday hayot va o'lim, go'yoki keksa chol so'ngini o'ylar (A.Oripov). 8. Dadam anchagina jim o'tirganidan keyin nosvoyni tupurib tashlaydi-yu, qisqagina qilib to'ng javob beradi (Oybek). 9. Uning hujrasida batrak Yo'lchiboy o'tirar edi (A.Qahhor).

128- mashq. Misollar ichidan bir sostavli gaplarni topib, ular bir sostavli gaplarning qaysi turi ekanini tushuntiring.

1. Kechki o'n bir. Bu hali juda kech degani, bitta ham odam bu yerdan o'tmaydi degani emas-ku! (O'.Umarbekov) 2. Teshaboy ichida to'lib-toshgan alamini sezdirib qo'ymaslik uchun Oqchurinnni yumshoq gap bilan chiqarib yubordi-yu, keyin shu alam o'tida qovrila boshladi (M.Ismoilov). 3. Jimjitlik. Giyohlar shitirlaydi. Shamol chodirni silkitadi (S.Ahmad). 4. – Xo'sh, bu tuhmatdan iborat xatlardan, uydirma mish-mishdan, bunaqa nayrangdan kuzatilgan, maqsad nima? (A.Qahhor) 5. – E,e, yigitcha! Qani, bu yoqqa keling-chi! – Ho', barakalla, barakalla, Suyar! (A.Qahhor) 6. Tarabxona. Katta bog'chalarning o'rtasida solingan kichikroq, lekin juda kelishgan ikki oshyonlik bino, bu yerni o'z ko'zi bilan ko'rgan Zahiriddin Muhammad Bobur soldirgan edi (Oybek). 7. Kechki kuz fasli. Erinchak qish hali o'zini sezdirgan emas (Oybek). 8.

Yozning issiq kunlari. Egnimda ko'ksi ochiq, yoqasiga pilta otgan surp yaktak (G'.G'ulom). 9. Milodiy 1494- yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi (P.Qodirov). 10. Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi, deydilar. 11. Kech. Kun qoraygan. Temiryo'l ustaxonasida majlis qizg'in davom etmoqda (Oybek).

129- mashq. Keltirilgan misollardagi undalmali, kirish so'z va kiritmali, uyushiq bo'lakli gaplarni ajratib tahlili qiling.

1. Qashqir gulxan atrofida o'tirganlarga hadiksirab qaradi (O.Yoqubov). 2. Amir Temur jang-u jadallar bilan yana bir yangi mamlakatni zabt etdi va davlatni boshqargan eski amaldorlarni o'rnida qoldirib, boshqa yurt ustiga yurish boshladi (X.Davron). 3. Bahor va tog'lar ayvonga ishlatilgan naqshlarni, gumbazdagi naqshlar rangini ochib ko'rsatar edi (H.Davron). 4. Yurtim, senga she'r bitdim bu kun, qiyosingni topmadim aslo! (A.Oripov) 5.Baxtimgaanchaginatomlar tutash edi (G'.G'ulom). 6. Kapitan Aliyev shunga katta umid bog'lagan edi (O'.Hoshimov). 7. Dalaga yoyilgan otlarning kishnashlari, yigitlarning qo'shiqlari, quloqlarda endi boshqacha yangraydi. 8. Otin bibi - qari, jiddiy, sersavlat xotin-qo'liga ingichka, uzun tayoqni ushlab, qizlardan ko'zini uzmas, qurt shimgan, saqich chaynagan qizlarni tayoq bilan asta urib, o'qishga undar edi (Oybek). 9. Mahalla, qo'ni-qo'shni, qarindoshlar - hammasi bizning uyga yig'ilishgan (Oybek). 10. Hech bo'lmasa, shu mening dushmanimga otgan o'qim bo'lsin (S.Ahmad.).

QO'SHMA GAPLAR

Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gapning birikuvidan tuziladi. Qo'shma gap tarkibidagi qismlar (gaplar) quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Ular mazmun jihatidan bir-biriga bog'lanishi kerak. Masalan, quyidagi gaplarni yonma-yon quyib qo'shma gap hosil qilib bo'lmaydi: *«Qor yog'di, gullar ochildi» yoki «Kunlar soviy boshladi, ko'klam keldi».* Bu gaplarda mazmunga ko'ra bog'lanish yo'q. Agar bularni «Qor yog'di, kunlar soviy boshladi» va *«Ko'klam keldi va gullar ochiildi»* deb qo'llasak, har ikki juftlikda ham mazmunga ko'ra bog'lanish bo'lgani uchun ular ikkita qo'shma gapni tashkil qiladi.

2. Qo'shma gapning tarkibidagi har bir qismda predikativ munosabat bo'lishi kerak, ya'ni har bir gapning o'zini alohida ega va kesimlari

bo'lishi kerak. Masalan : *«Tirishib o'qisang, ko'p narsani bilasan»* gapida ikkita kesim (o'qisang, bilasan) bor bo'lsa ham, har ikki kesim uchun alohida ikkita ega emas, bitta ega (sen) mavjud. Shuning uchun bu gap qo'shma gap emas sodda gap hisoblanadi.

«Taklif qilsak, albatta, kelarsiz» gapida esa, ikkita kesim va shu har ikki gap uchun alohida egalar mavjud. Biz taklif qilsak, albatta, siz kelasiz». Shunga ko'ra bunday gaplar qo'shma gap sanaladi.

3. Qo'shma gaplarning har bir qismidan keyin gaplarga xos bo'lgan nisbiy tugal ohang (intonatsiya) qo'llanadi. Intonatsiya gaplar orasida nisbiy tugal bo'lsa ham, qo'shma gap oxirida tugal xarakterga ega bo'ladi.

Demak, qo'shma gaplar ikki yoki undan ortiq qismlarning (gaplarning) mazmun jihatidan, grammatik xususiyati va intonatsiyaga ko'ra birikuvidan tashkil topadi. Misol: Ko'klamning mayin shamollari g'ir-g'ir esa boshladi, bulbullar ham ularga hamohang bo'lib sayray boshladi. 2) Chechaklar to'lg'anib, qushlar sayrab tong yellari g'ir-g'ir esadi. 3) Bahor kelishi bilan, kunlar isiydi, daraxtlar ko'karadi va mevalar pisha boshlaydi.

Keltirilgan misollarning birinchisi ikkita gapdan tashkil topgan – ikkita ega va kesimli birikma ishtirok etgan, ikkinchisi uchta qismdan (gapdan) tuzilgan, uchinchisi esa to'rtta qismdan (gapdan) tashkil topganligi uchun har uchta gap ham qo'shma gap hisoblanadi.

130- mashq. Berilgan misollar orasidan qo'shma gaplarni ajratib ko'chiring. Qo'shma gaplar nechta gapdan tuzilganligini aytib bering.

1. Haydar ariq labiga cho'nqayib, muzday suvga yuz-ko'zlarini yuvdi, biroq ko'nglidagi g'uborni muzday suv ham tarqata olmadi (O.Yoqubov). 2. Beruniy boshi garang, tili lol, churq etmay o'tirar edi (O.Yoqubov). 3. Cho'lpon oyog'i ostida daryodek oqayotgan suvga qarab, vahmi kelar, otining jilovini bo'sh quyib, yo'ldoshi ketidan orqama-orqa ehtiyotlik bilan borardi (M.Qoriyev). 4. Po'lat qoplangan zalvorli eshik asta g'ichirlab ochildi-yu, qorong'i bo'shliq ko'rindi (O.Yoqubov). 5. Kuchli bo'ron daraxtlarning shoxlarini tebratdi va ko'kdan bahorning marvarid tomchilari toma boshladi (H.G'ulom). 6. Avgust oyi tamom bo'lishi bilan, qisqa muddatli kurslar yopila boshladi (A.Qahhor). 7. Bizda hissiz yozilgan, nuqul aql sotadigan, kitobxonni adabiyotdan bezdiradigan sovuq kitoblar oz emas (A.Qahhor). 8. Fosih afandi podshoh xazinasini o'g'irlagan dovkor o'g'rini tutib kelayotgandek, samanda kekkayib kirib bordi (M.Ismoiliy).

Qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: ikki qismli (komponentli) qo'shma gaplar va ko'p qismli (komponentli) qo'shma gaplar.

Ikki qismdan tashkil topgan qo'shma gaplar tarkibida ikkita gap mavjud bo'ladi: *1. O'qituvchilar kelishdi va mashg'ulotlar boshlandi. 2. Hamma yig'ilsa, yig'ilishni boshlaymiz.* Misollarning har ikkisi ham ikki gapdan (qismdan) tuzilgan. Lekin ularning mazmun munosabati va biriktiruvchi yordamchilarning qo'llanishi har xil: birinchi gapda tenglanish munosabati mavjud, shuningdek, uning qismlari teng bog'lovchi *—va* orqali birikkan. Ikkinchi gapda tobelanish munosabati mavjud bo'lib, har ikki gap fe'lning shart mayli shakli orqali birikkan.

Shunga ko'ra bunday qo'shma gaplar ikki turga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gaplar.
2. Ergashgan qo'shma gaplar.

BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR

Bunday qo'shma gaplar ikki teng huquqli gaplarning birikuvidan tuziladi. *Bog'langan qo'shma gaplarda* uyushiq bo'laklardagidek, tenglanish ohangi (intonatsiyasi) qo'llanadi. Bog'langan qo'shma gap qismlari teng bog'lovchilar yoki shu bog'lovchilar vazifasini bajaruvchi ***—da, -u (-yu)*** yuklamalari orqali birikadi.

Misollar: *Pastak eshik ochildi va yelkasiga sumka osgan pochtachi xotin engashib ichkari kirdi. Ichkariga qor aralash shamol yopirilib kirdi-yu, kampirning qo'lidagi sham birdan o'chdi. Qobilboy Anvarning dastbandini kesdi va ikkisi uyga kirib ketishdi. Shu payt Bektemirning yuragida go'yo bir nima uzilganday bo'ldi-yu, komandir bir oz taraddudlanib labini qimirlatganini sezdi.* (Oybek)

Bog'langan qo'shma gaplar mazmun munosabatiga ko'ra to'rt turga bo'linadi:

1) Biriktiruv munosabatli
2) Ayiruv munosabatli
3) Zidlov munosabatli
4) Inkor munosabatli

Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplarda voqea-hodisa bir vaqtda yoki ketma-ket yuzaga kelgan bo'ladi. Bunday bog'langan qo'shma gap qismlari orasida *va, ham (hamda)* biriktiruv bog'lovchilari yoki shu bog'lovchilar vazifasida kelgan *-u, -yu, -da* kabi yuklamalar ishlatiladi.

Misollar: *Shamol esar va uning shovqini daraxtlarni mayingina silkitar edi. Dutor «Ifor» kuyini chaldi va childirma ham nozik yo'l bilan unga qo'shila bordi* (A.Qodiriy). *Daryo tomondan guvillab esib turgan shabada*

yo'l bo'yidagi o't-o'lanlarni tebratar hamda sarg'ayib borayotgan arpalar undan mavj urar edi. Odamlar qo'li tegdi-yu, tashlandiq yerlar obod bo'lib ketdi.

Bunday bog'langan qo'shma gaplar biriktiruv bog'lovchilari orqali birikkan uyushiq bo'lakli sodda gaplardan farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, bog'langan qo'shma gapda ikki sodda gap mavjud bo'ladi. Ya'ni ikki ega va kesimli markaz ishtirok etgan qismlardan tuziladi. Biriktiruv bog'lovchisi ishtirokida tuzilgan uyushiq bo'lakli sodda gaplarda esa birgina ega va kesimli markaz (predikativ markaz) ishtirok etadi.

Quyida berilgan misollarni qiyoslang:

1. Shayx Yusuf afandini qalin yaproqli bir yong'oq daraxtining tagiga keltirib o'tqazishdi va qo'liga tanbur tutqazishdi. 2. Shirin xayollar og'ushida qiz bog'dagi o't-o'lanlarni, chiroyli gullarni, sayroqi qushlarni ko'rib quvondi. 3. Darvoza eshigi ochildi va ichkaridan galstuk taqqan bola chiqdi. 4. Buni ko'rgan xaloyiq ichida shovqin-suron ko'tarildi va har tomonda hayqiriqlar yangradi.

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida bitta predikativ markaz (ega va kesimli markaz) ishtirok etgan bo'lib, biriktiruv bog'lovchisi ***va*** uyushgan bo'laklar tarkibida kelgan. Uchinchi va to'rtinchi misollarda esa ikkitadan predikativ markaz ishtirok etib, ular ***va*** bog'lovchisi orqali bog'langan.

131- mashq. Berilgan misollar orasidan biriktiruv bog'lovchisi yoki ***–u, -yu, -da*** yuklamalari ishtirokida bog'langan qo'shma gaplarni ajrating.

1. Ko'p demak so'zda mag'rurlik, Va ko'p yemak nafsga ma'murlik (A.Navoiy). 2. O'zbek oyim gapirib turgan so'zini yarim yo'lda qoldirib, o'rnidan turdi va mehmonlar ham unga ergashdilar (A.Qodiriy). 3. Sakson yetti yil olov oldida mehnat qildim, to'pponcha yasamadim, qilich yasamadim, pichoq yasamadim (S.Ahmad). 4. Bu she'r ulkan shoirning falsafiy qudratini, so'z san'atkorligini va hayot hodisalarini nihoyatda chuqur bilishini namoyish qilgan edi (S.Ahmad). 5. Qutidor Otabekdek bir yigitni kuyov qilishi bilan tabrikladi va shu takallufsiz sovchilik ila umr savdosi bitkan hisoblandi (A.Qodiriy). 6. Eshik ochildi-yu, Qalandarovning ozg'in yuzi ko'rindi (A.Qahhor). 7. Jinoyatchi sudga keldi va o'z aybiga iqror bo'ldi. 8. Shu payt Qosim aka pastida xurmo, anor va olma olib chiqdi (S.Ahmad) 9. Oyim dadamning kayfiyatini buzmaslik uchun ko'chada bo'layotgan har xil gaplarni va mish-mishlarni yetkazmaslikka harakat qilardi (S.Ahmad).

132- mashq. Misollarda tushirib qoldirilgan bog'lovchi, yuklamalarni aniqlab, o'z o'rniga qo'ying va qanday gap ekanligini ayting.

1. Xurshida eshikdan kirib keldi ... Anvar unga nimadir demoqchi bo'ldi. 2. Dimog'imga quruq beda, yalpiz va allaqanday gullarning taxir hidi urildi ... ajoyib yoz oqshomlari esimga tushdi (O.Yoqubov). 3. Eshikning bir tavaqasi ochildi... kimdir Olimjonni yoqasidan changallab uloqtirib yubordi. 4. Ubaydulla tushgan hovli madrasaning qarshisida bo'lgan ... u yerda uning bobosi mudarrislik qilgan. 5. Ubaydulla Chor hukumatining dushmani deb qaraldi ... bu gumon butun hukumatni vahimaga solib qo'ydi. 6. Odamlar g'ayrat qildi... bu yerlar obod bo'ldi.

Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplarda ikki gapdagi voqea-hodisa galma-gal yuzaga kelgan bo'ladi yoki ikki voqea-hodisadan birininggina yuzaga kelishi ifodalanadi.

Bunday bog'langan qo'shma gaplarda galma-gal yuzaga keladigan voqea-hodisa ifodalangan bo'lsa, bunday qo'shma gap komponentlari goh-goh, ba'zan-ba'zan, dam-dam, bir-bir kabi ayiruv bog'lovchilari orqali birikadi. Misol: *Shiddatli jang maydonidan dam yarador jangchilarning ingragan ovozi eshitilar, dam Bektemirning og'ir so'lg'in yuzi ko'rinardi* (Oybek). O'sha mash'um kun goh savalab yomg'ir yog'ardi, goh qor hamma aybni bekitmoqchi bo'lgandek, qalin yog'ardi (Shuhrat). Ba'zan sho'x musiqa yangraydi, ba'zan zo'r qahqaha olamni buzadi.

Bog'langan qo'shma gapda ikki voqea-hodisadan birininggina bajarilishi ifodalangan bo'lsa, bunday qo'shma gap komponentlari yo-yo (yoki), xoh-xoh kabi ayiruv bog'lovchilari orqali bog'lanadi. Misol: Yo ko'k unga o'z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko'zgusi xiralashib qolgan. Berilgan vazifani xoh o'zingiz bajaring, xoh birovga topshiring.

133- mashq. Berilgan misollar orasidan ayiruv bog'lovchilari orqali birikkan qo'shma gaplarni ajrating.

1. Uning fikri beqaror edi, dam u gapini gapirar, dam bunisini tasdiqlab turar, hech bir to'xtamga kela olmay, boshi garang. 2. Havo tez-tez o'zgarib turar, dam kuchli shamol tursa, dam sharillab yomg'ir yog'ardi. 3. Ichkaridan goh o'tin yorib o'choqka o't qalash harakatlari eshitilar, goh xotin kishining tovushi ham kelib turar edi (A.Qodiriy). 4. Goh shamol o'kirar, goh osmonning bir burchida chaqmoq charaqlab ketardi. 5. Uni goh Abusaid Mirzo huzuriga chaqirardi, goh hazrat Nizomiddin

xomush xufiyalar yuborardi (O.Yoqubov). 6. Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosardi (Oybek). 7. Oltinoy goh qult-qult yutinib, goh sal o'pkasini bosib, bo'lgan voqeani gapirib berdi. 8. Yo qansharidan o'q yeb yer tishlaydi, yo evini qilolsa abjirlik bilan ro'para kelgan eshikka o'zini uradi.

134- mashq. Berilgan misollardagi tushirib qoldirilgan o'rinlarga teng bog'lovchilarni qo'yib, qanday qo'shma gap ekanligini ayting.

1. Kimsanning xayolidan ... jang dahshatlari o'tar, ... uning ko'z oldida gospital gavdalanardi. 2. Uni ... tergovchi tergov qiladi, ... ovqat bermay ne qiynoqlarga solishadi. 3. Katta hovuzlardagi suvlarda ko'lankalar va shu'lalar jim-jit o'ynashadi, ... ko'lankalar yonib ketadi, ... shu'lalarni ko'lankalar yutadi. (Oybek) 4. Narigi uydan ... yigitlarning gangur-gungur suhbati eshitilib turar ... ora-chora qah-qah kulgi sadosi ham yangrab turar. 5. ... to'qimachilik kombinatida montyor yetishmasdi, ... o'zi yaxshi ishlardimi, harqalay uni olib qolishdi. 6... Serafima Fedorovaning lablari g'alati titrab ko'zidan yosh oqar, ... Larisa qog'ozga qayta-qayta tikilar edi. 7. ... bu narsa haqiqatga aylanadi, ... men mansabimni tashlab ketaman («Choliqushi»). 8. ... jahlim chiqadi, ... kulgim qistaydi.

Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplarda ikki komponentdagi voqea-hodisa bir-biriga zid,. qarama-qarshi qo'yilgan bo'ladi. Bunday bog'langan qo'shma gap komponentlari zidlov bog'lovchilari va shu bog'lovchilar vazifasida qo'llangan ***–u (-yu), -ku, -da*** yuklamalari orqali birikadi.

Misol: 1. Haydar ariq labiga cho'nqayib, muzday suvga yuz-ko'zlarini yuvdi, *biroq* ko'nglidagi g'uborni muzday suv ham tarqata olmadi (O.Yoqubov). 2. Osmonni birdan qora bulut qopladi, *lekin* yomg'ir yog'ishidan darak yo'q. 3. Zaynab ham Kumushga qo'shildi, *ammo* Kumush yuzini chetga o'girgan kuyi o'tirar edi (A.Qodiriy). 4. Bu mulohazang tuzuk-ku, *biroq* men bilan achchiqlashgan bir kishinikida mehmon bo'lish boshni qotiradir (A.Qodiriy).

Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi ***–u (-yu), -da*** kabi yuklamalar biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar tarkibida ham qo'llanishi mumkin. Bularni farqlash uchun qo'shma gap tarkibidagi yuklamalarni *va* bog'lovchisi yoki *lekin* bog'lovchisi bilan almashtirib qo'llash lozim. Bundan tashqari, biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap ikkita tasdiq gap yoki ikkita inkor gapdan tuziladi.

Misol: *Ko'rsatma berildi-yu, ish boshlanib ketdi – Ko'rsatma berildi va ish boshlanib ketdi.*

Keltirilgan misol ikki tasdiq gapdan tashkil topgan bo'lib, har ikki gap biriktiruv bog'lovchisi (va) vazifasidagi –yu yuklamasi orqali birikkan. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gapga misol keltiramiz: Havo bulut bo'ldi-yu, yomg'ir yog'madi. – Havo bulut bo'ldi, lekin yomg'ir yog'madi. Keltirilgan misoldan ko'rinadiki, -yu yuklamasi tasdiq va inkor gap orasida qo'llanib, zidlov munosabatini bildirgan va shuning uchun ham zidlov bog'lovchisi (lekin) bilan almashinib qo'llana oladi.

Ayrim vaqtda yuklama va zidlov bog'lovchilari birga kela olishi ham mumkin. Misol: Mashrab bir ikki marta ko'nglidagi bor gapni aytib yuborishga jazm qildi-yu, lekin yuragi dov bermadi (O.Yoqubov).

135- mashq. Keltirilgan misollarning qanday turga kiradiganligini aniqlang. Undagi biriktiruvchi vositalarni ajratib ko'rsating.

1. Yaxshidir achchiq haqiqat, Lek shirin yolg'on yomon. 2. Toshni maydalab qumga aylantirish uchun bir lahza kifoya, lekin qum toshga aylanishi uchun ming yil ham yetmaydi. 3. Aytish oson, lekin mone'likni bartaraf etmoq mahol. 4. Odamlar oldida uyalishing yaxshi fazilat, ammo bundan ham afzali o'zing o'zingdan uyalishingdir (L.Tolstoy). 5. Oz yeyish badanga davodir har kez, Va lekin davoning asosi parhez. 6. U birdan ketishga shaylandi, lekin shu damning o'zida bu fikridan qaytdi. 7. Qarshisidagi uyning har ikki darchasi ham yopiq, ammo tirqishlaridan sham yorug'ligi ko'rinar edi (A.Qodiriy). 8. Men ulug'larga qarshi emasman, ammo o'z fikrlash salohiyatimizni ham ishga solishimiz kerak. 9. Saroy qop-qorong'i, tinch uyquda, ammo bu tinchlikni atrofdagi xo'rozlarning qichqirishlarigina buzar edi (A.Qodiriy). 10. Dugonalar ish bilan band bo'lishdi, lekin suhbat qovushmadi (H.G'ulom).

136- mashq. Keltirilgan misollardan bog'langan qo'shma gaplarni ajrating va ular bog'langan qo'shma gapning qaysi turiga kirishini aniqlang.

1. Hech kim kamsitayotgani yo'q bu odamni, biroq ortiqcha maqtov har qanaqa odamniyam yo'ldan uradi. (O.Yoqubov) 2. Ali Qushchi kaftini qoshlari ustiga tutib, navkarlarni yaxshiroq ko'rishga urindi, lekin navkarlar boshlari uzra mash'alalarini baland ushlab turishar edi (O.Yoqubov). 3. Odamlar qo'li tegdi-yu, tashlandiq yerlar obod bo'lib ketdi. 4. Gap chindan ham yigitlarga ko'chdi-yu, ularni eslab, osmonda yongan g'uj-

g‘uj yulduzlarga tikilib uxlab qolishdi (O.Yoqubov). 5. U ro‘parasida qaqqayib turgan bu odamning goh qahr tulporiga minib, goh egardan tushib gapirayotgan gaplarini hech ilg‘ab ololmasdi. 6. Yo ko‘k unga o‘z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko‘zgusi xiralashib qolgan edi. 7. Saida goh afsuslanib kuyib, goh kulib gapirib berdi. 8. G‘iyosiddin Kichkina o‘g‘lini sevar edi, lekin Alisherning yoshiga nomunosib darajada yetuk va idrokli bo‘lishi uni tashvishga solardi (Oybek).

Inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarda har ikki komponentda inkor mazmuni ifodalangan bo‘ladi. Bunday qo‘shma gaplarda *na-na* bog‘lovchisi biriktiruvchi vosita bo‘lib keladi. Bunday qo‘shma gaplardagi ikki komponent tasdiq gap shaklida kelib kesimlari bo‘lishlilikni ifodalovchi so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lsa ham, inkor bog‘lovchisining qo‘llanishi bilan ularda inkor mazmuni ifodalanadi. Agar ikki gap inkor shaklda bo‘lsa, undagi inkor mazmuni kuchaytiriladi. Misol: 1. Unga na saroybon nazar soldi, na posbon ichkariga taklif qildi. (O.Yoqubov). 2. Uchrashish uchun bizda na joy bor, na vaqt bor. 3. Na yomg‘ir yog‘adi, na quyosh chiqadi.

Inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarning ikkinchi komponentida kesim ba’zan qo‘llanmasligi mumkin: Davolanish uchun na dori bor, nadarmoni. Dard ustigachipqon deganday Kimsandan naxat bor, na xabar.

137- mashq. Keltirilgan misollar orasidan inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarni ajrating.

1. Otabek na otasi bilan, na onasi bilan ochilib gaplashmadi (A.Qodiriy). 2. Mevali bog‘ jim-jit edi: na qushlar sayraydi, na daraxtlar ovoz chiqaradi. 3. Bir hovuch na uyimda g‘allam bor, Ikki gaz na boshimda sallam bor (Maxmur). 4. Uning qalbida na bir qo‘rquv bor, na bir hayajon (O.Yoqubov). 5. Na g‘urur bor bizda, na izzat-nafs (O.Yoqubov). 6. Yaxshilik qilmoqqa menda na yo‘l bor, yomonlik qilmoqqa na ixtiyor bor. 7. Mana shunday aqlsiz hayot kechirgani uchun uning na yaqin do‘sti bor, na bir yaqin kishisi bor. 8. Bu qanday sinov: na adolat bo‘lsa, unda, na haqiqat (O.Yoqubov) 9. O‘g‘lining gapini na otasi eshitdi, na onasi. (A.Qod.)

Bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibida uslubiy talabga ko‘ra ba’zan bog‘lovchilar qo‘llanmasligi mumkin. Misol: Qo‘ng‘iroq chalindi, mashg‘ulot boshlandi. (Qo‘ng‘iroq chalindi va mashg‘ulot boshlandi) Havo bulut bo‘ldi, yomg‘r yog‘madi. (Havo bulut bo‘ldi-yu, yomg‘ir yog‘madi. Havo bulut bo‘ldi, lekin yomg‘ir yog‘madi.)

Bog'langan qo'shma gaplarning yordamchilarsiz birikishi

Bog'langan qo'shma gap komponentlari yuqorida qayd etilganidek, teng bog'lovchilar yoki shu bog'lovchilar vazifasini bajaradigan yuklamalar orqali biri-biri birikadi.

Ayrim vaqtda bu yordamchilar qo'llanmay bog'langan qo'shma gap qismlari tenglanish intonatsiyasi orqali birikishi mumkin.

Misol:

1. *Quyosh botib borar, qizg'ish nurlar to'lqin yuzida chil-chil sinar edi (O'.Hoshimov). Quyosh botib borar va qizg'ish nurlar to'lqin yuzida chil-chil sinar edi.*

2. *Zum o'tmay yana shamol o'kirar, ketidan yana jimlik cho'kardi (O'.Hoshimov). Zum o'tmay yana shamol o'kirar va ketidan yana jimlik cho'kardi.*

3. *Yodgorning boshi g'uvillar ko'zlari achishar edi — Yodgorning goh boshi g'uvillar, goh ko'zlari achishar edi.*

4. *Zamonning sur'ati tez, shiddati baland. — Zamonning sur'ati tez, lekin shiddati baland.*

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, teng huquqli komponentlardan tuzilgan bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi biriktiruvchi vositalar ba'zan qo'llanmasa ham, u bog'lovchilarni qo'yib ishlatish mumkin: birinchi va ikkinchi misolda ***va*** biriktiruv bog'lovchisini, uchinchi misolda ***goh-goh*** ayiruv bog'lovchisini, to'rtinchi misolda ***lekin*** zidlov bog'lovchisini qo'yib ishlatish mumkin.

138- mashq. Berilgan gaplar orasidan teng bog'lovchilar orqali birikkan bog'langan qo'shma gaplarni ajratib ko'chiring. Har bir komponentdagi bosh bo'laklarni aniqlang. Bog'langan qo'shma gaplarning yordamchilarsiz birikkan turini ham belgilab, ularni alohida ko'chirib yozing.

1. Yaxshidir achchiq haqiqat, Lek shirin yolg'on yomon. 2. Onda-sonda mashinalar o'tib qolar, ularning ham ovozi bo'g'iqroq chiqayotganga o'xshardi (O'.Hoshimov). 3. Musaffo osmonda tog'larning har bir qirrasi ko'rinar, hamon iliq shamol esardi (O'.Hoshimov). 4. Toshni maydalab qumga aylantirish uchun bir lahza kifoya, biroq qum toshga aylanishi uchun ming yil ham yetmaydi. 5. Odamlar oldida uyalishing yaxshi fazilatdir, ammo bundan ham afzali o'zing o'zingdan uyalishingdir. 6. Elmurod avvalgidan ko'ra ancha yengillashgan-u, ammo boshi hamon og'riydi. (Shukrullo) 7. Derazaning narigi yog'ida shapaloq-shapaloq yong'oq barglari ohista silkinib turar, tashqaridan qaldirg'ochlarning

shodon sayragani eshitilib turardi (O'.Hoshimov). 8. Bulbul sayraydi gulda, havas qaynaydi dilda (Qo'shiq).

ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Ergashgan qo'shma gaplar ikki teng bo'lmagan qismlardan tuzilib, bir gap ikkinchi gapga tobelanib, undagi biror bo'lakning ma'nosini konkretlashtirib keladi. Misol: 1. *Shuni bilingki, biz doim halollikni qadrlaymiz. 2. Kim adolatli bo'lsa, u doim qadr topadi.*

Keltirilgan misollarning birinchisida ergash gap (biz doim halollikni qadrlaymiz) bosh gapdagi to'ldiruvchi*(-shuni* so'zi)ning ma'nosini konkretlashtirib kelgan. Ikkinchi misolda esa ergash gap (kim adolatli bo'lsa) bosh gapdagi ega (*u* so'zi) ning ma'nosini konkretlashtirib kelgan.

Ergashgan qo'shma gaplar bosh gap va ergash gaplardan tashkil topadi. Ergash gap bosh gapga tobe bo'lib, uning biror bo'lagini yoki butun bir gapni izohlaydi, konkretlashtirib keladi.

Ergash gaplar bosh gapga ergashtiruvchi bog'lovchilar fe'lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari; fe'lning shart, buyruq mayli shakllari; ayrim yuklamalar va ko'makchilar orqali birikib keladi.

Ergashgan qo'shma gapning turlari: ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, ravish ergash gapli qo'shma gap, payt ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, maqsad ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gapli qo'shma gap, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap, natija ergash gapli qo'shma gap.

Ega ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan eganing ma'nosini ochib beradi.

Misol: *Kimki zo'r ishlarga layoqatli bo'lsa, u tilini tiygan bo'ladi. Kimki yomonlar suhbatidan qochsa, u yaxshilar suhbatiga erishur. Kimki bilimiga tayansa, u doimo kamol topadi.*

Misollardan ko'rinadiki, ega ergash gap bosh gapda ega vazifasida kelgan olmoshning (***u*** so'zining) ma'nosini ochib bergan.

Ega ergash gap ba'zan bosh gapda qo'llanmagan «tushib qolgan» eganing ma'nosini konkretlashtirib keladi. Bunday holatda avval bosh gap, keyin ergash gap keladi.

Misol: *Yo'lchiga shunisi qiziq tuyuldiki, bu yerda hamma daraxtlar bir chiziq ustida saf tortib turardi.* (Oybek) *Qutbga tushida ayon bo'lurki, Shayboniyxonning qilichini amir Zunnunbek sindirurlar.* (P.Qodirov) Bu har ikki misoldan ko'rinadiki, ega ergash gap bosh gapdagi «tushib qolgan» eganing ma'nosini izohlagan.

Ega ergash gap bosh gap bilan ***fe'lning shart mayli shakli va –ki yordamchisi*** orqali birikib keladi.

Misol: 1. *Kimki o'rganishni uyat, or demas, Suvdan dur topadi, toshdan la'l, olmos.* (Nizomiy Ganjaviy) 2. *Kim ravshan fikrlasa, u ravshan bayon etadi. 3. Kimki qanoat birlan shod bo'lsa, u o'lguncha aslo tashvish ko'rmaydi. 4. Kimki o'z yaxshiliklarini birovga minnat qilmasa, u haqiqiy jannat bandasidir.* 5. *Shunisi ko'pdan ma'lumki, ular doim beparvolik bilan yashaydilar.* 6. *Kim hunarni desa, u dono bo'lur, Nodonlar qudrat deb boylikni bilur.* (A.Jomiy).

139- mashq. Keltirilgan misollar orasidan ega ergash gapli qo'shma gaplarni ajrating. Ergash gap bosh gap bilan qaysi xil biriktiruvchi vosita orqali bog'langanini ayting.

1. Har kishi nafsining asiri bo'lsa, u ojizlar mulkiga cho'zadi qo'lin. 2. Kimdakim sening aybingni yuzingga aytsa, u sening haqiqiy do'sting. 3. Kimki o'z vataniga sadoqatli bo'lsa, u doim xalq olqishida bo'ladi. 4. Kimki bilimdonligi va donoligini ko'z-ko'z qilsa, unda bilimdonlik ham yo'q, donolik ham yo'q. 4. Kim jumlani buzib gapirsa, uning fikri ham chalkash bo'ladi. 6. Qaysi kishi maqtanchoq bo'lsa, o'sha kishining ko'ngli harvaqt xijolatda bo'ladi. 7. Kimki jinoyatning oldini olishga imkoni bo'laturib, uni qilmasa, u jinoyatni rag'batlantirgan bo'ladi. 8. Kimdakim ota-onasini rozi qilsa, unga tole yor bo'ladi. 8. Kimki jinoyat qilsa, u, albatta, jazosiz qolmaydi.

140- mashq. O'zingiz bironta badiiy asar bo'yicha ega ergash gapli qo'shma gaplarga to'rtta misol toping. Ular tarkibidagi komponentlar qanday biriktiruvchi vosita orqali birikkanligini tushuntiring.

Kesim ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplardan ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning ma'nosini ochib beradi. Ko'pincha kesim ergash gap bosh gapda kesim vazifasida kelgan *shu, shunda, shunday, shundan iborat* kabi ko'rsatish olmoshlarining ma'nosini izohlaydi.

Misol: *Seni bu yerga chaqirishdan maqsad shuki, avvalo, bu gaplardan xabardor bo'lib qo'ygin* (O.Yoqubov). *Yana bir maroqli tomoni shundaki, qizlar raqsini o'z ko'zi bilan ko'rgan shoir bu haqda ikkita she'r yozgan. Bizda odat shundayki, o'zidan kichikni ham sizlaydilar.*

Kesim ergash gap, asosan, bosh gapdan keyin keladi va bosh gap bilan ***–ki*** yordamchisi orqali birikadi.

Misol: Muhim tomoni shundaki, Navoiy o'zining aytgan gapiga hayotda o'zi to'la amal qilgan odam edi. (A.Hayitmetov) Qizig'i shundaki, bunga dadam sabab bo'lgan ekan. (O.Yoqubov) Olimning donoligi shundaki, u hech qachon bilmaganini bildim demasdi. Tilagimiz shuki, doim bir-birimizga mehrli va bag'ri keng bo'laylik.

141- mashq. Berilgan misollarda kesim ergash gapli qo'shma gaplarni aniqlang va ular tarkibida qo'llangan biriktiruvchi vositalarning tagiga chizing.

1. Yana bir tilagimiz shuki, yaxshilarning ezgu niyati o'ziga yo'ldosh bo'lsin. 2. Afsuslanadigan joyi shuki, bu e'tirozni o'zimdan boshqa hech kim bilmas edi. 3. Mavzu jihatdan Abdulla Qodiriy ijodi shundayki, yozuvchidan xalqimizning o'tmish tarixini saboq bo'larlik hollarni topib tasvirlashini istaymiz. 4. Mening farmonim shuki, Shamsibek Ismoil o'g'lining zavjasi tikkan falak tasviri barchaning uyida bo'lmoqlig'i darkor (T.Malik). 5. Yana ham qayg'uli tomoni shuki, mendan yashiriqcha ko'rishayotganini onasiga aytib qo'yishdan uyalgan («Choliqushi»). 6. Maqsadimiz shuki, yurtimiz bayrog'i doim porlab tursin. 7. Hayratlanarlisi shuki, bir vujudda to'plangan g'ayrat, aql-u farosat, sadoqat va hokazolar o'sha onda unga pand beradi. 8. Tilagimiz shuki, loqaydlik degan balodan tezda qutilaylik.

142- mashq. Berilgan misollarni qaysi xil ergash gapli qo'shma gap ekanligini aniqlang. Komponentlarni biriktiruvchi vositalarni belgilang.

1. Yaxshisi shuki, meni o'zingiz bilan safarga olib keting. 2. Qizig'i shuki, men uni ovozidan ham tanimay qoldim. 3. Kimki halol mehnat qilsa, u rohat ko'radi. 4. Kimki zo'r ishlarga layoqatli bo'lsa, u doim tilini tiygan bo'ladi. 5. Talabimiz shuki, xonalar yorug' va keng bo'lsin. 6. Ilmga kimki, qo'lni ursa, minglab buloqni cho'l tomon burgan bo'ladi. 7. Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidir. 8. Ahvolimning chatoqligi shunda ediki, Muqaddas ikkimizni yaqinlashtira oladigan, yakka-yu yagona vosita hozircha imtihon edi. (O.Yoqubov) 9. Har kim ta'ma yo'lin tutsa, agar pesh, oqibat bir kuni bo'lg'usi darvesh.

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi aniqlovchining mazmunini ochib beradi. Ko'pincha *shunday, ayrim*, ba'zi kabi so'zlar bosh gapda aniqlovchi vazifasida kelib, ergash gap ana shu so'zlarning ma'nosini izohlab keladi.

Masalan: *Shunday talabalar borki, ular hamma ishda barchaga namuna bo'ladilar.*

Keltirilgan misolda ergash gap bosh gapdagi ot oldida aniqlovchi bo'lib kelgan *shunday* so'zining ma'nosini ochib bergan. Shuning uchun bu xildagi gaplar aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

Aniqlovchi ergash gaplar ko'pincha bosh gapdan keyin keladi va bosh gapga ***–ki*** yordamchisi orqali birikadi.

Misol: 1. *Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, u butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'lsin.* 2. *Ba'zi talabalar borki, ular ham o'qishda, ham sportda barchani lol qoldiradilar.* 3. *Shunday ayollar borki, ular ishqni e'tiqod kabi muqaddas tutadilar.* 4. *Jamiyatimizda shunday muammolar borki, bularni hal etish uchun butun kuch- g'ayratimizni ayamasligimiz kerak.* 5. *Hayot shunday ajoyib mo'jizaki, o'lim uning evaziga berilgan arzimas bojdir.* 6. *Shunday orzuyim borki, uning kelgusi boblariga sening ham yaxshi ishlaring bitilgay.* (P.Qodirov)

143- mashq. Berilgan misollarni qaysi xil qo'shma gap ekanligini aniqlang. Ular tarkibidagi biriktiruvchi vositalarni belgidlang.

1. Bizda shunday taassurot paydo bo'ldiki, bu odam go'yo hech kim yecholmagan jumboqni yechganlar. 2. Dugonamning shunday odati borki, u birovning yuziga hech qachon tik qaray olmaydi. 3. Shunday insonlar borki, ularga butun umr havas qilsang arziydi. 4. Shunday odamlar borki, ular boshqalarning mulkiga hasad qiladilar, ko'rolmaydilar (Oybek). 5. Ayrim savdogarlar borki, ular butun umr halol luqma bilan yashaydilar. 6. Ba'zi ota-onalar borki, ular farzandlarining taqdiri bilan yetarlicha qiziqmaydilar. 7. Ular yaratgan san'atlarning shunday qulayligi bor ediki, tildan-tilga, eldan-elga, ko'chib yurardi (A.Avloniy). 8. Hech bir shahar yo'qki, unda ma'rifat maskanlari, oliy dargohlar bo'lmasa. 9. Navoiy she'riyati shunday xazinaki, buni o'rgangan sari yana o'rganging keladi. 10. Ne mo'jiza yuz berdiki, bag'ri tosh Dilbar uning sog'lig'ini so'rab qoldi?! 11. Shu yerdagi odamlar domlani qutqazmoqchi bo'lishsa, u qayrilib ham qaramaydi.

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan to'ldiruvchining ma'nosini ochib beradi.

Misol: 1. *Ma'lumotlar hammasi shuni ko'rsatadiki, Jomiyning pand-nasihat bilan bog'liq asarlari chinakam badiiy asarlardir.* 2. *Sizga shuni bildirib qo'yayki, Iskandar faqat men bilan boradi* (Oybek). 3. *Shuni ham aytib qo'yish kerakki, Anvarning dunyoga kelishini birdan-bir tabrik etib suyingan shu Nodira edi* (A.Qodiriy).

Misollardan ko'rinadiki, to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan *shuni* so'zini izohlagan.

To'ldiruvchi ergash gaplar ayrim vaqtda bosh gapdagi qo'llanmagan to'ldiruvchining ma'nosini ochib beradi.

Misol: 1. *Muyassar yaxshi biladiki, oson ishda lazzat bo'lmaydi.* 2. *O'ylaymanki, Zaynab to'g'ri aytadi* (A.Qodiriy). 3. *Mashrab hali-hali eslaydiki, Ashrafjon bir kun uning qo'liga allaqaysi kitobni tutqazib, Barnoga olib borib berishini iltimos qildi* (O.Yoqubov).

Misollardan ko'rinadiki, to'ldiruvchi ergash gap bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchilarning ma'nosini konkretlashtirib kelgan.

To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gap bilan ko'pincha ***–ki*** yordamchisi orqali birikadi. Misol: *Ishonamanki, u yerda sizni yaxshi kutib olishadi* (Oybek). *Men qat'iy ishonch bilan aytamanki, biz ko'zlagan maqsadimizga, albatta, erishamiz.*

Ayrim vaqtda to'ldiruvchi ergash gaplar bosh gap bilan ***fe'lning shart mayli shakli, -mi yuklamasi*** orqali ham birikishi mumkin. Misol: *1. Siz nimani buyursangiz, biz shuni bajaramiz. 2. Bilasizmi, xo'jayinning Nuri degan qizlari bor* (Oybek). 3. *Bilasizmi, ayol kishi ostona poylab jigarini kutadi.*

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, to'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan ***–ki, -mi*** yordamchilari orqali birikkanda bosh gapdan keyin keladi, fe'lning shart mayli orqali birikkanda esa, bosh gapdan oldin keladi.

144- mashq. Keltirilgan misollar orasidan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarni ajrating. Ergash gaplarni bosh gapga biriktiruvchi yordamchilarni aniqlang.

1. Tabiat oq yopinchig'ini tashlar-tashlamas, kurtaklar ko'z uqalay boshladi (M.Ismoiliy). 2. Maysalar endi bosh ko'tarib sabza bo'lgan, nihollar nish ura boshlagandi (M.Qoriyev). 3. Bilamanki, bu dardlar,

voqealar sizni ko'proq tashvishga solmoqdadir (Oybek). 4. Men shuni bildimki, oqsoqol Fotima kelin haqida gap boshlanishi bilan Zuhra kelinni esladi. (O'.Hoshimov). 5. Siz o'ylaysizki, go'yo bosh olish bilan olam tinchiydir (A.Qodiriy) 6. Siz ham bilingki, sevgan narsangiz o'zingiz uchun kulfatdir (T.Malik). 7. Farida boshqalardan shu bilan ajralib turadiki, u juda xushmuomala va kamgap qiz. 8. Unutmaslik kerakki, nodon bilan ulfatda bo'lgandan ko'ra dono bilan kulfatda bo'lgan yaxshi. 9. Bilasizmi, bizning xotin-qiz zotining yuragi juda ajoyib, pok, sezgir bo'ladi.

145- mashq. Berilgan misollardagi tushirib qoldirilgan o'rinlardagi biriktiruvchi yordamchilarni belgilang va ular qanday qo'shma gap komponentlarini biriktirib kelganligini ayting.

1. Bizga shahanshohning iltifot va muruvvatlari baland, ammo unutmaylik..., podsho va Alisher bir qarich yoshdan boshlab do'st bo'lishganlar. (Oybek) 2. Go'riston to'g'risida dodho nimalarni eshitgan bo'l..., Unsin ham shuni eshitgan (A.Qahhor). 3. U shunday jozibali va ma'sum edi..., ilk gullagan bodom niholini eslatardi. (O.Yoqubov). 4. Yana shuni sezdim..., u nari borsa o'zim tengi yosh yigit ekan (O'.Hoshimov). 5. Shuni biling..., o'ziga qaramagan ayol uyiga ham yaxshi qaramaydi. 6. Bilaman... bu dardlar, voqealar sizni ko'proq tashvishga solmoqdadir (Oybek). 7. Bilasan..., ona turfa yurtlarda (ularning ko'pida bo'lganman men ham) Ajoyib bir kun bor – Onalar kuni, Bu kunni hamma shod qiladi bayram. (R.Hamzatov) 8. Kimki o'zi tug'ilib o'sgan kulbadan ton.., Kim elini mag'lub ko'rib quvon..., Uni bossin o'zga kulbaning toshi, Tuproqning ostidan chiqmasin boshi.

146- mashq. Mustaqil ravishda A.Qahhor asarlaridan ega, kesim, aniqlovchi va to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarga ikkitadan misol toping va ularni tahlil qilib bering.

Ravish ergash gapli qo'shma gaplar

Ravish ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning qay tarzda yuzaga kelishini bildiradigan ergash gaplarning bir turidir. Ravish ergash gap bosh gapga ko'pincha ravishdoshning *–(i)b* affiksini olgan shakli orqali birikadi.

Misol: 1. *Buvim hikoyasini tugatmay turib, 5-6 yoshli bolalar ko'rpa ichiga kirib uxlab qolishdi* (Oybek). 2. *Uning nafrati qo'zg'olib, o'zini*

qo'yarga joy topolmadi. 3. *Qish uyqusidan uyg'onib, yaproqlar sehrli shivirlardi.* 4. *Dilimizda bir toshqin tahsin gurkirab, Dehqon qo'lingizga qilaman ta'zim* (Zulfiya).

Ravish ergash gap ba'zan bosh gapga ravishdoshning ***–may (-masdan)*** affiksini olgan bo'lishsiz shakli orqali ham birikadi. Misol: 1. Otabekning suyunchi ichiga *sig'may* o'zini yo'qotib qo'yg'on holda iljayar edi (A.Qodiriy). 2. Sevinchi ichiga *sig'may*, kampir shang'illab gapirardi (O'.Umarbekov). 3. Otabekning labi *qimirlamasdan*, choy quyib o'tirgan Hasanali javob berdi (A.Qodiriy). 4. Fikrlari *topmay* nihoya, Xayol uni ko'kka uchirdi. (H.Olimjon) 5. Sabrim *chidamay,* yuqoriga intildim.

Ravish ergash gap bosh gapdan oldin va bosh gapning ichida kelishi mumkin.

Misol: *1. Qish uyqusidan uyg'onib, yaproqlar sehrli shivirlardi. 2. Uning nafrati qo'zg'olib, o'zini qo'yarga joy topolmasdi. 3. Qizcha sevinchi ichiga sig'may, bizni quvonch bilan kutib oldi. 4. Qudrat qoshlari chimirilib katakni haydayotgan Botirovga qaradi.*

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida ravish ergash gap bosh gapdan oldin kelgan. Uchinchi va to'rtinchi misollarda esa ravish ergash gap bosh gapning orasida kelgan.

Ravish ergash gapli qo'shma gaplarda ikkita ega va kesimdan tuzilgan markaz - predikativ markaz mavjud bo'ladi. Shu jihatdan bunday qo'shma gaplar yoyiq ravsh hollari ishtirok etgan sodda gaplardan farq qiladi.

Misollarga e'tibor bering:

I.1) Mashrab vujudi qalt-qalt titrab, changal orasidan ohista mo'ralab qaradi (O.Yoqubov). 2) Usmon ota diydor ko'rishish ishtiyoqida sabri tugab, otiga qamchi bosdi (A.Qahhor). 3) Osmon targ'il tus olib, jala quya boshladi

II. 1) Husayn yangi ustoziga hurmat aralash hayrat bilan qarab, uning kasb-hunarini egallab olishga ahd qildi. 2) Musayev «maktub»ni maxsus po'lat idishga-kapsulga solib, qopqog'ini burab mahkamladi. (H.G'ulomov) 3) Mashrab uyilib yotgan bug'doy g'aramlarini aylana-aylana, buloq bo'yiga zo'rg'a yetib bordi (O.Yoqubov).

Yuqoridan birinchi guruh (I)da keltirilgan har uch misolda ham ikkitadan ega va kesimli markaz mavjud bo'lgani uchun ular ravish ergash gapli qo'shma gap sanaladi. Ikkinchi guruh (II)dagi har uchta misolda yoyiq ravish hollari (I) *«Yangi ustoziga hurmat aralash hayrat bilan qarab», 2) «maktub»ni maxsus po'lat idish-kapsulga solib», 3) «uyulib yotgan bug'doy g'aramlarini aylana-aylana* ishtirok etgan bo'lib, bu uchta

misolning har birida bittadan ega va kesim markazi 1) Husayn ahd qildi *2) Musayev mahkamladi, 3) Mashrab yetib keldi* mavjud. Shunga ko'ra bu gaplar ravish ergash gapli qo'shma gap emas, yoyiq ravish hollari ishtirok etgan sodda gap sanaladi.

147- mashq. Keltirilgan misollardan ravish ergash gapli qo'shma gaplarni ajarating. Ular tarkibidagi biriktiruvchi vositalarni aniqlang.

1. Sutdek oppoq nur yer-u ko'kni siypalab o'tib, ketidan momaqaldiroq gumburladi. 2. Husni to'lib, ochilur bahor. 3. Dono uyga kirib ketgach, Zokir bilan anchagacha gaplashib o'tirdik. 4. Yomg'irda cho'milgan daraxtlar xuddi to'yga yasangan qizlardek ochilib, havo xushbo'y hidlarga to'lib ketadi. 5. Ko'z yoshlari duv-duv oqib, Dildor suv yoqalab borardi (S.Ahmad). 6. Butun vujudiga ninalar tinimsiz sanchilib, Yo'ldoshning azobdan ko'zlari chaqchayib ketdi. 7. Baland tog'lardan jilg'alanib oqib kelib, soylar, daryolar, havzalarni to'ldirib yotgan ulkan suv omborlarining bag'rida obi hayot, ma'murchilik manbayi bilan birga, katta xavf-xatar ham yashiringan (G'aybulla As-salom).

148- mashq. Berilgan misollar orasidan avval ravish ergash gapli qo'shma gapni, so'ngra birikmali (yoyiq) ravish holini ajrating va ularni tushuntirib bering.

1. Husayn yangi ustoziga hurmat aralash hayrat bilan qarab, uning kasb-hunarini, egallab olishga ahd qildi. 2. Mashinalar katta yo'ldan bu tomonga burilib, Qoradaryoning chap sohili bo'ylab asta yurib keldilar (H.G'ulom). 3. Badanlariga harorat yugurib, aka-ukani birdan uyqu elita boshladi. 4. Qudrat qoshlari chimirilib, Botirovga qaradi. 5. Qushcha oyog'i singan holda, sekin-sekin sakrab yurardi. 6. Zuhra ko'zi jiqqa yoshga to'lib, qo'lidagi katak ro'molchasini siltadi (A.Qahhor). 7. Talaba bo'lish mukkadan tushib boshini sirtmoqqa ildirib o'qish, o'qish va yana o'qish degan gap emas (G'aybulla As-salom). 8. Ubaydulla dili yayrab «Sadoyi Turkiston»ning yangi soni bilan tanishib chiqdi (A.Qahhor).

149- mashq. Taniqli yozuvchi S.Ahmad asarlaridan olingan misollarni sodda yoki qo'shma gap ekanligini, qo'shma gapning qaysi turi ekanligini aniqlang.

1. Uning rangi oqarib, bir nuqtaga tikilgancha telbanamo alpozda o'tirardi. 2. Betiga qora surtib, eshakka teskari mindirib qishloqdan chiqarib yuborishdi.

3. Bironta roman o'qimay, adabiyot nazariyasini mutlaqo bilmay, atrofda bo'layotgan voqealarni tahlil qilmay yozuvchi bo'lmoqchimisiz? 4. U yuzlarini ikki qo'li bilan to'sib, o'ksib yig'lab yubordi. 5. Ko'rpani boshimga tortib, ezilib-ezilib yig'layman. 6. Men, umuman, Abdulla Qahhor haqidagi xotiralarimni biron hujjatga qaramay, misollarni kitobdan ko'chirmay jonlantirmoqchiman. 7. Kampir bu tovushlarga bir dam quloq tutib, boshini tebratib kulib qo'yadi. 8. Kon atrofidagi atrofi tikonli sim bilan o'ralgan maydonchada qorga ko'milib, och-nahor o'tirib tuman tarqalishini kutardilar. 9. Faqat Qahhorgagina xos bo'lgan, eshitgan odam bir umr esidan chiqarmaydigan qilib aytardi. 10. Qo'shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari, onalarining yalinib-yolvorishlari eshitilib turibdi.

Payt ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning bajarilish vaqtini bildiradi.

Payt ergash gap bosh gapga ko'pincha ravishdoshning ***–(i)b, -gach, -guncha, -may*** affikslarini olgan shakllari orqali birikadi.

Misol: 1. Hujra eshigi *ochilib*, ichkariga biri orqasidan biri - Qobilboy bilan Safarboy kirdilar (A.Qodiriy). 2. Humoyun qirg'oqqa suzib *chiqquncha*, Bobur ayonlari bilan yetib keldi (P.Qodirov). 3. Oradan ikki kun *o'tgach,* Siddiqjonning nomiga birdan uchta tabrik telegrammasi keldi (A.Qahhor). 4. Ular masjiddan shomni o'qib *kirgach,* ichkaridan Oybodoq kechlik olib chiqdi (A.Qodiriy). 5. Oradan ko'p vaqt o'tmay dugonalar yana uchrashib qolishdi.

Payt ergash gap bosh gapga sifatdoshning ***–gan*** affiksini olgan shakli va kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchilar bilan birga qo'llangan shakli orqali birikishi mumkin.

Misol: 1. Tolibjon ular oldidan *o'tganda,* unga e'tibor berishmadi (S.Ahmad). 2. Ali Qushchi Ko'ksaroyga yetib *borganda,* Mirzo Ulug'bek o'zining sarkardalari bilan suhbatlashar edi. 3. Ular Olmazor etagidagi so'qmoq yo'lga *burilishganda*, quyosh tog' ortidan endigina mo'ralay boshlagan edi (O'.Umarbekov). 4. Men shu shaharga *kelganimdan* beri, bironta noxush hodisa yuz bergani yo'q.

Payt ergash gap bosh gapga fe'lning harakat nomi-shakli va bilan ko'makchisi, fe'lning shart mayli va boshqa turli yordamchilari orqali birikishi mumkin.

Misol: 1. Sedona Mirvalining mashinasi pastda to'xtashi bilan manti

qozonni gazga qo'ygani yo'q (S.Ahmad). 2. Muhammad Jamol chiqib ketishi bilan, Ahmad Husayn Iskandarovning yoniga borib o'tirdi (Oybek). 3. Choyni ichib bo'lar-bo'lmas, mashinaning ovozi eshitildi (H.G'ulom). 4. Chevar qiz buyurilgan libosni tikib bo'lganicha yo'q ediki, buyurtmachi kelib qoldi (N.Aminov). 5. Xonaga kirsam, hech kim yo'q ekan.

150- mashq. Misollardan payt ergash gapli qo'shma gaplarni ajratib ko'chiring. Payt ergash gap bosh gapga qanday yordamchi bilan birikkanligini aniqlang.

1. Ular chinniy qasrga kirishganida, saroy ahli taxt mulozamatini bajo keltirmoqka shaylanib turadi (T.Malik). 2. General haykallardan birining bog'ichidan tortgan edi, boshiga ro'mol tashlagancha uzoq-uzoqlarga mayus termilib o'tirgan ona paydo bo'ldi (O'.Hoshimov). 3. Katta leytenant Sergeyning yordamida uni ayvonga olib chiqishlari bilan, u o'zini Asad g'origa tashladi (H.G'ulom). 4. Uzun xiyobonning o'rtasiga borganimda, chap tomondagi skameykalarning birida o'tirgan ikkita qiz o'rinlaridan turishdi. 5. Uning ovozi hali bosilmasdanoq ikkinchi g'aramdan xuddi shu yo'sinda Akmal boshlab chiqdi (O.Yoqubov). 6. Anvar mahdumning mahallasiga yetganda, kishi tanimaslik darajada qorong'u tushdi (A.Qodiriy). 7. Ibn Sino Registon maydoniga kelganida, ko'nglini ezayotgan shubha haqiqat bo'lib chiqqan edi. 8. Quyosh chiqqach, bulutlar tarqadi-ketdi. 9. Sinfdan chiqayotganimda, qizlardan biri yonimga kelib, mudir afandi nima uchun bunday deganligini tushuntirib berdi («Choliqushi»). 10. Saidiy boshqarmaga kelganda, indamas Yoqubjon allaqachon muharrirning yonidagi sersavlat bir stolda qog'ozlar ichiga ko'milib o'tirar edi (A.Qahhor).

151- mashq. Keltirilgan misollardagi payt ergash gapli qo'shma gaplarda ikki komponentni biriktirish uchun ishlatilishi lozim bo'lgan tushirib qoldirilgan yordamchilarni topib yozing.

1. Saida kechqurun hujrasini berkitib olib xatni yozishga kirish..., Umida o'rtoq Nosirov kelganligidan darak berdi (A.Qahhor). 2. O'ychi o'yini o'yla..., tavakkalchi ishini bitirar (Maqol). 3. Masjid minorasidan ruhoniyat yog'dirib munglik azon tovushi eshitil..., uyqu quchog'ida yotqon tabiat uyg'onib javob bergan kabi jong'irab ketdi (A.Qodiriy). 4. Bu dardkashni qoniqtirma..., hargiz orom olma (Oybek). 5. Kitoblar ko'rikdan o't..., Husayn Boyqaro majlisni ziyofatga taklif etdi (Oybek). 6. Kechqurun

jamoat jam bo'l..., g'azabdan ko'karib ketgan kampir yetti pushtidan qolgan uch boylam vasiqani o'rtaga ko'tarib urdi (A.Qahhor). 7. Robiya oyimning qo'llarini bo'ynimdan ajratib olayot..., vujudim titrab ketdi (O'.Hoshimov). 8. Bir mahal eshik g'irchillab ochil..., Dadaboy amaki kirib keldi (O'.Umarbekov). 9. Dildor suvdan chiqib kiyinayotgan..., Nizomjon uning yuziga qaramay ming'illadi (S.Ahmad). 10. Dasturxon yozil..., tandirdan hozirgina uzilgan shirmoy non keltirib qo'yildi.

O'rin ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi ish-harakat yoki voqeaning bajarilishi o'rnini bildiradi.

O'rin ergash gap bosh gapga, asosan, fe'lning shart mayli orqali birikadi. Misol: Qayerda ahillik *bo'lsa,* shu yerda fayz-baraka bo'ladi.

Qayerda fitna ko'paysa, o'sha yerda ish unumli bo'lmaydi. Qayerda suv mo'l bo'lsa, o'sha yerda tabiat chiroyli bo'ladi. Shamol qay tomonga essa, maysalar ham shu tomonga boshini egardi.

O'rin ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida o'ringa munosabat bildiradigan *qayerda – shu yerda, qay tomondan-shu tomondan, qayerga – shu yerga,* shu tomonga kabi so'zlar ishtirok etadi. Misol: Qayerda yurt tinch bo'lsa, o'sha yerda farovonlik bo'ladi.

152- mashq. Berilgan misollarning qaysi xil ergash gapli qo'shma gap ekanligini aniqlang. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositani belgilab bering.

1. Qayerda yaxshi imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, hammamiz o'sha yerga borib ishlashga intilardik. 2. Ko'prik ustiga yetib kelganimizda, hech kim yo'q edi (O'.Hoshimov). 3. Qayerdaki iste'dodlarga, baxillar zavol keltirolmasa, o'sha yerda kamolot cho'qqisiga ko'tarilish oson (P.Qodirov). 4. Mingboshi qayerda bo'lsa, Fosih afandi ham shu yerda edi (M.Ismoiliy). 5. Shuni unutmaslik kerakki, halollik, rostgo'ylik, bilangina maqsadga erishish mumkin. 6. Qayerda adolat, tinchlik, osoyishtalik hukmron bo'lsa, shu yerda odamlar baxtiyor umr kechiradilar. 7. Shunday kunlar keladiki, sen o'tkazgan umringdan mamnun bo'lasan. 8. Ostonaning qayerida it zotini ko'rsang, o'sha yerda bu qora bayir otlar o'tlashi dargumon. 9. Shu kundan boshlab o'z ustida ishlab, yaxshilab ter to'ksa, bobosining orzulari ro'yobga chiqadi. 10. Sof vijdonli Iskandarov qayerda bo'lsa, uning do'sti Ahmad Husayn ham shu yerda bo'lardi. 11. Qayerda bekorchilik bo'lsa, shu yerda noxush ishlar ko'p bo'ladi.

153- mashq. O'zingiz mustaqil ravishda yozuvchi O'.Hoshimov asarlari bo'yicha payt ergash gapli qo'shma gaplarga to'rtta misol, o'rin ergash gapli qo'shma gaplarga uchta misol to'plang. Ergash va bosh gaplarni biriktiruvchi grammatik vositalarni aniqlang.

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi voqea -hodisaning yuzaga kelish sababini bildiradi.

Sabab ergash gaplar bosh gapga *chunki, negaki, shuning uchun* kabi bog'lovchilar va *–gani uchun, -gani sababli, -(i)b* affiksli ravishdosh, *shekilli* yordamchisi kabi grammatik vositalar orqali birikadi.

Misol: 1. Zaynab yalt etib qayinonasiga qaradi, chunki O'zbek oyimning boyagi gapi endi unga aglashilg'on edi (A.Qodiriy). 2. Kun issiq bo'lgani uchun, traktorchilar ko'chma uygamas, maysazorga gilam to'shadilar. (A.Qahhor) 3. Men vatanim, xalqim, yurtim ertasi, kelajagini saqlab qolmoqchi edim, shuning uchun qamamoqchimisizlar meni?! (A.Qahhor) 4. Qish kechalari juda uzun bo'lgani uchun, choyxonalar obod edi. 5. Qirqqa kirganingizga hecham ishonmayapman, negaki hali ham o'sha-o'shasiz. 6. Nurining fikri boshqa narsalar bilan band bo'lgani uchun, so'zlari, javoblari bir-biriga qovushmas edi (Oybek). 7. Mavlono mana shu narsalarni o'ylab, ta'bi tirriq bo'lmoqda edi (P.Qodirov). 8. O'rtadagi stol ustiga yopilgan klyonkaga siyoh to'kilgan shekilli, bir cheti ko'karib qolgan edi (O'.Hoshimov).

Sabab ergash gaplar, asosan, bosh gapdan oldin keladi. *Chunki, negaki* bog'lovchilari orqali bog'langanda esa, bosh gapdan keyin keladi.

Misol: 1. Katta anhorga suv kelmagani uchun qizlar chelak ko'tarib boshqa anhorga ketishdi. 2. Kun issiq edi, shuning uchun paxtakorlar dalada o'tirishni istamay uyga kirib o'tirdilar. 3. Ishni cho'zib o'tirishni hojati yo'q, negaki yangi qurilmalar paydo bo'lyapti. 4. U markazni ataylab yovga ochiq qoldirmoqda edi, chunki hali harakatsiz turgan aravalar va to'fanglar markazga quyilgan edi.

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida sabab ergash gap oldin, uchinchi va to'rtinchi misollarda esa ergash gap bosh gapdan keyin kelgan.

154- mashq. Keltirilgan misollar orasidan sabab ergash gapli qo'shma gaplarni aniqlang. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalarni ko'rsating.

1. Kichik ariqqa suv kelmagani uchun Gulnor chelak ko'tarib katta ariqqa jo'nadi (Oybek). 2. Anvar Mahdumning mahallasiga yetganda, kishi tanimaslik darajada qorong'u tushgandi (A.Qodiriy). 3. Bular kimningdir uyiga kirishganda, Sobiraxon hatto to'rga o'tgani ham unamadi. 4. Mirzayev xonaga kirib ulgurganicha yo'q edi, orqasidan Nasibaxon kirib keldi. 5. Har qanday o'tkir shoirning ham hamma yozganlari yaxshi, ammo she'rlari orasida uning butun ijodiy kuchini, san'atkorlik cho'qqisini belgilab beradigan bir necha she'rlari bo'ladi (S.Ahmad). 6. Otliq kirib kelganda, hayriyatki, Fosih afandi bilan Mamarayim afandi shu yerda ekan (A.Qahhor). 7. U ijod olamining sirlarini tinmay o'rganar edi, chunki ustozlarining «turtkisi» uni ijod sari undardi (S.Ahmad). 8. Hozir bir-ikki soat vaqtimiz bor ekan, shuning uchun g'ir etib borib, Ayniy domlani ziyorat qilib kelayin. 9. To'satdan uning ko'ngli cho'kib, chidab bo'lmas iztirobda qoldi. (O'.Hoshimov) 10. U zanjirni tushirishi bilan, notanish odam hovliga otilib kirdi. (O'.Hoshimov).

155- mashq. Berilgan misollardagi sabab holi ishtirok etgan sodda gaplarni alohida, sabab ergash gapli qo'shma gaplarni alohida ajratib, ularni izohlab bering.

1. Yerda tuz ko'payib, daraxtlar quriy boshladi. 2. G'azabdan uning ko'zlari qizarib ketgan edi. 3. Otasidan hayiqqani uchun biror marta Lazokatga hatto hazil ham qilmagan edi. 4. Vaqt allamahal bo'lib qolgan, yotib uxlash kerak edi (S.Ahmad). 5. U o'zining bu qilmishidan uyalganidan yuzini ters burdi. 6. Qaynonangiz yolg'izlikdan qiynalayotgan bo'lsa kerak. 7. U boshqa maktabdan o'tgan «yangi» qiz bo'lgani uchun, bir-birini sensirab gaplashadigan sinfdoshlarining hammasi uni sizsirab gaplashardi (O'.Hoshimov). 8. Stadion darvozasidan kirishlari bilan, uzoqdan yigirma qabatli binoning azamat gavdasi ko'rindi. 9. Anhor tip-tiniq bo'lgani uchun suv tagidagi tol xazonlari aniq ko'rinardi (O'.Hoshimov).

Maqsad ergash gapli qo'shma gap

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi. Maqsad ergash gap bosh gap bilan ko'pincha ***deb*** yordamchisi orqali birikadi.

Misol: 1. Uyga toza havo kirsin deb derazalarni ochib qo'ydim. 2. Onam xavotir olmasinlar deb tezroq uyga qayta qoldim. 3. Qizginam xat-savodli o'lsin deb Zayniddin Maxsum uning ilm-tarbiya olishiga barcha

imkoniyatlarni yaratib berdi. 4. Xat yozibdi ota-onang, Bolam omon bo'lsin deb.

Maqsad ergash gap bosh gapga ba'zan ***uchun*** ko'makchisi orqali ham birikadi.

Misol: 1. Inson yashamoqdan tolmasin uchun ko'ngliga bir dunyo tilak berilgan (E.Vohidov). 2. Kampir xafa bo'lmasin uchun Turg'un u bilan borishga rozi bo'ldi.

156- mashq. Misollar orasidan maqsad ergash gapli qo'shma gaplarni ajratib, ulardagi biriktiruvchi vositalarni belgilang.

1. Zora Farhodning ko'ngli bir oz yozilsa deb, Suhaylo u bilan suhbatlashardi. 2. Uni uyg'otib yubormay deb, tag'in ko'zimni yumib oldim. 3. Sherzod uni xafa qilmay deb asta gapira boshladi. 4. G'o'za suvni miriqib ichsin deb, qiz uni sekin, bir tekis jildiratishga tirishardi. 5. Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elimda. 6. Odam aqli odamning kuchi yaxshilikka qilsin deb xizmat, Yer ekuvchi, po'lat quyuvchi obodlikka sarf etsin kuchin. 7. Yoshlikda yaxshi odam bo'lsin deb, bolamizga mushtdakligidan tarbiya bera boshlaymiz. 8. Gulnoza xijolat bo'lmasin deb, Karim bu gapni aytmay qo'ya qoldi. 9. Sen, albatta, Ostonani ozod qilgin deb, uni ardoqlagin deb, bu yolg'onlar ta'rifini hech kimga so'zlamadim. 10. Yolg'iz bolam dunyoni ko'rsin deb, meni ham o'zlari bilan olib yurardilar. 11. Yon atrofimiz chiroyli, ko'rkam bo'lsin deb, turli xil gullar va ko'chatlar o'tkazib turamiz. 12. Terak yaxshi o'ssin deb, kampir uni ko'p parvarish qilibdi. 13. Buvijonim ertak aytib beradilar deb, sochlari jamalak qizlar yig'ilishdi.

157- mashq. O'zingiz mustaqil ravishda badiiy asarlardan sabab holiga va maqsad holiga ikkitadan, sabab va maqsad ergash gapli qo'shma gaplarga ikkitadan misol topib, ularni tahlil qiling.

Shart ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelishidagi shartni bildiradi. Shart ergash gap *fe'lning shart mayli shakli, -gan affiksini olgan sifatdosh+da (-ganda) yordamchisi, -(a)r affiksini olgan sifatdosh+ekan to'liqsiz fe'li va boshqa xil yordamchilar* orqali bosh gapga birikadi.

Misol: Ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli hal *etilsa*,

ijtimoiy, siyosiy iqlim keskin o'zgaradi. Elning, yurtning baxti barqaror *bo'lsa*, saltanat ham barqaror bo'lur (Abu Iso Termiziy). Ungur chuqurlashgan sari qoziqlar shu zaylda qoqib *borilsa*, yo'ldan adashmaymiz (M.Ismoiliy). Agar ayb faqat bir tomondagina *bo'lganda*, urushlar uzoq davom etmas edi. Agar aql *bo'lmaganda* edi, oyoqda tinim bo'lmasdi. Agarda siz *siqilar* ekansiz, hali ham Toshkandda qolmasligingiz menga ma'qul ko'rinadir (A.Qodiriy).

Ba'zi vaqtda shart ergash gapdagi shart mazmunini yanada kuchaytirib ifodalash uchun ***agar, bordi-yu, mabodo*** yordamchilari qo'shib ishlatiladi.

Misol: Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, baxt keltiradi. Mabodo G'ozixon shikast yesa, ko'pchilik beklar bo'yun egurlar (P.Qodirov). Bordi-yu biz o'z vaqtida xabar yetkaza olmasak, albatta, o'zingiz yo'lga chiqarsiz.

158- mashq. Keltirilgan misollar orasidan shart ergash gapli qo'shma gaplarni ajratib, ular tarkibidagi biriktiruvchi vositalarni belgilab bering.

1. Yer qattiq bo'lsa, ho'kiz ho'kizdan ko'rar (Maqol). 2. Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar (Maqol). 3. Shu shartlar bajarilsa, shoh Ismoilning beklari o'z qo'shinlarini Movarounnahrdan olib chiqib ketishga ko'nar edilar (P.Qodirov). 4. Hurmat qilsang, hurmat topasan (Maqol). 5. O'qituvchilar xonasidan o'tib, yuragi po'killagancha eshikni taqillatdi (O'.Hoshimov). 6. Tashqaridagi shamol kuchayib, deraza ortidagi tollarning shoxi qisirlab ketdi (O'.Hoshimov). 7. Lola daraxtining urug'lari bundan bir necha yil avval Amerikadan Toshkent Botanika bog'iga keltirilgan edi. 8. Istagim shuki, jumhuriyatimiz xalqlari inson chehrasidagi bir juft ko'z kabi jon tomiri bilan bog'lanib yashasin. 9. Hosilimiz bo'lsa to'kin, To'ylarimiz to'xtamas (H.Sharipov). 10. Agar barloslar ham muvofiq topsalar, uni qozi tayin etmoqni va'da berdi (Oybek). 11. Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda (Maqol).

159- mashq. Misollar orasidan ergashgan qo'shma gaplarni topib, tushirib qoldirilgan o'rinlarga ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalarni qo'ying va gaplarni qaysi xil ergash gapli qo'shma gap ekanligini belgilang.

1. Agar butun qiyinchilik shu yolg'iz do'pillashni hazm qilishdan iborat bo'l..., Murodxo'ja domla «tosh yutdim» deb qo'ya qolar edi. 2. Oqibat yaxshi bo'l..., qo'limdan sira chiqarmayman (Oybek). 3. Muhabbati evaziga

baxt quyoshi unga jilmayib boqdi..., butun dunyo yashnab ketgandek bo'ldi (O'.Hoshimov). 4. Oyoqlari titra.., ko'zlari g'azabdan qizarib ketdi (O'.Hoshimov). 5. Agar shu ko'rganlarini hikoya qilib ber..., Iskandarov bunga ishonmasligi mumkin. 6. Soxta kamtarlik manmanlik kabi qabohatdir, ... u manmanlikning eng pinhona nayrangidir. 7. Kim ravshan fikrla..., u ravshan bayon etadi. 8. Qanoat har kimning bo'l.. yo'ldoshi, G'am bilan egilmas hech uning boshi. 9. Donolar aytadilar..., badmastga xush davo bo'lar shapaloq. 10. Erta tur..., ishing rivoj topadi.

160- mashq. O'zingiz mustaqil ravishda o'zbek xalq maqollaridan shart ergash gapli qo'shma gaplarga oltita misol toping va uni tahlil qilib bering.

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap va bosh gaplardagi mazmunning zidlikka qaramay yuzaga keladigan voqea-hodisa ifodalanadi. To'siqsiz ergash gap bosh gapga ***fe'lning shart mayli shakli+ham yoki –da (-sa+ham, -sayam, -sa+da) yordamchilari yoki qaramay, bilan ko'makchisi*** orqali birikadi.

Misol: 1. Taklif qilmasam ham, ayvondan o'tib, uyga kirdi (O'.Hoshimov). 2. Odamlar seni bilmasa ham, sen odamlarni bil (Maqol). 3. Tizzalari qaltirasa-da, to'xtamay, Qo'chqor yotgan g'aramga qarab zipillab ketdi (O.Yoqubov). 4. Oriyat buvining chirqillashiga qaramay, Teshavoy bilan Mardonov kirib kelmoqda edi (J.Abdullaxonov). 5. U juda ko'p uringani bilan, ishining natijasi ko'rinmasdi. 6. Mobodo Kimsan akam yo'q bo'lganida ham, men borman-ku (O'.Hoshimov). 7. Har qancha qarshi turishimga qaramay, Jamilaning onasi sochimga ip taqib qo'ydi («Choliqushi»).

161- mashq. Misollar orasidan to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarni aniqlang va ular tarkibidagi biriktiruvchi vositalarni belgilang.

1. Yaxshiga qilsang yaxshilik, ham aytadir, ham qaytadir. 2. Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar (maqol). 3. Shuncha qistasam ham, ovsinim tuz totmadi (O'.Hoshimov). 4. Hamid yana nimanidir so'ramoqchi bo'lsa ham, usta Farfi shoshib masjidga burildi (A.Qodiriy). 5. Kun botmagan bo'lsa ham, qosh qoraygan (A.Qahhor). 6. Hali hech narsa gullagan bo'lmasa-da, go'yo uzoqdan gul hidi kelardi. 7. Bu ayolga bir narsa deyishga menda madorning o'zi yo'q edi, lekin nima bo'lmasin iliq so'z aytib chiqib

ketdim. 8. Tuyaning dumi kalta bo'lsa ham, Tulkidan dum so'ramas (maqol). 9. Quloqlarim shang'illab, ko'z o'ngi qorong'i bo'lib ketdi (O'.Hoshimov). 10. Muhabbati evaziga baxt quyoshi unga jilmayib boqdi-yu, butun dunyo yashnab ketgandek bo'ldi (O'.Hoshimov). 11. Yana takror aytamanki, o't qo'ygan, qon to'kkan jinoyatchini kechirib bo'lmaydi.

162- mashq. Taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimovning «Quyosh tarozisi» asaridan olingan quyidagi misollarning tuzilishga ko'ra qanday gap ekanligini aniqlang. Tushirib qoldirilgan o'rinlarga kerakli biriktiruvchi vositalarni qo'yib qanday qo'shma gap ekanligini ko'rsating.

1. Tabiatning hech kimga bo'ysunmaydigan, birovdan ruxsat ham so'rab o'tirmaydigan o'z qonuniyatlari bor. 2. U endi yo'lak tomon yur..., ichkaridan oq xalat kiygan notanish qiz yugurib chiqib qoldi. 3. Eshik taqilla..., uning xayoli bo'lindi. 4. Yodgor sal tinchi... o'zini bosib oldi. 5. Bog', aftidan, soyga tutashib ket..., o'sha yoqda suv shuvillardi. 6. Bir vaqtlar gunoh ish qilib qo'y..., dadasi uni ayovsiz kaltaklar edi. 7. Sezdingiz..., mana bu binoda ham ko'zga yarq etib ko'rinib turadigan bir narsa bor. 8. Uning dilrabo ovozida ... vasl quvonchi yangrar, ... hijron iztiroblari ingrardi. 9. Gavhar beriroqqa – erkaklab ketgan yalpizlar ustiga etak yozib o'tirardi. 10. Chumchuqlar chirqillashar ... shamolga ergashgan terak xazonlari havoda pirpirardi.

Natija ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning natijasini bildiradi. Natija ergash gap bosh gapga, asosan, ***-ki*** yordamchisi orqali birikadi.

Bunday qo'shma gaplarning bosh gap qismida ko'pincha fe'l kesimga taalluqli bo'lgan (fe'l kesim oldida kelgan) ***shunday, chunonam*** kabi so'zlar ishtirok etadi. Ayrim vaqtda ergash gap tarkibida ***natijada, oqibatda*** so'zlari ham ishlatiladi.

Misol: Ular *shunday* inoqlashishdiki, Ahmadjon bir masala to'g'risida u bilan ochiq gaplashdi (A.Qahhor). 2. Qudrat *shunday* baqirib yubordiki, qo'shni stoldagilar hangu-mang bo'lib qolishdi (J.Abdullaxonov). 3. Ular ikkovlari *shunday* qalinlashdiki, hatto bir juma kuni Murodxo'ja domlaning mehmonxonasida bo'lgan o'tirishda so'z boyligini tezda aytib tamom qildi (A.Qahhor). 4. Kelgusi yili *shunday* uloqlar yutayki, hamma meni «Turg'un chavandoz» desin. 5. U boshini shunday tez va kutilmagan vaqtda burdiki,

Saidiy ko'zini ololmay qoldi (A.Qahhor). 6. U *shunday* muloyim gaplashdiki, Gulsum yana bir oy o'ylab, o'yining tagiga yetolmadi (O.Yoqubov).

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, natija ergash gap bosh gapdagi fe'l kesimga tobelanib kelgan ***shunday*** so'zining mazmunini konkretlashtirib kelgan va bosh gapdagi voqea-hodisaning natijasini bildirgan.

Berilgan misollardan natija ergash gapli qo'shma gaplarni ajratib, ergash gaplar bosh gapga qanday vosita orqali birikkanligini tushuntirib bering.

1. Atrof tinch, qushlarning sayrashi tiniq havoda baland yangrardi. (O'.Hoshimov). 2. U talabalarni joylashtirguncha ancha qiynalgan bo'lsa kerak, chehrasi horg'in edi (O'.Hoshimov). 3. Rais unga shunday qo'pol, ters javob berdiki, Otaboyev chidab turolmay xonadan chiqib ketdi. 4. Uning bu qadar sovuq muomalasi shunchalik qattiq tekkan ediki, alam va xo'rlikdan ko'z yoshlarimni zo'rg'a tiyib turardim. (O.Yoqubov). 5. Fikrlari topmay nihoya, xayol uni ko'kka uchirdi. (H. Olimjon). 6. Har qanday xalq orasida yaxshi, yomon odamlar topiladi, ammo xalqning yomoni bo'lmaydi. 7. Har kimsa nafsining asiri bo'lsa, ojizlar mulkiga cho'zadi qo'lin. 8. U shu qadar g'alati bir hayrat bilan og'zimga tikilib qoldiki, o'zimni tutolmay kula boshladim. («Choliqushi»). 9. Bu sho'rlik xaltacha hozir shu qadar yengillashib ketdiki, ichidagilarni sanashga yuragim betlamaydi. («Choliqushi»). 10. Bu safar momaqaldiroq shu qadar shiddatli gumburladiki, osmonni ikki bo'lakka tilimlab tashlagandek bo'ldi.

163- mashq. Keltirilgan misollardan aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarni alohida ko'chiring, natija ergash gapli qo'shma gaplarni ham alohida ko'chiring.

1. Chunon bexato, chunon zo'r gapirdimki, hatto orada bir-ikki nozikroq gap ham o'tib ketdi. 2. Bu yerlarning oftobi shunday saxiyki, osmoni haftalar, oylar davomida bulut ko'rmaydi. 3. Muhammad Jamol hayajon bilan stolni shunday urdiki, natijada dudli lampaning yolqini lovillab ketdi. 4. Men shu qadar chaqqon, epchil harakatlar qilardimki, xonimlar hayron bo'lishib, menga yer ostidan qarab qolardilar («Choliqushi»). 5. Bu o'xshatishlar Boburning ikki podshohdan olgan taassurotlariga shu qadar mos kelar ediki, u beixtiyor kulib yubordi (P.Qodirov). 6. Bizda shunday odat borki, o'zidan kichikni ham sizsiraydilar. 7. Navoiy she'riyati shunday mo'jizaki, uni o'rgangan saring qiziqishing orta boradi. 8. Shunday jannat bo'ladiki, bu jannatga kirish uchun sen

odamlarga ibodat qilasan (A.Qahhor). 9. Shunday ayollar borki, ular muhabbatni e'tiqod kabi muqaddas tutadilar. 10. Dunyoda shunaqa hodisalar bo'ladiki, birovga tushuntirish u yoqda tursin, o'zing ham tushunolmaysan. 11. Shunday savdogarlar ham borki, ular halol luqma bilan yashaydilar.

164- mashq. O'zingiz mustaqil ravishda badiiy asarlardan to'rtta natija ergash gapli qo'shma gapga misol tanlang. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositani aniqlang.

Ergashgan qo'shma gaplarning yordamchilarsiz birikishi

Ergashgan qo'shma gaplar uslubiy talabga ko'ra ba'zan yordamchilarsiz (komponentlarni biriktiruvchi grammatik vositalarsiz) ham qo'llanishi mumkin.

Ergashgan qo'shma gaplarning deyarli barcha turi yordamchilarsiz, faqat intonatsiya orqali birikishi mumkin.

Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi qaysi xil ergash gaplar yordamchilarsiz birikkanligi qo'shma gapning mazmunidan anglashilib turadi. Ya'ni mazmunga ko'ra bunday qo'shma gaplarda qaysi yordamchi qo'llanishi lozimligi sezilib ham turadi. Masalan: *Qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz* (ertakdan). Bu gap qo'shma gap shaklan ikki teng huquqli gapdan tuzilganday ko'rinsa ham, mazmunan teng bo'lmagan qismlardan tuzilib, unda sabab mazmuni anglashiladi. Ya'ni bu qo'shma gap mazmuniga mos ravishda biriktiruvchi vosita qo'yib: *«Qo'rqitmay o'stirdim, shuning uchun botir bo'ldingiz»* shaklida ishlatsak sabab ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi. *Shuning uchun* bog'lovchisini qo'llamay «qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz» shaklida qo'llasak, sabab ergash gapli qo'shma gapning yordamchisiz qo'llangan ko'rinishi hisoblanadi.

Biz quyida turli ergash gaplarning bosh gapga yordamchilarsiz birikadigan ko'rinishlarini bayon etamiz.:

1. Qo'shning tinch – sen tinch - Qo'shning tinch bo'lsa, sen tinchsan.

2. Biz yaxshi bilamiz, vijdon inson qalbining hakamidir – Biz yaxshi bilamizki, vijdon inson qalbining hakamidir.

3. Siz borsiz, bu olam ko'rsatar jamol. (Shuhrat) – Siz borsiz, shuning uchun bu olam ko'rsatar jamol.

4. Tilagimiz shu: yaxshilar yetsin murodga – Tilagimiz shuki, yaxshilar yetsin murodga.

5. Ko‘rsatma berildi – ishni boshlab yuboramiz. – Ko‘rsatma berilishi bilan ishni boshlab yuboramiz.

6. Bu so‘zlarni shunchalik ko‘p ishlatasiz, boshqa so‘zlar qulog‘ingizga erish eshitiladi. (A.Qahhor) – Bu so‘zlarni shunchalik ko‘p ishlatasizki, boshqa so‘zlar qulog‘ingizga erish eshitiladi.

7. Odam borki, odamlarning naqshidir – Shunday odam borki, u odamlarning naqshidir.

8. Qayerda ahillik bor, shu yerda unum mo‘l bo‘ladi. - Qayerda ahillik bo‘lsa, shu yerda unum mo‘l bo‘ladi.

9. Faqat shu esida: Ertasi kuni ko‘zini ochganda, Sobirjon yonida yo‘q edi. (A.Muxtor) – Shu narsa esidaki, ertasi kuni ko‘zini ochganda, Sobirjon yonida yo‘q edi.

Yuqoridagi misollarning birinchisi shart ergash gapli qo‘shma gapning yordamchisiz ko‘rinishi, ikkinchisi to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gapning yordamchisiz ko‘rinishi; uchinchisi sabab ergash gapli qo‘shma gapning yordamchisiz ko‘rinishi; to‘rtinchisi kesim ergash gapli qo‘shma gapning, beshinchisi payt ergash gapli qo‘shma gapning, oltinchisi natija ergash gapli qo‘shma gapning, yettinchisi aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gapning, sakkizinchisi o‘rin ergash gapli qo‘shma gapning, to‘qqizinchisi ega ergash gapli qo‘shma gapning yordamchisiz birikkan ko‘rinishidir.

165- mashq. Berilgan misollar orasidan yordamchilarsiz birikkan ergashgan qo‘shma gaplarni topib, qo‘llanmagan yordamchi o‘rniga mos yordamchilarni qo‘yib qanday ergash gapli qo‘shma gap ekanligini ayting.

1. Ona tilimizni avaylab asrang, u avlod-ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan bebaho mulkdir, xazinadir. 2. Yozildi bu she’r bahor tongida, Aziz farzandlarga sovg‘a bo‘lsin deb (G‘.G‘ulom). 3. Sidiqjon to hushini o‘nglaguncha, Boltaboy bostirmaga kirib keldi (A.Qahhor). 4. Shul erur aybim, Muqimiy, Mardumi Farg‘onaman (Muqimiy). 5. Saidiy Munisxonning fazilatlaridan naqadar nuqsonlar yasasa ham, har holda Munisxon Munisxonligida qoldi (A.Qahhor). 6. Qorovul chol oqsoqlanib panjarani ochguncha, Nasiba lip etib ichkariga kirib oldi (O‘.Hoshimov). 7. O‘z akasining so‘zlari suyak-suyagidan o‘tib, yuzlari lovillab ketdi (O‘.Hoshimov). 8. Zum o‘tmay yana shamol o‘kirar, ketidan yana jimlik cho‘kardi (O‘.Hoshimov). 9. Qor yog‘di – don yog‘di (Maqol). 10. Sog‘inib erdim: bahor bo‘ldi bahona, do‘stlar (S.Abdulla). 11. Yaxshisi shu: bizdan xavotir olmay, erta bilan O‘rmonjonni qora tortib, kapsanchilar oldiga borgin (A.Qahhor). 12. Andishaning sababi shudir: Zaynabning ham tanlagani bor (H.Olimjon).

166- mashq. O'zingiz badiiy asarlardan yordamchilarsiz birikadigan qo'shma gaplarga to'rtta misol topib, uni tahlil qilib bering.

QO'SHMA GAPLARNING MURAKKAB TURI

Qo'shma gaplar ba'zan uch yoki undan ortiq komponentlardan tuzilgan bo'lishi mumkin. Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi komponentlar o'zaro munosabatiga ko'ra uch xil ko'rinishiga ega bo'ladi:

Komponentlar orasida tenglanish munosabati bo'lib, undagi gaplarning barchasi teng huquqli bo'ladi. Ya'ni ular bog'langan qo'shma gaplarday munosabatga kirishadi. Misol: *1. Qor tingan, yo'llar qorga ko'milib ketgan, ko'chalar sirg'anchiq edi. (O'.Hoshimov) 2. Vokzal gavjum: birov chemodanga suyanib mudrar, birov papiros tutatib xayol surib o'tirar, birov do'kondan kitob tanlar edi. (O'.Hoshimov) 3. Quyosh botib borar, suv salqinidan kishining eti junjirdi, allaqayerda chigirtka chirillaydi, suv qirg'oqqa shaloplab uriladi (O'.Hoshimov).*

Yuqoridagi misollarning birinchisi uch komponentdan, ikkinchisi to'rt komponentdan va so'nggisi esa, besh komponentdan tuzilgan bo'lib, ular tarkibidagi gaplar orasida tenglanish mavjud. Ya'ni har uch misoldagi komponentlar teng huquqlidir.

Murakkab qo'shma gaplarning ikkinchi turida tobelanish munosabati asosida ikki va undan ortiq ergash gap (bir necha ergash gap) bitta bosh gapga tobelanib keladi. Bunday qurilmalar bir necha ergash gapli qo'shma gap deb ham nomlanadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan ergash gaplarning barcha turi ham birdan ortiq kelib bir bosh gapga tobelanib kelishi mumkin. Misol: *1. Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havasini olsa, o'sha ilg'or bo'ladi. 2. Toleyim shulki, Vatanda bir guliston tanladim, Baxtni topgan el bilan jondosh bo'lib otdim qadam (H.Olimjon). 3. Shunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashnay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. (A.Muxtor.) 4. Shuni qayd qilish lozimki, keyingi vaqtlarda ko'pgina ajoyib olimlar yetishib chiqdi, talantli yosh yozuvchilarning ko'pgina asarlari paydo bo'ldi. 5. Chechaklar to'lg'onib, qushlar sayrab, tong ellari g'ir-g'ir esadi (Uyg'un). 6. Qayerda ijodiy tashabbus barq ursa, qayerda ishda faollik va jonkuyarlik ko'rsatilsa, o'sha yerda yangi fikrlar tug'iladi. 7. Baliq qornin yorganda, Pichoq belga borganda, chol birdan cho'chib ketdi. (H.Olimjon). 8. Keyingi yili Bozorning dehqonchilik ishlari burungiday avj olmadi, chunki ho'kizi toq, o'zi yolg'iz (S.Ayniy) 9. Ekin chog'i borolmadim yoz bo'lsin deb, Qovun pishib, dam olishga soz bo'lsin deb. 10. Fikrlar kurashi bo'lmasa, erkin tanqid bo'lmasa, hech qanday fan rivojlamaydi. 11. Ishlar batamom*

tugamagan bo'lsa ham, bu uni ancha xijolatda tutayotgan bo'lsa ham, u o'zini bardam va tetik tutardi. 12. Allakim shunaqangi sho'x o'yinga tushib ketdiki, yer larzaga keldi, changi osmonga ko'tarildi.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ergash gaplarning barcha turi ham ikki va undan ortiq kelib, bitta bosh gapga tobelanadi va bir necha ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi.

Bunday qo'shma gaplarda ergash gaplarning soni uch to'rt va undan ortiq bo'lishi mumkin.

1. Lolalar ochilib tamom bo'lsa ham,
   Qovjirab ketsa ham qirda maysalar,
   Tabiat o'zgacha husn olsa ham,
   Kadi chiqarsa ham guldor paychalar,
   Sen esimdan chiqmaysan, bahor!
   (M.Jalil)

2. Qalbingda yotsa ham bir dunyo alam,
   Qaddingni buksa ham olam-olam g'am,
   Boshingga ayriliq solsa ham soya,
   Ko'ngling g'ash bo'lsa ham bilonihoya,
   Soching oqarsa ham hijron tufayli,
   Yuzlaring zafaron bo'lsa ham, mayli,
   Onajon, ko'zingdan oqizma ko'p yosh. (U.)

Keltirilgan misollarning birinchisida to'rtta ergash gap, keyingisida oltita ergash gap bir bosh gapga tobelanib kelgan.

Murakkab qo'shma gaplarning yuqoridagi har ikki turi birgalikda – aralash holda kelishi ham mumkin. Bunday murakkab qo'shma gap tarkibidagi komponentlar orasida ham tenglanish, ham tobelanish munosabati mavjud bo'ladi.

Misol: *Til boshqa-yu, dil birdir, chunki el birdir.* Bu misolda uchta komponent (gap) ishtirok etgan bo'lib, birinchi va ikkinchi gap orasida tenglanish, ikkinchi va uchinchi gap orasida tobelanish munosabati mavjud. Shuning uchun bunday qo'shma gaplar aralash tipdagi murakkab qo'shma gap hisoblanadi.

Aralash tipdagi murakkab qo'shma gapning turli ko'rinishlariga yana misollar keltiramiz: 1. Gavhar top-toza qilib yuvib qo'yilgan zinalardan chiqib borarakan, yuragi gup-gup urar, oyoqlari titrar edi (O'.Hoshimov). 2. Hali kun erta bo'lgani uchunmi, qahvaxonada odamlar siyrak, stollar

bo‘sh, atrof jim-jit edi. (O‘.Hoshimov). 3. U so‘zini tamomlaganda, muloyim shabada esdi, odamlar orasida harakat boshlanadi (A.Qahhor). 4. Yodgor yotoqxonaga yetib kelganida, junjiqqan quyosh sarg‘ayib botib borar, yotoqxona derazalarida sovuq shafaq yonardi (O‘.Hoshimov). 5. Uning ko‘zlari bir kunda ich-ichiga tushib, chehrasi chiniqib ketgan, yuragi laxcha cho‘g‘day lovillar edi (O‘.Hoshimov).

PUNKTUATSIYA

1-§. Punktuatsiya tinish belgilarining qo‘yilishiga oid qoidalar to‘plamidir. O‘zbek punktuatsiyasining juda ko‘p qoidalari gap qurilishi (strukturasi)ga asoslanadi. Masalan: 1. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar zidlovchilar yordamida biriksa, bunday bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘yiladi; 2. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar yuklamalar, ***bo‘lsa, esa,*** yordamchilari orqali birikkanda ham, sodda gaplar orasiga vergul qo‘yiladi; 3. Ergash gap bosh gapning ichida kelsa, har ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi.

Ayrim punktuatsiya qoidalarida, gap strukturasidan tashqari, gaplarning mazmun munosabatlari va ayrim ma’no noziklikiari, ba’zan esa intonatsiya hisobga olinadi. Masalan: 1. Bog‘lovchisiz birikkan qo‘shma gap tarkibidagi ikkinchi gap birinchi gapning biror bo‘lagini izohlasa, uning mazmunini to‘ldirsa, bunday sodda orasiga ikki nuqta qo‘yiladi; 2. Bog‘lovchisiz birikkan qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar zidlik mazmunini anglatsa, ular orasiga tire qo‘yiladi; 3. Buyurish mazmunini ifodalagan va kuchli ohang bilan aytilgan buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi; 4. ***Orzu, istak, iltimos, maslahat*** mazmunini ifodalagan tinch ohang bilan aytilgan buyruq gaplar oxirida nuqta qo‘yiladi.

O‘zbek punktuatsiyasida quyidagi tinish belgilari ishlatiladi: nuqta, so‘roq belgisi, undov belgisi, ko‘p nuqta, vergul, nuqtali vergul ikki nuqta, tire, qavs, qo‘shtirnoq.

Tinish belgilarining ishlatilishi

2-§. Yuqorida sanab o‘tilgan tinish belgilari quyidagi holatlarda qo‘llaniladi:

I. Nuqta mana bunday o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Darak gap oxiriga: *Biz borini asrab - avaylash, yo‘g‘ini yaratish yo‘lidan boramiz.*

2. Orzu – istak, iltimos, maslahat mazmunini bildirgan buyruq gaplar oxiriga: *O'zingga hush ko'rmagan narsani birovga ep bilma* (Maqol).

II. So'roq belgisi gap oxiriga qo'yiladi:

Qaysi yozuvchilarning asarlarini sevasiz? Avtor gapidan oldin kelgan ko'chirma gap so'roq gap bo'lsa, so'roq belgisi saqlanadi: *«Keyingi ishlar rejasini belgilab olganmisiz?» - deb so'radi Komila.*

III. Undov belgisi quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Undov gap oxiriga: *Aziz do'stlar, Navro'z bayramingiz muborak bo'lsin!* Ritorik so'roq gaplarda ta'sirchanlikni oshirish uchun so'roq belgisidan so'ng undov belgisi ham qo'yiladi: *Axir, Vatanim bepoyon, keng-ku! O'zim ta'lim olib, o'sib – ungan maktabda men ishlamasam, kim ishlaydi?!*

2. Buyruq mazmunini bildirib, kuchli ohang bilan aytiluvchi buyruq gap oxiriga: *Shon shuxratga intilishda ham, undan qochishda ham me'yorni saqlay biling!*

3. His - hayajon bilan aytilgan undalmadan keyin: *Aziz do'stim! Ertalabki dala shabadasi qanday orombaxsh!* (S.Nazir).

4. His - hayajon ma'nosini ifodalovchi undov va modal so'zlardan keyin: *Oxo! Qalay ekansiz?! Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa, birovga ur!* (H.H.) *Salom! Kirsam bo'ladimi?* (O').

5. Avtor gapidan oldin kelgan ko'chirma gapda ham undov belgisi saqlanadi: *«Tanklarni yondiringlar!» - deb qichqirdi Kutsenko* (I.R.)

IV. Ko'p nuqta tugal bo'lmagan yoki turli sabab bilan bo'lingan nutqning, shuningdek, qisqartirib olingan sitataning oxiriga qo'yiladi: *«G'iyosiddinlar xonadonida she'r va musiqa, ilm va fazl hukmron bo'lib, yosh Alisher mana shu musaffo muhitdan bahra olib o'sdi...» (A.Qayumov).*

V. Vergul quyidagi holatlarda qo'yiladi:

1. Uyushiq bo'laklarni o'zaro ajratish uchun: a) sanash ohangi bilan birikkan uyushiq bo'laklarni ajratish uchun: Do'stlik -xalqimizning xulqi, odati. b) zidlov bog'lovchilar bilan birikkan uyushiq bo'laklarda shu bog'lovchilardan oldin: *Mulozimlar uning yuvosh, lekin jussasi juda kelishgan yo'rg'a Qorabayr otini ko'ndalang qilishdi* (O.); v) takrorlangan bog'lovchidan oldin: *Husayn Bayqaro hazratlari ham shoir, ham ilmparvar emishlar* (O.)

2. Undalmani ajratish uchun: a) undalma gap boshida kelsa, undan keyin: *Aziz o'lkam O'zbekiston, aziz yoshing muborak!* b) undalma gap oxirida kelsa, undan oldin: *Sizni ilgariroq saylasak bo'larkan, Ashurali aka!* (H.G'.) *Sadoqat bilan xizmat qil, o'g'lim!* (H.G'.) v) undalma

gap ichida kelsa, har ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi: *Hech tashvish tortmagaysiz, oyi, men tinchman* (O.) *Gap shu, birodarlar, dushmanga, jabrga qarshi kurashga tayyorlanish kerak!* (O.)

3. Kirish so'z va kirish birikmani ajratish uchun: a) kirish so'z va kirish birikma gap boshida kelsa, undan keyin: *Demak, paxtadan yuqori hosil olishga butun kuch va imkoniyatlar muhayyo;* b) gap oxirida kelsa, undan oldin: *Ilmsiz, ma'rifatsiz yangi turmush qurib bo'lmaydi, albatta* (H.G'.) v) gap ichida kelsa, uning har ikki tomonidan vergul bilan ajratilinadi: *Maktabimiz o'quvchilari, mening eshitishimcha, olimpiada g'olibi bo'libdilar. Bunday operativchilik, ehtimol, bularning umrida birinchi marta bo'layotgan bo'lsa* (H.O)

4. Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklarni ajratib ko'rsatish uchun: a) ajratilgan aniqlovchilarda: *O'rik gulini eslatuvchi qor girdobidan qutilmoqchi bo'layotgandek elayotgan suvoriyning, Farg'ona yigitining, bor diqqati ilon izidek o'rmalagan yo'lda* (S.A.). b) ajratilgan izohlovchilarda: *Ustaning shogirdi, o'n to'rt yashar Yo'ldosh, deraza oldida o'tirardi* (O.) v) ajratilgan to'ldiruvchilarda: Bola taqlidchi bo'ladi: u sizga, o'z otasiga, taqlid qilishga harakat qiladi (S.Z.) g) ajratilgan hollarda: *Pastlikdan, qichqiriq tomondan esayotgan salqin shamol eshigimiz oldidagi o'rikning tilla rang barglarini shitir – shitir uzib uchiradi* (H.G'.) d) o'ram shaklidagi ajratilgan hollarda: *Qahraton qishda yalang oyoq muz bosib, saratonda qizg'in qum kechib, issiqda, sovuqda obdon pishgan yigitni ham kun xiyla betoqat qilgan edi* (O.)

5. Bog'langan qo'shma gaplarda: a) sodda gaplar zidlovchi bog'lovchilar yordamida biriksa, shu bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi: *Qovun pishmagan, lekin sap – sariq pishgan do'mboq - do'mboq handalaklar ko'p edi* (O.); b) yuklamalar, *bo'lsa, esa* so'zlari yordamida birikkan sodda gaplar orasiga vergul qo'yiladi: *Rajab bobo huzur qilib kuldi, Bodom xola bo'lsa iljaydi* (S.A.) v) ayiruvchi hamda inkor bog'lovchilari yordamida birikkan sodda gaplarda esa takrorlanib kelgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi: *Goh olislardan qizlarning sho'x yallalari eshitilar, goh bulbullarning yoqimli sayrashlari bizni maftun qilar edi* (O.)

6. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gapni bosh gapdan ajratish uchun: *Agarda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanib turilsa, dori ichishga muhtojlik qolmaydi.* (Abu Ali ibn Sino). *Odam nima yaxshi bo'lsa, shuni qilishi kerak* (O'.Umarbekov).

7. Bir necha ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplarni bir

– biridan, shuningdek, bosh gapdan ajratish uchun: *Garchi qoplasa ham o'lkani yong'in, Yozgan bo'lsa hamki o'lim qanotin, Garchi balo, ofat, dahshat, musibat yongan gulzorlarda chopsa ham otin, Men bahor qo'shig'in kuylayman dadil!* (U.)

8. Bog'lovchisiz birikkan qo'shma gap tarkibidagi bir paytda yoki ketma – ket bo'ladigan voqea - hodisalarni ifoda etuvchi sodda gaplarni ajratish uchun: *Bahodir xalqimiz g'alaba qildi, Yana izga tushdi farovon hayot* (Z.). *Hamma quvnoq, hammaning yuzida baxt balqib turibdi* (S.Z.)

9. Ko'chirma gap darak gap bo'lib, avtor gapidan oldin kelsa, qo'shtirnoqdan keyin vergul qo'yiladi: *«Siz haddan ziyod ko'ngilchan va olijanobsiz», - deb e'tiroz bildirdi Haydar qiziqqonlik bilan.*

VI. Nuqtali vergul bog'lovchiiz qo'shma ap tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan mustaqil bo'lsa yoki ular tarkibida vergul ishlatilgan sodda gaplar ishtirok etgan bo'lsa, ular orasiga qo'yiladi. Shuningdek, sodda gaplar tarkibida o'z ichiga vergul bilan ajratilgan bo'laklari mavjud bo'lgan uyushgan bo'laklar nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Dalalar ko'm – ko'k maysa bilan qoplangan, tok novdalari naycha kurtak otgandi; yo'l yoqasidagi daraxtlar yaproqchalar chiqargan, dengiz tomondan shabada esib qolgandi* (E.Xeminguey). *Qalandarovning so'zi va taklif o'tmaydi; unda raisning obro'yi tushadi.*

VII. Ikki nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin: *Ziyofatga Hirotning eng ilg'or kishilari: olimlar, shoirlar, hofizlar, mashshoqlar, hattotlar, mashhur hunarmandlar, muqovasozlar va egarsozlar to'planishgan edi.*

2. Bog'lovchisiz birikkan qo'shma gap tarkibidagi birinchi sodda gapning biror bo'lagini izohlagan, uning mazmunini to'ldirgan ikkinchi sodda gap oldidan: *Mehmon rost aytadi: odamning qimmati qilgan ishidan bilinadi.*

3. Ko'chirma gapdan oldin kelgan avtor gapidan so'ng: Navoiy o'z - o'ziga dedi: *«Kishilar qalbiga quvonch baxsh etmoq bizning asosiy vazifamizdir».*

VIII. Tire quyidagi o'rinarda qo'yiladi:

1. Ega bilan kesim orasiga: kesim ot, olmosh va son bilan ifodalanib, kesimlar qo'shimchasiz qo'llanganda: *Tinchlik – farovon hayot manbayi. Olti karra besh - o'ttiz. Odamning ziynati – donolik.;* b) ega yoki kesim harakat nomi bilan ifodalanganda: *Ozodlik mulkimizdir, hunarimiz – yaratish* (Z.) v) ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanganda, kesim kesimlik qo'shimchasini olmasa: *Yo'l vodiy tagida va yon bag'irlar bo'ylab*

joylashgan katta qishloqning ko'chalariga olib kiradi. Bu - Hamzabod qishlog'i.

2. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *Endi xo'jalik ustaxonalari, daladagi og'ir ishlar, sigir sog'ish, qo'yning junini qirqish - hammasi elektr bilan qilinadi* (I.R.).

3. Tarkibi keng bo'lgan yoki ichida vergul ishlatilgan ajratilgan bo'laklarda: *Denisov — dehqonlar orasida ko'p yurgan sobiq irrigator — sodda, odamshavanda, lekin talabchan, haqiqatchi edi* (O.).

4. Kiritma gapni ajratish uchun: *Qo'lga bazo'r ilinadigan kichkina qalam bilan — u bu qalamchani yer — ko'kka ishonmas edi — maxorka qog'ozlariga yozib, Yo'lchiga ruscha harflarni tanitdi* (O.).

5. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar: a) zidlik mazmunini anglatsa: *Kechasi sovuq - kunduzi issiq;* b) birinchi gap mazmuni ikkinchi gap mazmuniga o'xshatilsa: *Qor yog'di — don yog'di* (Maqol); v) birinchi gap ikkinchi gap kesimidan anglashilgan ish - harakat bajarilish natijasini yoki shartini bildirsa: *Ishning ko'zini bildala ham obod, choyxona ham.* (O.) *Odamlarni biriktir - har birining yuragida bo'ron qo'zg'aladi.* (O.) *Qo'shning tinch — sen tinch* (Maqol).

6. Ko'chirma gapdan keyin yoki uning o'rtasida kelgan avtor gapini ajratish uchun: *«Hamma gap mehnatda va tajribada», - dedi O'ktam* (O.) *«Borib ayting elchilarga, - dedi Mo'min Mirzo dadil, - men o'z og'am bilan jang qilmoqni aslo istamayman»* (O.)

7. Savol — javobdan iborat har bir luqmadan (replikadan) oldin:

- Huv, ana, ko'rayapsanmi? — Nimani? — *Gumbaz tepasidagi laylakning inini.* — *Ko'rayapman.* - *O'sha inda laylak bola ochadi.* - *O'sha inda-ya!* - *Ha ...*

IX. Qavs kiritma gapni ajratish, shuningdek, avtorning turlicha izohlarini ifodalash uchun ishlatiladi: *Qizil duxobaga o'ralgan daftarchaning jildiga (Qalandar buni keyin, madrasaga qaytgach ko'rdi) zar bilan shu satrlar bitilgan edi* (O.Yoqubov).

X. Qo'shtirnoq ko'chirma gapni avtor gapidan ajratish uchun ishlatiladi: *«O'rtoq Tursunoy Oxunova shu kishi bo'ladilar», - deb yosh juvonni bizga tanishtirdi* (H.N.). *U eshik oldida turgan soqchiga buyurdi: «Xotinlarni kiriting!»* Biror asardan aynan ko'chirilgan nutq parchalari (sitatalar) ajratib ko'rsatilgan so'z, terminlar, nomlar ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinadi: *«Xato qilmaydigan kishigina aqlli kishi bo'lavermaydi». Ilmiy konferensiyada «meva» tushunchasini ifodalovchi tarixiy nomlar haqidagi ma'ruza tinglandi. 1995-yili gazetada «saxiy» noshirlar to'g'risidagi tanqidiy maqola bosildi.*

1-mashq. Gaplarni o‘qing, tinish belgilarining qo‘yilish sababini izohlang.

1. Munofiqlik belgisi uchtadir: yolg‘on so‘zlash, va’daning ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish. 2. To‘g‘ri, Olim – mashhur rais, deputat, hammamiz uni hurmat qilamiz. 3. Adolatsizlik gardlarini kishi qalbidan yuvib tashlamoq - ulug‘ baxt! *(Sh.)* 4. Uning nazarida, har bir chanoq - baxt tabassumi, har bir tola - qon tomiri; u paxta bilan tirik, paxta - uning hayoti, paxta - uning kasbi, quvonchi. *(I.R)* 5. «Aziz otamizning fikrini, yo‘lini himoya qilmoq uchun, - dedi Sultonmurod bo‘g‘iq ovoz bilan, - qilichingizni mahkam tuting, bahodir!». *(O.)* 6. Shu payt qabulxonaga Qalandarovning qalin oshnasi – Ummat Nazarov kirib keldi. *(A.Q.)* 7. Maktabni, maktabdoshlarimni har qancha qo‘msasam ham, otamning ra’yini qaytara olmadim. *(P.Q.)* 8. Ana, jadvallarning yonida, burchakdagi javonda, Mirzo Ulug‘bekning olti jildli tarixiy asarlari yonida, Ali Qushchining ham kitoblari turibdi! *(O.Yo.)* 9. Bu – bizning chinakam mehnatimizning natijasi! 10. Erining xotirasi, bolalarining tarbiyasi, tinimsiz mehnati, yurt g‘amidan boshqa tashvishi yo‘q u muhtaramaning! *(H.G‘)* 11. Yomon, yaxshi ish yo‘q, hamma ish yaxshi! Bizda halol mehnat – odamning naqshi! *(U.)* 12. Anvarning hay-haylashiga qaramay, ko‘chaning o‘rtasiga tushib olib, qo‘l ko‘tardi, ammo mashinalar to‘xtamas, uni mayna qilganday, g‘izillab o‘tib ketardi. *(O‘.H.)* 13. Qodirjonning tinch uyqusidan (nisbatan tinch, chunki u uyquda ham fikr qilardi) mamnun ayol mehr to‘la ko‘zlarini undan uzib xona to‘riga o‘tadi-da, bahor va go‘zallik nishonalarini guldonga terish bilan band bo‘ladi. 14. Bu yerda, Potsdamdan, uncha uzoq bo‘lmagan Babelsbergda, o‘zining mo‘jazgina kottejida yakka o‘zi turardi; uning xizmatchisi bir hafta oldin toqqa - jiyaninikiga jo‘nab ketgan edi. 15. E’tiqod va muhabbat yonma-yon bo‘lgani ma’qul, biri - qalb, biri - qanot. *(Mirm.)* 16. Qora bulutlar tarqala boshlaydi, osmon ko‘m-ko‘k charaqlaydi, maysa, o‘t-o‘lanlar qaddini rostlaydi, daraxt shoxlari ilk barglarini chiqara boshlaydi.

2-mashq. Tinish belgilarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Iroda insonning qudrati sevishi va sevilishi nafrati va quvonchi vafosi va ishonchi demakdir. *(J.Abdullaxonov)* 2. Unga Vatanining ishi tushibdimi demak u yetuk fuqaro. *(H.G‘.)* 3. Bu o‘simliklarga doir qalingina kitob edi. *(O.)* 4. Oqshomdagina ko‘chalarda bog‘ va maydonlarda odam to‘lqini siyraklandi. *(O.)* 5. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib yurt tuprog‘iga chuqur tomir yoydirmog‘imiz va undan mo‘l hosil olmog‘imiz kerak.

(O.) 6. Olmalar anor-u anjirlar shaftoli behilar giloslar g'aynolilar noklar kamolga yetdi. *(H.G'.)* 7. Tashqari gullarga ko'milgan sadarayhonlar qashqargul va atirgullarning hidi havoda anqirdi. *(O.)* 8. Biz uchun suvi kulrang dengiz farzandlari uchun bu bir jonli afsona. 9. Mulla Abdulhay qulluq qiling yetti uxlab tushingizga kirmagan baxt qushi boshingizga qo'ndi. *(H.G'.)* 10. U bog'da maysalar ustida dars tayyorlar edi. *(Sh.)* 11. Baxtimizga shimoldan bir oz shamol esa boshladi. 12. Temurning ketidan mash'al olib kirdilar shu on uyning ichi yorishib ketdi. 13. A'lo mamlakatning a'lo farzandi Bilib qo'yki seni Vatan kutadi. *(G'.G'.)* 14. O'n gektar yerning atrofi jamoat binolari idora bog'cha maktab radiouzel va boshqalar bilan o'rab olingan. *(S.N.)* 15. Xayr o'g'lim oq yo'l bo'lsin Xayr ko'zim qorasi Bilkim jangda bilinadi Mard yigitning sarasi. *(H.O.)* 16. Qirg'iz O'roz belbog'iga mahkam chandib tugilgan bittagina so'lkavoyni kim biladi buni qachondan beri saqlab kelgan chiqarib sekingina tashladi. *(O.)* 17. Jismimiz yo'qolur o'chmas nomimiz. *(H.O.)* 18. Lekin shuni esda tutki shoshilish befoyda kechikish xavflidir.

3-mashq. Tinish belgilarini qo'yib, kerakli o'rinlarda kichik harfni bosh harf bilan almashtirib, gaplarni ko'chiring. Vergul, tire, qo'shtirnoqlarning ishlatilishini tushuntiring.

1. O'zbekning o'z xalqiga qilgan xizmati uning paxtachilik rivojiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi deya o'z so'zini dabdaba bilan tugalladi Halilov. *(I.R.)* 2. Mehmonlarga har nav shirinliklar pista bodom quruq mevalar juda mo'l-ko'l tortildi. *(O.)* 3. Komiljon bilan Tatyanani chaqiringlar dedi u qabulxonadagi xodimasiga. *(I.R.)* 4. Bularning oralarida shoiralar g'azalxonlar sozanda qiziqchi va raqqosalar bo'lardi. *(N.S.)* 5. Tog'da ham pastda ham qishloqda ham dalada ham hamma yerda fidokorona mehnat tantana qilardi. 6. Kitob sehrli ko'zgu borliq unda namoyon. *(J.Jabborov)* 7. Vatan tinch sen tinch. *(Maqol)* 8. Mehnatni Vatanni hayotni sevish uning oddiy xislatlaridan. *(U.)* 9. Atrofni qurshagan tog'lar qirlar daraxtlar hamma narsa bahor havosiga cho'milganday tiniq yam-yashil ko'rinadi. *(H.N.)* 10. Uning ajoyib bir gapi bor inson doimo ilmga intiladi ilmga bo'lgan tashnalik so'nishi bilan u insonlikdan chiqadi. 11. Suv yer elektr bular hayot bahoriga yangi go'zallik va yangi nash'a bag'ishlovchi kuchlar edi. *(O.)* 12. Shuni yaxshi bilingki Sobir Umarovich sizning joningiz xalq uchun davlat uchun kerak. *(Ya.)* 13. Sizdan o'rtoq To'raboyev talabim shu! 14. Otashin shoirimiz Hamid Olimjon men xalqimning yuragida yashayman deb yozganida to'la haqli edi. 15. Diling oq niyating xolis rahmdilsan, do'stim.

4-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarni va harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib, ifodali o‘qing.

SHUNDAY YASHAR ODATDA ODAM

Yo‘q kerakmas q...ying kerakmas
Menga orom istamang do‘s...lar
Xilvat soz de... qistamang do‘s...lar
Qo‘ying ...unday orom kerakmas
Noga...onda xayolga botsam
Yo u...lasam uyg‘...ting darrov
Nomim tutib so‘z qoting darrov
Be...udaga bir yoq...a borsam
Qo‘llarimdan ushla... o‘shal dam
Q...rashlarning sa...iga qo‘shing
Q...r yarat deng hayqir deng j...sh deng
Shunday yashar odatda odam

(A.Oripov)

Ko‘chirma gapda tinish belgilarining qo‘llanilishi

96-§ Ko‘chirma gaplar doim qo‘shtirnoq ichida yoziladi. Avtor gapi ko‘chirma gapdan oldin kelsa, avtor gapidan keyin ikki nuqta qo‘yiladi. Ko‘chirma gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi: *U mendan so‘radi: «Xushxat ekansan. Hisobni bilasanmi?» (O.)*

Ko‘chirma gap avtor gapidan oldin kelsa, ko‘chirma gapdan so‘ng vergul va tire qo‘yiladi: *«Ochiqchasiga gaplashaylik»,- dedi Nafisa. (As.M.)*

Agar ko‘chirma gap mazmunidan his-hayajon yoki so‘roq anglashilsa, so‘roq va undov belgilaridan so‘ng qo‘shtinoq qo‘yiladi, ko‘chirma gapdan so‘ng esa tire qo‘yib yoziladi: *«Nega yalang oyoq yuribsan?» - deb qulog‘iga pichirladi. (As.M.) «Rahmat sizga, mehribon o‘qituvchilarimiz!» - dedik barchamiz.*

Avtor gapi ko‘chirma gap o‘rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo‘yiladi:

a) ko‘chirma gapning uzilgan qismida vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta qo‘yilgan bo‘lsa yoki hech qanday tinish belgilari bo‘lmasa, avtor gapi har ikki tomonidan vergul va tire bilan ajratib yoziladi: *«Yefim tog‘am,- dedi Po‘latjon, - hamma vaqt bayroqdor bo‘lganlar». (H.N.) «Aka, - dedi hammani og‘ziga qaratib, - samolyotdan meni ko‘rdingizmi?»*

(H.N.) «Qo'rqma, o'zim yordamlashaman, - deb dalda berdi Kolya, o'zing yaqinda bu yerga kelasan» (H.N.)

b) ikki sodda gapdan tuzilgan ko'chirma gapning birinchisidan so'ng nuqta qo'yilgan bo'lsa, avtor gapidan oldin vergul va tire, undan keyin esa nuqta va tire qo'yiladi. Ko'chirma gapning davomi bosh harf bilan yoziladi: *«Mana shu bo'rsiq Mirzacho'lda yakkalanib qolgan hayvonlarning eng oxirgisi, - deb ta'kidladi bobom. – Mening nomimdan hayvonot bog'iga berib yubor.» (G'ayratiy)*

v) agar ko'chirma gapning uzilgan yeridan so'roq yoki undov belgisi qo'yilgan bo'lsa, avtor gapidan oldin tire, avtor gapidan keyin esa nuqta va tire qo'yiladi. Ko'chirma gapning davomi bosh harf bilan yoziladi: *«Tavba! – dedi Avaz. – Ertalab ayiqni alday olmagan odam endi meni aldamoqchi bo'lasiz. (P.Q.) «Falanga shumi? – deb so'radi bir bola. – Juda xunuk bo'lar ekan». (Yo.Sh.)*

Ko'chirma gap avtor gapi orasida kelsa, avtor gapining uzilib qolgan qismidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi; ko'chirma gap bosh harf bilan yozilib, qo'shtirnoq ichiga olinadi. Ko'chirma gapdan keyin vergul va tire qo'yilib, avtor gapining davomi yoziladi: *Qalandarov bosh silkib, «Zulfiqorov yaxshi boshliq», - dedi.*

Ko'chirma va avtor gaplarning turlicha o'rinlashishiga qarab, tinish belgilarining ishlatilishini chizma bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin: (avtor gapi *A*, ko'chirma gap *K* harfi bilan ko'rsatiladi.)

1. AK:

[ ] : « [ ] !»
[ ] : « [ ] ?»
[ ] : « [ ] «.

2. KA:

« [ ] !»-: [ ] .
« [ ] ?» -: [ ] .
« [ ] »,-: [ ] .

3. KAK:

« [ ] !-. [ ] ,- [ ] ».
« [ ] ?-: [ ] ,- [ ] ».
« [ ] ,-: [ ] ,- [ ] »

4. AKA:

[redacted]: «[redacted]!»-: [redacted].
[redacted]: «[redacted]?»-: [redacted].
[redacted]: «[redacted]»,-: [redacted].

5–mashq. Gaplarni o'qing. Tinish belgilarining qo'yilishini izohlang.

1. Shodmon aka kulib dedi: «Chirchiq, Bekobod shaharlariga borsangiz, og'zingiz ochilib qoladi. *(Yo.Sh)* 2. «Eng og'ir kunlarda ham yaylovdan kechmaganman, endi tashlab ketarmidim», - deb javob berdi Yo'ldosh bobo. *(Yo.Sh.)* 3. Poda shov-shuvi ichida Polvon otaning : «Qo'rqma, chirog'im, polvonning qo'lidan mol bo'tasi qochib qutulgan emas», - degan ovozi eshitildi. 4. «Rahmat, direktor buva», - deganicha bola yana chopib ketdi. *(Sh.)* 5. Onam buvimga qarab dedi: «Qo'ying, o'qisin, mulla bo'lsin bolam». *(O.)* 6. «Kechikdingiz, do'stim, - dedi Karim tantana bilan, - men qovun uchun yer hozirladim». 7. «Ma, buni tik, - dedi u yaktagini yechib, - ma». *(A.Q.)*

6-mashq. Ko'chirma gap va avtor gapini aniqlab, tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Barno uzr so'raganday, ovozini pasaytirib dedi endi sizning gaplaringizga quloq solaman. *(H.N.)* 2. Ha dedi Nafisa qat'iy qilib aytmoqchi emas edim endi aytadigan bo'ldim. *(As.M.)* 3. Bu haqiqat! dedi Orif aka. *(As.M)* 4. Azimjon, kun tig'iga qolmay yo'lga chiqib olaylik! dedi Ochil buva mashina tomon yurib. *(As.M.)*

5. Adabiyot gap boshladi,
Yangi fikr axtarib;
Men darslarning burrosiman
Der darrovdan maqtanib. *(P.M.)*

6. «Ona tili» turib dedi o'z tilini bilmay turib, Bilish qiyin boshqani. *(P.M.)* 7. Bu o'ljalar dedi Olimov bolalarini tinchitib maktab biologiya kabinetiga kerak. *(H.N.)* 8. Men ham, birodar, sendan qolishmaydigan bo'laman derdi u Karpovichning suratiga qarab. *(B.P.)* 9. Endi dam olamiz dedi Bektemir Zinaning sovuq, oqargan yuzini silab. *(O.)* 10. Bunkerni qisqa bog'lang deb buyurdi Komila. *(As.M.)*

7-mashq. Nuqtalar o‘rniga o‘zingiz avtor gapini qo‘yib chiqing va tinish belgilarini belgilab, gaplarni ko‘chiring.

1. Sinfimiz o‘quvchilari sport musobaqalarida birinchi o‘rinni egalladilar. 2. Bizga choy keltirib bersangiz... . *(Yo.Sh.)* 3. Qirg‘ovul bilan bedana ... hech qachon tushgan joyida turmaydi. *(Yo.Sh.)* 4. Sizlar bimetall plastinkani o‘qigansizlar, yodlaringizdami?... *(Yo.Sh.)* 5. To‘g‘ri, bizning xo‘jalik bu yil planni ortig‘i bilan bajarishni mo‘ljallagan ... . G‘o‘zamizning cho‘g‘i yaxshi. *(Yo.Sh.)*

8-mashq. Ko‘chirma gap va avtor gapi («K»., -A.) shaklida tuzilgan misollarni, avtor gapi va ko‘chirma gap (A: «K».) shakliga keltirib, tinish belgilariga rioya qilib ko‘chiring.

1. «Men maymunjon tergani shu yergacha kelgan edim», - dedi Qo‘ziboy. *(H.N.)* 2. «Qani, ukajonlar ashulani to‘xtatmanglar», - dedi Marhamat. *(H.N.)* 3. «Arilarning g‘ashiga tega ko‘rmanglar, bir yopishsa qo‘ymaydi», - deb ogohlantirdi Olimov. *(H.N.)* 4. «Ota, qayergacha quvib bordingiz?» - dedi Haydarov cholning gaplarini tez-tez yozib borar ekan. *(S.Ahmad.)*

9-mashq. 208-mashqdagi birinchi va ikkinchi misollardagi ko‘chirma gaplarni avtor gapi orasiga olib, (A:«K»,-A shaklida) uchinchi va to‘rtinchi misollardagi avtor gapini ko‘chirma gap orasiga olib, («K»,-A.—«K» shaklida) ko‘chiring. Tinish belgilariga rioya qiling.

Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari 129
SIFAT 131
Asliy va nisbiy sifatlar 133
Sifat darajalari 134
Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari 134
SON 139
Sonlarning ma'no turlari 141
Sonning tuzilishiga ko'ra turlari 143
OLMOSH 144
Olmoshlarning ma'no turlari 144
RAVISH 150
Ravishlarning ma'noga ko'ra turlari 150
Ravishlarning yasalishi 152
Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari 153
FE'L 154
Fe'llarning yasalishi 155
Sintaktik usul bilan fe'l yasash 155
O'timli va o'timsiz fe'llar 156
Fe'l nisbatlari 158
Fe'l mayllari 160
Fe'llarda shaxs-son 162
To'liqsiz fe'l 170
Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi 171
Fe'lning vazifadosh shakllari 173
Sifatdosh 173
Harakat nomi 177
YORDAMCHI SO'ZLAR TURKUMI 180
BOG'LOVCHILAR 180
KO'MAKCHILAR 183
Ko'makchilarning qo'llanishi 184
YUKLAMALAR 186
Yuklamalarning tuzilishiga ko'ra turlari 187
ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR TURKUMI 188
MODAL SO'ZLAR 188
UNDOV SO'ZLAR 190
TAQLID SO'ZLAR 191
S I N T A K S I S 192
TENGLANISH VA TOBELANISH 195
SO'Z BIRIKMASI 199
GAP 202
GAPLARNING KUZATILGAN MAQSADGA KO'RA TURLARI 203

Darak gaplar 204
So'roq gaplar 205
Buyruq gaplar 207
GAPLARNING HIS-HAYAJONGA KO'RA TURLARI 209
GAPLARNING MODALLIKKA KO'RA TURLARI 211
GAP BO'LAKLARI 212
Ega va uning ifodalanishi 213
Kesim, uning ifodalanishi va turlari 215
GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI 221
Aniqlovchi, uning ifodalanishi va turlari 222
Izohlovchilar, ularning turlari 225
To'ldiruvchi, uning ifodalanishi va turlari 228
Hol, uning ifodalanishi va turlari 231
BIR SOSTAVLI GAPLAR 239
UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR 246
UNDALMALI GAPLAR 250
KIRISH VA KIRITMA QURILMALI GAPLAR 253
"SODDA GAP SINTAKSISI" BO'LIMINI TAKRORLASH UCHUN MASHQLAR 255
QO'SHMA GAPLAR 258
BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR 260
Bog'langan qo'shma gaplarning yordamchilarsiz birikishi 266
ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR 267
Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar 270
To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar 271
Ravish ergash gapli qo'shma gaplar 272
Sabab ergash gapli qo'shma gaplar 278
Maqsad ergash gapli qo'shma gap 279
Shart ergash gapli qo'shma gaplar 280
To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar 282
Natija ergash gapli qo'shma gaplar 283
Ergashgan qo'shma gaplarning yordamchilarsiz birikishi 285
QO'SHMA GAPLARNING MURAKKAB TURI 287
PUNKTUATSIYA 289
Tinish belgilarining ishlatilishi 289

**M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev,
D. Muhamedova**

O'ZBEK TILI PRAKTIKUMI

Muharrir H.Teshaboyev
Texnik muharrir D. Abdusattorov

Bosishga ruxsat etildi 10.11.2006. Qog'oz bichimi 60x84. 1/16
Hisob nashr tabog'i 19. b.t. Adadi - 2000 nusxa.
Buyurtma raqami № 125

«IQTISOD-MOLİYA» nashriyoti,
700084, Toshkent, H. Asomov ko'chasi, 7-uy.

Hisob-shartnoma №39-2006

«FAN VA TEXNOLOGIYALAR» markazining bosmaxonasi
700003, Toshkent, Olmazor ko'chasi, 171-uy.